

T.F. QODIROVA

SAN'AT, ARXITEKTURA VA SHAHARSOZLIK TARIXI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

T. F. QODIROVA

SAN‘AT, ARXITEKTURA VA SHAHARSOZLIK TARIXI

(O‘zbekistonning XX asr – XXI asr boshi zamonaviy arxitekturasi)

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan 5580100 – «Arxitektura» yo‘nalishi talabalari uchun
darslik sifatida tavsiya etilgan*

***Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2012***

УДК: 72(09)

КБК 85.1

K15

Qodirova, T.F

K15 San'at, arxitektura va shaharsozlik tarixi (XX asr – XXI asr boshi): arxitektura yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari bakalavriyatlari uchun darslik/T.F Qodirova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 240 b.

ISBN 978-9943-05-508-7

Darslikda zamonaviy arxitektura va shaharsozlik: shaharlarning qayta tiklanishi, turar-joy va jamoat binolari, arxitektura yodgorliklari va arxitekturaviy majmualar, muhandislik inshootlarining shakllanishi va tarixi yoritilgan. Shuningdek, mustaqillik yillarida yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda bunyodkorlik arxitekturasi ilg'or yo'nalishlariga alohida e'tibor berilgan.

Darslikning asosiy maqsadi – talabalarning kurs va diplom ishlarini ishlab chiqishda zamonaviy arxitektura va shaharsozlikdagi nazariy yo'nalish va tajribalarni chuqur egallab, o'z loyihalarini mustaqil hal etish uchun maxsus ma'lumotlar bilan boyitish va kasbiy salohiyatini yuksaltirishdan iborat.

Mazkur darslik Oliy o'quv yurtlarining arxitektura yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

УДК: 72(09)

КБК 85.1

ISBN 978-9943-05-508-7

**NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI**

Ahborot-resurs markazi

© T. Qodirova, 2012

© Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012

21067/1

KIRISH

O'zbekiston — qadimgi tamaddun, boy madaniy meros va yuksak arxitektura an'alariga ega mamlakat. Uning ko'plab katta va kichik shaharlarining yoshi ming yillarni tashkil etadi. O'zbekiston hukumati va YUNESKO qarori bilan 1997-yilda Buxoro va Xivaning 2500 yilligi, 2001 yilda Termezning 2500 yilligi, 2006 yilda Qarshining 2700 yilligi, 2007 yilda Samarqandning 2750 yilligi, 2009 yilda esa Toshkentning 2200 yilligi tantana qilindi!

Shu o'rinda yurtboshimizning so'zlari beihtiyor dildan kechadi:

«Milliy o'zini anglash, kerak bo'lsa milliy g'urning qayta tiklanishi va rivojlanishi jarayonida tarixiy obidalar, xalqning, ona diyorning, hududning xolisona, haqqoniy qayta tiklanishi mutlaqo muhim o'rin tutadi» (I.A. Karimov).

Bunyodkor o'zbek xalqiga unut bo'lgan tarixiy obidalari qaytarilmoqda. Sho'rolar davrida ular yo'qotib yuborishga mahkum etilgan edi. Milliy madaniyatimiz durdonalariga nisbatan olib borilgan ikkiyuzlamachilik siyosati hamma joyda ko'zga tashlanardi — hatto qadimgi g'ishtlardan foydalanish maqsadida ko'plab yodgorliklar buzib tashlandi, huvillab qolgan madrasa va masjidlarning ko'pchiligi omborlarga, idoralarga shuningdek qamoqxonalariga aylantirilgan edi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, madaniy merosni muhofaza qilish, arxitektura yodgorliklari qayta tiklash, tarixiy shaharlardagi obidalarini ta'mirlash ishlari davlat siyosati doirasida amalga oshirildi. Samarqanddagi Amir Temur jome masjidi va Buxorodagi Minorai Kalon, Termizdagi Sulton Saodat qadamjoy dahmasi va Samarqanddagi Shohi Zinda maqbarasi o'z arxitekturaviy jilvasi bilan yana kishilarni hayratga solmoqda.

Shahrisabz, Xiva, Qo'qon, Toshkent, Termiz, Navoiy va Karmada katta ta'mirlash ishlari olib borildi. Butun bashariyat uchun qimmatli hisoblangan Samarqand, Shahrisabz, Buxoro va Xiva singari

I BOB

IKKI DAVR YOQASIDA: YEMIRILISH VA VUJUDGA KELISH

(1900–1941-yy.)

Merosga bir nazar. Hozirgi O‘zbekiston hududi azaldan Sharq va G‘arb chorrahasida joylashgan, undan Yevropani Osiyo bilan va Osiyoni shimoliy Afrika bilan bog‘lovchi asosiy karvon yo‘llari o‘tgan.

O‘zbekiston arxitekturasi bir necha ming yillik tarixi kam o‘rganilgan. Faqat O‘zbekiston milliy madaniyatining rivojlanishi bilan tarixiy o‘tmishi izchil o‘rganila boshlandi, hatto jonsiz qumlar qa‘ridan qadimgi shaharlar qoldiqlari topildi.

O‘zbekiston hududida o‘tkazilgan arxeologik qazilmalar paytida topilgan ash‘yolar shuni ko‘rsatdiki, neolitning dastlabki davridayoq chorvadorlar bilan qo‘shnichilikda yashagan ibtidoiy qabilalari, dehqonchilik, qurilish ishlari va boshqa ko‘plab hunarlar bilan shug‘ullanganlar. Sersuv Sirdaryo va Amudaryo yuvib turadigan hosildor vodiylarda istiqomat qilgan odamlar qadim zamonlarda sug‘orish dehqonchiligini, sun‘iy sug‘orishni bilganlar. Bu yerda o‘ziga xos madaniyatga ega shaharlar vujudga kelgan va gullab-yashnagan. Baqtriya (Amudaryo havzasi va uning yuqori va o‘rta oqimidagi yerlar), Sug‘d yoki Sug‘diyona (Zarafshon va Qashqadaryo havzasi), Xorazm (Amudaryo va Orololdi deltasi) singari shaharlar nomlari eramizgacha I ming yillik qadimgi eron va yunon manbaalaridan qayd etilgan. Bularga Parkano (Farg‘ona vodiysi) va Choch yoki Shosh (Toshkent) vohasini ham kiritish mumkin. Ularning barchasi rivojlangan qadimgi tamaddun hududlari bo‘lgan.

O‘zbekistonning qadimgi shaharlari Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qarshi, Toshkent o‘z yoshlarini ming yilliklar bilan hisob qiladilar, ular turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda rivojlangan. Ular Ahmoniylar bosqini, Iskandar Zulqarnayn qo‘shinlari istilosini boshdan o‘tkazgan, Qushon saltanati (Surxondaryo, Xorazm, Qashqadaryo) tarkibiga kirgan, arablar, Somoniylar, Faznaviylar, Qoraxoniylar davlatlari davrida rivojlangan. Chingizxon galalari bu shaharlarni bosib olib, yer bilan yakson qilganlar. Bu mintaqa xalqiga shafqatsiz

istilochilar yetkazgan jarohatlarni bitirish uchun asrlar kerak bo'lgan. Ilaqat XIV asrning birinchi yarmidagina vayron bo'lgan shahar va qishloqlar asta-sekin qayta tiklana boshlagan.

Buyuk ajdodimiz Sohibqiron Amir Temur davrida bunyodkorlik ishlari keng quloch yoydi. Ayniqsa saltanat poytaxti Samarqand misli-siz darajada gurkirab rivojlandi. Temuriylarning yangi shahri janubga, o'sha vaqtda huvillab yotgan Afrosiyob tomonga cho'zilgan, unda qal'a va istehkom devorlari tiklangan, ko'chalar qurilgan, masjid va madrasalarning ulug'vor majmualari vujudga kelgan, saroylar hamda dang'illama imoratlar, bozorlar va boshqa binolar qad ko'targan.

O'rta Osiyo shaharsozlik madaniyatining taraqqiy etish butun XV asr mobaynida, ayniqsa Amir Temurning nabirasi Ulug'bek davrida ham davom etdi. Tarix sahnasiga Shayboniylar (XVI asr) va Ashtarxoniyalar (XVII–XVIII asr boshlari) sulolalari kelgach, arxitektura qurilish ishlari Buxoro, Samarqand, Karmana va Toshkent singari yirik shaharlarda avj olgan.

Oldi peshtoqli, burchaklarida minoralar qad ko'targan, chorak yoki to'g'ri burchakli hovlisi bo'lgan madrasalar qurilgan, ularning gir aylanasida mehrobsimon arkchalar, ayvonchalar va hujralar saf tortgan, hovlining boshi hamda oxirida qubbasimon ayvonlar bo'lgan, burchaklarda esa keng darsxonalar joylashgan (Samarqanddagi Sherdor va Tillakori madrasalari, Buxorodagi Ko'kaldosh, Abdulazizxon va Qo'sh madrasa madrasalari, Toshkentdagi Baroqxon va Ko'kaldosh madrasalari).

XVIII asr o'rtalarida Buxoro, Qo'qon va Xiva xonliklari vujudga keldi. Me'moriy obidalari boy Xiva o'ziga xos shahar bo'lib, Xiva xonligining poytaxti edi. Bu shaharning qadimiy yodgorliklar orasida Toshhovli saroyi (1830–38-yy.), Muhammad Aminxon madrasasi (1851–55-yy.), Kaltaminor (1855-y.) va boshqalar yaqqol ajralib turadi.

XIX–XX asr o'zbek xalqi turar-joy binolari, arxitekturasi katta qiziqish uyg'otadi. Unda xalqning murakkab tabiiy-iqlimli sharoitlarda orttirilgan va respublikaning alohida tuman hamda shaharlari mahalliy xususiyatlarini aks ettiruvchi ko'pasrlk tajribasi mujassam topgan.

O'zbekiston arxitekturasiining antik davrdan XX asrgacha bo'lgan tarixini yoritishga bag'ishlagan G. Pugachenkova, L. Rempel, B. Zasiqin, L. Voronin, V. Nilsen, M. Bulatov, P. Zohidov, L. Mankovskaya, I. Notkin, M. Ahmedov, D. Nozilov, A. O'rolov, I. Azimov, B. Usmonov, M. Yusupova, O. Salimovalarning tadqiqotlari va ilmiy ishlari diqqatga sazovordir.

1.1. Mustamlaka o'lkasi arxitekturasi

Hozirgi O'zbekiston hududini o'z ichiga olgan O'rta Osiyo XIX asrning ikkinchi yarmida mustamlaka sifatida Turkiston general-gubernatorligi bo'lib, podsho Rossiyasi tarkibiga kiritilgan edi.

XX asr O'zbekiston arxitekturasi turmushining barcha sohalarida sodir bo'lgan chuqur o'zgarishlari va tarixiy evrilishlar asnosida sodir bo'ldi. Bu qattiq mehnat va kurash yillari edi hamda ular yangi davr arxitekturasi tiklanishi va rivojlanishiga bevosita va jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Shaharlar, binolar va inshootlarning tahliliga, mustamlaka davr arxitekturasi yetuk arxitektorlari ijodiga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar mavjud. Bular G. Chabrov, V. Voronina, K. Babiyeyskiy va T. Qodirova, Sh. Asqarov, A. Ziyoyev va boshqalarning ilmiy ishlaridir.

V. Nilsenning «У истоков современного градостроительства Узбекистана (XIX – нач. XX вв.)» kitobida butun mintaqa shaharlarining rivojlanish davri daliliy ashyolar va adabiy manbalar asosida yoritib berilgan. Ushbu davr bo'yicha M. Yusupovning «Полвека трансформации архитектуры Узбекистана конца XIX – начало XX вв. (на принципе «Новых городов» Ферганской долины конца XIX – начала XX вв.)» nomli tadqiqoti (2005-y.) diqqatga sazovor. Muallif ko'plab arxiv materiallari asosida XIX asrning oxiri – XX asr boshi Farg'ona vodiysining olti shahri yangi qismlarining shaharsozlik san'ati va arxitekturasi tahlil etadi. Shaharlarning reja ko'rinishidagi suvratlari, turar-joy va jamoat binolari rejalari, asliyatdan olingan rangli fotosuvratlar qiziqish uyg'otadi

Mustamlaka davr arxitekturasi anglash zarur, chunki bu shunday daliliy asos va arxitekturaviy tagzaminki, u O'zbekistonning zamonaviy shaharlari qiyofasida chuqur iz qoldirgan.

Zamonaviy bosqichda shaharlar va ularning markazlarini qayta tiklashda arxitektura rivojlanishining umumiy an'analari bevosita ahamiyat kasb etadi. Rus muhandis va arxitektorlari Farg'ona yo'nalishi, Kogon, Toshkent, Samarqand, Andijon kabi tarixiy shaharlarning yangi qismlarini loyihalashtirganlar. Tarixiy shaharlarning loyihalari izchil rejalashtirish tamoyillariga asoslangan. Xususan, to'g'ri va obod ko'chalar, bog' va xiyobonlari bunyod etilgan, ariqlar o'tkazilgan, yo'llarga tosh to'shalgan. Bu shaharlarning rejasi markazida, odatda, jamoatchilik maydoni joylashgan. Shaharni obodonlashtirishda ham sezilarli taraqqiyot kuzatilgan.

1.2. Qadimgi shahar tarkibida ikki tuzilmaning vujudga kelishi

Mustamlakachilik siyosati natijasida qadimgi shahar tarkibida ikki tuzilmaning tashkil topishini Toshkent va Samarqand misolida ifoda etish mumkin. Bu davrda Toshkent ko'pchilik qadimgi shaharlar kabi o'ziga xos tuzilmaga ega istehkom inshootlari bo'lgan devor bilan qurshalgan edi. To'g'ri yo'llar shahar darvozalaridan (ular 12 ta bo'lgan) qal'a va Shahristonda joylashgan bozorga olib borgan. Eski shaharning markazida Xo'ja Ahror (XV asr) masjidi va madrasasi joylashgan, uning yonida esa moviy qubba Ko'kaldosh madrasasi (XVI asr) qad ko'targan va ziyoratgohlar tiklangan.

Asr boshida tomi yassi va devorlari sinchdan tiklangan hunarmandchilik ustaxonalari, savdo rastalari, mahalla masjidlari, choyxonalar va boshqa binolar Toshkent shahsining ko'rkamligini ifodalangan.

Eski Toshkent bilan bir qatorda Bo'zsuv Anhor arig'ining chap qirg'og'ida yangi shahar barpo etildi. U Qo'qon o'rdasi va unga tutash hududda qad ko'targandi.

Bir oz vaqt shahar hududini kengaytirish ishlari boshlab yuborildi. Chovliorti deb ataladigan sharqiy qismni o'zlashtirish yelpug'ichsimon rejada hal etilgan. Shaharning yangi qismi yagona rejaviy usuldagi bosh markaz (hozirda Mustaqillik maydoni) va ko'chalardan iborat bo'lgan.

Ma'muriy-ijtimoiy markaz qurilishiga alohida e'tibor qaratilgan, uning tarkibiga general-gubernator qarorgohi (Oq uy), Spas-Preobrajenskiy jomesi va qo'ng'iroqxona kirgan. Maydonga kelib tutashgan Chernyayevskaya ko'chasi (hozirda Sh. Rashidov xiyoboni)da amaldorlar uchun turar-joy uylari qurilgan, g'arbiy tomonida esa bog'lar tashkil etilib ko'kalamzorlashtirilgan. Bu yashil maydon yangi shaharni eski shahardan ajratib turgan.

XX asr boshiga kelib, «yangi» shahar umumiy shahar markazi bo'lgan to'g'ri chiziqli aylanma reja bilan shakllantirilgan edi (M. Kolesnikov va A. Makarov loyihasi).

To'rt rejaviy hudud – Jome maydoni majmui (hozirda Sayilgoh), hukumat muassasalari majmui (hozirda Mustaqillik maydoni hududi), Konstantinovskiy xiyoboni majmui, Amir Temur xiyoboni, bir guruh jamoat va madaniy-tomosha binolari va bozor maydoni (hozirda Buyuk Turon ko'chasi va Alisher Navoiy nomidagi teatr oldidagi maydon)



**Toshkentning tarixiy darvozalarini qayta tiklash
bo'yicha bitiruv ishi— loyiha taklifi
(Beshyog'och, Kamolon, Labzak darvozalari misolida).**

mustamlaka davri Toshkentning umumiy shahar markazi asosini tashkil etgan.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Samarqand mukammal arxitekturaviy rejayivi tuzilmaga ega edi. Unda asosan turar-joy mahallalari va guzarlaridan iborat bog'-rog'li obod hudud ko'zga yaqqol tashlanadi. Har bir guzarda masjid, choyxona, do'konlar qad ko'targan bo'lib, ular, odatda, oqar suvli hovuz atrofini qurshab turgan.

Shaharning markazi Ark devorlari bilan o'ralgan bo'lib, u yer hukmdorlarning rasmiy qarorgohlari hisoblangan. Davlatining boshqa-



**Ikki strukturalik «eski» va «yangi» Toshkent rejasi,
1914-y. (A.A. Ziyayev, 2009-y.).**

ruvi muassasalari ham shu yerda joylashgan. Ark bilan yonma-yon shaharning «kumush rastalar» deb atalgan tadbirkorlar va hunarmandlar markazi joylashgan.

Savdo markazi bevosita Siyob bozorida va Savdo (hozirgi Toshkent) ko'chasida joylashgan. Registon majmui diniy-ijtimoiy markaz bo'lgan. Bu barcha majmualar shaharning bosh yo'llar yoqalarida yoki chorrahalarida joylashgan edi.

Umuman, tarixiy shahar topografiyasi rivojlanishi tahlili va odatiy manbalar shundan dalolat beradiki, avval Afrosiyob tepaligida yuzaga kelib, Samarqand asta-sekin o'sa borishi barobarida unga tutash joylarni ham egallab olgan.

Kaspiyorti temir yo'li qurilib, O'rta Osiyoning Rossiyaga chiqishiga yo'l ochilgach, shahar tez rivojlana boshladi, bu Samarqandning iqtisodiy rivojlanishi uchun katta ahamiyat kasb etdi.

O'rta Osiyoning barcha qadimgi shaharlari kabi Samarqand markazi XX asr boshiga kelib, ikki — «eski» va «yangi» qismlardan tashkil topdi.

Ularni Abramov xiyoboni (hozirda Universitet bog'i) bog'lab turadi. Qator ma'muriy binolar qad ko'tardi.

1.3. Yangi binolar tipologiyasi


Yangi binolar tipologiyasi qadimgi shaharlarning «yangi» qismlariga xosdir.

Kaspiyorti (1899-y.), keyinroq esa Orenburg (1906-y.) temir yo‘lining qurilishi Rossiyaning Yevropa qismi bilan aloqalarni rivojlanishiga hamda o‘lka ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan mahsulotlarning xususan, Rossiyadan yog‘och, ma‘dan, shisha kabi qurilish ashyolarining keltirilishiga zamin yaratdi. Ruscha namunadagi g‘ishtlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi.

Asosan, devorlari qalin pishiq g‘ishtdan va to‘siq-shinaklari bo‘lgan binolar qurilgan, ular zilzilaga bardoshli bo‘lib, devorlari suvoqsiz koshindor g‘ishtlardan tiklangan. Binolar zalvoriligi bilan ajralib turgan, arxitekturasi esa ko‘p hollarda turli uslublar qorishig‘idan iborat bo‘lgan. Shu bilan birga XIX asrning oxiri – XX asr boshida ayrim arxitektorlar ijodi o‘zining yuksak mahorat darajasi bilan diqqatni tortadi. Arxitektor va muhandislar, xususan, Toshkentdagi qator jamoat binolari mualliflari V. Geynselman, A. Benua, I. Lexanovlarning hissaları katta bo‘lgan. Fuqaro muhandisi V. Geynselman loyihasi bo‘yicha Davlat banki (1987-y.), Toshkent rasadxonasi (1880-y.), Real bilim yurti (hozirda Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi) va Toshkentning boshqa jamoat binolari qurilgan. Uning loyihasi bo‘yicha buyuk knyaz Nikolay Romanov saroyi (1883–1891-yy.) barpo etilgan (hozirda Tashqi ishlar vazirligining qabulxonasi), u o‘rta asr qal‘asini esga soladi. Keyinchalik arxitektor L. Benua loyihasi bo‘yicha unga minoralar, bostirmali koshonalar qo‘shilgan va hokazo.

G. Svarichevskiy, K. Tiltin, L. Voronin singari malakali arxitektorlarning loyihalashda va qurilishda ishtirok etishlari O‘rta Osiyoga Yevropa arxitekturaviy yo‘nalish madaniyatining kirib kelishiga imkon berdi. Rus arxitektorlari va quruvchilari mahalliy qurilish ashyolaridan, shuningdek o‘zbek xalqi me‘morchiligining ayrim kompozision usullaridan foydalanishga intilganlar va shu tariqa mahalliy namunalarni olib kirganlar.

Mustamlakachilik siyosati natijasida qo‘sh tuzilmali shahar: yangi va eski Toshkent, yangi hamda eski Samarqandning vujudga kelishi na umumiy kompozision tarh bilan va na qurilish xarakteri bilan bog‘liq. Eski shahar o‘zining o‘rta asr qiyofasini saqlab qolgan mahobatli binolar – o‘rta asr arxitekturasing ulug‘vor yodgorliklari esa eskirib, puturi ketgan. Rejalashtirishning taraqqiyparvar usullarini qo‘llash va o‘zbek



Toshkent. O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi Qabulxonasi (buyuk knyaz Nikolay Konstantinovichning sobiq saroyi), arxitektor L. Benua.




**Toshkent. Amaliy san'at muzeyi (sobiq A.Polovsev uyl),
arxitektor L. Benua.**

hamda rus xalqlarining o'zaro munosabati ikki arxitekturaviy madaniyatning bir-biriga singib ketishiga va biri-birini boyitishga, O'zbekiston arxitekturaning bundan keyin taraqqiy etishiga olib keldi.

1.4. Arxitektorchilikda davlat yakkahokimligi

Arxitektorchilikda davlat yakkahokimligi yangi davr bo'lib, birinchi jahon urushi (1914-y.) va Oktyabr to'ntarishi (1917-y.) munosabati bilan mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi.

Sobiq Ittifoq tarkibida bo'lgan O'zbekiston birinchi jahon va fuqarolar urushining vayrongarchilik ofatlarini boshidan kechirdi. Sanoat va qishloq xo'jaligi izdan chiqdi, bor kuchini xalq xo'jaligini qayta tiklashga sarf eta boshladi. Bu iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar arxitekturada ham o'z aksini topdi.



Qo'qon. Rus-Osiyo banki, 1910-y arxitektor I. Markevich.
Umumiy ko'rinishi va tarhi (M. Yusupova kitobidan).





**Toshkent. Amaliy san'at muzeyi (sobiq A. Polovsev uyi),
arxitektor L. Benua.**

hamda rus xalqlarining o'zaro munosabati ikki arxitekturaviy madaniyatning bir-biriga singib ketishiga va biri-birini boyitishga, O'zbekiston arxitekturaning bundan keyin taraqqiy etishiga olib keldi.

1.4. Arxitektorchilikda davlat yakkahokimligi

Arxitektorchilikda davlat yakkahokimligi yangi davr bo'lib, birinchi jahon urushi (1914-y.) va Oktyabr to'ntarishi (1917-y.) munosabati bilan mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi.

Sobiq Ittifoq tarkibida bo'lgan O'zbekiston birinchi jahon va fuqarolar urushining vayrongarchilik ofatlarini boshidan kechirdi. Sanoat va qishloq xo'jaligi izdan chiqdi, bor kuchini xalq xo'jaligini qayta tiklashga sarf eta boshladi. Bu iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar arxitekturada ham o'z aksini topdi.



Qo'qon. Rus-Osiyo banki, 1910-y arxitektor I. Markevich.
Umumiy ko'rinishi va tarhi (M. Yusupova kitobidan).

Yangi qurilish hajmi katta emasdi va bosh vazifa – paxtachilik bilan bog‘liq edi. Shu munosabat bilan «Xlopkostroy» tashkil etilgan bo‘lib, bu tashkilot paxta va yog‘ ekstrasiyalash zavodlari, paxta shiy-ponlari, shuningdek, paxta ekuvchi tumanlar uchun jamoat (klublar, oshxonalar, hammomlar, korxonalar) va turar-joy uylari qurish bilan shug‘ullanardi.

«Xlopkostroy» birinchi marta O‘rta Osiyo uchun namunaviy turar-joylar (bir qavatli) va jamoat binolari turkumini ishlab chiqdi. Suvsiz Mirzacho‘lda irrigasiya qurilishi rivojlana boshladi (Dalvarzin qurilish). Xalq qurilishlari davriga to‘qqiz kilometrli Langar kanalini qurgan Pop tumani mehnatkashlari asos soldilar. Shundan keyin Katta Farg‘ona va Toshkent kanallari, Kattaqo‘rg‘on suvombori hamda Farhod GESI (birinchi navbati) qurilgan edi.

1926-yili Toshkent yaqinida Bo‘zsuv elektrostansiyasi qurildi, u gidroenergetika sohasida birinchi va O‘zbekiston quruvchilari va iste‘molchilari uchun maktab hamda gidroenergetika beshigi bo‘lib qoldi. Shundan keyin Toshkentda Toshtramning ikkinchi issiqlik dizel stansiyasi barpo etildi. Bu ikki stansiya respublikada Toshkent sanoat va kommunal xo‘jaligini elektr energiyasi bilan ta‘minladi.



**Toshkent. To‘qimachilik korxonasi ijtimoiy shaharchasi
rejasi tarhi. 1930-y.**


Tiklanish davrining oxirigi yillariga kelib birinchi yirik sanoat korxonasi — Toshkent qishloq xo'jaligi mashinasozligi (Tashselmash) ishga tushdi, u keyinchalik bir necha bor qayta ta'mirlandi, kengaytirildi va nihoyat O'rta Osiyoning barcha paxta ekuvchi respublikalari uchun paxta terish mashinalarini yetkazuvchi bosh korxonasiga aylandi.

Toshkentda paxta sanoatining qaldirg'ochi, yirik miqyosidagi korxonasi — to'qimachilik korxonasi hamda qisman shaharni elektr energiyasi bilan ta'minlaydigan yirik issiqlik elektr markazi bunyod etildi. Bu davrgada O'zbekistonda 500 dan ortiq sanoat korxonalari qurilgan edi. Bu sanoat korxonalari respublika qiyofasini tubdan o'zgartirib yubordi. Dastlab qurilgan yirik sanoat korxonalari O'zbekistonda yangi shaharlar barpo etilishiga imkon yaratdi.



Yerga jamoat mulki deb qarash yangi shaharlarning keng muhitini erkin shakllantirishga, ularni maqsadga muvofiq rejalar bilan ta'minlashga turtki bo'ladi. Rejalar asosida qurilgan shahar tuzilmasida yirik turar-joy majmualari rivojlandi. Bu esa yangi shaharlarning mikrotumanlarini tartibsiz qurib tashlangan eski mahallalardan keskin ajratib turar edi. Bunday davrda shaharlar orasida Yangiyo'l (1934-y.) va Chirchiq shaharlari alohida diqqatga molik.

Chirchiq — O'zbekiston shaharlari ichida dastlabkilaridan biri edi. U 1934-yilda barpo etilgan va ishchilarning manzilgohlarini o'z ichiga olgan edi, ular: Yuqori ijtimoiy shaharcha, Quyi ijtimoiy shaharcha, Bo'zsuv, Quyi Komsomol. Shahar Toshkentdan shimoli-sharqda, Chirchiqning o'ng sohilida, Qarjantov va Chotqol tizmalari oralig'idagi vodiya, dengiz sathidan 600 m balandlikda joylashgan. Bu joylarda ilgari uncha katta bo'lmagan Niyozbek qishlog'i va Troiskoye manzilgohi joylashgan edi. Shaharning rivojlanishiga Chirchiq daryosi katta ijodiy ta'sir ko'rsatdi. Tezoqar daryoning suvidan G'azalkentdan tortib Chinozgacha bo'lgan maydondagi vodiyni sug'orishda foydalangan.

Shahar tez rivojlandi, har yili yangi mahallalar, mikrotumanlar qurilib, aholi nufusi ortdi. 1939-yilda Chirchiqda 14,9 ming odam yashar edi. Chirchiq rejasining dastlabki loyihasi 1933—1936-yillarda Moskvaning Gidrostroyproyekt instituti tomonidan ishlab chiqildi (arxitektorlar G. Orlov, P. Tarakanov, V. Lavrov va boshqalar, maslahatchi V. Vesnin). U 1947-yilgacha reja va qurilish asosi bo'lib xizmat qildi. Shu yillardagi yurtimizning qadimiy shaharlarini tartibga keltirish, qayta tiklash va rivojlantirish asosiy vazifalardan biri edi. Toshkent shahrining yangi qismini qurish loyihasidan (fuqaro muhandislar G. Bauer va G. Svarichevskiy 1924-y.) Toshkentni qayta rejalashtirish tarixi boshlandi.




**Toshkent. To'qimachilik kombinatiga qarashli poliklinika, 1936-y.,
arxitektor K. Babiyevskiy.
Umumiy ko'rinishi va birinchi qavat tarhi.**



**Toshkent. To'qimachilik kombinatining madaniyat saroyi,
1940-y., arxitektorlar A. Karnauxov, A. Galkin. Umumiy
ko'rinishi va birinchi qavat tarhi.**

Loyiha g'oyasi amaldagi reja tarhini saqlab qolgan holda unga yangi jamoat hududlari, bog'lar, xiyobonlarni qo'shib, yangi shahar markaziy kompozitsiyasini rivojlantirishdan iborat edi. Yangi tumanlar – vokzaloldi maydoni va yarmarkaning sobiq hududiga katta e'tibor berildi, bu yerlarda ishchilar o'z ixtiyorlari bilan qurib olgan uylar bor edi. Loyihada shu tumanlarda uylarni yalpi qurish ko'zda tutilgandi. Garchi loyiha amalga oshmay qolgan bo'lsa-da, ammo u ko'chalar tarhini




**Temiryolchilar Madaniyat saroyi, 1939-y, arxitektor A.Pavlov.
Umumiy ko'rinishi va birinchi qavat tarxi.**

ishlab chiqish, hududni zonalarga bo'lish, mos ravishda guruhlarga ajratib, jamoat binolarining yangi namunalarini joylashtirish uchun asos bo'ldi.

Ishchilarning alohida mintaqalarini qayta tiklash g'oyasi Toshkentning yangi shahar Mahalliy xo'jaligini obodonlashtirish bo'limida tuzilgan bosh rejasida e'tiborga olindi (G. Svarichevskiy va L. Voronin rahbarligi ostida, 1925-y.) Shahar markazini o'zgarishsiz rejalashtirishda radial-halqa tizimini saqlab qolgan holda mualliflar vokzalorti qismda yangi mahallalar bunyod etishni taklif qildilar. Mazkur loyiha bo'yicha sobiq Tezikov dala hovlisi tumanidagi yerlarda temir yo'l ishchilari uchun turar-joy mahallasi bunyod etilgandi. Bir qavatli, ikki-uch xonali, yozlik xonalari, kichkina tomorqa yeri bo'lgan uylar quriladi.

Toshkent to'qimachilik korxonasi ishchilar shaharchasining turar-joylaridan tashqari to'qimachilar madaniyat saroyi, univermag, kasalxonana, poliklinika, bolalar muassasalari va madaniy-maishiy xizmat ko'rsatishga taalluqli boshqa binolarni o'z ichiga olgan yalpi qurilish O'zbekiston yangi turar-joylari tumanlarining namunaviy uylari bo'lib qoldi. Bu yangi tumanda uylar o'rnida turar-joy uylari qulayligini e'tiborga olib joylashtirilgan (shimol-janub), bu issiq yoz sharoitlarida xonadonlardagi mikroiklimni ancha yaxshilaydi. Ikki xonadonli, zinapoya maydonchasi bo'lgan seksiya turidagi uylar qurildi, bu xonadonlarning tabiiy shamollashini yaxshiladi. Har bir xonadon o'z ayvoniga ega edi.



Toshkent shahar Markaziy qismini tartibga keltirish rejasi. 1924-y.

Toshkentni qayta rejalashtirishning «Oʻrta Osiyo geologiya boshqarmasi byurosi» («Средазгеоупр») mutaxassislar guruhining arxitektor A. Silchenkov rahbarligi ostida Moskva rassomlari jamiyati bilan birgalikda ishlab chiqqan loyihaning asosiy gʻoyasi (1929–1931-yy.) shahar yagona arxitekturaviy-rejaviy tuzilmasining shakllanishidan iborat boʻlgan. Unda bir qancha uylarni buzib, tumanlarni, yangi bogʻ-rogʻli hududlarni, sanoat mintaqalarini qayta qurishga, shuningdek, shahar markazini bunyod etishga qatʻiy qaror qilingandi. Bu yerda joylashgan ayrim binolarni buzib tashlash va yangi hukumat Uyi binosi, savdo maydonida keng parki boʻlgan umumshahar markazini joylashtirish koʻzda tutilgan edi. Bularning hammasi eski shaharda joylashgan edi.

Davr talabiga javob bermaganligi sababli loyiha rad etildi, biroq keyinchalik ayrim oʻrinlarda – arxitektor A. Silchenkov gʻoyalaridan foydalanildi. Ular orasida eski shahar bogʻ-rogʻli markaz qismida madaniy-tomosha majmuini yaratish bor edi, u shahar parki (1952-y.). Respublika oʻyingohi (sobiq «Spartak», 1934-yilda ochilgan) ni oʻz ichiga olgandi; F. Xoʻjayev nomidagi shohroh yotqizilishi (hozirda Navoiy shoh



Toshkent shahar Markaziy qismini tartibga keltirish rejasi. 1924-y.

ko'chasi, 1930-y.) reja jihatidan shaharning eski va yangi markazlarini birlashtirgan; mutaxassislar uchun turar-joy binolari majmui qurilgan.

Toshkenitning sharqida (Toshselmash) va janubida (To'qimachilik korxonasi) sanoat mintaqalarining paydo bo'lishi natijasida yangi turar-joy uylari qurilgan hamda shahar shitob bilan rivojlangan, bu esa Toshentning mutlaqo yangi asosda qayta qurish loyihasi tuzish zaruratini keltirib chiqargan.


Toshkentning arxitektor A. Kuznetsov (Mosproyekt, 1938–59-yy.) rahbarligida tasdiqlangan birinchi bosh rejasida 900 ming aholi, 13,8 mingga yaqin hudud hisobga olingan, ko'cha tarmog'ining (Moskvadan namuna olib) radikal-halqa tuzilmasi qabul qilingan, u shaharning olti ma'muriy tumanini birlashtirgan, ularning har birida turar-joy, jamoat va boshqa binolar tarmoqlari joylashtirilgan. Shaharning eski va yangi qismlarini uzviy birlashtirishga, ko'kalamzorlashtirish hamda suv bilan ta'minlashga, parklar, xiyobonlar, sun'iy suvomborlari barpo etishga e'tibor qaratilgan.




**Toshkent. Markaziy qism.
1924-y.**



**Toshkent. Markaziy qism.
1939-y. A. Kuznetsov.**



**Toshkent. Markaziy qism.
1936-y. N. Semyonov.**



**Toshkent. Markaziy qism.
1931-y. A. Silchenkov.**

Samarqandning arxitektor M. Bulatov rahabarligi ostida mutaxassislar guruhi ishlab chiqqan birinchi tasdiqlangan bosh rejasi (O'zplanproyekt, 1937–38-yy.) 3,9 ming gektar hududda 136 ming aholiga mo'ljallangan, shuningdek, shaharning yagona arxitekturaviy-rejaviy tuzilmasini yaratish, uni eski va yangi qismlar bilan qo'shish ko'zda tutilgan. Loyihada shaharning barcha yo'nalishlarda bir tekis rivojlantirishini va eski hamda yangi shahar tutashgan joyda bosh shahar markazini joylashtirish mo'ljallangan.

Bosh rejalarida Toshkent va Samarqand hudud (mintaqa)larga bo'lib chiqilgan, sanoat hamda turarjoy qurilishi uchun joylar belgilangan edi. Shaharlar ko'kalamzorlashtirish, suv bilan ta'minlash loyihalariga ega bo'lgan. Parklar, bog'lar, xiyobonlar, sun'iy havzalar yaratishni ko'kalamzorlashtirish va suv bilan ta'minlash bo'yicha qilingan ishlar bosh reja loyihalarini hayotga tatbiq etish natijasi bo'ldi. Bosh reja bo'yicha sun'iy ko'lli parkni shahar devorining Beshyog'och darvozasida, Anhor kanalining chap sohilida barpo etish ko'zda tutilgan. Dastlab bu yerda g'isht zavodlari joylashgandi va tuproq tanlash chog'ida yuzasi 9 gektarga yaqin, chuqurligi 3–7 metr go'zal manzarali jarlik hosil bo'lgandi. Park loyahasini arxitektorlar M. Bulatov va L. Karashlar tuzgan edilar. 1939-yilda 29 gektar maydonda barpo etilgan Komsomol park-ko'li hozirda Alisher Navoiy nomidagi milliy



**Samarqand. Rejalashtirish loyihasi. 1938–39-yy.
Uzplanproyekt. M. Bulatov.**

boqqa aylantirilib, toshkentliklarning sevimli dam olish joyi bo'lib qoldi.

Toshkent va Samarqandni qayta tiklash bo'yicha loyihalar hamda amaliy ishlar respublika boshqa shaharlarini qayta qurish uchun maktab bo'lib xizmat qildi. Buxoro (1937-yil, arxitektorlar F. Dolgov; 1940-yil D. Meerson), Farg'ona (arxitektor A. Zotov), Andijon shaharlarini qayta qurish loyihalari tuzildi. Shuni ta'kidlash kerakki, 1935-yilda O'zbekiston shaharsozligi rivojlanishida Moskva shahri qayta qurish bosh rejasi katta ahamiyat kasb etdi. Moskvani qayta qurish va rivojlantirish loyihasining ko'plab tamoyillari Toshkent, Samarqand, shuningdek, O'zbekistonning boshqa shaharlari bosh rejalarini loyihalashtirishning asosi bo'lib xizmat qildi. Bu davrda barpo etilgan «O'zplanproyekt» («Uzgosproyekt» – hozirda «O'zshaharsozlik LITI»), «O'zpromproyekt» («O'ztyaejprom» – hozirda «O'zog'irsanoatloyiha»), Uzselproyekt» («O'zgiroselstroy» – hozirda «O'zqishloqloyiha») va Toshkent shahar Arxitekturaviy-rejalashtirish boshqarmasi singari yirik davlat loyiha tashkilotlari va O'zbekiston Arxitektorlar uyushmasi (1935-y.) respublikaning barcha ijodiy kuchlarini birlashtirdi.

1.5. Yangi arxitektura yo'nalishidagi izlanishlar

Yangi arxitektura yo'nalishidagi izlanishlar o'ttizinchi yillar turar-joylar, jamoat binolarini loyihalash va qurishda hamda qator konkurslarda o'z ifodasini topgan. Yangi g'oyalar yaratish turar-joy uylarini qurish uchun o'tkazilgan: «Bizga nima kerak» («Что нам нужно») «Mening eng kichik tanlaganim» («Мой минимум») konkurslardagi takliflar o'sha davr ishchilari uchun loyihaladanigan turar-joylar tarkibini belgilashga asos bo'lgan.

«Скорострой» shiori ostida tuzilgan loyihalar konkurslarida mualliflar qurilish rejasi va uslubida O'rta Osiyo xalq arxitekturasi usullaridan foydalanishga intilganlar. «Vostok» shiori ostidagi loyiha peshayvonli uylar qurish g'oyasi uchun o'ziga xos deb e'tirof etilgan. «Konstruksiya» shiori ostidagi loyihada pishiq g'isht yo dumaloq toshlardan tiklangan poydevorni «bevosita yer yuzasi»ga almashtirib, binoni uning ostidagi tuproqni zichlab, o'rama beton devor ustidan qurilgan.

1927–29-yillarda xalq arxitektura an'analari hisobga olib bir va ikki qavatli turar-joylarning dastlabki dahalari loyihalandi: turar-joy ichki hovlili xonalar, ayvonchalar va ikkinchi qavatda kichikroq xonachalari bo'lgan turar-joylar quriladi. Ular orasida Namangan,

Samarqand va Toshkent ishchilari uchun bir hamda ikki xonadonli namunaviy turar-joylar bor (Pushkin va Jukovskiy ko'chalarida burchagidagi uylar, arxitektor B. Skornyakov, quruvchi trest «Xlopstroy»). Bu turar-joy uylarida yashash uchun yaxshi sharoitlar yaratilgan — xonalari keng, shiftlari baland, sanitariya-texnik qulayliklari mavjud.

Toshkentdagi Mustaqillik (sobiq Pushkin) shoh ko'chasida qurilgan uch qavatli turar-joy (1932-y, arxitektorlar K. Babiyeviskiy, A. Petelin) shunday yuqoridagi talablarga javob bergan va Toshkentning hozirgi zamonaviy markazi qiyofasi bilan uyg'unlashgan.

Amaliyotchilar va nazariyotchilar ijtimoiy turmushning yangi shakllarini qidirishga ko'proq e'tibor qaratdilar. O'zbekistonda bu masalalar bilan arxitektorlar S. Polupanov, G. Svarichevskiy va boshqalar shug'ullandilar. Toshkent va Samarqandda Kommuna uylar qurilgan edi, ular rejasiga oshxonalar, qiroatxonalar, kutubxonalar, dam olish xonalari kirar edi.

Samarqanddagi Kommuna uyida turmushni tashkil etishning tub o'zgarishlari chetlab o'tilgan edi. Uzun turar-joy binosida bir, ikki xonali xonadonlar, uch xonali xonadonlar joylashgan bo'lib, yozgi xonalar bilan ham jihozlangan. Birqancha turar-joy xonalari ikki darajada balandlikda hal etilgan. Sanitariya tarmoqlari maxsus bloklarga ajratilgan, turar-joy markaziga ko'ndalang tarzda jamoatchilik foydalanadigan xonalar binosi joylashgan.

Bunda oshxona bilan birgalikda ma'ruza xonasi, o'yinlar xonasi, qiroatxona, tibbiyot xonasi, ayvonlar mavjud. S. Polupanov 1931-yilda Toshkentdagi Amir Temur ko'chasida (sobiq Engels) qurilgan Kommuna uyning turar-joy majmui loyihasida taklif qilgandi.


Toshkentdagi Kommuna uy mehmonxona turidagi eshigi yo'lakka ochiladigan bir xonali turar-joy xonalaridan iborat. Jamoatchilik faoliyatini muallif birgina bino doirasi bilan cheklab qo'ymaydi — ular binodan ajratib qurilgan va butun mahallaga hamda atrofdagi shahar uylariga mo'ljallangan majmuadan iborat. Ular tarkibida klub, bolalar bog'chasi, oshxona-fabrika bo'lib, ular bilan mazkur uy ichki yo'lak — estakada bilan ulangan. Faqat mehmonxona to'ridagi uy, silindrsimon klub va fabrika-oshxona qurilgan bo'lib, u loyihada ko'zlangan bu qadar yirik majmua faoliyatining buzilishiga olib kelgan.

Kommuna uylar O'zbekistonda ko'pqavatli turar-joy katta hajmdagi uylarning dastlabki namunalaridir, ular 30-yillar o'rtalarigacha respublikaning turli shaharlarida qurilgan «Mutaxassislar uylari» deb ataluvchi uylarning rivojlanishiga asos bo'lgan edi. Toshkentdagi Turob


To'la ko'chasidagi Mutaxassislar turar-joy uylarida (arxitektor A.Pavlov) ayvonlar, balkonlar va boshqa xalq me'morchilik usullari keng qo'llanilgan.



**Toshkent. Mustaqillik (sobiq Pushkin) shoh ko'chasidagi turar-joy.
1924-y, arxitektorlar K. Babiyeviskiy, A. Petelin.**



**Mustaqillik shoh
ko'chasidagi
turar-joy.
1932-y. Sektsiya
tarhi.**




**Toshkent. Turob To'la (sobiq 9-yanvar) ko'chasidagi Mutahassislar uyi.
1936-y, arxitektor A. Pavlov. Umumiy ko'rinishi va tarhi.**


Binoning janub-shimol holatida joylashuvi ham diqqatga sazovor, shuningdek, xonadondagi xonalar joylashuvi issiq iqlimda turar-joy xonalarining alohida-alohida shamollashini ta'minlaydi. Old devor bezagida boshida paxta chanog'i nusxasi bo'lgan yirik-yirik ustunlar ishlatilgan, balkonlarida arxitekturaliy qismlar va shaklga solingan karniz (araqiy)lar zeb berib turibdi.

Ko'p qavatli turar-joy uylari yakka tartibdagi loyihalar bo'yicha qurilgan, ko'pincha ular bir birini takrorlab turadi. Shu ma'noda 1940-yilda qurilgan, Toshkentdagi Anhor bo'yida joylashgan (arxitektorlar A. Pavlov va A. Pisadze) turar-joy uyi oddiy hamda yorqin tuzilishi bilan ajralib turadi. Ancha katta qo'shaloq balkonlar xonadonlarni


jazirama oftob nurlaridan himoya qiladi, ayni vaqtda qirg' oq tomondan bino old devori bezagining bir uzviy qismi bo'lib xizmat qiladi. Balkonlar va tepadagi karniz (araqiy) binoga ko'rk berib turuvchi asosiy vositalardan biri bo'lib hisoblanadi.



Toshkent. Hukumat uyi, 1930-y, arxitektor S. Polupanov.



**Samarqand, Kommuna uyi, 1930-y.
Arxitektor S. Polupanov.**



Toshkent. Kommuna turar-joy kvartali 1930-y. Arxitektor S. Polupanov.



**Andijon. Davlat banki, 1928-y.
Arxitektor S. Polupanov.**



**Toshkent turar-joy loyihasi,
1932-y. Arxitektorlar:
A. Pavlov, E. Jmuyda**

Toshkent to'qimachilik korxonasi tumanidagi turar-joy uylari (arxitektor M. Besprozvanniy), Chirchiqdagi turar-joy uylari (arxitektorlar V. Lavrov, M. Tarakanov, S. Polupanov) va Ikkinchi jahon urushigacha qurilgan boshqa uylar tashqi qiyofasining oddiyligi, tomining yassiligi, balkon ko'rinishidagi yozlik xonalar bo'lishi, ko'kalamzor, suv oqib turuvchi hovlilari borligi bilan e'tiborni tortadi.

1939-yilda O'zbekiston arxitektorlar uyushmasi ko'pqavatli uylar uchun turar-joy seksiyalari loyihalari konkursini o'tkazdi. Arxitektor S. Kutinning oldingilaridan ancha tejamli bo'lgan loyihasi g'olib deb topildi. Unda arxitekturaviy-qurilish uzvlarini xillashtirishning ayrim imkoniyatlarini, shuningdek, arxitekturaviy-rejaviy qulayliklari ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Oliy o'quv yurtlari arxitekturasi ham o'ziga xos, ular ham mahalliy, ham taklif etilgan arxitektorlar loyihalari bo'yicha qurilgan. Moskvadan taklif etilgan yetuk arxitektor, muhandis F. Shextel yangi Toshkent Universiteti binolari majmui loyihagini yaratdi (1921-y), aka-uka arxitektorlar V. Vesnin va L. Vesninlar – konstruktivizm asoschilari, Le Korbyuze e'tirof etishicha, tuzilishi bo'yicha g'oyat qiziqarli Fizika instituti majmuini loyihalashtirdi, unda ichki hovli bo'lib, tevaragi binolar bilan qurshalgan (1927-y).

Toshkent shahridagi hozirga Toshkent davlat huquqshunoslik instituti (arxitektor T. Bauer 1927-y) o'sha davrning dastlabki yirik binolaridan biri bo'lgan. Asosiy old devor jiddiy handasaviy shakllarda hal etilgan, balkonli yangi yozlik xonalar kiritilgan. U Samarqanddagi Pedagogika akademiyasi binosi (hozirgi SamDU, 1928-y, K. Tiltin), Toshkentdagi Ishchilar universiteti (1929, arxitektor G. Svarichevskiy) va boshqalar uchun namuna bo'lib xizmat qildi. Xuddi shu yillarda Gidrotexnika instituti ham bunyod etildi (1925–26-yy, arxitektor A. Gorshenin).

Arxitektorlarning o'zbek xalqi yodgorlik arxitekturaviy merosi usullaridan foydalanishga intilish (paykonsimon arklar, sharqona peshtoqlar, qubbalar) Buxorodagi uncha katta bo'lmagan teatr binosida va Toshkentdagi Ya. Fulomov (sobiq Gogol) ko'chasida joylashgan Amudaryo konlari boshqarmasi binosida (hozirda O'zbekiston FA Prezidiumi) ayniqsa yaqqol o'z ifodasini topgan (arxitektor G. Svarichevskiy). Bu o'sha paytlardagi yirik uch qavatli bino qat'iy mutanosiblik tuzilishga ega. Uning markaziy qamrovi bezakdor o'qsimon arklari bo'lgan, baquvvat kunguralar qo'ndirilgan peshtoqning an'anaviy shaklini takrorlaydi. Bino qanotlarining sirti yana o'sha o'qsimon shakldagi deraza o'rni bilan bo'lingan. Kirish peshtoqida jimjimador to'siq o'rnatilgan ensiz balkon bor. 1928-yilda Toshkentning boshqa

yirik jamoat binosi Xalq Xo'jaligi Oliy Kengashi Uyi tiklangan bo'lib, u Buyuk Turon (sobiq Kirov) ko'chasida deyarli butun mahallani egallagan (hozirda u «Sharq» nashriyoti majmuasiga kiradi). Ikki qavatli bino murakkab rejaga ega, unda shakl va o'lcham jihatidan g'oyat xilma-xil hamda ko'plab xonalar bor. Bu birinchi temir-beton turar-joy inshooti va O'zbekiston poytaxtida qurilgan konstruktivizm ruhidagi birinchi binodir (arxitektorlar A. Petelin, N. Bleze, K. Babiyevskiy). Bundan keyin konstruktivizm tamoyillari o'zbek arxitektorlarini yanada ko'proq jalb eta boshladi.

Shu yillarda ko'plab jamoat binolari qurilgan edi, ular: Markaziy telegraf (M. Ginzburg), O'zbekiston davlat filarmoniyasi (I. Goloshchanov, A. Sidorov, A. Brilevich) Sh. Rustaveli ko'chasidagi poliklinika (K. Babiyevskiy) (Toshkent sh.), Chirchiq industrial texnikumi binosi (V. Lavrov, G. Orlov), Samarqanddagi Davlat banki va Suv xo'jaligi binosi, Andijondan Davlat banki (S. Polupanov) hamda boshqalar turli yo'nalishdagi arxitektorlar izlanishlarining katta mavzuviy va uslubiy xilma-xilligi namunasi bo'la oladi.

Xususan, o'sha yillarda O'zbekistonga kelgan ayrim arxitektorlar ijodida konstruktivizm g'oyalari o'z aksini topgan. Biroq respublikada yetarli moddiy-texnik qurilish bazasining yo'qligi g'ishtli uylarni temir-betonlga o'xshatib qurish odat bo'ldi.

Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik opera va balet teatr loyihasiga qilingan konkurs ashyolari 30-yillar o'rtasi arxitektorlarining ijodiy izlanishlarini yaqqol namoyon etadi. Konkursga A. Shchusev, A. Fridman, A. Petelin va V. Skornyakovlarning to'rtta loyihasi taqdim etildi. Jyuri (rais D. Manjara) va ekspert hay'ati (rahbar — professor G. Svarichevskiy) xulosasi bo'yicha ikki loyiha ijobiy baholandi.

Turar-joy binolari qurish muhandisi A. Petelin brigadasi loyihasida qadimgi yunon uylari uslubida tiklangan binoning yaxshi arxitekturaviy bezagi, rejaning qulay butlanganligi ta'kidlangan edi.

A. Shchusev loyihasi bo'yicha jyuri xulosasida binoning boy tashqi arxitekturaviy bezagi ta'kidlangan, unda oldingi davrlarning eng yaxshi yutuqlaridan foydalanilgan. Bino qismlariga yuksak badiiy ishlov berilgan, peshtoq ulug'vor qiyofa kasb etib, kiraverishga alohida ko'rk bag'ishlagan. Hajm yechimi, garchi rejada birmuncha cho'ziq dog' bo'lib ko'rinsada, shakllarning vazmin mutanosibligini va to'kisligini namoyon etgan. A. Shchusev loyihasi yakuniy ishlov uchun asos qilib olingan edi. Bu va boshqa konkurslar bundan keyingi ijodiy izlanish-



**Toshkent. Navoiy ko'chasidagi
«Vatan» kinoteatri, 1939-y.**

larga turtki bo'lgan. Respublikada qurilgan klublar, madaniyat saroylari binolarida mualliflar oddiy vositalar bilan yangi xildagi inshootning arxitekturaviy qiyofasini yaratishga harakat qilganlar. To'qimachilar saroyi (1939-yil, A. Karnauxov va A. Galkin), Temir yo'lchilar saroyi (1939-yil, A. Pavlov) bunga misol bo'la oladi, biroq ularda tasodifiy shakllar me'yoridan ortiqroq qo'llab yuborilgan.



O'rta Osiyo arxitektorlarining milliy merosidan foydalanib, ba'zi mualliflar yodgorlik arxitekturasi shakllariga katta e'tibor qaratsa (Toshkentdagi tarix muzeyi, Samarqanddagi suv xo'jaligi binosi), boshqalari esa xalq turar-joy arxitekturasi usullariga asoslangan. Toshkentdagi Navoiy ko'chasida joylashgan «Vatan» (hozirda qayta

qurilib, Akademik Milliy teatrga aylantirilgan) kinoteatri (A. Sidorov) ana shu yo'nalishga xos, bunda inshoot hajmi naqshindor to'rt ustun bilan boytilgan bo'lib, kiraverishdagi katta vitraj binoga alohida ko'rk bag'ishlab turgan; birmuncha usullar aralastirib yuborilganligiga qaramay, bino o'ziga xos bo'lib, yorqin taassurot qoldirgan va milliy arxitektura an'alarining muvaffaqiyatli qo'llanganiga misol bo'la oladi.

Arxitektorlarning sinchli tuzilishga asoslangan «o'zbekona usul» yaratishga intilishi Moskvadagi Qishloq xo'jaligi ko'rgazmasidagi O'zbekiston saroyi binosida o'z ifodasini topgan. O'zbekiston saroyi binosiga bitta eshikdan kiriladi, devorlari naqshinkor, ixcham hajmga egaligi bilan ajralib turadi. Hovlisi ham bo'lib, uning o'rtasida jimjimador, yulduz shaklidagi qubba bilan bezatilgan yog'och shiypon joylashgan. Garchi ichki bezaklari va tuzilishlari u qadar mukammal bo'lmasa-da, naqshlar hamda shakllar kishiga zavq bag'ishlaydi.

Saroy bezagi yuqori sifatli bilan ajralib turadi — uni bajarish uchun iste'dodli xalq ustalari — ganch va yog'och o'ymakorlari jalb etilgan.

1940-yilda Toshkentda buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy haykali loyihasiga o'tkazilgan konkurs (Viloyat Kengashi uyi oldidagi maydon,



Moskvadagi Qishloq xo'jaligi ko'rgazmasidagi O'zbekiston paviloni, arxitektor S. Polupanov. Umumiy ko'rinishi va tarhi.

hozirda Adabiyot muzeyi) ma'lum darajada O'zbekiston haykaltaroshlik san'atining rivojlanishiga turtki bo'ldi. 1947 yilda haykaltarosh L. Ditrix va arxitektor V. Volchak loyihasi asosida amalga oshirilgan edi.

Asosiy xulosalar

XX asrning boshida O'zbekiston arxitekturasida va shaharsozligida chuqur o'zgarishlar va tarixiy siyosiy evrilishlar asosida rivojlandi, bu uning ijodiy yo'nalishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Joylarda xalq arxitektorlari zamonaviy qurilishdan chetda qoldi, markazdan taklif etilgan arxitektorlar rahbarligi ostida ijrochi, ishchi sifatida ishga jalb etildi.

Mustamlakachilik siyosati natijasida rivojlanish darajasi bo'yicha turlicha bo'lgan, ikki tuzilmali — eski va yangi shaharlar vujudga keldi. Eski shahar bir qavatli uylari va chalkash ko'chalardan iborat bo'lsa, yangi shaharda bir-ikki qavatli uylar qurilib, tartibga rioya qilingan.

Obodonchilik borasida ularda ma'lum taraqqiyot ko'zga tashlanib turgan: to'g'ri va obod ko'chalar, yo'l-kalar, tosh terilgan yo'llar, ariqlar

tarmoqlari va hokazolar bu yerda qadimgi davridagiga o'xshash vayronagarchiliklar oqibatida o'z qiymatini yo'qotgan, tartibsiz qurib tashlangan uylar, chalkash yo'l va yo'l-kalar ko'zga tashlanmaydi.

Yangi turdagi binolar: banklar, kinoteatrlar, temir yo'l vokzallari, kasalxonalar va idora binolarining qurilishi diqqatga sazovor, ularning arxitekturasi bir qancha uslubiy – eklektika, gotikadan tortib modern-gacha bo'lgan yo'nalishlarda hal etilgan; bu o'sha yillari chet el arxitektura yo'nalishiga xos bo'lib, temir va temir-betondan foydalanishga tatbiq asoslangan. Modern shakli asosan g'isht yo'nalishida keng qo'llanilgan (Ikkinchi xotin-qizlar gimnaziyasi, hovli-joylar, banklar va hokazo).

Yangi tipdagi binolar uchun monumental arxitekturaning mahalliy an'anaviy shakllaridan foydalanish uslubini o'sha davrda qurilgan «Xiva» kinoteatri misolida ko'rish mumkin. Moskva, Petrograd va Rossiyaning boshqa shaharlaridan chaqirilgan taniqli arxitektorlarning loyihalashtirishdagi ishtiroki (L. Benua, N. Lidval, V. Geynselman, G. Svarichevskiy, K. Tiltin, L. Voronin va bshq.) yevropa arxitekturaviy madaniyatining O'rta Osiyoga, jumladan, O'zbekistonga kirib kelishiga imkon berdi. Shu bilan birga rus arxitektorlari va quruvchilari o'z qurilishlarida mahalliy qurilish ashyolari hamda ishlanmalari bilan bir qatorda o'zbek xalq arxitekturasi kompozitsiyasining ayrim usullaridan ham foydalanib, bu bilan mahalliy uslublarni qadimgi shaharlarning yangi qismlari arxitekturasi olib kirdilar. Ikki – o'zbek va rus xalqlarining o'zaro munosabati bundan keyin O'zbekiston arxitekturasi rivojlangan ikki arxitekturaviy madaniyatning bir-biri bilan o'zaro uyg'unlashib ketishiga va boyishiga olib keldi.

20–30-yillar arxitekturasi

- Tiklanish davri arxitekturasi xalq xo'jaligining rivojlanishidagi qiyinchiliklar va yangi davr (1917-yildan)ning boshlanishi bilan bog'liq. Yerga va arxitekturaga nisbatan davlat yakkahokimligining o'rnatilishi, qurilishdagi krizis davrlari, yagona ijodiy tushuncha yo'qligi (1917–1924-yy.) rejalashtirishda ham, shaharlar, turar-joylar va jamoat binolarining ramziy-badiiy echimidagi yangi izlanishlarda ham arxitekturaviy krizisga va ijodiy qiyinchiliklarga olib keldi.

- Bu davrda Toshkentda ham, O'zbekistonning boshqa shaharlarida ham sanoat va irrigasiya inshootlari qurildi, qadimgi shaharlarning rivojlantirish hamda yangilarining vujudga kelishi (Chirchiq, Yangiyo'l) shu bilan uzviy bog'liq.

- O'zbekiston shaharsozligi tarixida 20–30-yillarda shahar va manzilgohlar qurilishini yetuk arxitektorlar (A. Silchenkov, N. Rusakov, N. Semyonov, G. Orlov, M. Bulatov, A. Kuznesov va boshqalar) shaharsozlik faoliyati misolida rejali tarzda olib borilishiga harakat qilindi. Toshkent bosh rejasi (1991-y. A. Silchenko va 1938-yil A. Kuznesov) bilan bir qatorda Samarqand shahar (1938–1939-yy.) va Chirchiq shahar (1936-y G. Orlov) bosh rejalari ham ishlab chiqilgan edi. Shu bilan birga ta'kidlash joizki, shohroh tarmog'ini yaratishda Moskva namunasi bo'yicha radial-halqa usulidan foydalanilgan. Biroq, agar Moskvada boshqa asoslar ham ancha tushunarli bo'lsa (markaz atrofidagi halqa yo'llar), bu yerda unday asoslar yo'q edi, ikkita markazning bo'lishi vazifani qiyinlashtirdi, mazkur shaharlar bosh rejalari mualliflarining asossiz rasmiy yondoshuvi shundan guvohlik beradi.

O'zbekiston shaharsozlik amaliyotida shu yillarda uylar qurilishining mahalliy usullarini hisobga olishning dastlabki tajribalari paydo bo'ldi, ularda joylashuv holati (shimol-janub) va mikroiklim hisobga olingan (to'qimachilik korxonasi ishchilar manzilgohining bosh rejasi, Konkurs nusxasi, 30-yy).

- Kommuna uylar – O'zbekistondagi ko'pqavatli turar-joy uylarining dastlabki namunalari. Ular 30-yil o'rtalarigacha respublikaning turli shaharlarida qurilgan «Mutaxassislar uylari»ning rivojlanishiga asos soldi. Ularda binoning, yozlik xonalar – balkonlar, ayvonlar, old devor bezak namunalari hisobga olingan. Kam qavatli uylar rejasida (asosan konkurs loyihalarida) xalq turar-joy arxitekturasi an'analari saqlanib qoladi, turar-joy ichkarida hovli sahni bo'lgan ko'plab xonalar majmui, ayvoncha bo'lishi, ikkinchi qavatda mo'jaz-mo'jaz xonachalar ham mavjudligi shart deb tushuniladi.

- Jamoat binolari arxitekturasida uch uslubiy yo'nalish kuzatiladi: konstruktivizm (Toshkentdagi Hukumat uyi, 1930-y., Andijondagi Davlat banki, 1928-y); mumtoz namunalarga taqlid (Amir Temur xiyoboni oldidagi Mustaqillik (sobiq Pushkin) ko'chasi boshida joylashgan ma'muriy bino, 1937-y), uchinchi yo'nalish o'zbek xalq arxitekturasi usullaridan foydalanish bilan izohlanadi. («Vatan» kinoteatri, 1938-y., Moskvadagi qishloq xo'jaligi ko'rgazmasining O'zbekiston paviloni, 1939-y. va hokazolar).

- Toshkent shahrida qator davlat loyiha institutlari, ma'muriy rejayiv boshqarmalar, O'zbekiston arxitektorlari Ijodiy uyushmasini tashkil etish e'tiborga molik (1935-y.), ular respublika ijodiy kuchlarini birlashtirdi; shuningdek, texnika oliy o'quv yurtlari qoshida (hozirda Toshkent Arxitektura qurilish instituti) arxitektura bo'limi (1929-y.), keyinchalik fakulteti ochildi.

II BOB

IJODIY IZLANISHLAR: YUKSALISHLAR VA TANAZZULLAR

(1941–1990-yy.)

2.1. Ikkinchi jahon urushi davri arxitekturasi

O‘zbekiston urush davrida frontni ham, front ortini ham ta‘minlaydigan muhim industrial markazga aylandi; u Rossiyaning g‘arbiy viloyatlari va boshqa respublikalardan ko‘chirib keltirilgan odamlar uchun ikkinchi uy bo‘lib qoldi. O‘zbekiston shaharlariga ishchi va xizmatchi mutaxassisleri bilan ko‘plab sanoat korxonalari olib kelib joylashtirilgan edi. Shaharlarning aholisi tez ko‘paydi. Masalan, Toshkent shahri aholisi ikki baravar ko‘paydi va million odamdan oshib ketdi. Ammo mana shunday murakkab holatda ham o‘zbek arxitektorlari va xalq ustalarining bunyodkorlik mehnati davom etaverdi. Yangi sanoat inshootlari qurildi, ular orasida O‘zbekiston metallurgiya zavodi va Farhod GESi bor edi. Ular Bekobod va Angren kabi yosh sanoat shaharlari hamda turar-joy manzilgohlari barpo etishga asos bo‘ldi.

Bu davr O‘zbekiston arxitektura yo‘nalishi Rossiyaning yirik arxitektorlari: A. Shchusev, A. Kuznesov, V. Lavrov, G. Orlovning nomlari bilan bog‘liq, ularning ijodiy mehnatlari mahalliy arxitektura amaliyotida mezon bo‘lib qoldi. Asosan loyihalash ishlarini respublikaning yetuk arxitektorlari K. Babiyevskiy, L. Boychenko, M. Bulatov, V. Dmitriyev, V. Jahongirov, I. Rachinskaya va boshqalar olib borar edilar. Ular Toshkent, Samarqand, Namangan, Chirchiq, Qo‘qon va O‘zbekistonning boshqa shaharlarida ko‘plab inshootlar bunyod etdilar.


Urush yillarida O‘zbekistonda mahalliy sement va metallurgiya sanoati yuzaga keldi, alebastr qazib chiqarish ortdi hamda undan qurilishda foydalanish yo‘lga qo‘yildi. Ayni vaqtda mahalliy ashyolar sifatining yaxshilash usullari va ulardan zamonaviy qurilish texnikasida foydalanish uslublari belgilab olindi.

Masalan, bu vaqtda «O‘zbekiston» deb nomlangan ikkiyoqlama egma yupqa devorli g‘ishtin qubba (svod) ishlab chiqildi – bu milliy merosga zamonaviy fan nuqtai nazaridan ijodiy yondoshishning o‘ziga xos namunasi. Mazkur konstruksiyaning ayrim nomukammalligiga qaramay (nisbatan mehnattalabligi, tom tuzilishining murakkabligi) u

o'sha vaqtda kamyob ashyolar: temir, sement, yog'och o'rniga sanoat va fuqaro qurilishida keng joriy etildi.

O'zbekiston Arxitektorlar uyushmasi va O'zbekiston arxitektura hamda qurilish ishlari boshqarmasi o'tkazgan qator konkurslar respublika arxitekturasini rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatdi (turar-joy uylari va kottejlar, dala shiyponidagi choyxonalar, Qo'lbola buyumlar muzeyi binosi va hakazolar).

Og'ir sharoitlarga qaramay, jamoatchilik maqsadlarida foydalanishga mo'ljallangan binolar ham qurildi. «O'zbekiston» qubasi o'zbek naqshlarining an'anaviy usullari ruhida qayta ishlab chiqildi. 1943-yilda qurilgan Muqimiy nomidagi teatr binosi qish faslining olti oy ichida qurib bitkazildi (arxitektorlar D.Xazanov, A. Tixonov va konstruktor A. Rabinovich). Teatr binosi qurilishidan oldin 850 o'ringa mo'ljallangan Drama teatri loyihasiga konkurs o'tkazildi. Yog'ochsiz qurilishga va butun binoni yengil g'isht qubba hamda qubbachalar bilan yopishga mo'ljallangan loyiha konkursda g'olib bo'ldi va uni amalga oshirish uchun qabul qilindi.



Toshkent. Muqimiy nomidagi o'zbek musiqa drama teatri, 1943-y.
Arxitektorlar D. Xazanov, M. Tixonov;
konstruktor A. Rabinovich va xalq ustalari Sh. Murodov, Yu. Musayev.

Mualliflar jamoasi konstruksiyalar va bezak qismlarini ishlab chiqishga hamda ularni amalga oshirishga xalq ustalari Yusufali Musayev, Usta Shirin Murodov va boshqalarni jalb eishtdi. Mavzuli naqshu nigorlar va naqshdor gullarni chizishga rassom R. Akbalyan jalb qilindi.

Toshkentdagi Muqimiy teatri qurilishi tajribasi har qanday maqsadda foydalaniladigan binolar tomini yopishda g'ishtdan foydalanish mumkinligi va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi.

Toshkentdagi Usti yopiq bozor binosi (arxitektor L. Karash) — O'zbekistonda qubbasimon binolar arxitekturasiga yana bir misol bo'ldi. Bu bino eski shahar bozori hududini qayta qurish vaqti buzib tashlandi. Yupqa devorli g'ishtin qubbalar urush yillaridagi turar-joy qurilishi amaliyotida ham keng qo'llandi.

2.2. Qadimgi shaharlarni qayta tiklash (rekonstruksiya qilish)

Urush yillari O'zbekiston madaniy qurilishining barcha jabhalarida chuqur iz qoldirdi. Ushbu yillarida shaharlarda aholisi nufusi keskin ortishi va ularda sanoat korxonalari qurilishi g'oyat murakkab hamda muqarrar muammo keltirib chiqardi, bu shaharlarni rejalashtirish va tubdan qayta qurish loyihalarini ko'rib chiqishni talab qilar edi.

Urush vaqtida mutaxassislar bilan birga yirik korxonalarining bu yerga ko'chirib keltirilishi Toshkent uchun qayta qurishning yangi bosh rejasini tuzish zarurligi tobora keskinroq sezila boshlangandi.



Bosh rejaning yangi loyihasida shahar hududi kengaytirilgan, mintaqalashtirishning yangi sanoat inshootlari joylashuvini hisobga oluvchi o'zgartishlar kiritilgan, qator transport magistrallari yotqizish mo'ljallangan, tuman parklari tarmog'i kengaytirilgan, shahar markaziy maydonini qayta qurish ko'zda tutilgan, yashil ko'chatlar o'tqazish va suv yo'llari ochish shahar hayotiga dadil olib kirilgan edi.

Biroq yangi bosh reja kamchiliklardan ham xoli emasdi. Masalan, yangi binolar balandligini shahar bo'yicha o'rtacha 2,5 qavatgacha pasaytirishga va tomorqali uylar qurishga keng ko'lamda ruxsat berishga to'g'ri keldi, bu shahar hududini yanada kengaytirishga olib keldi va uning kommunikasiyasini cho'zib yubordi.

Tarixan bunyod etilgan shaharlarni qayta qurish asosida «yangi» va «eski» qismlar o'rtasidagi farqni yo'qotishga harakatlar ko'zga tashlandi. Toshkentdagi Navoiy ko'chasini qayta tiklash bu g'oyaning

tatbiq etilishiga asos soldi. Mazkur ko'cha qurilishi loyihasi mualliflari (M. Bulatov, V. Smirnov) oldida eski ko'cha va ensiz Jarko'cha (Shayxontohur) ko'chasini kengaytirish hamda bir qavatli xom g'ishtli va ko'pqavatli g'ishtin uylar barpo etish vazifasi turardi.



Hozirda eni 66 m. uzunligi 3 kilometr keladigan Navoiy ko'chasi shaharni sharqdan g'arbiga tik kesib o'tadi; u eski va yangi shaharni ulaydigan muhim naqliyot yo'li bo'lib qoldi. Binolar asosan to'rt qavatli turar-joy uylardan tashkil topgan.



**Toshkent. Navoiy ko'chasini ta'mirlash rejasi,
1943–54-yy. Arxitektorlar M. Bulatov, V. Smirnov.**

Navoiy ko'chasida ko'pqavatli binolar qurishning ijobiy jihatini va uning Toshkent eski shahar qismining arxitekturaviy qiyofasini qisman o'zgartirganini ta'kidlagan holda shuni aytib o'tish kerakki, qurilishlar asosan mufassal rejalashtirish loyihasisiz, turli loyihalash tashkilotlari va arxitektorlar tomonidan amalga oshirildi. Arxitektorlar yangi binolarni loyihalashtirishar ekan, ko'pincha umumiy shaharsozlik g'oyasi bilan hisoblashmaganlar, ko'channing kenglik tuzilishi yaxlitligi va mujassamligiga xilof bo'lgan turli-tuman binolar qurilgan.

Bunday misolni Samarqand shahri amaliyotidan ham keltirish mumkin. U yerdagi Registon va Toshkent ko'chalarini qayta tiklash shahar tuzilmasida yagonalikni tiklash qaysidir ma'noda uning «yangi»



Toshkent. Anhor kanali bo'yidagi turar-joy uyi. 1946-y, arxitektor A. Pavlov. Umumiy ko'rinishi va birinchi qavat tarxi.

mahallalar hamda yodgorliklarga olib boruvchi Toshkent va Registon ko'chalari qayta quriladi.

Qayta qurish loyihasi Registon maydonining o'zini ham, Registon va Toshkent ko'chalarini ham kengaytirish hamda obodonlashtirish, yodgorliklarni tomosha qilish uchun halqa yo'llar va xiyobonlar barpo etish mo'ljallangan mazkur loyiha butun Samarqand eski shahar qismini qayta qurishga asos bo'ldi.

va «eski» tumanlari o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish uchun ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Samarqandning shimoli-sharqiy qismida joylashgan Toshkent va Registon ko'chalari umumshahar ahamiyatidagi shohroh hisoblanadi.

Registon ko'chasi janubiy tuman va shahar markazini tashqi yo'llar — Katta o'zbek trakti va aeroport yo'li bilan tutashtiradi.

Bu ko'chalarni qayta qurish, ularda noyob arxitekturaviy yodgorliklar — Bibi Xonim masjidi va Registon madrasalarining joylashganligi katta mas'uliyat talab qiladi.

50 yillar o'rtalarigacha Toshkent va Registon ko'chalari uncha ahamiyatga ega bo'lmagan turar-joylar hamda savdo rastalari qurilgan edi, faqat Registon ko'chasidagi ikki qavatli Rassomlar uyi, ikki qavatli Mai-shiy xizmat uyi binosi va bolalar bog'chasi bundan mustasno.

Qolgan bir qavatli uylar barcha qulayliklarsiz qurilgan bo'lib, ularni buzib tashlash maqsadga muvofiqdir.

Samarqand qurilishida birinchi navbatda 1954-yilda Uzgosproyekt tuzgan bosh reja va loyihaga muvofiq (arxitektor Yu. Bulicheva) so'nggi yillarda Registon maydoniga tutash

Afsuski, Registon va Toshkent ko'chalarini qayta qurishning birinchi bosqichi muvaffaqiyatsiz chiqdi. Bu ko'chalarda pala-partish uylar qurib tashlangan bo'lib, ular kompozision yaxlitlikka ega emas. Registon ko'chasiga tutash mahallalarda aholi zichligining yuqoriligi, shuningdek, shaharda tezkor turar-joy jamg'armasining yo'qligi shunday natijaga olib kelgani sir emas. Afsuski, 310-turkumidagi tipik turar-joylari, to'rt qavatli maktab va quyi arxitekturaviy-badiiy darajadagi boshqa binolar qurilganligi eng katta kamchiliklardan edi. Toshkent va Registon ko'chalarini asosiy naqliyot shohrohlariga aylantirish bilan bir qancha qayta qurish ishlari amalga oshiriladi.




Toshkent. Navoiy ko'chasidagi do'konli turar-joy uyi, 1949–1950-yy., arxitektorlar M. Bulatov, L. Karash.

Mazkur ko'chalarni qayta qurish ishlari 1960 yilgi bosh reja tarhiga ko'ra olib borildi, unga binoan Registon ko'chasi Panjikent ko'chasidan chetroqqa, qayta loyihalashtirilgan Toshkent ko'chasini takrorlagan Loyiha shohrohi bo'ylab davom ettirilishi ko'zda tutilgandi.

Bevosita Bibi Xonim va Registon yodgorliklariga tutash Toshkent ko'chasi asosiy shahar ko'chasi sifatida saqlab qolinadi, unda faqat engil avtotransport, sayyohlar avtobuslarigina harakatlanadigan bo'ladi. Shaharda harakatlanadigan barcha transportlar yangi yotqizilgan ko'cha — loyihadagi ko'chadan yuradigan bo'ldi.

Shahar markazi. Toshkentdagi hukumat markazi (hozirda Mustaqillik maydoni)ni qayta qurish loyahasiga o'tkazilgan 1946-yilgi konkurs dastlabki urushdan keyingi yillar shaharsozligi sohasidagi arxitektorlarning ijodiy g'oyasini yaqqol namoyon etadi. Konkursga taqdim etilgan loyihalarda qaysidir darajada O'rta Osiyoning o'rta asr yodgorlik arxitekturasi timsollari qayta tiklandi (V. Arxangelskiy, A. Petelin, A. Sidorov, E. Katonin va V. Kokorin). Boshqa mualliflar (A. Boboxonov, V. Volchek, S. Polupanov) mumtoz va milliy an'analarni, o'zbek milliy arxitekturasi olingan ustunlar, ravoqlarni uyg'unlashtirishga harakat qildilar. Loyihalardan bittasi ham qabul qilinmadi va qayta



**Toshkent. Hukumat markaziga konkurs loyiha. 1946–47-yy.
Arxitektorlar A. Boboxonov, S. Polupanov, V. Volchek.**

qurish loyihagini bundan keyin ishlab chiqish A. Boboxonov, V. Volchek va S. Polupanovga (mualliflar jamoasi birinchi mukofot bilan taqdirlangan edi) topshirildi. Hukumat binolari atrofida yerlarga suv chiqarish yo‘li bilan uni Mustaqillik maydonida ulkan havza ko‘rinishida kengaytirish muammosi hal etildi. Ammo u vaqtda yetarli mablag‘lar, texnik imkoniyatlar va boshqa sharoitlar yo‘q edi, buning natijasida loyiha amalga oshmay qolib ketdi.

1954-yilgi Toshkentni qayta qurish bosh rejasida maydon 1938-yilgi qayta qurish rejasida qayd etilgan chegaralarni (biroz o‘zgartirish kiritilgan holda) saqlab qoldi.

Kompozision ya‘ni asosiy negizi sifatida O‘zbekiston Hukumat uyi bo‘lgan mavjud maydon saqlab qolingandi. Bunda shahar markazining oldingi barcha loyihalaridan farqli o‘laroq Hukumat uyida faqat Oliy Kengashning emas, balki O‘zbekiston Hukumati binolarini ham joylashtirish mo‘ljall qilingandi.

Hukumat muassasalari majmui ikki Psimon reja xarita ko‘rinishida hal etilgandi, ular O‘zbekiston Vazirlar mahkamasi uchun mo‘ljallangan va mavjud Hukumat uyi binosi bilan birlashtirilgandi. Butun kompozisiya Sayilgoh ko‘chasi o‘qi bo‘ylab mavjud bino tomonga

qaratib qurilgan baland minorali hajm bilan nihoyasiga etkazilgan.

Favvoralar, sun'iy hovuzlar shahar yer usti tuzilishidagi zaruriy uzvlar bo'lib qolgan. Komsomol (hozirda Milliy bog') ko'l bog'idan keyin Chovli arig'i atrofida sun'iy hovuzli Falaba (hozirda Akvapark) bog'i barpo etilishi, (arxitektorlar M. Bulatov va A. Muxamedshin) Toshkent sharoitida u mikroiklimni sog'lomlashtirishda katta ahamiyat kasb etgandi.

Respublikamizning boshqa shaharlari shuningdek, Buxoro, Samarqand ham qayta qurila boshlandi. Samarqand bosh rejasida ko'hna yodgorliklarning zamonaviy shahar tuzilishiga kiritilishi tarixiy Registon, Bibi Xonim, Shohi Zinda va boshqa arxitektura binolarini saqlanib qolish yo'li bilan amalga oshirildi.

XX asrning 50-yillar o'rtasidan boshlab O'zbekiston arxitekturasi va shaharsozligida yangi yo'nalish boshlandi — ko'chalarda turar-joy va jamoat binolarini alohida-alohida qurish o'rniga «erkin reja» usuli odat bo'ldi. Bundan tashqari O'zbekiston shaharlarining aholisi nufusi yildan yilga ortib bormoqda edi. 1959-yildagi aholini ro'yxatga olishda Toshkent aholisining 912 ming bo'lgan, bu 1954-yildagi bosh rejada taxmin qilinganidan 112 ming ko'p edi. Mazkur holat, bosh rejani qayta ishlab chiqish zaruriyatini, bog'-rog'li hududlarni tashkil etishning yangi tamoyillari, texnika va qurilish industriyasining rivojlanishini keltirib chiqardi. Toshkent bosh rejasini yangi nusxasining asosiy qoidalarida shahar va shaharoldi mintaqasini yagona muhit hududi sifatida qarash g'oyasi ilgari surildi. Shahar aholisining sonini 1,2 million deb olindi, aholi nufusining oshishi yangi sanoat korxonalarini qurishni taqiqlash (oziq-ovqat va qurilish sanoatlari bundan mustasno), qator sanoat korxonalari, shuningdek o'quv yurtlari va boshqa tashkilotlar sanitariya hamda shaharsozlik nuqtai nazaridan shahar tashqarisiga olib chiqish yo'li bilan cheklanadigan bo'ldi.

Bosh rejada aholi turar-joy maydonini orttirish, jumladan 1980-yilga kelib kishi boshiga 12 kv.m. va 2000-yilda 15 kv.m.gacha kengaytirish ko'zda tutilgandi; shahar turar-joy uylari qurilishida: to'qqiz



**Toshkent. Markaziy qism rejasini
tarhi. 1954-y. Toshgiprogor.**

qavatlilari 43 foiz, to‘rt qavatlilari 80 foiz, bir-ikki qavatlilari 7 foiz bo‘lishi kerak edi.

Toshkent aholi sonining to‘xtovsiz ortib borishi turar-joy qurilishida bu rejaning noto‘g‘ri tuzilganligini ko‘rsatdi. Bundan tashqari zilzila oqibatlarini tasdiqlangan bosh rejadagi qavatlilik nisbati va uylar zichligini kamaytirish nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqilishiga sabab bo‘ldi.

1972-yilda Toshboshplaninstituti (arxitektor Yu. Pureskiy) Toshkent viloyatining tuman rejasi tarhini ishlab chiqqandi, unda shaharning rivojlantirish masalasi odamlar istiqomat qiladigan joylar guruhli nuqtai nazaridan qarab chiqilgan.

Shaharning tarixiy joylari: Pushkin, Beruniy, Usmon Nosir ko‘chalari shaharning asosiy dov-daraxtli va ishlab chiqarish mintaqalarini umumshahar markazi bilan bog‘lab turadi. Sifat jihatidan yangi tezyurar va muntazam harakatli shohroh tizimlari shakllana boshladi. Ushbu turdagi shohrohlarning dastlabki namunalari Xalqlar Do‘stligi (hozirgi Bunyodkor) Furqat, Ahmad Donish, Qodiriy ko‘chalari bo‘ldi, ular shaharning yirik mintaqalarini o‘zaro va umumshahar markazi bilan tutashtirib turadi.

Toshkent markazi – shaharning rivojlantirishning birinchi o‘rindagi majmui. Bu yerda shahar markaziy qismini qurish loyiha uchun uchun o‘tkazilgan konkurs muhim ahamiyat kasb etdi (1964-y.), unda O‘zbekiston arxitektorlari – Toshgiprogor institutida ishlab chiqilgan loyiha mualliflarining yuksak mahoratlari ta‘kidlab o‘tilgandi. Yakuniy variantni Toshgiprogor va shaharsozlik SNIIPning birlashgan kuchlari ishlab chiqdi.

Toshkentni rivojlantirish qurilishning bosh rejasi bo‘yicha silsilaviy maydonlar tizimi markazning ayrim majmualarini shahar janubi-g‘arbiy qismining obod tumanlari bilan tutashtiradi. Furqat, O‘zbekiston ko‘chalari va Istiqlol shoh ko‘chasi chorrahasida joylashgan Istiqlol maydoni, shunday ahamiyatga ega.


U Yakkasaroy, Shayxontohur va Chilonzor tumanlarini shahar markazi bilan tutashtirib, yirik naqliyot tarmog‘i hisoblanadi. Boshqa maydonlardan farqli o‘laroq Mustaqillik maydonida (1980-y., E. Rozanov rahbarligidagi arxitektorlar guruhi) 9–12 qavatli karkas panelli turar-joy binolari qad ko‘targan, yirik ixtisoslashgan savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini qurilgan.

Mustaqillik va Xadra maydonlarini o‘zaro birlashtirib turgan yo‘l markaz uchun shaharsozlik ahamiyatiga ega bo‘lgan. Ular oralig‘idagi

masofa – bu markazning kengligi bo‘lib, Amir Temur xiyobonidan tortib Chorsu maydonigacha cho‘zilgan.

O‘zbekistonning qadimgi shaharlari eski va yangi qismlarini birlashtirishda ayrim umumiy yo‘nalishlar bilan bir qatorda o‘ziga xos xususiyatlar ham mavjud. Samarqand shahri bunga yorqin misol bo‘la oladi. Bu yerda qayta qurish bilan birga tarixiy mintaqalarni saqlab qolish, tarixiy majmualarning umumshahar ahamiyatidagi yirik namunalari bilan uyg‘unlashtirish vazifasi yuzaga keladi.

Qayta qurishning barcha bosqichlarida Samarqandning asosiy markazi yangi va eski shahar oralig‘ida joylashgan hamda ikkala qismni birlashtiruvchi halqa hisobga olingan.



Samarqand. Rejalashtirish bosqichlari:

1– rejalashtirish loyihasi, Uzplanproyeqt, – 1938–39-yy. Arx. M. Bulatov;

2– rejalashtirish loyihasi, Uzgosproyekt, 1954-y, 3–rejalashtirish loyihasi

Uzgosproyekt. 1968-y; 4– shahar tarixiy rivojlanish reja bosqichlari:

Afrosiyob, Temuriylar davri – 1980-yilgacha.

Bu bosqich Samarqand shahrini rivojlantirishning 1968-yilda Uzgosproyekt (arxitektor T. Kalinovskaya) instituti bajargan texnik iqtisodiy loyihasiga asos bo'lgan. Loyiha ashyolari tarkibida dastlabki taklif sifatida Samarqand umumshahar markazining eskizi taqdim etilgan bo'lib, u shahar arxitekturaviy-rejaviy yechimining asosiy tamoyillarini belgilab bergan.

Registon maydonining kenglik yechimi Samarqand uchun haddan tashqari noqulay va soxtadir. Shaharsozlik nuqtai nazaridan bu qadar omadli ansambl tashkil qiluvchi arxitekturaviy yodgorliklarning umumiy majmua bilan uyg'unlashib ketishini ko'rmaymiz. Viloyatning sobiq ijroqo'mi baland binosi Registon manzarasini to'sib qo'ygan; sobiq Frunze ko'chasiga qarab ketuvchi maydon esa haddan tashqari keng qilib belgilangan.

Samarqand markazi. Ma'muriy maydon shakllanishi bo'yicha yo'l qo'yilgan kamchiliklar Samarqand markazini rejalashtirish va qurish g'oyasiga konkurs e'lon qilish uchun sabab bo'ldi. Konkursga Toshkent politexnika instituti, Samarqand davlat arxitektura va qurilish instituti, ToshNIPI bosh plan, Rossiya, Giprogor, Uzgosproyekt va LenNIIP shaharsozlik institutlarda ishlab chiqilgan loyihalar taqdim etilgan edi. Loyihalar eskizlari tahlili arxitektorlarning kasbiy mahorati ancha o'sganini ko'rsatdi. Bir guruh arxitektorlar yangi markazni Gorkiy bulvari (hozirda Universitet xiyoboni) yoqalab rivojlantirgan holda «qo'shtuzilmali» variantni taklif etdilar (ToshPI va Rossiya Giprogor guruhleri).

O'zgosproyekt nusxasi ham shaharni Darg'om arig'i yoqalab rivojlantirish bo'yicha taklifni hisobga olgandi. Ammo u Giprogor nusxasidan markaziy yadroning boshqa yo'nalishlarda ham va bir maromda rivojlanishi bilan yaqqol ajralib turardi. Boshqa arxitektorlar, 1938-yilgi bosh reja g'oyasini sobiq Frunze ko'chasi bo'ylab shahar bosh o'qini shakllantirish yo'li bilan rivojlantirganlar (Toshboshplan guruhi). Sam DAQI mualliflar jamoasi asosiy e'tiborni xalq turar-joylari tajribasidan foydalanib, turar-joy qurishning arxitekturaviy rejaviy tizilmasiga qaratgan. Bir qancha uylarni mahalla markazlari atrofiga birlashtirish taklif etilgan.


Bu loyihalarning asosiy kamchiliklari maydonlarni haddan tashqari kengaytirib yuborish, muayyan tarixiy vaziyatni etarlicha hisobga olmaslik, «qo'shtuzilmali» qoidasiga qaytish va shahar qismlarini bundan keyin rivojlantirishning turli ananalariga amal qilishdan iborat bo'lgan. 1974-yilda markazni rejalashtirish loyihasi arxitektorlar T. Kalinovskaya va A.Aleksandrovich rahbarligidagi mualliflar guruhining shaharsozlik

UzNIIP konkursi natijalari asosida ishlab chiqilgan edi. Loyihada umumshahar markazning bir qismi va butun tarixiy mintaqani o'z ichiga olgan 720 ga hududdagi uylar eskizi ishlab chiqilgandi.

Samarqand bosh rejasi. UzNIIP shaharsozlik ishlab chiqqan mazkur reja (arxitektorlar A. Aleksandrovich, A. Zotov, R. Valiyev, B. Magdiyev, F. Hikmatullayev, A. Yakushev, N. Sodiqov, muhandislar G. Kagan, L. Godunova, A. Faniyev) 1981-yilda tasdiqlangan, 1984-yilda esa shaharsozlik sohasidagi eng yaxshi loyiha sifatida qayd etilgan bo'lib, u Moskvadagi Arxitektorlar uyushmasining arxitektura yutuqlari ko'rik-konkursida 1 darajali diplom bilan taqdirlangan edi. Yangi bosh reja vazifasi ochiq rejaviy tuzilmali, hududi oqilona mintaqalashtirilgan, har birida 100–150 ming aholi bo'lgan yetti rejaviy tuman tashkil etilgan, uzluksiz va muntazam harakatli transport tizimli, muhandislik jihozi rivojlangan hamda mukammal yaxlit shahar bunyod etishdan iborat bo'lgan.

Yangi mintaqalar, eng avvalo ixtisoslashtirilgan umumshahar markazlari barpo etiladi. Universitet xiyoboni va ko'chalar (Kattaqo'rg'on va hakazo) asosida janubiy va g'arbiy yo'nalishlarda shakllangan umumshahar markaziga eski shahar qismi arxitekturaviy-etnografik va qadimshunoslik qo'riqxonalarini bilan Afrosiyob, shuningdek ma'muriy, sayyohlik, o'quv, sport markazlari kiritilgan. Sayyohlik, yengil oziq-ovqat, kimyo sanoati muassasalari va sanoat bilan bir qatorda oliy, o'rta maxsus o'quv yurtlari shahar xalq xo'jaligi yo'nalishining asosini belgilaydi.

Buxoro bosh rejasi. 2500 yoshdan ko'proqqa kirgan Buxoroning bosh rejasi XVI asrda tarixan vujudga kelgan shahar topografiyasiga asoslangan. XX asr boshida Buxoroda devor ichkarisida 50 ta, devor tashqarisida 20 ta bozor, ko'plab karvonsaroylar bo'lgan. Hozirda bu bepoyon Buxoro viloyatining ma'muriy markazi va ayni vaqtda o'zida o'rta asr davriga oid ko'plab arxitekturaviy yodgorliklarni jamlagan nodir shahar-muzeydir. Minorai Kalon masjidi, Mirarab va Abdulazizxon madrasalari eng mashhurlaridir. Eski shaharni 11 darvozali devor qurshab olgan. Buxoroda ko'plab masjidlar bo'lib, ularning minorasi va arki bo'lgan amir saroyi dabdabali bezagi bilan ajralib turadi. Qadimgi Ark qal'asida hozir viloyat O'lkashunoslik muzeyi joylashgan. 60–70- yillargacha sanoat rivojlanishi uchun imkoniyatlarning qa'tiyan cheklanganligi shahar aholisining o'sib ketishiga yo'l qo'ymagan, 1939-yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlarga qaraganda 50 ming kishi yashagan va asosan ular hunarmandchilik




Buxoro. Shahar markazining batafsil rejalashtirish loyihasi. O'zshaharsozlik LITI, 1977-y.

bilan shug'ullanishgan. Buxoro viloyatida tabiiy gaz konining ochilishi shahar rivojlanishi istiqbolini tubdan o'zgartirib yubordi. Buxoroda sanoat va industriyaning rivojlanishi, aholi sonini o'sishi uchun muhim omil bo'ldi. Bu esa bosh reja loyihasiga jiddiy o'zgarishlar kiritishni taqozo etdi.

Buxoro rejasi loyihasi mualliflarining fikricha, radial halqa tarhi (1962-y., arxitektor V. Chunixin va boshqalar) sanoat, obodonchilik, arxitekturaviy yodgorliklar mintaqalarini shahar markazi va tashqi avtoyo'llar bilan aloqani ta'minlashi kerak edi. Bosh rejasiga ko'ra qayta tiklash Buxoro aholisi 300 ming bo'lgan yirik sanoat markaziga aylanishi, mos ravishda shahar hududi ham kengayishi lozim edi. Eski shahar devorlaridan tashqaridagi tarixiy mintaqadan janub va shimol tomonda qurilish ishlarini boril rejalashtirilgandi. Buxoro markazini qayta qurish ayniqsa qiyin bo'lgandi (1965-y., mualliflar A. Aleksadrovich, I. Jukovskiy, A. Kogan). Shaharning ko'pasrlik tarixi bu yerda faqat ko'plab arxitekturaviy yodgorliklarni emas, balki XVI – XVIII asrlar davridagi shahrining butun qiyofasini bekamu ko'st holda saqlab qolgan edi. Ark qal'asi, shahar devorlari qoldiqlari, masjidlar, madrasalar, shuningdek, savdo rastalari shahar markaziy qismidagi majmualarni tashkil etardi. Bu mintaqada rejaviy tuzilma saqlanib qolgan, yangi turar-joy uylarini qurish qatidan cheklangan va balandligi me'yordan ortiq bo'lmasligi belgilab qo'yilgan. Buxoro

ko'chalari muntazam ravishda rejalashtirib borildi va ko'proq ko'chalar janubiy yo'nalishda quriladi va u ko'chalarni Kogon temir yo'l stansiyasi bilan qo'shish ko'zda tutilgan edi. Janubi-sharqiy tomonda asosan yengil va oziq-ovqat sanoatlari korxonalari joylashtirildi. Buxoroning iqlimi issiq hamda ichimlik suvi deyarli bo'lgani sababli ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish hamda obodonlashtirish va suv keltirishga katta e'tibor qaratildi. Hovuzli to'rtta bog' barpo etildi. Zamonaviy Buxoro — katta qurilishlar shahriga aylandi. Bu yerda ham to'rt-besh qavatli namunaviy uylar qurilgan turar-joy dahalari bunyod etilgan, yirik jamoat binolari va inshootlar qad ko'targan. Qayta bunyod etilgan bosh maydonda viloyat ijroqo'mining katta besh qavatli binosi qurilgan (hozirda viloyat hokimiyati). Buxoro — yirik madaniy markazga aylandi, unda kutubxona, Musiqali komediya teatri, ko'plab klublar va kinoteatrlar, maktablar, oliy o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatadi. Ularda Toshkent politexnika institutining filiali, yangi, pedinstitutning jihozlangan binosi bor. Buxorodagi birinchi osmono'par bino qurildi. Barcha zamonaviy qulayliklarga ega bo'lgan. «Buxoro» mehmonxonasi 60-yillardayoq o'zida zamonaviy arxitekturani va o'tmishning ulug'vor yodgorliklarini mujassam etdi.

Xiva bosh rejasi. Xiva rejasi loyihasi (1964-yil, arxitektor A. Beleniskiy va bshq.) O'rta Osiyoda saqlanib qolgan yagona yodgorlik bo'lganligi tufayli shaharsozlardan ehtiyotkorlik va yuksak mahorat talab qiladi. An'anaviy tarzda Xiva ikki qismga bo'lingan — ichki



Xiva. Bosh reja tuzilmasi, 1964-y. Uzgosproyeckt.

Ichon Qal'a, tashqi Dishon qal'a. Ichon qal'ada to'g'ri burchakli shahar asosiy ko'chalar o'qi bo'ylab xochsimon ko'rinishda kesilgan, ular o'zaro to'rt shahar darvozasini janubiy, shimoliy, g'arbiy hamda sharqiy devorlarda ulab turadi. Ichon qal'a hududi shaharsozlik va arxitektura yodgorliklari sifatida davlat qo'riqxonasi deb e'lon qilingan, shu sababli reja loyihasi iloji boricha yaxshi saqlanib qolishi va ta'mirini, obodonchiligini, transport hamda piyoda yo'llar qulayligini ko'zda tutadi. Shaharda mikroiklimni yaxshilash uchun yashil ko'chatlarning yagona tizimi, Madaniyat va istirohat markaziy bog'i, sport inshootlari barpo etilgan. Shaharni rivojlantirish rejasi loyihasi aholi va sanoat o'sishini cheklamoqda, asta-sekin shahar parti ketib, sharti qolgan uylardan xalos bo'lib, shinam uylar qurilmoqda, ularning loyihalari Xiva uchun maxsus ishlab chiqilgan (1-mikrorayon, arxitektor A.Qo-bulov). 1939-yilda 40 mingga yaqin kishini tashkil etgan uning aholisi 50-yillarda 110 ming kishidan iborat bo'lgan.

Farg'ona bosh rejasi. Farg'ona bosh rejasiga talay o'zgartishlar kiritilgan (1951, arxitektor A.Zotov). Unda yirik engil sanoat korxonalari, masalan, to'qimachilik korxonasi, ipak yigirish fabrikasi, paxta va yog'moy zavodlari qurilishi shaharning tez rivojlanishiga olib keldi. Neftni qayta ishlash zavodi, kimyo korxonasi va boshqalar shahar uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Qayta qurishning bosh rejasida Farg'onaning o'sib-rivojlanishi, uning O'zbekistondagi yirik sanoat, ilmiy va madaniy markazlaridan biriga aylantirish bo'yicha tadbirlarni ko'zda tutgan edi. Shahar hududi uch baravar kattalashtirildi, sanoat mintaqalarini markaz bilan tutashtirish uchun yangi shohrohlarlar yotqizildi. Shahar asosan, janubiy, yangi manzilgohlar (Qirguli, to'qimachilar shaharchasi) va Farg'onadan 12 km da joylashgan Marg'ilon shahri bilan tutashtirish yo'nalishida kengayib bordi (Marg'ilon ipak shahri, yirik savdo markazi sifatida mashhur). Yangi shahar respublikada kattaligi jihatidan uchinchi o'rinda bo'lib, aholisi soni 350 ming kishiga mo'ljallangan edi.

Shaharni kesib o'tuvchi sersuv kanallar hovuz va favvoralar uchun asosiy manbaga aylandi. Farg'ona atrofida yashil halqa yaratilgan, manzarali yonbag'irlarda dam olish uylari, sanatoriyalar, bolalar uchun oromgohlar qurilgan. Turar-joy uylari va jamoat binolari qad ko'targan yangi ko'chalar tobora o'z jamolini ochmoqda. Shahar markazida yirik ma'muriy binolar ko'kka bo'y cho'zib turibdi.

Namangan — Farg'ona shaharlari orasida kattaligi jihatidan birinchi o'rinda turadi. 70–80-yillarda respublikaning boshqa viloyat shaharlarida

bo'lgani kabi uning oldida ham jadal survatlar bilan o'sib borayotgan aholi uchun umumta'lim, ijtimoiy-madaniy va demografik ehtiyojlarini qondirish muammosi yuzaga kelgandi. Namanganni qadimgi shaharlar qatoriga kiritib bo'lmaydi. Uning yoshi 400 yil deb hisob qilinadi va ayni vaqtda shaharning o'z jamoli bor, faqat ungagina xos bo'lgan jihatlari e'tiborni tortadi. Shahardagi ming yoshli chinorlar odamlarni jaziramadan saqlaydi, turfa va anvo gullar dilni yayratadi, mevalari lazzat bag'ishlaydi, shaharliklar qo'li bilan bunyod etilgan sun'iy suvomborlari, kanallar bor, savdo rastalari va bozorlarida sharqona g'ala-g'ovur va oldi-sotdilar bir zum tinmaydi.

Namangan markaziga konkurs. Shaharning markaziy maydoni qanday bo'lmog'i lozim – bu kabi savollarga O'zbekiston arxitektorlari, Namangandagi markaziy maydonni qurishning eskizini ishlab chiqishga O'zbekiston Arxitektorlar uyushmasi va mehnatkashlar deputatlari Namangan viloyat kengashi o'tkazgan konkurs Namangan shahar Markaziy maydoni qurilishining arxitekturaviy rejaviy yechimi eskiz loyahasini ishlab chiqishga buyurtmali konkurs dasturi va shartlari ishtirokchilari javob berishga harakat qilganlar.

Namangan shahar Markaziy maydoni qurilishining arxitekturaviy rejaviy yechimi qoralama loyahasini ishlab chiqishga buyurtmali konkurs dasturi va shartlari asos bo'lib ishtirokchilar oldiga yuqori arxitekturaviy rejaviy talablarga hamda zamonaviy arxitektura darajasiga javob beruvchi eng yaxshi shaharsozlik takliflarini aniqlash vazifasini qo'ydi. Buyurtmali loyiha shartlariga ko'ra, konkursda O'zNIIP shaharsozlik, ToshNIPI, boshplan Toshgiprogor, O'zbekiston Arxitektorlar uyushmasi qoshidagi O'zarxproyekt, ToshZNIEP va Namangan shahar arxitektura bo'limi ishtirok etdilar. Konkursda ishtirok etishga, Namangan bosh reja loyihachilari jamoasi (O'zNIIP shaharsozlik) – mufassal rejalashtirish va alohida shaharsozlik tarmoqlari mualliflarini, shuningdek Namangan shahrining bosh arxitektori rahbarligi ostidagi jamoani (Namangan arxitektura bo'limi) jalb etish konkurs loyihaviy takliflariga xolisona yondashuvga, tayanch qurilishlarni, shahar yashil jamg'ar-masini, mavjud loyiha hujjatlarini hisobga olib taklif qilinayotgan yechimlarni asoslashga turtki berdi. Loyihalarning ko'pchiligida mavjud markazni yuzaga keltiruvchi asosiy shaharsozlik o'rinlari nazarda tutilgan, markazning oldindan mavjud bo'lgan ko'chalarning asosiy yo'nalishlari va ularning markazga tutash tarmoqlari bilan aloqalari saqlab qolingani edi. Shaharning markaziy maydoni markaz qurilishiga sababchisi bo'lib qolishi kerak edi. UzNIIP shaharsozlik loyahasida bu



Namangan. Shahar markazi konkurs loyihasi, birinchi o‘rin, arxitektorlar D. Latipov, T. Qodirova, J. Malibekov, A. Turdiyev. 1983-y.

vazifa muvaffaqiyatli hal etilgan: baland minora va Uzarxproyekt loyihasida esa Bosh xiyobon oxirida yoshlar markazining baland binosi qurilishi ko‘zda tutilgan.

O‘zarxproyekt va UzNIIP shaharsozlik loyihalari maydonning qulay va tantanavor barpo etilishida konkurs dasturi hamda shartlari talabiga to‘la javob beraganligini hisobga olgan jyuri mualliflarga nufuzli o‘rinlarni bergan.

2.3. Yangi shaharlar arxitekturası


O‘zbekistonda yirik sanoat qurilishlari kimyo sanoati markazlari — Chirchiq va Navoiy singari yangi shaharlari, rangli hamda qora metallurgiya shaharlari Olmaliq, Zarafshon va Bekobod, ko‘mir sanoati shahri Angren va hokazolarning yuzaga kelishi va barpo etilishiga asos bo‘ldi.

Yangi shaharlar qurilishidagi umumiylik xususiyatlari (Chirchiq, Olmaliq)— bu o'sha davrning ommaviy turar-joy qurilishining loyihalari asosida cheklanganligi hamda bir xilligidir.

Bu yo'nalish u shaharlar qiyofasida o'z izini qoldirmay qo'ymagan, albatta. Atrof-muhit ekologiyasi uchun zararli sanoat korxonalarini, masalan, Chirchiqdagi Kapralaktan zavodini joylashtirish, arxitekturaviy-badiiy qiyofada esa milliy shaharsozlik madaniyati merosi va an'analari, zamonaviy hamda chet el tajribasi yutuqlari o'z aksini topmagan. Shaharning kompozision yechimida (masalan, Chirchiq) qulay joylashgan tepaliklar, shuningdek Chirchiq daryosi qayirlari va suv tarqatuvchi kanal o'zanidan samarali foydalanilmagan. Yirik suv manbalari bosh reja tuzilmasida yetarli aks etmagan.

Navoiy shahri. Ayni vaqtda shaharsozlikning zamonaviy tamoyillari turar-joylarning yirik-yirik mikrayonlarini qurish, ularda aholiga xizmat ko'rsatishning barcha turlarini muhayyo etish mualliflarning katta jamoasi yaratgan yangi Navoiy shahrida o'z ifodasini topdi (arxitektorlar A. Korotkov, I. Orlov va boshq., 1958-y.).

O'zbekistonning yangi sanoat shahri zamonaviy shaharsozlik talablariga to'la javob beradi, unda sanoat mintaqalari, turar-joy tumanlari, jamoat va maishiy inshootlari transport hamda naqliyotning odamlar mehnat qilishi va dam olishi uchun



Navoiy. Shahar ma'muriy-jamoat markazi tarhi, 1963–1970-yy.

eng yaxshi sharoitlarni ta'minlovchi tarmoq oqilona va yalpi tashkil etilgan.


Shahar istiqboli uchun relief jihatidan tinch, shimol-janub yo'nalishida 8 kmga cho'zilgan, eski Karmana tuman markazi bilan temir yo'l stansiyasi yonidagi shu nomda ataluvchi uncha katta bo'lmagan manzilgoh o'rtasidagi hudud tanlangan edi.

Shahar loyihalashtirar ekan, arxitektorlar faqat ko'chalar, maydonlar va shohrohoarni shinam va ko'rkam ko'rinishda bo'lishga, balki har kuni insonni qurshab turuvchi ichki kenglik muhitining o'ziga xos shinam va jozibador bo'lishiga, yashash uchun qulay, esda qoluvchi keng-keng turar-joy hududlari yaratishga uringanlar. Arxitektoriy ifodasi bo'yicha xilma-xil turar-joylar bunyod etish, ulardan turli kompozitsiyalar yaratish bilan bir qatorda, uylar oralig'idagi bo'sh joylar — yashil butalar, bolalar maydonchalari, katta yoshdagilar uchun hordiq chiqarish joylari va o'smirlar o'ynaydigan maydonchalar bilan to'ldirilgan.

Ko'pqavatli binolardan foydalanish mikrorayon kompozision tuzilishida o'ziga xoslikni namoyon etgan. Baland turar-joylar va uzun-uzun savdo-jamoat markazlari alohida, jozibalik va kenglik yuzaga keltiradi. Ko'p qavatli turar-joy uylari mikrorayon markazlari qanday joylashganligini ko'rsatib turganday bo'ladi va ayni vaqtda aholining tevarak-atrofnii bemalol ko'rishini ta'minlaydi.

Mikrorayonlarda butun ichki kenglikni yagona arxitekturaviy kompozitsiyaga birlashtirib turuvchi xiyobonlar barpo etish ayniqsa Navoiy shahrida odat bo'lgan.

Kunduzi salqin soya berib turadigan daraxtlarni o'tqazish bu yerda kechki paytgi hordiq uchun yaxshi sharoitlar tug'diruvchi ochiq maydonlar bilan almashib turadi.



Navoiy. Markaziy qismi. Umumiy ko'rinishi, reja tarhi.

Bezak hovuzchalar, ariqlar, favvoralarning atroflari yam-yashil may sazorlar bilan qoplangan.

An'anaviy suv inshooti tarmog'i — ariqlar dov-daraxtlarni sug'orib turishi bilan barobarida o'ziga xos kompozision bezak vazifasini ham o'taydi.

Bir nechta turar-joy uylari, ularning har xil qavatli ekanligi, binolarning turli uzunlikdaligi, devorlardagi bezaklar, quyosh qaytarg'ich qurilmalar, nur to'sqichlar — bularning barchasi shahar ichki yaxlitligiga zaruriy xilma-xillik bag'ishlagan.

Tekis joy arxitektorlarning esda qoluvchi shahar qiyofasini yaratishga e'tibor berishlarini talab etgan.

Binolar shahar chekkasidan markaz tomonga qarab balandligi ortib boraveradi, bunda asosiy baland inshoot — viloyat hokimiyati binosi maydonning asosiy ma'muriy va malkuraviy negizi kompozisijasini nihoyasiga yetkazadi.

Maydonning shimoliy chegarasini tashkil etuvchi, milliy uslubdagi zarin, jimjimador quyoshto'sqich panjarali viloyat hokimiyatining binosi shahar bosh shohrohidan ham, shimoliy bog'dagi ko'plab xiyobonlar, ko'l, shaharga kirib boruvchi asosiy yo'laklar tomondan ham jozibador bo'lib ko'zga tashlanadi.

Shaharning bu manzarador qismi ortidan yetti qavatli turar-joy uylari, «Navoiy» mehmonxonasi qurilgan, ular maydonning sharqiy va janubiy chekkalarida joy olgan.



Navoiy. Farhod madaniyat saroyi oldidagi «O'zbekiston daryolari» va «Farhod» haykallar kompozisijasini. 1970-y. Haykaltarosh B. Svinin.

To'qqiz qavatli bir guruh binolar shahar tizimida asosiy maydonning arxitekturaviy ahamiyatini oshirgan.

Ikkinchi masala «Farhod» madaniyat saroyi hududi bilan bog'liq. Bu kompozision tarmoq kenglik jihatidan qator ko'pqavatli binolar, jumladan sakkiz qavatli tajriba turar-joy uylari majmui bilan tugallangan.

Mualliflar shaharning bosh maydonini asosiy ommaviy jamoat tadbirlari o'tkaziladigan joy — ochiq osmon ostidagi tantanali «zal» sifatida hal etganlar. Bu yerda transport harakati istisno etiladi. Bezakdor qilib terilgan tosh ajoyib handasaviy tasvir hosil qilgan, unda qip-qizil yo'l-yo'l rangli beton bilan ochiq rangli silliq beton plitalar uyg'unlashtirib yuborilgan. Maydon chekkalarini maysazor va chamanzorlar qurshab olgan. Aloqa uyi oldidagi sun'iy hovuzchalar tizimi maydonning g'arbiy chegarasini to'sib turuvchi qator bezakdor favvoralariga aylanadi.

Shaharning asosiy maydon uning ikki kompozision o'qi kesishgan joyda joylashgan. Bu uning bir maromda hozirgi shaharga ham, uning istiqbolda rivojlanuvchi tumanlariga ham uzviy birikib ketishiga imkon beradi. Maydonning shimoliy qismi Shimoliy bog' hududidan cho'zilib kelgan keng yam-yashil xiyobon bilan qo'shilib ketgan, janubda esa O'rta Osiyodagi eng yirik savdo markazining keng estakadasiga o'tib ketadi. Savdo markazi bitta tom ostida aholiga maishiy va savdo xizmati ko'rsatadigan tarmoqlarni birlashtirib turadi.

Xalqlar do'stligi shohroxidan keyin xilma-xil qurilgan turar-joy uylari va jamoat binolari ko'm-ko'k bog'lar hamda xiyobonlar-orasida savlat to'kib turibdi. Bu usul bosh ko'cha ravonligini kuchaytiradi va uning shahar tuzilishidagi ahamiyatini oshiradi.

Markazning o'ziga xosligi uni vujudga keltiruvchi binolar arxitekturasida ham ko'rinadi. Shakllarning ma'lum xilma-xilligida binolar ichki yaxlitlikka birlashtirilgan. Bu yerda janubga xos arxitekturaning an'anaviy usullari keng qo'llanilgan: bular eshik-derazasiz soya tushuvchi devorlar, turli quyosh to'sqichlar va panjaralardir (ichki hovli, hovuzchalar, birinchi qavatdagi quyosh to'sqichlar, ayvonchalar va hokazo).

Turli pardoz ashyolaridan foydalanish binolar devorlari bezagida ham, ichki bezakda ham yuqori estetikaga erishish imkonini bergan. Noqulay mikroiklimni yaxshilashda va janub shahriga xos xususiyat yaratishda suvning ahamiyati katta. Navoiyda favvoralar, hovuzlar, ariqlar, kanallardan taralayotgan shovullagan ovozlar shahar arxitekturasiga hamohang bo'lib, uning ichki bo'shlig'ini to'ldirib turadi.

Shahar markazi ichki garmonik bo'shlig'ini tashkil etishda kichik hajmdagi arxitektura shakllari, obodonchilik va nafis san'at namunalarining qorishib ketishi muhim ahamiyatga ega.

Navoiyda mualliflar landshaftli arxitektura va monumental plastikaning yaxlit, mazmundor majmuini yaratishga imkon bergan yagona to'g'ri yechimni topganlar, bu yerdagi barcha haykal kompozitsiyalari suv bilan bog'liq.

Ushbu ramziy «plastik zabon»da shahar go'yo o'zining yagona syujetli rishtaga tizilgan asosiy badiiy mohiyatini ifoda etgandek bo'lgan: suv – sahroda vujudga kelgan hayot manbai.

Shaharning qoq markazida Madaniyat saroyi oldidagi maydonda hushqomat yosh yigitning brinch haykali qad ko'tarib turibdi – bu buyuk Alisher Navoiy dostonining bosh qahramoni Farhod. Farhod tosh yo'nib, suv chiqargan. U o'ng qo'lini baland ko'tarib turibdi, chehrasida hayajon, ilhom. Favvora yodgorlik boshdan-oyoq O'rta Osiyo uchun suvning hayotbaxsh mohiyati tajassumidan iborat, «suv olmosdan qimmat» deydi xalq hikmati.

Shundan keyin favvoralar silsilasi boshlanadi, uning markazida «O'zbekiston daryolari» deb nomlanuvchi, Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshonga bag'ishlangan sun'iy ko'l mavj uradi. Uchta xushqad qiyofa – ko'za ko'tarib, filxirom yurish bilan ketayotgan o'zbek qizlari mujassam. Bu kompozitsiyaning vazmin, ulug'vor va nafis maromi cho'lga hayot olib keluvchi daryolarning ravon oqimi timsolini beradi.

Favvora arxitektonikasi bo'shliq muhiti bilan yaxshi uyg'unlashgan va milliy mavzudagi zamonaviy poetik badihadek idrok etiladi.

Shundan keyin suv mavzusi bevosita qo'shni mikrorayon ichida davom etadi. U yerda hovuzlar, ariqlar shoxobchalariga aylanadi, ular yaqin-atrofdagi joylashgan turar-joy tumanlari suv ta'minotini irrigatsiyasi, ko'kalamzorlashtirilishi va obodonchiligining ham estetik, ham o'tililar maqsadlarida xizmat qiladi.

Mualliflarning Samarqand va Buxoro o'rtasidagi qadimgi karvon yo'lida joylashgan tuman markazi hamda temir yo'l manzilgohini yago-



Navoiy. Navoiy shohroxi umumiy ko'rinishi, 1980–82-yy.

na shaharsozlik majmuiga birlashtirishdagi tabiiy intilishi bosh reja kesmasiga asos bo'ldi.

Bunda ishlab chiqarish korxonalari shahar g'arbiy chekkasi yonidagi, turar-joy hududi chekkasidan ikki kilometr naridagi sanoat mintaqasida jamlangan. Uch qator ihota daraxtlari o'tqazilgan bunday kenglik shaharni sanoat chiqindilarining ehtimol tutilgan noxush ta'siridan himoya qiladi. Korxonalarning turar-joylardan shamol yo'liga teskari qilib joylashuvi ham shunga imkon beradi.

Turar-joy uylari mikrorayonlari shahar hududining alohida joylashish uchun markaziy, eng qulay qismini egallagan. Ular transport shohrohlari yordamida sanoat mintaqasi, temir yo'l vokzali, Karmana tuman markazi, u yerdan esa aeroport bilan qulay bog'langan.

1961-yilda ishlab chiqilgan bosh rejaga muvofiq Navoiy 70 minggaacha o'sish zaxirasi bilan 50 ming aholiga mo'ljallab loyihalashtirilgan. Biroq sanoat shiddat bilan rivojlandi va 1975- yilga kelib aholi nufusi istiqbol miqdoridan oshib ketdi, 1982-yil oxiriga kelib 100 minglik sarhadga yetdi. Hozirgi vaqtda shaharda 155 mingdan ko'proq aholi istiqomat qiladi. Bu ko'plab tezkor loyiha yechimlarini va yangi bosh reja ishlab chiqishni talab etdi, unga ko'ra XXI asrning boshiga kelib, shahar aholisi 300 ming nafarga yetishi ko'zda tutilgan.

Chiziqli-o'qli kompozisiya umuman shahar qurilishini o'ta mantiqan va izchil amalga oshirish imkonini berdi. Uning asosiy shaharsozlik muhitini shakllantiruvchi turar-joy mikrorayonlari jamoa markazining asosiy rishtasiga go'yo izchil tizilib borayotgandek tuyuladi. Butun shahar vujudi, obodonchiligi, zaruriy jamoat va xizmat ko'rsatish binolarining bunday teng rivojlanishi qurilishlarning to'la mujassamligiga erishishga imkon tug'dirdi. Bir yo'nalishda saf tortgan shahar rivojlantirishining har bir bosqichida tugal va estetik nuqtai nazardan arxitekturaviy butunlikni o'zida namoyon etgan.

Shaharning mikrorayonlarga bo'linishi ijtimoiyigina emas, balki ma'lum texnologik ma'no kasb etdi. Mikrorayon asosiy ijtimoiy-rejaviy va ayni vaqtda qurilish texnologik birlik ishlab chiqarishni tashkil etish hamda uzluksiz qurilish mintaqasi bo'lib qoldi.

2.4. Arxitekturasi bejamdorlik va bir xillik

Ikkinchi jahon urushi tugagandan keyin O'zbekiston turar-joy qurilishi misli ko'rilmagan darajada quloch yoydi. 1946–50-yillarda respublikada 1,7 mln.kv.m 1951-56-yy.da esa 2,8 mln. kv.m, turar-joy

maydoni qurildi. Mazkur yillarda shaharlar qurilishida ikki qavatli seksiyali g'ishtin uylar ko'p qurilgan edi. Ular deyarli bir xil rejayiy tuzilmaga ega edi. Bunday uylardagi xonadonlar ikki xonali (30,5 kv.m), uch xonali (46,5 kv.m) va to'rt xonali (54 kv.m) edi. Yozlik xonalari bo'lgan 210 turkumli turar-joy uyida kichkina-kichkina balkonchalar bo'lib (5,65 kv.m), ular deyarli bezak vazifasini bajarar edi. 264 turkumiga oid uylarning biqin tomonidagi qo'ndirma ochiq ayvonchalar (12 kv.m) borasida ham shunday deyish mumkin. 210 turkumidagi uyning ikki qavati balkonlari derazalar o'rni maromini xillashtiradi va devor yuzasini tashkil etuvchi tiklikni vujudga keltiradi. Biroq ikkinchi qavatda araqiydan sal yuqori ko'tarilgan bu balkonchalar uni kesib chiqib, qurilish jarayonini murakkablashtirgan, shuningdek yomg'ir suvlarini damlab qo'yan. Uylarning old devorlariga bezaklar chaplab tashlangan. Ommaviy qurilish jarayonida loyihalarning bu turkumi birmuncha qayta ishlab chiqildi va shubhasiz uylar arxitekturasi yaxshiladi.

Tipik loyihalar bo'yicha ommaviy qurilish bilan bir qatorda ko'pqavatli turar-joy uylari yakka holdagi loyihalar bo'yicha qurilgan. Toshkentdagi Anhor kanali yoqasining arxitektura yechimida turar-joy uyi xiyla qiziqish uyg'otadi (arxitektorlar M. Bulatov, L. Karash), unda urush yillaridagi namunaviy seksiya birmuncha qayta ishlandi. Rejaning nosimmetrik yechimi, shimoliy qismi to'rt qavatli, burchakdagi esa besh qavatli), tevaragi arkli bir, ikki (qanotli) va uch balkonli ritmik birikma, yaxshi mutanosiblik va miqyos uyning arxitekturaviy qiyofasiga ma'nodorlik bag'ishlaydi, holbuki u ham ortiqcha qismlar va bezak unsurlaridan xoli emas.

Uyning kompozision tuzilmasi uni qo'shni uy bilan birgalikda birlashtirib turadi (arxitektor A. Pavlov). Old devorning issiq ochiq rangda suvalishi, dekorativ bezak – «sgraffito» naqshu nigori va boshqa rangin dog'lar unga janubcha rangtasvir tusini beradi.

Burchak qismida joylashgan, besh qavatli minora tarzida shakllangan bunday kompozision uslub Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi maydoni burchagida qad ko'targan turar-joy uyida ishlatilgan (arxitektorlar L. Karash, V. Yakushev). Uy arxitekturasi mohirona o'rnatilgan balkonlar va turtib chiqqan yog'och araqiyalar jon kiritib turadi.

Yagona ortiqcha narsa bu uyning minora qismidagi foydalanilmaydigan ayvonchalar bo'lgan, yana nomi qiyoslikni, butun minora arxitekturasi zalvorligini ham aytib o'tish joiz.

Chirchiq shahridagi Navoiy ko'chasining muyulishida 50–60-yy.da qurilgan 50, 52 raqamli turar-joylarda ham bezak uchun qurilgan minoralar bor (arxitektor A. Faynleyb).



Samarqanddagi Registon va Dahbed ko'chalari burchagidagi yakka turar-joy uyi 50-yillarning qiziqarli uylaridan biri hisoblanadi (arxitektor A. Raykin, S. Tartakovskiy). Uylar joylashgan maydon eski shaharni yangi shahar bilan bog'lab turadi. Turar-joyning ikki binosi («A» va «B») joylashgan joyi har xilligidan bir-biriga o'xshamaydi. Masalan, «A» binosi zinapoyalari bo'lgan ikki seksiyadan iborat, bitta seksiyada uch xonali xonadon bo'lsa, ikkinchi seksiya – aralash tusda binosi zinapoyasiz bo'lib, xonadonlarga tashqaridan kiriladi, yo'lakli turdagi oddiy uylardan farqli o'laroq faqat ikkita xonadonga xizmat qiladi.

Uylarning arxitekturaviy yechimi ancha tantanavor va mazmunli. Ammo o'sha davr uchun «urf» bo'lgan arxitekturaviy nuqsondan ham xoli emas: «A» binosining biqinidagi ravoq ortiq darajada bejalgan, turli shakllar va gullarga to'ldirib yuborilgan, holbuki qurilish jarayonida (1949–55-yillar birinchi navbatda, 1952–53-yillar – ikkinchi navbat) va uni tugallashdan oldin loyiha ancha solddalashtirilgan edi.



Mazkur yillar turar-joy qurilishlarini qarab chiqar ekanmiz, shu narsaning guvohi bo'lamizki, arxitekturada, jumladan turar-joy arxitekturasida nuqsonlarning «urf» bo'lishi har doim ham joiz emasdi. Yakka tartibdagi loyihalar bo'yicha qurilgan turar-joylar baribir shaharsozlik ma'nosida sohilbo'yilar, ko'chalar va maydonlar shakllanishida ijobiy rol o'ynagan. 50-yillar o'rtalaridan boshlab Hukumatning «Loyihalashtirish va qurilishda bezakdorlik va ortiqchalikni bartaraf etish to'g'risida»gi Qarori munosabati bilan (1955-y) arxitektura yo'nalishi qayta baholandi – industrial uslublar va namunaviy loyihalardan har taraflama foydalanishga o'tildi.

Ma'muriy jamoat markazi bo'lgan to'qqiz turar-joy tumandan iborat Chilonzor turar-joy mavzesi respublikada ko'pqavatli imoratlari bo'lgan eng yirik mavze hisoblanadi. Uning qurilishi bilan 1956-yildan Toshkentning janubi-g'arbiy tumanini o'zlashtirish boshlangandi. Undan keyin boshqa turar-joy mavzelari qurila boshladi, ular: Yunusobod, Qoraqamish, Shimoli Sharq, Feruza, Qo'yliq, Sirg'ali, Samarqandda-Gagarin mavzesidagi turar-joy majmualari, Farg'onada esa Qirguli va hokazolalar.

Chilonzor va boshqa turar-joy mavzelari qurilishi namunaviy uylardan keng foydalanishdan boshlandi. Dastlabki bosqich uchun xos bo'lgan mikrotumanlarni dahama-daha qurish bir xil tusga ega edi va



**Toshkent. Chilonzor turar-joy massivi. 1— birinchi kvartal loyihasi.
2— turar-joy kvartallar majmuasi, 1956—57-yy. Arxitektorlar O. Gaazenkof,
I. Demchinskaya, O. Rushkovskiy.**



**Turar-joylar uchun 1-310
seriyalik tipik loyiha, 1958-y.**

**Turar-joylar uchun 1-310-I seriyalik tipik
loyiha, 1964-y.**

loyihalar ro'yxati binolarning bor-yo'g'i ikki-uch xili bilan cheklanardi. Masalan, 421 turkumidagi tipik to'rt qavatli uylarning bir qismida birinchi qavatida do'konlar bor bo'lib, yashovchilarga noqulaylik tug'dirardi.

Biroq 310 turkumdagi namunaviy uylarga qaraganda bu uylarning afzalligi shunda ediki, bu yerda alohida sanitariya tarmoqlari bo'lib, turar-joy maydoni ham ancha qulay edi. 1958-yildan ommaviy qurilish uchun qabul qilingan 310 turkumdagi tipik loyiha (bir qancha

nusxalarda) barcha jihatlarda tejimli edi, old devorlarning bir xilligi va zerikarli bo'lgani ham shunga kiradi.

1962-yil sentyabrda turar-joy binolari tipik loyihalarini takomillashtirishga konkurs o'tkazilishi natijasida amaldagi namunaviy loyihalarning ayrim kamchiliklarini bartaraf etadigan takliflar qabul qilindi: uylarning arxitekturaviy rejaviy yechimlari yaxshilangan, tilga olingan turkum uchun industrial qurilish ashyolarining namunaviy hajmlarini eng ko'p darajada saqlab qolgan holda xonadonlar namunalari ko'paytirilgan edi. Oshxona va oshxona oldida alohida chiqarib tashlash qurilmasi ko'rinishidagi yozlik xonalarga e'tibor qaratilgandi. Yozlik qismning oshxona, oshxona va boshqa xonachalarni yopiq xonadan yarimochiq balkonga ko'chirish yo'li bilan hosil qilinishi eng yaxshi yechim hisoblanadi, bu ham foydalanish, ham tejamkorlik qilish jihatidan maqsadga muvofiq. 1964-yildanoq yirik panelli turar-joy uylari qurila boshladi, ularning bezagida qaysidir darajada bixillikni istisno etuvchi rang va uslub faol rol o'ynaydi.

2.5. Toshkent zilzilasi dan keyingi turar-joy arxitekturasi

O'zbekiston poytaxtida turar-joy qurilishi 1966-yil 26-aprelda sodir bo'lgan zilziladan keyin ayniqsa keng quloq yoydi.

Zilzila natijasida 2,5 mln. kv.m turar-joy vayron bo'lib, qayta tiklab bo'lmay holga kelgandi. Barcha qo'shni respublikalar yordamida va o'z kuchlari bilan uch yil ichida (1966–1968) umumiy maydoni 2,7 mln kv.m bo'lgan turar-joy qurilgan edi, bu zilzila keltirgan zarardan oshib ketgan edi. Qudratli industrial qurilish bazasi yaratish va rivojlantirish, loyihalashtirishni qo'llash hamda taraqqiy ettirish bilan qurilish sur'ati misli ko'rilmagan darajada tezlashgandi.

Toshkenning zilziladan keyin qurilgan yangi mikrorayonlarida arxitektorlar va quruvchilar katta ishni qildilar. Turli loyihalash tashkilotlari yangi mikrotumanlar qurish loyihalarini ishlab chiqdilar. Giprogor (Moskva, Peterburg), Giprogor (Ukraina), Ukrgorstroyproyekt, Azgosproyekt, Tashgiprogor, O'zgosproyekt va hokazolar. Har bir respublika arxitektorlari o'z uslublarini, o'z individualligini namoyish etdi. Loyihalashtirishning qisqa muddatlari shunga olib keldiki, shaharning ko'plab yangi tumanlaridagi qurilish turlicha tus oldi, ko'pincha arxitekturaviy-rejalashtirish jihatdan shaharning boshqa qismlari bilan qovushmadi.

Shunday bo'lsa-da, turar-joy majmualarini rejalashtirish nuqtai nazaridan qiziqarli loyihalar ozmuncha emasdi, bunda arxitektorlar joyning releefi va o'ziga xosligini hisobga olar edilar.


Shayxontohur tumanidagi M-13 (Peterburg); shahar markaziy qismidagi M-4, M-5, M-6 (Rossiya), M-7 (Ukraina), Qoraqamish -2 turar-joy mikrorayoni va boshqalar shunga kiradi.

1966-yillarda Moskva Giprogor ishlab chiqqan M-4, M-5 va M-6 mikrorayonlari (arxitektorlar Ya. Air-Babamyan, S.Raytman, R. Visoskiy va boshq.) Toshkentning shimoliy turar-joy tumani tarkibiga kiritiladi va o'z asosida rejalashtirishning bir xil usuliga ega.

Har bir mikrorayon kundalik xizmat, hordiq va sport ashyolarini birlashtirgan turar-joy majmuasidan iborat.


Qurilishda joyning landshafti, tabiatning har bir unsuri hisobga olingan. Chovli arig'i hududni muhandislik tayyorlash loyihasi bo'yicha quvurga olib kirilgan, eski o'zan joyida esa serbezak hovuzlar qurilgan, ularning majnuntollar o'tqazilgan qirg'oqlari manzarador dam olish maskaniga aylantirilgan. M-5 va M-6 mikrorayonlar hududidagi ikkinchi o'zan bo'ylab mavjud daraxtlar to'la saqlanib qolgan holda kashtan va chinorlar ekilgan saylgoh xiyobon barpo etilgan. Loyihaning ikkinchi xususiyati – turar-joy uylariga kiraverish tomonidan soyador hovlichalar va asosiy piyodalar yo'li yoqalab mikrorayonlar hududida so'richalar tizimini yaratish edi.

Mikrorayon rejasida alohida turar-joy uylarini joylashtirishga dunyo mamlakatlari bo'ylab samarali mo'ljallash va turar-joy hamda jamoat



Markaz-5 mikrorayonda ikki qavatli blokli turar-joylar, 1967-y. Arxitektorlar B. Rubanenko, M. Vladimirova. Umumiy ko'rinishi va tarhi.

binolari almashib keladigan qurilish silsilasini vujudga keltirish asos qilib olingan. Ansamblli kompozitsiyada tik dominantlar qo'llangan. Masalan, M-4 mikrorayonida to'qqiz qavatli turar-joy uylari turar-joy jamg'armasining 64 foizini tashkil etadi. M-5 mikrorayonida to'qqiz qavatli turar-joy uylari 37,2 foizni, ikki qavatli uylar 2,8 foizni tashkil etadi. Kamqavatli binolarning majmua tizimiga kiritilishi amaliy jihatdan o'zini oqlagan va xususan shu hudud iqlim xususiyatlariga va O'zbekiston aholisining barqaror maishiy an'analariga javob beradi.



**Toshkent. Markaz-7 mikrorayoni
(Ukraina) maketi,
1966-y. Arxitektorlar
L. Gusayev, I. Dikareva.**

«Ukraina» mikrorayoni shahardagi asosiylaridan biri, u poytaxt markaziy qismida joylashgan. Mikrorayon perimetral qismiga olib chiqilgan to'qqiz qavatli sinchli-panel turar-joy uylari Sh. Rashidov markaziy shohroxi va muyulishda unga tutash Kosmonavtlar ko'chasi qurilishida arxitektura ahamiyati kasb etadi.

Sh. Rashidov ko'chasiga kiruvchi, 198 xonadonli 10 qavatli turar-joy Markaziy univermag binosi bilan birgalikda mikrorayonning shaharsozlik inshootlari hisoblanadi. Qurilish kompozitsiyasining tabiiy va izchil davomi — qo'shaloq bir seksiyali to'qqiz qavatli turar-joy va ularga tutashtirib qurilgan savdo korxonalari va maishiy xizmat uylaridir. Bosh fasad qismining arxitekturaviy yechimi balkonlarni ajratib turuvchi buriluvchan tik quyoshqaytargich qurilmalari va unsurlarini, balkonlarni birlashtirishi asosiga hal etilgan.

Mikrorayon to'rida joylashgan uzun-uzun turar-joylari ko'pqavatli uylarga tagzamin bo'lib xizmat qiladi. Mikrorayonni Kiyev ZNIIEP ishtirokida Ukraina Davlat Qurilishining Giprograd jamoasi loyiha-lashtirgan.

Moskva arxitektorlari va muhandislari shaharni qayta tiklashga katta hissa qo'shdilar (Chilonzordagi mikrorayonlar va shaharning markaziy qismi).

Shahar markazi bosh rejasiga muvofiq bu mikrorayonlar qurilishi Amir Temur xiyobonini yoydek o'rab olib, uzunligi yarim kilometr keladigan shinam savdo-jamoat ko'chasi tashkil etgan. Majmualar birinchi qavatida xizmat ko'rsatish muassasalari bo'lgan qator seksiyali to'qqiz qavatli uylar bilan ochilgandek ko'rinadi. Shahrisabz (sobiq


Birinchi may) ko'chasi yoqalab joylashib, ular markaziy shohrohlardan biri – Mustaqillik (sobiq Pushkin) ko'chasiga olib boruvchi o'ziga xos «darvoza»ni vujudga keltiradi.

Har bir uyning ancha uzun bo'lishi (250 m.) bir maromdagi yirik almashuvlar bilan majmuaning hajm-kenglik yechimini yuzaga keltirgan. Rejada egma shaklga ega bu uylar plastikasining boyligi va arxitekturaviy ishlovi, rejalashtirilishining qulayligi va yaxshi o'ylab joylashtirilganligi bilan ajralib turadi; barcha yo'laklar hamda qo'shimcha xonalar shohroh tomonga qaratib qurilgan; yashash xonalari va balkonlar esa mahalla ichkarisiga qaragan.

O'rta Osiyo turar-joyining tarkibiy qismi bo'lmish balkonlar ayni vaqtda quyosh to'sqich vositasi va yilning issiq fasllarida oila turadigan qo'shimcha xona bo'lib xizmat qiladi.

Oshxona va balkon bilan bevosita bog'liq umumiy turar-joy xonasi xonadonga kiraverishda joylashgan. Sanitariya tarmog'i bilan guruhlashgan yotoqxonalar xonadon to'rida joylashgan. Uylarning bunday rejalashtirilishi, shuningdek quyoshqaytargich talablari ma'lum darajada devorlarning tashqi ko'rinishini belgilab bergan.

Birinchi qavatlarda joylashgan savdo va maishiy xizmat muassasalari – «Bolalar dunyosi» do'koni, qahvaxona, omonat kassa va hokazolar mikrorayonlar qiyofasini ancha boyitadi. Mustaqillik (sobiq Pushkin) ko'chasidagi M-1 mikrorayon tarkibiga kiruvchi uchta to'qqiz qavatli



Toshkent M-1 va M-2 turar-joy mikrorayonlar loyihasi 1967-y.
Arxitektorlar V. Ginzburg Yu. Raninskiy, A. Rochegov (Mosstroyekt-1).



Toshkent. M-27 mikrorayonidagi to'qqiz qavatli yirik panelli turar-joylar, 1974-75-yy. «Toshgiprogor» instituti.

li barcha yashil butalar saqlanib qolgan.


Toshkent markazining zilziladan keyin yuzaga kelgan turar-joy majmualari tahlillari turar-joy muhiti sifatida katta o'zgarish ro'y berganidan dalolatdir. Markazning yangi turar-joy mavzolari xilma-xil va qiziqarli, turli rejaviy kesma bo'yicha – erkin, ko'ndalang, chidamli tarzda qurilgan.

Toshkent markaziy tumani g'arbiy qismida joylashgan M-26, M-27 mikrorayonlari (arxitektorlar G. Korobsev, I. Koptelova, S. Odilov va boshq.) qiyofasi qiziqarli, ularning qurilishi Talabalar shaharchasini shahar markazi bilan bog'lovchi tuzilmaviy shohroh (shimoli-g'arbiy «nur») – Beruniy shohroxini vujudga keltirgan.

Bu mikrorayonlar yirik panelli ikki, to'rt va to'qqiz qavatli uylardan tashkil topib, ularda jimjimador panjaralar ko'rinishidagi industrial stasionar quyoshqaytarg'ichdan keng foydalanilgan, panjaralar guldor bezak, shuningdek Abu Rayhon Beruniy ilmiy ishlari mavzusidagi yirik sopol suvratlar hosil qilgan.

Mazkur hudud uchun an'anaviy «mahalla» tizimiga xos aholi demografik tuzilmasi va oilaviy tarkibini, an'anaviy turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga asoslangan arxitekturaviy-rejaviy tashkillashtirish mikrorayonlarning o'ziga xos sifati bo'lib qoldi. Bu xususiyat mahalla aholisining qator faoliyatlari umumlashmasini saqlab qolishga intilishdan iborat.

Shunga muvofiq mikrorayonlarni rejalashtirish 2-3 ming nafar aholiga mo'ljallangan qator turar-joy hosillarini o'zida namoyon etadi.



Toshkent. M-27 mikrorayonidagi qavatlarda hovli tashkil etilgan to'rt qavatli eksperimental turar-joy, 1975-y. Arxitektorlar G. Korobovsev, X. Xalilova.

Ular turli qavatli turar-joy uylaridan tashkil topgan. Xonadon nomenklaturasi qayta qurilayotgan hudud aholisining demografik tuzilmasini ta'minlaydi.

Mahalla markazida qurilgan maxsus jamoat bino aholining barcha zaruriy tadbirlarini o'tkazishga mo'ljallangan.

Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Nukus va boshqa shaharlarda ham ana shunday mikrorayonlar qurila boshlandi.

Xonalarning O'zbekiston sharoitlari uchun an'anaviy o'zaro bog'liqligi Mosproyektning M-1 va M-2 mikrorayonlarida qurgan turar-joy uylarining yakka tartibdagi turkumida amalga oshirilgan. «Umumiy zona — oshxona — yozlik xona» tarmog'i bu yerda xonadonning jamoat mintaqasini yuzaga keltiradi (ovqatlanish, uydagi mehnat, bo'sh vaqt) va yashash uchun qulaylik tug'diradi. Xonadonning shaxsiy mintaqasi ozodalik va hordiq uchun mo'ljallangan yotoq xonasi va vanna xonasidan iborat. Mazkur xonadonlar rejasida 1-TJ-401 loyihasidagidek chuqur idish yuvg'ichli oshxona qulay o'rnatilgan, zinapoya ustidan joy olgan ayvon oralig'ida kir yoyadigan xona ham qulay joylashgan.

Toshkentni qayta tiklashda qurilishning qurilish tajribasida birinchi marta ikki qavatli g'ishtin blokli turar-joy uylari turkumi loyihalari qo'llangan edi, ular 1967 yilda turar-joy loyihalash SNIIEP institutida ishlab chiqilgan. Undan Rossiya Federatsiyasi mikrorayonlaridagi to'rt, to'qqiz qavatli turar-joy binolari bilan bir qatorda aralash uylar qurilishida ham foydalanilgan edi.

Blokli uylar katta oilalarga mo'ljallangan to'rt, besh xonali xonadon bloklaridan shakllangan. Turkum blokli uylarning to'rt xilini o'z ichiga oladi:


– besh xonali xonadonlari bo'lgan olti xonadonli (1 xil), ikki qavatli bloklardan jamlangan, shaxmat tarzida joylashgan;

– besh xonali xonadonlari bo'lgan sakkiz xonadonli (4 xil), bloklar ikki qator qilib o'rnashgan;

– besh xonali xonadonlari bo'lgan to'rt xonadonli (3 xil), bloklar bir qator qilib o'rnashgan;

– to'rt xonali xonadonlari bo'lgan besh xonadonli (4 xil), buning bloklari ham bir qator qilib o'rnashgan.

Xonadonlarning xonalari keskin mintaqalashtirilgan: birinchi qavatda – dahliz, umumiy xona va oshxona, ular ko'chma to'siq devor bilan ajratilgan, shuningdek sanitariya tarmog'i.



Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik opera va balet teatri, 1947-y. Arxitektor A. Shchusev. O'zbekiston xalq ustalari ishtirokida.

Besh xonali xonadonlarning birinchi qavatida: bir yotoq xona, undan kabinet qilib foydalansa bo‘ladi. Ikkinchi qavatda uchta yotoq xona va mushtarak sanitariya tarmog‘i bor. Yotoq xonalardan biriga kichikroq balkon tutashgan. Rejalashtirishdagi qayta afzallik – uylarning barcha namunalaridagi har bir xonadon oldida 50 kv.m ga yaqin maydonli ochiq sahn mavjud, unda yozgi oshxona, oldi to‘silgan shiyponcha va choqqina hovuzcha bor. Xonadonga tutash sahning bir qismi ham shiyponcha bilan to‘silgan. Umumiy xona sahncha bilan tutash. Iqlimiy sharoitlar sahndan yilning katta qismida qo‘shimcha xona sifatida foydalansa bo‘ladi.

Umuman uylarning kompozitsiyasi, tuzilmasi, devorlari va sahnchalar xalq turar-joyini O‘rta Osiyo issiq iqlimidagi hayot sharoitlarini aks ettiruvchi milliy an‘anaviy yechimlar hisobga olinib hal etilgan.

2.6. Jamoat binolari

Eng yaxshi milliy va mumtoz an‘analarni birlashtirish uslubiyati urushdan keyingi yillarda qurilgan qator jamoat binolari arxitekturasi mujassam. Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik opera va balet teatri binosini O‘zbekiston arxitektura yo‘nalishi katta yutug‘i deb e‘tirof etish lozim (1947-yilda qurib bitkazilgan, arxitektor A.Shchusev, xalq ustalari Sh. Murodov, K. Jalilov, V. Boltayev, aka-uka B. Jo‘rayev va D. Jo‘rayevlar, A. Abdurahimxo‘jayev, M. Isamuhamedov, M. Rajabov). Teatr binosi maydonda dominant hisoblanib mahobatli bo‘lib turadi va bosh fasadi maydon o‘qini davom ettiruvchi, keyinchalik «Toshkent» (hozirda «Toshkent-Palas») mehmonxonasi binosi qurilgan keng Buyuk Turon ko‘chasiga qaragan.


Reja tarhi xiyla murakkab. To‘rt burchak shakldagi tomosha zali 1400 o‘ringa mo‘ljallangan, binoning arxitekturaviy badiiy qiyofasi mumtoz kompozitsiyalar birikuvi asosida yaratilgan bo‘lib, unda O‘rta Osiyo arxitekturasi usullari bilan hamohang.

Old tomonda uch darvozali ark ko‘rinishi baquvvat peshtoqning dastlabki tarhi saqlanib qolgan. Deyarli yarim doirali arklar xiyol uchli qilib qurilgan. Ilgari peshtoq ustunlari uchlariga haykallar o‘rnatilishi mo‘ljallangan bo‘lsa, keyin ular o‘miga O‘rta Osiyo minoralarini esga soluvchi serbezak minorachalar tiklangan. Peshtoqning o‘rta qismidagi ustunlarida milliy uslubda naqshlangan qo‘shaloq ustunchalar biriktirilgan. Yon va orqa devorlarda quyosh to‘siqich vositasi sifatida arkli ko‘rinish takrorlanadi. Ularga och sariq tusdagi ajoyib g‘isht

terilmalari tagzamin bo'lib xizmat qiladi. Intererlar arxitekturasi undanda jozibaliroq. Vestibyl, katta foye, kularlar yop-yorug', keng, bir-biriga mutanosib. Asosan ganchda ishlangan bezaklar hamma joyni to'ldirib turibdi. O'zbek xalqining badiiy-bezak an'analari asosan olti kular – zalida mujassam, ularda Buxoro, Samarqand, Xorazm, Farg'ona, Termiz va Toshkent maktablarining mahalliy arxitekturasi namoyon.

Bu arxitektura maktablari an'analarida xalq ustalari suvratlari bo'yicha katta did va mahorat bilan xalq naqshlari namunalari yaratilgan. Teatrning bezak-badiiy qiyofasi katta foyedagi Alisher Navoiy asarlari mavzuiga ishlangan katta tasviriy panno bilan to'ldirilgan. Sharqona miniatyura uslubi bu yerda monumental rangtasvirga moyil. Xalq rassomi Chingiz Ahma-rov ganch devorga ishlagan panno mutlaqo zamonaviy ruh kasb etgan.

Milliy shakllar foydalanilgan 50-yillar arxitektura yo'nlishiga boshqa misol Sovxozlar xalq komissarligi uyi – Toshkentdagi Navoiy ko'chasida joylashgan Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi binosidir (arxitektor S. Bulatov). Uzoq vaqt loyihalashtirilgan va qurilgan bino



Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik opera va balet teatri 1947-y. Teatr tarhi. Tomosha zalining interyerlari.

rejada P-simon shakl olgan, yon qanotlari simmetrik, ichki hovlilidir, maydoni kichik bo'lganidan undan foydalanib bo'lmaydi. Katta eshikdan kiraverishdagi markaziy uch yo'lli zinapoya yuqori qavatlariga olib chiqadi. Binoning uch qavatli hajmi gorizontol bo'yicha ikki yarusga bo'linadi, quyidagisi ikki qavatli balandlikda alohida derazalar bilan bo'lingan bo'lib, shakllar birligini yaratgan; baquvvat yetti qanotli peshtoq o'qsimon ark qo'rinishida bo'lib, ularga yarim doirali ustunlar yopishtirilgan va tepasi muqarnas araqiy bilan tugallanib, mutlaqo bezak tusini olgan.

Inshootdagi mumtoz tuzilish usullari milliy arxitektorlikning bezak me'yorlari bilan uyg'unlashib ketadi. (Loyihalashtirish 1944-yilda boshlangan, ko'plab nusxalari ishlangan, 1957-yilgacha qurilgan). Toshkentdagi Movarounnahr ko'chasida joylashgan ma'muriy binolar (sobiq qurilish vazirligi, arxitektor A. Petrosov, 1952-56-y.y.), Farg'ona viloyat hokimiyati binosi (arxitektorlar A.Yakushev, K. Kryukov, 1954-y.) va hokazolar boshqacha, mumtoz order - tik yo'nalishli tizimda hal etilgan.

50-yillar o'rtalari mahalliy arxitektura amaliyotining ijodiy yo'nalishlari va alohida xususiyatini yorqin ifoda etilishiga Toshkentdagi Hukumat uyi va Toshkent aerovokzali binosini (qayta ishlangan) misol qilib keltirish mumkin. Oliy Kengash zallari bo'lgan sobiq Hukumat uyi (1951-y, arxitektor S. Polupanov)ning 1951-55-yillarda o'tkazilgan qayta qurish loyihasida tashqi ta'sirchanlikka zo'r berilgan.

Xizmatchi xonalar rejasida ortiqcha dabdabaga yo'l qo'yilgan: 54 kv.m maydonli to'rtta kabinetga ikkita zinapoya va har biri 64 kv.m maydonli ikkita qo'shchiroq vestibuldan chiqib boriladi. Ikkinchi qavat ustidagi yoritilmagan 350 kv.m maydonli qavat avvaliga tayinli xizmat qilmagan. Keyinchalik u yerga qo'lbola chiroq olib kirilib, majlislar zali qilingan. Qurilish jarayonida loyiha ixchamlashtirilgan, ammo shunga qaramay, bino bezak-ko'rgazma tus kasb etgan.

O'zbekistondagi klublar va madaniyat saroylari 40-yillarning oxiri 50-yillar boshida asosan Moskva hamda Toshkent institlari ishlab chiqqan yakka tartibdagi loyihalar bo'yicha qurilgan. Ularning qiyofasi sobiq Ittifoqning boshqa shaharlaridagi xuddi shunday inshootlardan farq qilmagan.

Mahalliy arxitektorlar Rossiyaning o'rtta qismi uchun klublar tipik loyihalariga qo'shimchalar kiritishgan, xolos. Bunda asosiy e'tibor O'zbekistonga xos sharoitlarni hisobga olmay, tashqi arxitekturaka qaratilgan. Shamollatishni talab etuvchi yozlik xonalar qurilishi, yilning

7–8 oyi davomida ayrim tadbirlarni ochiq maydonda o‘tkazish imkoniyati munosabati bilan doirali xonalar miqdorini qisqartirish kabi mahalliy iqlim sharoitlari, shuningdek, ko‘pincha seysmik talablar ham hisobga olinmagan.

Ayrim tomoshabop va boshqa jamoat inshootlari rejasida O‘rta Osiyo xalq ijodi an‘analari bilan bog‘liq yarimochiq hovlilari kompozitsiya afzal ko‘rilgan. Ular arxitekturasida yo‘laklar, ayvonchalar keng qo‘llanilgan. Bunday inshootlar orasida Yangiyo‘ldagi ikki zalli kinoteatr (arxitektorlar A. Boboxonov, M. Bulatov), «Toshkent» aerovokzali (me‘morlar M. Kondakova, I. Merport) va hokazolar mavjud.

Chirchiq markazidagi ikki-uch qavatli turar-joylari qurshovidagi maydonda 1956-yilda Kimyogarlar saroyi qurilgandi (1949-yil, arxitektor A. Petrosov, muh. Yu. Seleznev, A. Asanov). Maydon o‘qida joylashgani bois bino zich uylar o‘rtasida savlat to‘kib turibdi, maydon tuman markazi bo‘lib xizmat qiladi va Zaxariq kanali tomonga qarab ochiladi. Klubning bosh fasadi Alisher Navoiy ko‘chasiga parallel va shimoli-g‘arbga qaragan. Klubning hajm-kenglik tuzilishi mualliflarning inshootga janubcha tus berishga intilganlarini ko‘rsatadi, unda o‘zbek milliy arxitekturasiga oid favvorali chog‘roq hovli, ayvonlar, yo‘laklar qad ko‘targan. Bekobod shahridagi Metallurklar madaniyat saroyi (arxitektor A. Boboxonov, 1950–1960-yillar)dan o‘rtasida ikki-uch qavatli ishchilar manzilgohi uylari joylashgan markaziy maydon kaftdagidek ko‘rinib turadi. Umuman muallif xonalarning yaxlit va tejamkor guruhini yaratgan.

Mazkur loyihada oldingilaridan farqli o‘laroq klub xonalari uchun alohida eshiklar mo‘ljallangan bo‘lib, bu ulardan foydalanish tartibini yaxshilagan. Bosh va yon fasadlar yechimida xalq arxitekturasi uchun xos ayvon qurilgan, unda shimol tomondan tomosha zaliga tutash katta eshik oldida kassali vestibul joylashgan. Ayvon usuli umumiy yechimda g‘oyat muvaffaqiyatli chiqqan, ammo muallif to‘sinli tom o‘rnida qo‘llagan ravoq devorga ortiqcha yuk bo‘lib tushgan.

Muallifning xalq ustalari bilan hamkorligi e‘tiborga molik. Ayvon shiftlariga xalq rassomi Usta Rauf va shogirdlari ajoyib naqshu nigorlar chekishgan. Ichkari, shift, foye va kulflar bezagida ham o‘zbek naqshu nigorlaridan foydalanilgan. Shuni ta‘kidlash joizki, butun respublikada turli hajmdagi ko‘plab klublar arxitektor A. Boboxonov loyihalari bo‘yicha qurilgan va tabiiyki, ularning rejaviy tuzilmasida ko‘plab umumiyliklar mavjud; klub binosi rejasini simmetrik tuzilishdagi yagona hajmga ega, tomosha zali bino o‘qiga ko‘ndalang tarzda joylashgan;

foye va vestibul yaxlit hal etilgan, klub xonalari esa tomosha zali va markaz atrofida joy olgan.

Samarqanddagi superfosfat zavodi manzilgohidagi 500 o‘rinli, Chirchiqdagi 500 o‘rinli va Qo‘qondagi 400 o‘rinli klublar ana shunday. Farg‘onaning Qirguli manzilgohi markaziy qismida 1956-yilda qurilgan 600 o‘rinli klub bundan mustasno. Bu yerda tomosha, sport va ma‘ruza zallari A. Boboxonovning bundan oldingi loyihalaridan farqli o‘laroq ikkinchi qavat darajasida joylashgan, bu seysmik jihatdan nomaqbul va foydalanish uchun noqulay. Afsuski, O‘zbekistonning ko‘plab kinoteatrlari (50–60-yy. Gipokino (Moskva)ning tipiy loyihalari bo‘yicha qurilgan, u yerda jiddiy o‘zgarishlarsiz temir-beton karkas va yig‘ma bo‘laklar qo‘llanilgan. Toshkentdagi «Chayka», «Moskva», Navoiydagi «O‘zbekiston» va boshqalar kinoteatrlar shu taxlit bo‘lib, ulardan foydalanish bu loyihalarning O‘zbekiston sharoitlariga to‘g‘ri kelmasligini ko‘rsatgan.

Industrialashtirish va tipiylashtirish (birxillashtirish) jamoat binolari tipologiyasiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi. Mikrorayonlar va turar-joy tumanlari jamoat markazlarini loyihalashtirish hamda qurish, binolardan nusxa olish g‘oyasi zarurligi yuzaga keldi. Bu yo‘nalishda Toshkentning Chilonzorida qurilgan turar-joy tumani savdo markazi (arxitektorlar V. Spivak, V. Roshchupkin, I. Koptelova va boshqalar, 1962-y) nafaqat O‘zbekistonda, balki undan tashqarida ham birinchi edi. U 48 ming aholiga xizmat ko‘rsatishi lozim edi. Bu yerda savdo, umumiy ovqatlanish (restoran, oshxona, qahvaxona, tamaddixona) va aholiga yalpi xizmat ko‘rsatish uchun zarur maishiy xizmat muassasalari joylashgandi. Savdo markazining arxitekturaviy-rejaviy yechimi 6x6 m rejaviy o‘lchamdagi alohida bloklardan foydalanishga asoslangan va birgalikda yagona rejaviy vujudni yuzaga keltirgan. Savdo markazining negizini tashkil etuvchi va mavsumli savdo uchun foydalaniladigan hovlicha ham kompozitsiyaga kiritilgan. Foydalanish tajribasi ko‘rsatadiki, hovlicha sahni kichik bo‘lib, ko‘zlangan vazifani bajarishga qodir emas ekan.

Savdo markazi binolari ichida ikki qavatli blok – birinchi qavati «Gastronom»ga berilgan univermag binosi fasad yechilmasi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Savdo zallari xaridorlar bemalol mol xarid qiladigan etib qurilgan va jihozlangan. Yig‘ma temir-beton qismlardan karkas-panel tuzilmasida qurilgan savdo markazi binosi kuchli er silkinishlariga chidamli bo‘lib chiqdi va o‘zining yaxshi zaminga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Bosh fasad arxitekturaviy kompozitsiyasi birinchi qavatdagi gorizontal joylashgan oyna va g'adir-budir dyuralyuminiy varaqlari qoplangan bostirma panelli ikkinchi qavat devorlarining sirti bilan keskin qarama-qarshilikka asoslangan. Bu bilan muayyan tashqi ma'nodorlikka erishilgan, ammo bino faoliyatiga zarar etkazadi, chunki ikkinchi qavat tabiiy yoritqich va shamollatish vositasidan mahrum bo'lib, ish tartibini buzadi. Ayniqsa, bu yozgi mavsumda ko'proq seziladi, devorlarning temir sirti haddan tashqari qattiq qiziydi. Shamol berish qurilmalari esa yaxshi ishlamaydi. Shahar savdo markazi va mikrorayon savdo-maishiy xizmat korxonalari Navoiy shahrida qurilgan, savdo markazlari Toshkentning yangi mikrorayonlarida loyihalashtirilgan va qurilgan.

Taxminan 60-yillardan respublikada savdo inshootlari va uning asosiy qismi – savdo zallarini loyihalashtirishda yangi iznolish yuzaga keldi, u xaridorning bemaol borib, molni tanlab olishiga imkon beruvchi qulay xizmat ko'rsatish rejasiga asoslangan. Toshkentning markaziy qismi – teatr maydoni 1964-yilda yangi – uch qavati Markaziy univermagga ega bo'ldi (arxitektorlar L. Blat, L. Komissar, A. Fraytag).

MUMning P simon rejasi seysmikka qarshi choklar bilan birlashtirilgan uch bo'limdan tashkil topgan. 375 ishchi o'rniga mo'ljallangan, maydoni 9 ming kv.m zallari balandligi 3,85 m bo'lgan do'konning yorug', keng savdo zallari arxitekturaviy rejaviy tuzilmasi savdoning yangi shakllariga ko'ra tashkil etilgan: salonlar, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish tartibidagi savdo, mollarni peshtaxtalarga, stollarga, tokchalarga ochiq terib qo'yish – bular xaridorning molni bemaol tanlashini, mollarning keng namoyish qilishni ta'minlaydi. Birinchi – uchinchi qavat zallari o'zaro zinapoyalar va eskalatorlar bilan bog'langan. Intererining kenglik asosi – katta uchnefli zalda texnologiya va arxitekturaviy kompozitsiya masalalari mohirona hal etilgan bo'lib, yangi pardozi ashyolari keng foydalanilgan. Simmetrik kompozitsiyali MUM binosi mahobatli, monumentaldir. Shimolga qaragan bosh va yon fasadlar katta oynavand vitraj ko'rinishida hal etilgan, u birinchi qavat darajasidagi temir-beton ustunlarga tayangan va savdo zallari intererini ochib beradi. Birinchi qavat devorlari yaxlit peshtaxtalar tasmasi bilan aylantirib chiqilgan, faqat univermagga kiraverishdagina uzilgan bo'lib, yuqori qavatlariga nisbatan birmuncha ichkariroqqa olingan.

Jamoat binolari arxitekturasi sport inshootlari alohida o'rin egallaydi – ular shaharlar va manzilgozlar arxitekturaviy majmualariga muhim tarkibiy unsurlar bo'lib kiradi.

Mamlakatning eng yirik o'yingohlaridan biri «Paxtakor» (1957-y, arxitektorlar M. Bulatov, L. Karash) Toshkenining sobiq Jartegirmon chuqurligida 17 ga maydonda joylashgan, unga Bo'zsuv anhorlarining sermanzara sohilidagi sobiq botanika bog'ining dov-daraxtlari qo'shilib ketgan.¹ «Paxtakor» o'yingohi rejayiy loyihaga ko'ra to'rt asosiy darvozaga ega: shimolda — Navoiy ko'chasidan, sharqda — Bo'zsuv anhuri bo'yidan, janubda — O'zbekiston ko'chasidan va g'arbda — Furqat ko'chasidan kiriladi. O'yingoh suyri shakldagi ulkan yashil kosani eslatadi.

55 ming tomoshabinni bag'riga oladigan katta sport maydonidagi tribunalar tutuvchi qurilmalarsiz tuproq ustidan, tabiiy relefdan foydalanib qurilgan. Kosaning yuqori qirrasida sport maydonidan 11,6 m, o'yingohni qurshab olgan tevarakdan 5 m ko'tarilib turadi. O'yingoh tribunalarini to'ldirish va ko'chirishni yaxshi tashkil etish uchun uch aylanma xiyobon loyihalashtirilgan. Yuqorigi va pastki aylanma xiyobon o'yingoh parametri bo'yicha ulangan. Skameykalar ko'rinishidagi tribunalarining umumiy uzunligi 25 km ni tashkil yetadi, 48 sektordan iborat va har birida 46 tomosha qatori mavjud. Barcha nuqtalardan o'yingoh kaftdagidek ko'rinib turadi.

Toshkentning iqlim sharoiti va joyning relefi loyihachilar oldiga qator o'ziga xos muammolarni qo'ydi. Birinchidan, kechki soatlarda, quyosh botgandan keyin mikroiklim birdan yaxshilanib, o'yingohdan foydalanishni ta'minlash. Bu vazifa yashil qatlamni sug'orish uchun sug'orish-yuvish suv quvuri o'rnatilishi va minbarlardan tashqarida sakkizta jimjimador temir minora tiklanishi bilan hal etilgan, minoralarda yorug'lik manba—projektorlar o'rnatilgan. Ajriq barqaror maysa qatlamini yaratib, muttasil ishlab turuvchi drenaj qurilmasi maydonning yog'ingarchilikda botqoqqa aylanib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Sport majmui arxitekturasi talqinida relefni hal etishga, iloji boricha o'simlikni ko'paytirib, manzara hosil qilishga alohida e'tibor berilgan, bu poytaxt mehnatkashlari hordig'i uchun qulay sharoitlar yaratadi.

¹ Shahar markazida Bo'zsuv anhorining o'ng sohilida Hukumat uyining shundoq yonida yaqin o'tmishda Jartegirmon chuqurligi bor edi, u eski shaharni sharqdan g'arbgacha kesib o'tadigan Chorsu jarligining boshlanishi edi. Toshkent qariyalarining aytishicha, chuqurlikning yassi tubi bir vaqtlar xalq yig'inlari bo'ladigan joy ekan, u yerda kurash, uloq, dorbozlik singari xalq o'yinlari va musobaqalar o'tar ekan. Uzoq yillar chuqurlik chekkasida ajoyib suv tegirmoni yurib turgan va chuqurlik shundan Jartegirmon degan nom olgan ekan.

1964-yilda Toshkentdagi Shahrisabz (sobiq Birinchi may) ko'chasida joylashgan sobiq «Pishchevik» o'yingohi hududida usti yopiq suzish havzasi qurilgan edi. Havza yaxshi joyda o'rin olgandi — u bolalar bog'i hududiga tutash bo'lib, undan foydalanish uchun zarur issiq suv va bug' manbalari topilgan joyda edi. Topshiriq loyihasi sakkiz ballik zilzilani hisobga olib, foydali, yengillashtiruvchi qurilmalar (yig'ma temir-beton arklar, ular 6 m masofada bir-biriga parallel qilib joylashtirilgandan foydalanib) Giprosport tipiy loyihasi asosida ishlab chiqilgan (1958-y arxitektorlar L. Lezovskaya, L. Chukseeva). Arklar-ning uzunligi 35 m, ularning ustidan temir-beton plita tom yopilgan, ichkarining haroratini mo'tadil saqlab turuvchi bu qurilma qurilish ishlarining eng ko'p darajada industriallashtiruvini ta'minlagan. 21x50 m hajmidagi qozon vanna havzaning negizi hisoblanadi, uning tagida tashqi kiyimlar xonasi, shamollatish xonasi, qozonga suv berish xizmati bo'yicha texnik xona joylashgan. Fasadlar arxitekturasini hal etishda mualliflar ichki amaliy mazmunni, shuningdek inshootning sport tabiatini ifoda etishga harakat qilganlar. Butun inshoot karamzit beton panellar bilan to'sib chiqilgan va qurilma ichkarisi ko'rinib turuvchi temir panjaralarga katta-katta shisha varaqlari qoplangan. Asosiy devorning katta vitrajiga tutash bosh eshik ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar yaxshi, reja chuqur va yaxshi o'ylangan, biroq bino qurilishida janubiy koloritning o'ziga xosligi yetishmaydi. Bu jihatdan Navoiy shahridagi yozgi suzish havzasi maqtovg'a sazovor — Giprosport tipiy loyihasi bo'yicha garchi bino faoliyatini yaxshilash maqsadida bir muncha ishlov berilgan bo'lsa-da, hajm bo'yicha ixcham va arxitekturasi o'ziga xos. To'rtburchak shakldagi vannalari bo'lgan ochiq sun'iy vannalar mavjud, ularning atroflarida qishki va yozgi xonalar joylashgan. Namunaviy loyihani qayta ishlash natijasida (arxitektor L. Lavrov, muhandis V. Kurennoy) foydalaniladigan tom qurilgan, u yer yuzasi bilan ikki temir-yog'och zinapoyalari bilan ulangan. Bino quyoshto'sg'ich bostirma ko'rinishidagi qurilmalar bilan jihozlangan, ular foydalaniladigan tom ustidan yassi asbosement varaqlaridan, shuningdek yoriqlarni to'ldirish uchun «IJ-1» bloklaridan ishlangan.

O'zbekiston ko'chasidagi 1964-yilda qad ko'targan ma'muriy bino va Panorama kinoteatri (hozirgi Alisher Navoiy nomidagi kino saroyi) jamoat binosi qiyofasini yaratishda katta yutuq bo'ldi.



O'zbekiston ko'chasidagi ma'muriy bino (arxitektorlar A. Faynleyb, V. Berezin, S. Eshonxo'jayev, Yu. Xaldeev, muhandis E. Lenneshmidt

va boshq.) shaharning markaziy qismida Boʻzsuv anhuri yonida maydonning yuqori pogʻonasida joylashgan va tevarak-atrofdan baralla koʻrinib turadi.

Maydonning kenglik kompozitsiyasi podʻezdlarni, binoga olib keluvchi keng zinapoyalar yam-yashil qiyaliklarni, anhor tomondagi tayanch devorlarni oʻz ichiga oladi. Rejalashtirilgan yer maydoni qarshidagi sobiq Gagarin bogʻi va Boʻzsuv anhor sohili bilan yaxshi kirishib ketgan. Arxitektorlar maydon relefidan muvaffaqiyatli foydalanganlar. Bino majmui ikki blokdan iborat — asosiy maʼmuriy bino va yoʻlak bilan ulangan majlislar zali. Kompozitsiya majlislar zalining pastak bloklari bilan maʼmuriy bino baland hajmining qarama-qarshiligiga asoslangan. Fasadlar oddiy va shinam. Maʼmuriy binoning oldi shimolga qaragan va temir-beton qobirgʻalar yaqqol ifoda etilgan (3,6 m oraliqda), ular oynavand boʻlib, tik alyuminiy toʻsiqlar bilan boʻlaklarga boʻlingan. Devorning yotigʻiga boʻlinishi birinchi va oxirgi (texnik) qavatni boʻrttirib turadi; zamonaviychasiga qurilgan ulkan soyabon katta eshik shu yerdaligini bildiradi. Janubga qaragan va quyoshdan himoya qilingan asosiy binoning hovli devori panalagichlarga boy hamda janubiy tusga ega. Katta-katta yuzali oynalar, qator ustunlar va yaqqol koʻzga tashlanib turuvchi toʻsiqlar ham majlislar zali bloki meʼmorchiligiga



Toshkent. Oʻzbekiston koʻchasidagi maʼmuriy bino, 1964-y.
Arxitektorlar A. Fanleyb, V. Berezin, S. Eshonxoʻjayev, Yu. Xaldiyev.



**Toshkent. Navoiy ko'chasida
Ponorama kinoteatri
(hozirgi Alisher Navoiy nomidagi
kino saroyi) 1964-y.
Arxitektorlar**

**V. Berezin, S. Sutyagin,
D. Shuvayev, Yu. Xaldeeov,
muhandislar D. Antmyan,
A. Braslavskiy.**

xos. Blokning asosiy fasadi janubga qaragan va alyuminiy varaq-
laridan qilingan tashqi qo'zg'almas quyosh qaytarg'ich panjaralar bilan
ta'minlangan. Bu erda ham soyabon oldinga turtib chiqqan. Janub
tomondan temir-beton uyachalaridan yasalgan qutisimon quyosh
qaytargich qo'llangan. 2200 odamga mo'ljallangan ko'pmaqsadli zalli
sobiq Panorama kinoteatri hozirgi A. Navoiy nomidagi kino saroyi
binosi «Paxtakor» o'yingohi, Yoshlar uyi va yashil esplanada bilan
birgalikda shahar markazi tarkibiga kiradi (arxitektor V. Berezin, S.
Sutyagin, D. Shuvayev, Yu. Xaldeeov, muhandis A. Braslavskiy va
boshqalar). Kinotetrining tomosha zali alohida joylashgan. Foyeli va
vestibyulli ikki qavatli pavilon unga tutash. Har ikkala qism 14 m
enlikdagi oynavand yo'lak bilan tutashtirilgan. Qismlarning har biri

qat'iy zilzila bardosh kenglik tizimini o'zida namoyon etadi. Ikki qavatli pavilonning birinchi qavatida kassali vestibyl, ma'muriy xonalar va kiyimxonali vestibyl joylashgan, ular kinoteatr vestibyli bilan bevosita bog'langan. Ko'pmaqsadli tomosha zali aylanaga moyil suyri shaklga, 57–54 m o'qlarga ega. Uning amfiteatr echimi barcha tomosha qilish o'rinlaridan to'kis ko'rib turishni ta'minlaydi. Zal devorlari temir-beton qobiqlar yuzaga keltirgan bo'lib, bo'rtiq tomoni zal ichkarisiga qaragan. Uyachali shift perforirlashtirilgan alyuminiydan yasalgan, unga lyuminessiya va shisha chiroqlar o'rnatilgan. Kinoteatr intererini monumental suvratlar hamda sopol buyumlar qo'llangan.

Kurort shahar Sochi markaziy qismining manzarador murakkab relefida joylashgan «O'zbekiston» sanatoriyasi majmui (arxitektorlar B. Usmonov, I. Yaroshevskiy, D. Latipov, 1977-y.) yaxshi topilgan miqyos sharofati bilan atrofdagi joy tuzilishiga uzviy kirishib ketgan. Kompozisiya 15 qavatli baland yotoq binosining dengiz tomon cho'zilgan va o'rmonli yon-bag'irligiga moslashgan jamoat bloki pog'onalari bilan qarama-qarshilikda tuzilgan. Ularda vestibullar, raqs zali, tomosha zali, oshxona va muolaja qismi joylashgan.

Inshootning arxitekturaviy-badiiy qiyofasi zamonaviy an'anaviy usullar bilan chatishib ketgan, rejalashtirishda va qurilishda landshaft, mikrofelef, yassi tom, hovli sahnalari, yo'laklar hamda amaliy san'atning boy xazinasidan keng foydalanilgan.

Rejaviy tuzilmada mualliflar qator qiziqarli echimlar topishga muvaffaq bo'lganlar: masalan, yotoq binosida xonalarni dengiz tomonga qaratish hisobiga (yarimochiq kitob ko'rinishida) qulay iqlimiy va tomosha sharoitlari yuzaga keltirilgan; jamoat blokining taqsimlagich xonalarida (vestibyl, foye, xollar) bir kenglik boshqasiga quyilib ketadigan anfilid usuli qo'llanilgan. Muolaja binosi va ma'muriy qism xonalari mujassam rejada O'rta Osiyo arxitekturasi uchun an'anaviy ichki hovlilar uzunasiga guruhlashtirilgan hamda bir-biri bilan qulay tutashti rilgan. Ayni vaqtda mikroiqlimli, obod hududli va ixcham arxitekturaviy shaklga ega hovlichalar o'z vazifasiga ko'ra butun majmuaning umumiy kompozitsiyasiga uzviy kirishib ketadi hamda mikroiqlim hosil etib, estetik vazifalarni muvaffaqiyatli hal etadi. Hududda o'zbekcha choyxonasi bo'lgan suzuv havzasi qulay joylash-tirilgan.

Mualliflar jamoasi zamonaviy va milliy arxitektura hamda amaliy-bezak san'ati qorishuvi imkoniyatidan keng foydalangan. Sanatoriyaga yaqinlashib borish joyi o'ziga xos echim topgan: unga kiraverishda

mamlakatimiz xalqlari do'stligini timsollashtiruvchi keng hajmdagi relefli panno bajarilgan. Keng tosh zinadan katta vestibulga kiriladi. Vestibul guruhi va xoll interveri ta'sirchan ijro etilgan, unda marmar, labradorit, rangli vitraj va rangli shishadan quyilgan g'aroyib chiroqdonlar, shuningdek bezak ko'katlar bilan birikib ketgan yog'ochdan keng foydalanilgan. Zina orqali vestibuldan raqs zalining foyesiga tushish mumkin, u yerda «Yil fasllari» mavzusidagi panno ishlangan, u yumshoq pastelda bajarilib, nafis billur qandillar osig'liq doirasimon ganchkorlik bilan bezatilgan shift bilan birikib ketgan. O'ymakori ganch billur devor chiroqlari bo'lgan oppoq kino zal shiftini qoplab olgan, u qora-qo'chqil o'rindiqlar va kashtali darpardalar bilan qarama-qarshilik hosil qilgan. Ziyofat zalida O'zbekiston «Shahar-yodgorliklar» mavzusidagi sopol panno ishlangan.

Intererlar tektonikasiga uzviy kirishib ketgan ichki hovlilardagi sopol haykalchalar va guldonlar sirasi g'oyat oddiy hamda ayni vaqtda juda ham nafisdir.

Barcha badiiy bezaklarni O'zbekiston xalq rassomlari Ch. Ahmarov, M. Usmonov va monumental rassomlar A. Kedrin, V. Chub, respublika xalq ustasi N. Ibrohimov va boshqalar ijro etishgan.

O'zbekiston arxitektorlarining ijodiy yo'nalishi yangi teatrlar, mehmonxonalar va hokazolar arxitekturaviy yechimida ayniqsa yorqin namoyon bo'lgan, ularda zamonaviy shakllardagi o'ziga xoslikka intilish kuzatiladi. Navoiy shahar markaziy qismida qurilgan «Farhod» Madaniyat uyi majmui (arxitektorlar I. Orlov, T. Safonova, N. Nazarov, M. Levin, V. Lavrov va boshqalar, 1963-y.) zamonaviylikning eng dolzarb vazifalaridan biri — ilmiy an'analar vorisligi nuqtai nazaridan madaniy va ma'naviy muhitni shakllantirish vazifasini hal etadi. Majmuaning arxitekturaviy-kompozision yechimi O'rta Osiyo arxitekturasi alohida tabiiy-iqlimi, xalq an'alarini hisobga oladi. Madaniyat saroyining rejadagi to'rtburchak hajmi O'rta Osiy arxitekturasi uchun an'anaviy hovli arxitekturasi atrofida shakllanadi, hovli ichki xonalarni yoritish va qo'shimcha foye sifatida foydalanishda ishlatiladi. Obod qilingan hududi, favvorasi, atrofda devorlar arxitekturasi butun majmuaning umumiy kompozitsiyasiga yaxshi kirib ketgan va estetik vazifalarni to'kis ado etadi. Atrof landshaftining shakllanishiga va butun majmua tumanida qulay mikroiklim muhiti yaratishga katta e'tibor berilgan.


Toshkentdagi Rassomlar uyushmasi (hozirda Badiiy Akademiya)ning Ko'rgazma saroyi zamonaviylik va an'anaviylikning muvaffaqiyatli

yo'g'rib ketishiga misol bo'ladi (arxitektorlar F. Tursunov, R. Xayrutdinov, 1974-y.). Uch qavatli bino haykallar ko'rgazmasining tabiiy nur o'tkazgich oynalar bilan yoritilgan ikki yorqin hovlicha(sahn)li zal tevaragiga jamlangan.

Burmalar va naqshlar hosil qiluvchi, moviy koshindor sopol tagzamin ustidan oppoq paxta chanoqlaridan to'qilgan buklama panellar bilan qurshalgan yirik plastika – yon fasadlar ana shunday yechimga ega. Birinchi qavatda butun fasadlar yoqalab haykallar bilan bezatilgan yozgi bog' ekspozitsiyalari uchun yo'lak-ayvon hosil qilingan. Intererlarda ganch va yog'och o'ymakorligi keng qo'llanilgan. Bular barchasida mualliflarning o'zbek xalq arxitekturasi an'alariga yangicha yondoshganlari sezilib turadi.

Markazli kompozisiya, muvaffuqiyatli joylashtirish va yirik miqyos tufayli Tarix muzeyi binosi (arxitektorlar E. Rozanov, V. Shestopalov va boshqalar 1970-y.) Toshkent markazining arxitekturaviy majmuiga yaxshi moslashgan. Muzey shimol tomonidan kiraverish oldidagi favvorali bezak hovuzcha va boshqa marmar devorchalar binoning hajm-kenglik echimini to'ldirib turadi. Old maydondan keng pandus (qiya tekis yo'lak) muzeyning ikkinchi qavatiga, vestibulga olib chiqadi. O'rtadagi zal-muzeyning kompozision negizidir. Muzeyning ekspozisiya xonalari bo'limini temir-beton panjara bostirmalar quyoshdan to'sib turadi. Baland supa ustidagi oddiy kubsimon bino Fozg'on marmaridan yasalgan naqshindor panjara bilan o'ralgan. Ayni vaqtda unda oz miqdorda derazalar ustidan bezakli panjaralar ishlatilgani kishini hayratga soladi, odatda, amaliyotda bunday bo'lmasligi kerak edi, chunki bu bino – muzey. Undagi deraza o'rinlari qimmatli ekspozision maydonni o'g'irlyaydi, buning ustiga xona tabiiy yorug'lik bilan yoritilgan. Bular barchasi muallifning bezakka zo'r berganligini aytib turibdi. Eshiklardagi aniq gullar (xalq rassomi Q. Haydarov), jiddiy va ulkan ganchkori panno (xalq rassomi M. Usmonov) birligida muzeyning mukammal intererini yaratgan.

3000 o'ringa mo'ljallangan Sirkning yangi binosi (arxitektorlar G. Aleksandrovich, G. Masyagin, muhandis S. Berkovich va boshq., 1975-y.) balandlikda, Hamza va Ahmad Donish (hozirda F. Fulom) ko'chalari tutashgan yerda joylashgan. Obod maydon va favvorali xiyobon sirk tevarak-atrofiga uzviy birikib ketgan. Bino pavilon tizimida loyihalashtirilgan bo'lib, xizmat xonalari va ishlab chiqarish guruhlari u bilan tutashib ketgan. Tomosha qismi rom-halqa tizimida hal etilgan. Bino asosiy romlarining haykaltaroshlikka xos nafis qiyofasi fasad va



Toshkent. Sirk binosi, 1975-y.
Arxitektor
G. Aleksandrovich
va boshqalar.
Umumiy ko‘rinishi,
tarhi.



intererning bosh mavzusini tashkil etadi. Binoning tashqi ko‘rinishi uzuk gardishiga o‘xshaydi, uning yuragi – qubba. Ikkinchi qavat sathida konsol foyesi quyoshqaytarg‘ich panjarasining tekis tizilmasini yaratadi. Qubba qismi umumiy arxitektura g‘oyasiga bo‘ysundirilgan o‘z ma‘dan tuzilmasiga ega. Marmar qoplamali baquvvat romlar, chuqur nur to‘sqichlar, unsurlarning haykaltaroshlikka xos qiyofalari binoning yorqin ifoda etilgan xususiyati bilan o‘ziga xos ko‘rinish yaratadi.

Toshkentning yirik jamoat binolari orasida 17 qavatli «O‘zbekiston» mehmonxonasi ajralib turadi (arxitektorlar I. Merport, L. Yershova, E. Rashchupkin va boshq, 1974-yil.) Bino shahar markaziy tumanida savlat to‘kib turibdi. Mehmonxona Amir Temur xiyoboni oldida, Sayilgoh, Movarounnahr, Mustaqillik va Xorazm ko‘chalari kelib tutashgan joyda joylashgan. Binoning bosh fasadi xiyobon tomona qaratib tiklangan va baland supa ustida qad ko‘targan, bosh zina mehmonxona katta eshigiga olib boradi. Mehmonxona ikki qismdan iborat – ikki yoqlama yo‘lak tizimi bo‘yicha 930 o‘ringa mo‘ljallangan turar-joy xonalari joylashgan yuqori qism va unga ikki qavatli bino tutashgan quyi qism. Quyi qismda 450 o‘rinli restoran, 100 o‘rinli

ziyofat zali, 250 o‘rinli qahvaxona joylashgan. Jamoatchilik ovqatlanadigan bino hovuzli, favvorali va butador yo‘lkalari bo‘lgan ichki hovliga ega. Hovuz ustidan choyxona qurilgan. Jamoatchilik ovqatlanadigan barcha zallar ichki hovli girdo-girdida joylashgan, bu yozgi vaqtda hovli va yo‘lakdan ochiq restoran sifatida foydalanish imkonini beradi.

Mehmonxona ochiq kitobga o‘xshaydi. Xonalar quyoshqaytarg‘ichining temir-beton qurilmalar yordamida uning nafisligiga, shuningdek devorning bir tekis qismlarga bo‘linishiga erishilgan. Restoran, qahvaxona, ziyofatlar zali, barning ichkarisi g‘oyat qiziqarli. Restoran zalidagi bo‘rtiq naqshu nigor – interer butun fazosining asosiy kompozision tuguni (rassom V.Chub). Mehmonxona barida «Kecha va kunduz» vitraji (rassom I.Lipenc) bor. Qahvaxona va restoran oralig‘idagi o‘tish joyi – vestibulda o‘zbek xalq ustalari ishlagan ganchkorlik naqshlari ham g‘oyatda jozibador.

Choyxonalar arxitekturasi – an‘analari va yangiliklar qorishmasi. Mahalliy qurilishlarning jamoatchilik turluridan biri choyxona an‘analari



Toshkent. O‘zbekiston mehmonxonasi, 1974-y.
Arxitektorlar I. Merport, L. Yershova va boshqalar.
Umumiy ko‘rinishi, tarhi.

ildizi uzoq tarixga borib taqaladi va amaliy maqsadga muvofiqlik hamda iqlimiy sharoitlar bilan bog'liq. Toshkentda va respublikamizning boshqa shaharlarida ko'plab choyxonalar qurilgan, ularda qiziq rejaviy va plastik (nafosat) tamoyillari hal etilgan. Ular orasida Toshkentdagi «Moviy gumbazlar», «Samarqand», «Salom», «Farg'ona» choyxonalari Namangan, Andijon, Samarqand, Toshkentdagi sohilbo'yi, shahar bog'laridagi «otaxonlar» choyxonalari mavjud. Choyxona yirik mehmonxonalar, jamoat markazlari va hokazolarning jamoatchilik oshxonalarini blokining zaruriy qismlariga aylanib qolgan. Ularda ichkari hovlilar, yozgi ayvonlar, ochiq zinalar, yo'laklar, yassi tomlar, shamollatkich panjaralarini qo'llash kengliklarning aloqadorligini, yoritish tizimini va tabiiy shamollatishni ta'minlaydi. Ko'plab yangi choyxonalar did bilan bezatilgan zallari va boshqa yordamchi zonalar, hordiq chiqarish hamda tamaddi qilishga mo'ljallangan yog'och supa va so'rilar bilan ajralib turadi.

O'zbekiston ko'chasidagi ijtimoiy fanlar akademiyasi (sobiq «O'zbekbirlashuv») ma'muriy-madaniy majmuining hajm kenglik kompozitsiyasi va rejaviy tuzilmasi (Kiyev ZNIIEP) milliy o'zbek arxitekturasi an'analari birmuncha hisobga olingan holda hal etilgan. Hovuzchalari, kichik arxitekturaviy shakllari va ko'kalamzorlari bo'lgan katta hamda kichik hovlichalar tomosha qismi, ma'muriy binosi, mehmonxonaning o'ziga xos avanvestibyuli bo'lib qolgan va yozning issiq sharoitlarida qulay miqroiqlim yaratadi. Birinchi qavat sathidagi hovli-ayvonlar shimol tomondan O'zbekiston ko'chasiga qarab ochilgan, inshootni bu boyitishdan tashqari shamol yurib turishi uchun sharoit tug'diradi.

Navoiydagi savdo va xizmat ko'rsatishni tashkil etishning zamonaviy tamoyillari bo'yicha qurilgan Savdo markazi (arxitektor A. Obrazsov va boshq.) ikkita ichki hovlisi bo'lgan ikki qavatli binodan iborat — ular dam olish joyi va ochiq savdo maydonlari bo'lib xizmat qiladi.


Teatr qurishning g'ayrioddiy asimmetrik yechimini 1965-66 yillarda UzNIIP shaharsozlik arxitektorlar guruhi taklif etgan edi. Uning asosida Nukus, Urganch, Qarshi va Jizzaxdagi teatrlar qad ko'targan. Ularning barchasi bir xil shaharsozlik echimiga ega, shaharlarning markaziy maydonlarida joylashgan va ular majmui shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Ikki asosiy o'q bo'ylab xonalarni tizib chiqar ekan, mualliflar o'qlardan birida zalni, sahna qismini va artistlar xonasini joylashinganlar, ikkinchi o'qdan esa ochiq hovlilar joy olgan; yozgi foye

bo'lib xizmat qiladigan tomosha hovlisi va undan alohida xo'jalik xovlisi mavjud. Hovlifoye atrofida tomoshabinlar uchun vestibyl, qishki foye, mashq xonalari va qahvaxona kabi turli xonalar joylashgan.

Nukus shahrida qad ko'targan Berdaq nomidagi musiqali drammatik teatri (arxitektorlar V. Berezin, Yu. Zakirova) hovli tashqi kenglikdan vestibyl bilan ajratilgan va oynavand vitrajdan ko'rinib turadi. Ushbu musiqali dramatik teatri Nukus shahrida mana shu tarhda qurilgan birinchi bino edi. Yangilikka intilish uning butun qiyofasida aks etib turibdi:

sirti yalpi oynavand — deyarli butun vestibyl va foye tashqaridan ko'rinib turadi, intererda yangi qurilish ashyolarini, jumladan, binoga yuk bosimini ancha pasaytiruvchi shiftlar uchun alyuminiy panjaralarni qo'llash shakli lo'ndaligi va aniqligini ta'minlagan.




Nukus. Berdaq nomidagi musiqali dramatik teatr, 1965-66-yy. Arxitektorlar V. Berezin, Yu. Zakirova. Umumiy ko'rinishi; ikkinchi qavat tarhi.

Iqlimiy xususiyatlar ham, shuningdek ayrim milliy xususiyatlar o'z aksini topgan. Janubga qaragan bosh fasad yechimidagi asosiy sabab quyoshdan himoya qilish uchun tepasidan soyaboni oldinga turtib chiqib turgan ustunlardir.

Boshqa teatrlar loyihalarida Nukus teatrining samarali tamoyillari saqlanib qolgan, ammo shu bilan birga ularning yechimi xiyla takomillashtirilgan, o'zbek arxitekturasi an'analariga sezilarli murojaat qilingan, ifodalikning monumental badiiy vositalari kiritilgan. Urganch (arxitektorlar R. Berezin, A. Kozlov) va Qarshi (V. Berezin, Yu. Zakirova, A. To'xtayev) teatrlarida quyosh qaytargich bu binolarning endi faol shakli sifatida namoyon bo'ladi, ular old devorlari arxitekturasiga uzviy kirishib ketgan.

Agar birinchi loyiha shishaga ommaviy tarzda xuruj qilinganda yaratilgan bo'lsa, bu yerda mualliflar Xiva arxitekturasining derazalar



Toshkent. Istiqlol san'at saroyi, 1981-y. Arxitektorlar E. Rozanov, E. Suxanova. Umumiy ko'rinishi va interyerlari.

oʻrmini iloji boricha ozroq qisqartirishdek sinovdan oʻtgan yoʻlidan bordilar. Urganch teatrining mos ravishda qoraytirilgan oynavand vitrajlarining faqat vestibul qismi qoldirilgan.

Hozirda Istiqlol sanʼat saroyi Toshkentning eng yirik jamoat tomosha binosi (arxitektorlar E. Rozanov, V. Shestopalov SNIIEP binolar va sport inshootlari, Tosh NIPI bosh plan, S. Odilov, F. Tursunov), respublika sanʼat va ijtimoiy-siyosiy hayoti markazi. Unda yirik tadbirlar, ilmiy anjumanlar, konsertlar oʻtkaziladi va hokazo. Bino kompozitsiyasi hajm-kenglikni oʻzida namoyon etib, ixcham, toʻrtburchak shakldagi binoning markazini 4100 oʻringa moʻljallangan tomosha zali tashkil etadi. Arxitektorlik badiiy yechim milliy arxitektura namunalari asosida hal etilgan. Bino fasadlari uslublashtirilgan quyoshqaytargʻich bezakli panjara bilan aylantirib chiqilgan, u oʻzbek arxitekturasi milliy anʼanalarida bajarilgan. Bino eshiklariga bezakdor ravoqlar qoʻndirilgan. Bino tepasida muqarnas shaklidagi friz — boʻgʻot koʻrk berib turibdi. U marmar qoplamali yigʻma temir-beton qismlaridan yasalgan. Balkonli amfiteatr sifatida hal etilgan. Saroy tomosha zali miqyosi va nafisligi yaxshi topilgani bois yaxlit va shinam koʻrinadi. Sahna va kinoproleksion moslamalarning texnik jihozlanishi eng murakkab zamonaviy spektakllarni qoʻyish imkonini beradi. Ovoz qaytargʻich chigʻanoqlarining u yoq-bu yoqqa ogʻib turishi turli xildagi musiqali tomoshalar va nutqning aʼlo darajada yangrashiga imkon beradi. Shiftning plastik tuzilmasiga oʻrnatilgan rangdor chiroqlar sahnani turli rangda yoritishga xizmat qiladi va nurlu musiqa taʼsiri uygʻotadi. Vestibul va bir necha sathda hal etilgan foye va kuluvarlar, ularga tutash bufetlar yaxlit oqib oʻtuvchi qoʻshrang kenglik hosil qilgan, ikkita ulkan marmar zinalar hamda eskalatorlar bilan bogʻlangan.

Fasadlarning yorqin tovlanishiga qarshi oʻlaroq bino intererlari zich, qarama-qarshi ranglar qorishigʻida hal etilgan va kompozitsiyasining mushtarakligi hamda yuksak badiiyligi bilan ajralib turadi. Saroy ichki kengligiga kiruvchi monumental-bezak sanʼati asarlari tantanavor muhit va bayramona koʻtarinkilik yaratadi. Ayniqsa, bino intererlari arxitekturasi va arxitektorlarning monumentalchi rassomlar bilan birgalikdagi ijodiy ishini alohida taʼkidlash joiz. Vestibuldagi A. Buxorboyev bajargan «Bayram», «Gullayotgan oʻlka» mavzularida tabiiy toshlardan florensiya qurogʻi uslubidagi pannolar eʼtiborga molik. Monumentalchi rassom B. Jalolov Prezidium zalida mavzuli panno — gobelen ishlagan. Yogʻoch oʻymakorligini Q. Haydarov va D. Fayzullayev guruhi ijro etgan. Bufet va ziyofat zalidagi bezakli naqshu

nigorlarni X. Jalilov va A. Ilhomov guruhlari bajargan. Saroy intererida lojuvard tusli katta sopol devor alohida ta'sirchanlikka ega, u binoga qadam qo'yan har bir tomoshabinning e'tiborini darhol o'ziga tortadi (rassom A. Kedrin).

2.7. Muhandislik inshootlari arxitekturasi (metro, teleminora, geliomajmua)

1977-yilda Toshkent metropolitenning birinchi yo'li qurila boshladi, bu O'rta Osiyodagi zilzila ko'p bo'ladigan mintaqada Moskva metrosozlarining texnik yordamida qurilgan birinchi metro edi. Toshkent metropolitenining «Chilonzor» deb nomlanuvchi birinchi yo'li 12 bekatdan iborat bo'lib, 16,8 kmni tashkil etadi va Chilonzor mavzesini shahar markazi va sharqiy sanoat tumani bilan tutashtiradi. 1990-yilda ikkinchi o'n bir ajoyib bekat – saroylari bo'lgan va 14,2 kmni tashkil etgan «O'zbekiston yo'li» qurilishi tugallandi. U shimoliy temir yo'l vokzalini shahar markazi orqali Talabalar shaharchasi bilan bog'laydi (hozirda Mashinasozlar va Talabalar shaharchalari). Birinchi yo'lning eng yaxshi bekatlari – «Mustaqillik maydoni» (arxitektorlar L. Adamov, A. Adilova, L. Popov), «Hamid Olimjon» (arxitektorlar Ya. Mansurov, V. Rusanov, X. Ubaydullayev, rassom I. Lipenc va boshq.); «Pushkin» (L. Adamov, R. Fayzullayev, A. Tabibov, rassom I. Lipene va boshq.) – toshkentliklar va ko'plab shahar mehmonlari mehrini qozondi.



Toshkent. Metroning «Mustaqillik» bekatlari, 1977-y.
Arxitektorlar L. Adamov,
A. Adilova.

«Mustaqillik maydoni» bekatining yerosti qismi no'anaviy tusda hal etilgan. Ikki kassali vestibyl eskalator va zinalar yordamida platforma zali bilan birlashtirilgan. Platforma jimjimador qobirg'asimon yig'ma panellar bilan ajratilgan. Yorqin rangdagi adl ustunlar naqshindor shiftni ko'tarib turibdi. Zal o'rtasidagi katta va kichik qubbalarga rassom I. Lipene eskizlari bo'yicha tayyorlangan uzum boshlari ko'rinishidagi qandillar osilgan. «Hamza» bekatlari yaxlit betondan ishlangan. Yo'l devorlari bilan gumbaz muqarnas shaklida ishlov berilgan o'ymakor marmar bilan tutashtirilgan. O'zbek

adabiyotining buyuk namoyandasi Hamzaning suvrati badiiy-monument kompozitsiyada aks ettirilgan, uni florensiya qurog'i texnikasida rassom A. Buxorboyev ishlagan. Ikkinchi navbat yo'lidagi bekatlardan «Alisher Navoiy» (arxitektorlar R. Fayzullayev, Ya. Mansurov, rassomlar Ch. Ahmarov, R. Muhammadjonov va hokazo) va «Kosmonavtlar xiyoboni» (arxitektorlar S. Sutyagin, S. Sokolov, muhandis A. Braslavskiy, rassom V. va A. Gan, S. Kedrin) badiiy mukammalligi darajasi bilan ajralib turadi.

«Alisher Navoiy» bekati – ikkinchi yo'lga o'tish bekati bo'lganidan boshqa bekatlarga qaraganda chuqurroqda joylashgan, u «Paxtakor» bekati orqali ikki yo'lni birlashtirib turadi (arxitektor F. Tursunov va boshq.), shu bois ko'proq amaliy va ramziy-badiiy vazifani bajaradi. Ustunli zal jumboqlar bilan yechilgan, ular paruslardagi paykonsimon o'rkach-o'rkach arklarga tayanib turadi. Bekatda umumiy rang koloriti ham, yorug'lik me'yori ham yaxshi o'ylab topilgan. Sopoldan ishlangan va shoir Alisher Navoiy asarlari qahramonlari aks ettirilgan suvratlar qiziqish uyg'otadi.

«Kosmonavtlar xiyoboni» bekati san'atkorona ijro etilgan arxitekturaviy echimning o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ikki vestibulli ustundor platforma erosti o'tish yo'llariga ega. Bekat arxitekturasi fazo mavzuiga bag'ishlangan. Moviy sopol tumorida Mirzo Ulug'bek va Siolkovskiy qiyofalari namoyon bo'ladi. Bu o'ziga xos afsona zalning har ikkala tomonida joylashgan shu tarixiy shaxslar suvratlaridan boshlanadi va Korolyov, Gagarin, Leonov, Tereshkova, Jonibekovlarning suvratlari bilan nihoyalanaadi. Shisha yulduzchalar miltillab turgan shift yagona usulda bajarilgan. Platformaning yerdan shiftgacha bo'lgan yo'l devorlari lojuvarddan to'q ko'k rangga almasha borib, Er atmosferasini esga soladi. Platforma ustunlari boshdan-oyoq shisha bilan qoplangan. Bekat vestibullari ham koinotni o'zlashtirishga bag'ishlangan bo'lib, marmar, granit, temir va shishadan yasalgan. Umuman, bekat juda ham o'ziga xos chiqqan. Toshkent metrosi bekatlari, ular arxitekturaviy-badiiy yechimi to'g'risida «O'zbekiston




**Toshkent. Metroning
«Kosmonavtlar xiyoboni»
bekati, 1984-y. Arxitektorlar
S. Sutyagin. S. Sokolov.**

arxitekturasi va qurilish» jurnali tahririyati tashabbusi bilan qator maqolalar chop etildi, ularda O‘zbekistonning yetuk arxitektorlari o‘z fikr-mulohazalarini bayon etganlar (1985-y., 6-son., 1988-y., 2-son). Dizaynerlarni metro bekatlarini ishlab chiqishga jalb etish haqida istaklar izhor etilgan tanqidiy fikrlar ham aytili, muallif bu fikrlarga bajonidil qo‘shiladi, chunki «dizayn» zamonaviy arxitekturaning faol va zaruriy qismi bo‘lib qoldi.

Xalq xo‘jaligi yutuqlari ko‘rgazmasi bog‘ maydonida respublika radiotelevizion uzatish markazining yangi Teleminorasi qurilishi Toshkent qiyofasini boyitib yubordi. Shahar hududining ushbu joyida minora o‘rnatilishi unga tutash barcha hududlarning yangicha ahamiyat kasb etishi va faoliyatga kirishib ketishini ko‘zda tutadi. Park tomondan ko‘rinib turgan nuqtalar, teleminoraning suvda aks etib turishi, butun sohil bo‘yi qismning yaqqol namoyon bo‘lishi muhitni ko‘z bilan ko‘rib idrok etishga undaydi, kenglik vujudga kelishida yangicha ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘rta Osiyodagi eng baland 375 metrli minora shahar uzra qad ko‘tarib turibdi. Tanho bu muhandislik inshooti respublika televideniyesi



Toshkent. Teleminora, 1984-y.

Arxitektorlar

N. Terziyev-Sarukov,

Yu. Semeshko, V. Rusanov

va boshqalar; rassomlar

A. Buxorboyev, I. Lipene.

uzoqlikni qabul qilish sifatini va dasturlar sonini oshirishga imkon berdi, bunda eng yangi asbob-uskunalar va texnologik jihozlardan foydalanish hisobga olingan. Loyihani ishlab chiqarishga Moskvaning SNII proyektstalkonstruksiya, Fundament-proyekt, Aloqa vazirligining Davlat ixtisoslashtirilgan loyiha instituti singari yetakchi instiutlari, shuningdek Proyektstalkonstruksiya instituti O‘zbekiston bo‘limining konstruktorelari, hisobchilari, Toshgiprogor loyihachilari, arxitektorlar, rassomlar, dizaynerlar, xalq ustalari jalb etilganlar. Toshkent teleminorasi hajm-balandlik kompozitsiyasini tanlashda iqtisodiy, tibbiy, ruhiy va badiiy jihatlar e‘tiborga olingan. Inshootning badiiy, shakliy, arxitekturaviy qiyofasi masalalariga alohida e‘tibor berilgan. Mana,

minoraning nafis, jimjimador qad-qomati shaharning o'n husniga yana bir husn qo'shdi, yuksak texnik va madaniy daraja ramziga aylandi, yuqori darajada sanoat qudratining o'ziga xos nishonasi bo'lib qoldi. Balandlikda tana oyoqlarga tutashgan joyda besh qavatli sahn bilan belbog' qilib o'ralgan, xuddi shunday belbog' 195 metrda ham bor. Har bir belbog' devor bo'ylab jimjimador panjara bilan ulangan, uning shakl-shamoyilida milliy bezaklardan foydalanilgan, asosiy tananing qudratli panjarasi bilan birikib, minoraning nafis va engil zali echimida ham milliy arxitektura usullaridan foydalanilgan. Mahalliy pardoaz ashjolari binoga milliy ruh bergan: g'ozg'on va nurota marmarlari, marmar ohak, granit, ganch o'ymakorligi, shisha, o'ymakor eshiklar va h.k. Restoran zali pardozida badiiy shishadan keng foydalanilgan («Shamollar guli» kompozitsiyasi, rassom I. Lipene). Vestibulning markaziy aylana sathini rassom A. Buxorboyevning florensiya va vizantiya qurog'ida qimmatli toshlardan yasagan kompozitsiyasi zeb berib turibdi. Vestibul intereri arxitekturaviy-badiiy yechimini busbutunlik va yaxlitlikka intilish ajratib turadi.

Toshkent radioteleminorasi shu turdagi inshootlar ichida texnik jihozi va muhandislik hamda konstruktorlik va arxitekturaviy-badiiy yechim bo'yicha o'ziga xos zamonaviy inshootdir. U O'rta Osiyo va Qozog'istondagi eng balandi bo'lib, Moskvudagi Ostankino minorasidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. U dunyodagi shunday sakkiz minoralar sirasiga kiradi. Bu inshootni bunyod etishda muhandis konstruktor E. Morozov, M. Musheev, arxitektorlar N. Terziyev-Sarukov, Yu. Semeshko, V. Rusanov, V. Kim, rassom-monumentalchilar A. Buxorboyev, I. Lipenlar ter to'kkanlar. Unda muhandislar V.Sosin, Taygaliyev, U.Qodirova, quruvchilar P.Sarkisov, G.Brodskiy, arxitektor R.Salikurjiyevning g'oyalari mujassam topgan va amalga oshirilgan.

Metallurgiyada yangi sohani ochib bergan va quyosh quvvatidan foydalanishga mo'ljallangan yana boshqa inshoot «Quyosh» ilmiy ishlab chiqarish metallurgiya geliomajmui hisoblanadi (mualliflar jamoasi: arxitektorlar V. Zaxarov, E. Makeev, O.Taushkanov, rassom I. Lipene, texnolog akademik S.Azimov va boshq, 1987-y.).

Majmua Toshkent yaqinidagi T'yan-Shan tog' tizmalari etagida barpo etilgan. Uning asosiy maydonini bir nechta bosh bino va inshootlar tashkil etadi: oynasi diametri 50 m quyosh quvvatini to'plagach, shaxmat shaklida sakkiz pog'ona qilib joylashtirilgan 62 gelostatli geliostat maydoni, baland haroratli o'choq qilib fokal maydonda

o'raltilgan texnologik minora, bosh tajriba-ishlab chiqarish va ma'muriy bino hamda bir qancha yordamchi inshootlar shunga kiradi.

«Quyosh» geliomajmuasini loyihalashtirishda mualliflar binolar va inshootlarni arxitekturaviy-rejaviy hamda amaliy yechimlar bilan uzviy bog'liqlikda barcha geliotizimlarni qarab chiqqanlar. Majmua inshootlari energetik vazifalari nuqtai nazaridan arxitekturaviy kenglik bilan ishlash uslubiga yangicha yondoshuv zarur edi.

Geliomajmua arxitekturasi — bu tabiiy-iqlimiy sharoitlar, xalq arxitekturasi mintaqaviy an'analarini hisobga olib, fan va geliotexnika sohasidagi zamonaviy yutuqlar asosida qurilgan yangi texnologik majmuadagi yashash muhiti va mehnat faoliyati yaratishga intilish namunasidir. Geliomajmua hajm — reja yechimining xususiyati — turli xildagi va turli miqyosdagi inshootlarni yorqin ifoda etilgan kompozision markaz — nomutanosib tuzilgan butun majmuadagi konsentrator, quvvat to'plagich yordamida yagona ansamblga birlashtirganidir.

Majmuaning bosh binosi 3 qavatli ikki tajriba bloki, bir 3 qavatli tajriba-ishlab chiqarish bloki va 4 qavatli, o'zaro to'rt yo'lli zina bilan birlashtirilgan ma'muriy binodan iborat. Barcha bloklar shamollatkich tomi bor texnik qavatlarga ega. Tajriba binolari bir-biriga qarama-qarshi qilib joylashtirilgan, ishlab chiqarish binosi esa ma'muriy bino qarshisida joylashgan, barchasi birgalikda ichkari hovlini tashkil etgan, uning handasaviy markazida favvorali hovuz joylashgan. Hovlining uzunasiga uch bino kesishgan joydan aylanma yo'lak o'tgan, hovlining g'arbiy fasadi esa quyoshqaytarg'ich tizimida egma soyabonga ega. Quyoshqaytarg'ich yo'lakning narigi uchida joylashgan. Hudud obod, ko'kalamzorlashtirilgan va chiroqli ichki hovli xolis, to'rt qanotli o'yiqli orqali tabiiy shamol yurib turadi, ular majmui janubiy tomonidagi tirak devor bilan cheklangan keng ochiq joy bilan birlashtirib qo'yilgan.

Ma'muriy binoda majmuaning janubi g'arbiy qismida prezidium, foye va aylanma ayvon-yo'laki bo'lgan, 450 o'ringa mo'ljallangan matbuot zali bloki joylashgan. Oshxona, bufet, qiroyatxonali va katta eshik — to'rt derazali atriumli kutubxona ham mana shu qavatda joylashgan.

Yaxlit uyg'unlashgan ansambl yaratish uchun «Quyosh» majmui intererlari yechimiga katta e'tibor berilgan.

Matbuot zalining ikki derazali foyesida ma'dan va shishadan yasalgan «Oy» kenglik kompozitsiyasi joylashgan. U shakl va reja bo'yicha murakkab xonaning handasaviy markazida joylashgan hamda butun intererning negizi va asosiy bezak vositasi hisoblanadi.

Keng uch yo‘lli zinaning butun 4 qavatli balandligida (18 m) «Sayyoralar silsilasi» kompozitsiyasi joylashgan. Sirlangan xol-xol dog‘lar tushirilgan shishaning betakror unsurlaridan to‘rtta zo‘ldir yasalgan, shishalar temir zo‘ldirlarga mahkamlangan. Qizil-siyohrang shisha zo‘ldirlar oralig‘iga temir dumli yulduzlari joylashtirilgan. Xuddi sayyoralar safidek, zo‘ldirlar keng, yaxshi yoritilgan kenglikda pastdan yuqoriga tik qilib tizilgan.

«Quyoshga madhiya» kompozitsiyasi to‘rt derazali kirish atriumida joylashgan. Travertindan qilingan devorlarning iliq ranglari va «Quyoshga madhiya» kompozitsiyasi intererining ranglar gammasini belgilab bergan. «Quyoshga madhiya» kompozitsiyasi butun «Quyosh» gelio-majmui nishoni bo‘lib xizmat qilishi lozim. Shuni ta’kidlash kerakki, majmua Tyan-Shan tizmasi manzarador landshaftiga yarashib tushgan va butun mintaqa uchun kelajak ramzi hamda mayog‘i bo‘lib qolgan.

«Quyosh» geliomajmui qurilishi sharofati bilan tumanning ko‘plab ijtimoiy muammolari hal etilgan (qudratli suv quvuri yotqizilgan, gaz quvuri o‘tkazilgan, kanalizasiya markazlashtirilgan va hokazo), majmua ishchilari uchun barcha ijtimoiy-maishiy qulayliklarni muhayyo etilgan turar-joy manzilgohi qurilgan.

Asosiy xulosalar

• Urush yillaridagi qisqa muddatli qurilish O‘zbekiston madaniy sohalarida chuqur iz qoldirdi. Shu yillarda qator yangi muammolar paydo bo‘ldi: aholi nufusi keskin oshdi, sanoat korxonalari va ishchilarni boshqa joyga ko‘chirish munosabati bilan tashqaridan yog‘och va temir-beton keltirilmay, shu narsalarga taqchillik sezildi, ko‘chirib keltirilgan korxonalar joylashtirildi va hokazo. Og‘ir sharoitlarga qaramay, bunyodkorlik faoliyati davom etaverdi (Muqimiy teatri, «O‘zbekiston» yupqa devorli gumbazlar, Toshkentdagi Bo‘zsvu anhuri yoqasida uch qavatli uy qurilishi, Chirchiq, Bekobod va boshqa shaharlarda yangi manzilgohlar barpo etildi).

• O‘zbekiston poytaxtini qayta qurishning barcha bosqichlarida shahar markaziy qismi loyihasi muhim ahamiyat kasb etdi. 1946-yildagi yopiq konkursdan boshlab (A. Boboxonov, V. Volchek, S. Polupanov, 1 mukofot), O‘zbekiston arxitektorlari birinchi o‘rinni egallagan 1964-yilgi konkurs (Toshgiprogor) va Tashgiprogor hamda SNIIP shaharsozlik birgalikda ishlab chiqqan so‘nggi nusxada «eski» va «yangi» shahar o‘rtasida markazni joylashtirish ko‘zlangan edi. So‘nggi nusxada mualliflar tuman markazini simmetrik-o‘qli kompozitsiyadan voz kechishga qaror qildilar. Amalga oshirilgan loyihada markazning nomutanosib tuzilmasi mo‘ljallangan bo‘lib, unga Navoiy ko‘chasining yotqizilishi asos bo‘lib xizmat qildi.

• Urushdan keyingi yillarda Samarqand, Farg'ona, Buxoro, Qo'qon, Xiva va boshqa shaharlar bosh rejalariga o'zgartishlar kiritildi va ommaviy qurilishning industrial uslublari, rejalashtirishning yangi tamoyillari hisobga olindi. Mazkur g'oya Samarqand shahri (T. Kalinovskaya, 1968-y.) rivojlanishning texnik-iqtisodiy asoslariga vosita qilib olindi. Samarqand markaziy tumani tuzilmasi shakllanishining kompozision va amaliy vazifalari murakkab va mas'uliyatlidir. Agar bog' va xiyobonlari bo'lgan o'zaro bir-biri bilan bog'liq arxitekturaviy inshootlar tizimi qaysidir darajada ijobiy hal etilgan bo'lsa, yangi majmualar tuzilishi shahar tarixiy qiyofasiga yarashmaydigina emas, uni buzadi ham. Ayniqsa bu Samarqand bosh ma'muriy maydoniga taalluqli. Hozirgi Viloyat hokimiyati binosi qurilishi bilan Registonning go'zal manzarasi deyarli yo'qqa chiqdi. Afsuski, Registon maydonining o'zi ham qayta qurish chog'ida past qavatli uylar fayzidan mahrum bo'ldi. Go'ri Amir, Ruhobod va Oqsaroy maqbaralari yaqinidagi «Samarqand» mehmonxonasining o'n qavatli binosi noqulay joylashganligini ham ta'kidlab o'tish joiz. U Go'ri Amirga to'g'ri olib keladigan universitet xiyoboni tomonidan ham, teatr maydoni tomonidan ham manzarani berkitib qo'yan. Bu achinarli xatoliklar ko'plab olim arxitektorlar, tadqiqotlarida tilga olib o'tilgan va bundan keyingi ishlovlar uchun tavsiyalar berilgan edi.

• Shaharlarning bosh rejaları tahlillari shundan guvohlik beradiki, 1935-yildan Moskva shahrini qayta tiklashning ko'plab jiddiy qoidalari, ilmiy-metodik tamoyillari va amaliy tajribasi O'zbekiston arxitektorlariga yo'nalish berdi. Moskvani qayta tiklashning uslubiy tavsiyalaridan foydalanish ijobiy tajriba taqdim etishiga qaramay, afsuski, betakror tuzilmasi, muhiti bo'lgan janub shahrining spesifik xususiyatlari etarhicha hisobga olinmagan. Yevropa shaharsozligiga xos bo'lgan tamoyillar – keng va ochiq bo'shliq, kuchli transport qatnovlari, ko'p qavatli turar-joy binolari va hokazolar har doim ham an'anaviy shaharsozlik madaniyati bilan kirishib ketavermaydi, bizda soyador, yarimochiq kenglik, kishi ko'ngliga mos keluvchi ichki turar-joy muhiti va shinam mahalla markazi ko'proq qadrlidir.

• Sanoatning shiddatli o'sishi, yirik industrial majmualar yaratish Chirchiq, Olmaliq, Yangiyer, Navoiy, Zarafshon singari qator yangi shaharlar paydo bo'lishini ta'minladi. Yosh shaharlar (Chirchiq, Olmaliq) qurilishining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: ommaviy tipiy turar-joy qurilishi shafqatsizligi va cheklanganligi bilan bog'liq bir xillik; u qurilishlar qiyofasida o'z izini qoldirdi, dov-daraxtli manzaralarda atrof-muhit ekologiyasi uchun zararli sanoat korxonalarini joylashtirish.

• Agar Chirchiq uchun turli davrlarda qurilgan alohida hududlarda joylashgan ishchi posyolkalarni birlashtirish muommasi ma'lum qiyinchilik tug'dirgan bo'lsa, Navoiy shahri uchun arxitektor fikrini ro'yobga chiqarishning katta mushtarakligi xosdir. 4–9 qavatli turar-joy binolari qurilgan Navoiy shahri yirik jamoat binolari bilan birgalikda shunday haqiqatni namoyon etadiki, ijodiy yondashuv chog'ida arxitektura-

shaharsorzlik amaliyotining zamonaviy yutuqlari va xalq arxitekturasi ilg'or usullari, xususan, shahar miqyosida monumental hamda bezak-amaliy san'ati bilan sintezi va suv chiqarish, rangni qo'llashda yagonalikka erishish mumkin bo'ldi.

- Urushdan keyingi arxitektura yo'nalishida amaliyotida arxitekturaning bezak tomoniga berilib ketish holi ro'y berdi va qurilish ishlab chiqarilishini industrilashtirish bilan qarama-qarshilikka borib qoldi. Bu «Loyihalashtirish va qurilishdagi ortiqchaliklarni bartaraf etish to'g'risida»gi 1955-yil 4-noyabr Xulumat qarori bilan tanqid ostiga olindi. 50-yillar ikkinchi yarmidan O'zbekiston arxitektura yo'nalishida o'zgarishlar sodir bo'ldi, ularning mohiyati qurilishning industrial uslublarini keng tatbiq etishga o'tishdan iborat. Turar-joy qurilishining keng dasturi nainki turar-joy, balki ommaviy jamoat binolarining tipiy loyihalashtirilishini tezroq rivojlantirdi. Tejamkorlik ortidan quvib, tipiy loyihalar ishlab chiqildi, ularga ko'ra faqat yangi shaharlar qurilib qolmadi, balki Samarqand, Toshkent, Buxoro kabi ko'hna shaharlar ham qayta tiklana boshladi. Tipiy «quti uylar» hamma yoqni tutib ketdi, hatto O'zbekiston shaharlari xususiyatlari ham hisobga olinmadi.

- 60–70-yillar O'zbekistonning zamonaviy arxitekturasi rivojlanish yo'llarini tavsiflar ekanmiz, shuni ta'kidlash joizki, qurilish industriyasi — zavod uy qurilish, soddalashtirish va past sifat o'z navbatida hamma joyda, ayniqsa ommaviy qurilish inshootlarida ko'zga tashlanuvchi bir xillikka olib keldi. O'sha yillar arxitekturasi tanqidchiligida bu hol qattiq qoralangan ko'plab maqolalar paydo bo'ldi, jumladan ushbu satrlar muallifi ham maqolalar chop etib, ma'ruzalar qilg'undi.

- 1966-yil Toshkent shahridagi zilziladan keyingi davrni O'zbekistonda tipik turar-joy loyihalashtirish va qurishda yangi bosqich boshlandi desa bo'ladi. Bunday burilish, bir tomondan, respublika turar-joy qurilishi rivojlanishining aniq va katta dasturi bilan, ikkinchi tomondan esa 1966-yilda ro'y bergan zilzila natijasida yuzaga kelgan yangi vazifalar bilan shartlangan. Tabiiy ofat 2,5 mln. kv.m turar-joy maydonini qayta tiklab bo'lmaydigan darajada vayron qildi. Qo'shni respublikalar va o'z kuchi bilan uch yil ichida (1966–1968) Toshkentda 2,7 mln. kv.m turar-joy maydoni qurildi. Loyihalashtirish muddatini qisqartirish shunga olib keldiki, ko'pgina tumanlarda qurilish shaharning boshqa qismlari bilan chatishib ketolmaydigan turli tavr-tariqa kasb etdi. Shu bilan birga Toshkentdagi M-1, M-2, M-27, M-4, M-5 va M-6 mikrorayonlari, Navoiy shahridagi turar-joy majmualari qurilish sifatining yaxshiligi bilan ajralib turadi.

- Xalq san'ati usullaridan ijobiy foydalanish, mumtoz uslub shakllarini dadil qayta ishlash va an'anaviy arxitekturaning boshqa ilg'or usullarini qo'llash Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik opera va balet teatri misolida O'zbekiston jamoat binolari arxitekturasi ijodiy yo'nalishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

• Moziy an'analarini o'zlashtirishga jiddiy, yangicha yondoshuv yo'nalishi paydo bo'ldi: bu — an'analar bilan aloqa o'rnatishga imkon beruvchi milliy arxitekturaning teran ildizlarini qidirib topishdir (San'at saroyi, O'zbekiston ko'chasidagi ma'muriy bino, «Toshkent» mehmonxonasi va h.k.).

• 70–80-yy. qator noyob jamoat binolarining amaliy mohiyati va samarali asosi bilan uzviy bog'liqlikdagi, yanada jonli shakllar qidirish yaqqol ko'zga tashlandi (Rassomlar uyushmasining (Badiiy Akademiya) ko'rgazmalar saroyi, «O'zbekiston» mehmonxonasi, Istiqlol saroyi, Qo'qon, Urganchdagi musiqali drama teatrlari, Namangandagi viloyat ijroqo'mi (Viloyat hokimiyati) binosi, Navoiydagi «Farhod» madaniyat saroyi, Xivadagi ma'muriy jamoat markazi va h.k.)

• O'rta Osiyoda birinchi bo'lib ikki yo'lli Toshkent metropoliteni qurilishini (1977-y.) katta yutuq deb e'tirof etish lozim: Chilonzor (yo'l uzunligi — 16,8 km., bekatlar soni — 12 ta) va O'zbekiston (yo'l uzunligi — 14,2 km., bekatlar soni — 11 ta) yo'nalishlari loyihasida respublikaning yetuk arxitektorlari ishtirok etdilar.

• Toshkent metropoliteni transportning foydalanish qulay va ekologik jihatdan toza turigina bo'lib qolmay, bekatlari betakror arxitekturaviy-badiiy qimmatga ega hamdir. Arxitektoriy badiiy va monumental-haykaltaroshlik echim an'anaviy milliy naqsh-gullarni hamda sopol, kandakorlik buyumlarini hisobga oladi. Bu yerda metroni loyihalashtirish va qurishda birinchi marta amaliyotda metroqurilish texnologiyasidagi o'ziga xos loyiha echimlari qo'llandi (mikroiqlim yaratishda, seysmikada va hokazo).

• Yirik muhandislik inshootlari barpo etish (Toshkent teleminorasi, «Quyosh» geliolmajmuasi), shuningdek, ularning intererlarida arxitekturani monumental-bezak san'ati bilan chog'ishtirgan holda keng foydalanish diqqatga sazovor.

• Ikkinchi oliy o'quv yurti — arxitektorlar va quruvchilar tayyorlaydigan Samarqand Davlat arxitektura-qurilish institutini barpo etish (1966-y.) shu davrga to'g'ri keladi.

• Sho'rolarning totalitar tuzumi bilan bog'liq urbanizasiya (shaharlashtirish) jarayoni muayyan salbiy holatlar keltirib chiqardi:

- madaniy meroslar yo'q qilindi (Samarqanddagi qal'a, bog'-park san'ati, qimmatli xalq turar-joyilari, qadimshunoslik va arxitektura yodgorliklari);
- yirik zavodlar qurilishi (Chirchiqdagi Kapralaktan zavodi va hokazo);
- «eski shahar» qismatiga, xususan muhandislik infrastrukturasiqa nisbatan mutlaqo befarqlik.

Bular barchasi madaniy merosning yo'qolishiga, eski shahar tub aholisi hayot darajasining yomonlashuviga va noxush ekologik oqibatlarga olib keldi.

III BOB

ARXITEKTURA ISTIQBOLI: O'ZBEKISTON ZAMONAVIY ARXITEKTURASINING TARAQQIYOTI (1991–2012-yy.)

3.1. Zamonaviy shaharlarni qayta tiklash

Ilmiy tadqiqotlar, o'tmish yillardagi O'zbekiston shaharlarini loyihalashtirish amaliyoti va qurilishini tahlil etish, tizimlashtirish hamda umumlashtirish shuni ko'rsatdiki, ular bugungi kun sharoitlari va vazifalariga to'liq javob berolmasligi tufayli, shaharsozlikni rejalashtirishda jiddiy, yangicha yondashuvni taqoza etadi. Oldingi ayovsiz cheklangan va haddan tashqari maydalashib ketgan ishlovlardan farqli o'laroq, hozir shaharsozlikning aholi hayoti uchun qulay sharoitlar bilan bog'liq asosiy muammolar hal etilmoqda. Shaharlarning bosh rejalarida eski shahar infrastrukturasi og'ishmay hal etish, madaniy merosni asrab-avaylash, bog'-park san'atini tiklash va ekologiyani yaxshilash bilan bir vaqtda transport muhandislik hamda boshqa xalq xo'jaligi tuzilmalari kabi ustuvor yo'nalishlarni aniqlash zarurati yuzaga kelmoqda. Shu munosabat bilan O'zbekiston shaharsozlik rivojining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq yangi bosqichi boshlandi.

Arxitektura va shaharsozlik masalalariga katta ahamiyat bergan Prezidentimiz I.A. Karimov boshchiligida mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq dasturiy hujjatlar qabul qildi.

O'zbekiston tarixida birinchi marta Oliy Majlis tomonidan «Shaharsozlik kodeksi» joriy etildi (2002-y.). Shaharsozlik amaliyoti uchun ayniqsa respublika iqtisodiy rivojlanishining yangi bosqichida uning roli va ahamiyatini baholash qiyin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 26-apreldagi «O'zbekiston Respublikasida arxitektura va shaharsozlikni bundan keyin ham takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonini va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Shaharlar, tuman markazlari va shahar tipidagi qishloqlar bosh rejalarini ishlab chiqish va qurish tartibi to'g'risidagi Qoidalarni tasdiqlash haqida»gi Qarori (2000-y, 14-avgust) va shundan keyingi «Shaharlar, shahar manzilgohlari va qishloq aholi manzilgohlari bosh rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar

to'g'risida»gi Qarorini (2005-y, 30-avgust) alohida ta'kidlab o'tish joiz. Ularda respublika shaharlari va aholi yashaydigan joylarni yaxshilashga qaratilgan vazifalar aniq belgilab berilgan.

Shaharsozlik sohasida respublika arxitektorlarining ijodiy faoliyati «Toshkentboshreja LITI» singari qayta tashkil etilgan loyiha va ilmiy-tadqiqot institutlarida amalga oshirilmoqda, ularda «2015 yilgacha bo'lgan davrda Toshkent shahar va shahar atrofi bosh rejasining tarhi» ishlab chiqilgan bo'lib, uni Toshkent shahar hokimiyati tasdiqlagan. Shu institut mualliflar jamoasi yana «Toshkent viloyati tuman rejasi tarhi», «Chimyon Chorvoq dam olish zonasini rivojlantirish tarhi»ni ham ishlab chiqdi.

«O'zshaharsozlik LITI» instituti Namangan, Qo'qon, Termiz va boshqa shaharlar mufassal rejasining bosh reja hamda loyihalarining mutlaqo yangi talab va sharoitlarini hisobga olgan holda ishlab chiqdi. Shuningdek Islomobod tuman markazini qayta tiklash bosh rejasi, To'raqo'rg'on (Namangan viloyati), Asaka, Poytug' va Marhamat (Andijon viloyati), G'ijduvon va Kogon (Buxoro viloyati), Bulung'ur va Urgut (Samarqand viloyati), Nukus, Qo'ng'iro't va Beruniy (Qoraqalpog'iston Respublikasi) shaharlari bosh rejaları va tuman rejalarining qator tarhi ishlab chiqildi. Quvonch bilan ta'kidlash joizki, sanab o'tilgan ishlarning ko'pchiligi dadil amalga oshirilmoqda. Yana shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq institutning ijodiy jamoasi boshqa tashkilotlardan qator mutaxassislarni jalb etib, «O'zbekiston respublikasi hududida aholini joylashtirib chiqishning bosh rejasi»ni ishlab chiqmoqda, u shaharsozlikni loyihalashtirishning barcha keyingi bosqichlari uchun asosiy hujjat bo'lib qoladi.

2015-yilgacha bo'lgan davrda Toshkent shahrini rivojlantirish bosh rejasi tarhi («Toshkentboshreja» instituti, mualliflar jamoasi) mustaqillik yillarida yangi sharoitlarda shaharsozlikni rejalashtirishga harakat qilingan asosiy shaharsozlik hujjati hisoblangan birinchi yirik ishdir.

«Bosh reja tarhi» yangi suveren davlatning poytaxti sifatida Toshkentning shahar muhiti va infrastrukturasi ilgarigiga qaraganda yanada yuqori andazalarga muvofiq olg'a qarab rivojlanishini ko'zda tutadi. Shahar va uning shaharatrofi mintaqalari rivojlanishini baravar rejalashtirish loyihaning muhim konseptual jihati hisoblanadi.

Bu vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi Toshkent va Toshkent mintaqasi xalq xo'jaligini bundan keyin ham ixtisoslashtirish, poytaxtligini kuchaytirish maqsadida Toshkentni oddiy xalq xo'jaligi



Toshkent shaxar bosh rejasi, 1995-y.
«Toshkent bosh reja» instituti.

vazifalaridan xoli qilish bilan bog'liq. Shunga ko'ra boshqaruv, xalqaro hamkorlik, madaniyat va san'at, fan hamda texnika, oliy malakali mutaxassislar tayyorlash sohalari rivojlantiriladi. Jahonning peshqadam davlatlari poytaxtlarining darajasiga muvofiq keladigan va shahar aholisi hayoti uchun qulay sharoitlarni ta'minlaydigan shahar muhiti yaratish ham Toshkentni rivojlantirishning muhim maqsadi hisoblanadi.

Xavfsizlikni, aholi mehnati, turmushi va dam olishi uchun qulay sharoitlar yaratishni, hududdan iqtisodiy hamda ekologiya jihatdan samarali foydalanishni nazarda tutish reja tarhini tartibga solishni va uzoq kelajakka Toshkentning hududiy rivojlanishini hisobga olib chegaralarni o'zgartirishni talab etadi. Shunga ko'ra, shahar qulay, ixcham qiyofa kasb etmog'i, tashqi halqa avtoshohrohi bilan qurshab olinmog'i kerak; shunda hudud 42,5 ming ga ortadi.

Bugungi Toshkent O'zbekistonning eng yirik iqtisodiy markazidir. Biroq bozor munosabatlarini shakllantirish shartlari va uning poytaxt sifatidagi roli faqat sanoat emas, balki bozor infrastrukturasi rivojlangan moliyaviy-iqtisodiy markaz sifatida ham Toshkentning iqtisodiy ahamiyatini kuchaytirish maqsadga muvofiqligini aniqlab berdi.

Turar-joy qurilishi eng muhim iqtisodiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Navbatdagi davrda yangi turar-joy qurilishi zarurati bilan bir qatorda mavjud tub turar-joy jamg'armasini saqlab qolish va

yangilash muammosi ko'ndalang turibdi. Aholi nufusi o'sishi munosabati bilan turar-joy bilan ta'minlash darajasi pasayishiga yo'l qo'ymaslik uchun shahar turar-joy jamg'armasi umumiy maydoni 47 mln. kv.m dan kam bo'lmasligi, foydali ko'rsatkich 51 mln kv.m dan iborat bo'lmog'i kerak.

9, 12 qavatli binolar ulushini kamaytirishning va iqlim sharoitlariga ko'proq mos keladigan ekologik qulay 3—4 qavatli turar-joy binolari qurishni kuchaytirishning ijobiy tomonini ta'kidlamog' lozim.

Kontinental miqyosdagi aloqalar makrotizimi unsuri sifatida Toshkent va Toshkent mintaqasi transport-alloqa tizimini rivojlantirishga quyidagilar kiradi:

— avtomobillashtirish darajasi keskin ko'tarilganda uzluksiz harakatning avto-transport oqimlarini ta'minlash uchun zarur shohrohlarning asosida shohrohlarning sifat jihatdan yangi tarmog'ini bosqichma-bosqich shakllantirish;

— ommaviy yo'lovchi transporti, xususan, metropoliten va tezyurar tramvay (shaxsiy avtomobillar oqimini pasaytirish vositasi sifatida) tizimini rivojlantirish va sifatini oshirish, jamoat transportiga keng yo'l ochish (yo'lovchilar oqimi 70 % dan kam bo'lmasligi kerak);

— tashqi transportni rivojlantirish, jumladan, yangi xalqaro aeroport qurish, Toshkent temir yo'l tarmog'ini to'la elektrlashtirib chiqish, ichki shahar temir yo'li va yangi uchinchi vokzal qurish bo'yicha takliflar.

Tarhda hududning muhandislik ta'minotining barcha turlari bo'yicha muhandislik infrastrukturasi rivojlantirish, ayni damda ilmiy-texnik taraqqiyot va resurslarni saqlash texnologiyalari yutuqlari asosida mavjud inshootlar va kommunikasiyalarni qayta tiklash rejalashtirilmoqda.

Bosh reja loyihasini rivojlantirish uchun issiq suv, gaz bilan ta'minlash va telekommunikasiyalarning sohaviy tarhlari, shuningdek eng muhim rejaviy qismlar, jumladan, shahar markazini mufassal rejalashtirish loyihasi va Toshkent eski shahar qismini mufassal rejalashtirish loyihasi ishlab chiqilgan edi.


Toshkent eski shahar qismini mufassal rejalashtirish loyihasi zamonaviy poytaxt shahar sharoitida diniy va turar-joy, arxitekturasi yodgorliklari mavjud «eski shahar» deb ataladigan tarixiy joyning o'ziga xosligini saqlab qolish maqsadida ishlab chiqilgan. Shaharning bu qismi uchun aholi istiqomatining, xususan muhandislik jihozlanishi va transport xizmati jihatidan zamonaviy andozalarni ta'minlash alohida

vazifa hisoblanadi. Shu maqsadda asosiy «o'q» ko'chalarni kengaytirish va qisman to'g'rilash, turar-joy uylarining ayrimlarini qayta qurish, irrigatsiya tarmog'ini o'rnatish, hududni ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish taklif etilgan.

Toshkent tarixiy qismini qayta qurish amaliyoti so'nggi yillarda talay ishlar qilinganidan guvohlik beradi. Jumladan «Eski Toshkent» hududida keng miqyosda mahalla bo'lib yashash tamoyili tiklangan. Shimoli-g'arb, Shahrison, Olmazor-O'qchi, Qoratosh, Ko'kcha va hokazolar qayta qurilib, guzarlar, mahalla markazlari boshqatdan tiklandi. Forobiy-Chig'atoy, Sag'bon, Qorasaroy singari shohrohlarni qayta qurildi, gazlashtirildi, kanalizatsiya tortildi va telefonlashtirildi. Eski shahar va Yunusobodni bog'lovchi yangi yo'l hamda ko'priklar qurilishi shu yo'nalishda transport harakatini tezlashtirdi va tartibga soldi.

Qayta tiklanmaydigan va eski turar-joylar bo'lgan maydonlarda kattejarlar, past qavatli va ko'p xonadonli turar-joy uylari, savdo muassasalari, sport majmualari va yangi jamoat binolari qurilmoqda.

Toshkent markazi. Bosh rejada poytaxt markazi eng faol shaharsozlik faoliyati maydoni hisoblanadi va shahar rejaviy tuzilmasining bosh halqasi sifatida rivojlanmoqda. U binolarning yirik



Toshkent markazining mufassal rejasi loyihasi.
«Toshkentboshreja» instituti.

Majmualari va ochiq kengliklar, suvli, dov-daraxtli mintaqalarning markaz yuqori ijtimoiy faolligi hamda tezkor hayot maromini ta'minlovchi ko'pyoqlama va kompozision jihatdan yaxlit tizim sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bosh reja ro'yobga chiqishi barobarida Toshkent markazini qayta tiklash bo'yicha qilingan talay ishlar shahar maydonlarini keng qilib qurishga qaratildi.



Toshkent. Mustaqillik maydoni.

Mustaqillik maydoni. Bugungi kunda mamlakatimizning bosh maydoni go'yo yangidan tug'ilyotganday. U muqaddas dargoh qiyofasiga kirib butunlay, boshdan-oyoq o'zgartirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 15 yilligi arafasida Mustaqillik maydonida Mustaqillik va Baxtiyor ona yodgorliklarini o'z ichiga olgan yangi arxitekturaviy-haykaltaroshlik majmui barpo etildi, u «Mustaqillik va Ezgulik arkasi» deb ataldi.

«Mustaqillik va Ezgulik arkasi» bosh haykaltaroshlik kompozitsiyasi «Baxtiyor ona» xalqning oqko'ngilligi va tinchliksevarligi, uning yoshligi va insoniy baxtga to'liqligi ramzidir. Maydonning shimoliy qismi «Xotira maydoni» yodgorlik majmuasiga ajratilgan, bu yerda kompozitsiya markazi «Motamsaro ona» haykali hisoblanadi. Yodgorlik majmui va «Motamsaro ona» haykali ajdodlarga hurmat, hayotdan yosh ketgan, jang maydonlarida halok bo'lgan har bir inson haqidagi xotira ramzidir.

Maydonning markaziy qismida Bo'zsuv anhuri yoqalab Senat — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Yuqori Palatasi binosi joylashgan, u sobiq Hukumat uyining eski binosini qayta qurish yo'li bilan barpo etilgan. Unga tutash maydon ko'kalamzorlashtirilgan va suv chiqarilgan.

Maydonning O'zbekiston ko'chasiga chiquvchi janubiy qismi ham qayta tiklangan. Temir-beton plitalardan qurilgan nursiz ishlab chiqarish binosi buzib tashlandi, bo'shagan hudud esa obodonlashtirilib, ko'kalamzorlashtirilgan.

Saqlanib qolgan majmua — uchta kubik shaklidagi bino: San'atshunoslik instituti, siyosiy partiyalar binosi va Badiiy akademianing ko'rgazmalar saroyi Mustaqillik maydonining uzviy intellektual mintaqasini yuzaga keltiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahka-

masining qayta tiklangan muhtasham binosi xuddi shimoli-sharqdagi oldida qo'shimcha binosi bo'lgan 14 qavatli qayta tiklangan bino kabi maydon janubiy qismidagi binolar ansamblini nihoyasiga etkazadi.

Jimjimador ark va uning ustida parvoz qilayotgan turnalar – baxt ramzi hamda nasl davomini anglatib, Sh. Rashidov ko'chasi va metroning Mustaqillik bekati tomondan maydonga olib kiradigan ochiq darvozaga o'xshaydi.

Umuman, O'zbekiston Respublikasining bosh maydoni arxitekturaviy-badiiy vositalari bilan o'ziga xos qiyofa kasb etgan bo'lib, unda landshaft arxitekturasi, dizayn va haykaltaroshlik kompozitsiyalari usullaridan keng foydalanilgan.

Toshkent mintaqasi. Toshkent viloyati va Toshkentni yaxlit hududiy tizim – Toshkent mintaqasi deb qarash «Toshkent viloyatining tuman rejasi tarhi»ni ishlab chiqishda asosiy konsepsiya sanaladi. Mintaqa muammolarining xilma-xilligi va ular echimini «Tarh» mualliflari uch yo'nalishda qarab chiqqanlar: xo'jalik-iqtisodiy majmuini rivojlantirish, mintaqa hududining faoliyat-rejaviy tashkil etilishini takomillashtirish; atrof-muhit holatini muhofaza qilish va yaxshilash.

«Toshkent viloyati tuman rejasi tarhi»ning tub qoidalariga muvofiq Zafar va Gulbahor tuman markazlari bosh rejalari ishlab chiqilgan edi; Fazalkent, Angren, Bekobod, Bo'ka va viloyatning boshqa qator tumanlari bosh rejalari ishlab chiqilmoqda.

Bu loyihalarda asosiy harakatlar shaharlar faoliyat-rejaviy tashkil etilishini tartibga solish, ular ijtimoiy-iqtisodiy qudratini, hududni muhandislik – texnik jihozlar bilan ta'minlashni, transport xizmatini rivojlantirish, qulay ekologik sharoitlar yaratish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirishga qaratilgan.

1990-yillar oxirida O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ommaviy dam olishni tashkil etish muammosini ko'tarib chiqdi va Toshkent mintaqasida istirohatni rivojlantirish vazifasini qo'ydi. «Toshkent-boshreja» instituti Chimyon-Chorvoq kurort-istirohat tumanini rivojlantirish Konsepsiyasini, Chimyon Chorvoq dam olish zonasi bosh rejasini, Buqacho'l va Yusupxona majmualarini mufassal rejalashtirish loyihalarini, shuningdek alohida inshootlar qurish loyihalarini ishlab chiqdi.

Chimyon-Chorvoq tumani hozirgi vaqtda O'zbekistondagi istirohatni tashkil etishning yaxshi istiqbollari bo'lgan eng yirik kurort-istirohat tumanlaridan biri bo'lib qolmoqda. U keng, 96649 ga maydonni egallagan bo'lib, unda mualliflar fikri bo'yicha 100 mingdan ko'proq dam oluvchi uchun sharoit tug'dirish mumkin.

Samarqand bosh rejasi. Samarqand shahrining 2020–yilgacha bo‘lgan davri bosh rejasini O‘zbekiston Respublikasi hukumati qarori bilan «Toshkentboshreja» instituti (bosh arxitektor V. Akopjanyan, 2005–y.) ishlab chiqqan. Samarqand shaharsozlik rejasining o‘ziga xosligi va murakkabligi shundan iboratki, u yerda jahon ahamiyatidagi noyob tarixiy-madaniy meros bilan bog‘liq talablar va mintaqaning zamonaviy–yirik ma‘muriy-xo‘jalik markazi faoliyatlari bilan bog‘liq talablari e‘tiborga olinishi zarur. Muammolarni hal etishni mualliflar shahar hududiy va miqdoriy o‘rnatishni barqarorlashtirish zarurligida, shahar tarixiy qismini (Afrosiyob, «Eski shahar», «Yangi shahar») shaharsozlik faoliyati va tarh bo‘yicha «oraliq» mintaqasining tarixiy negizini shakllantirishni alohida tartibga ega zonalar sifatida rejayiy ajratib ko‘rsatishda deb biladilar. Loyihani ishlab chiqishda shahar turli qismlarini yagona butunlikka jamlovchi reja sinchiga katta e‘tibor berilgan. Transport-aloqa tizimi markaziy zonadagi tarixiy jihatdan yuzaga kelgan radial-halqa tuzilmaning chekka zonadagi tangenssimon shohrohlari va to‘g‘riburchakli ko‘chalar tarmoqlarining ochiq tizimi



**Samarqand. 2020–yilgacha mo‘ljallangan shahar bosh rejasi, 2005–y.
«Toshkentboshreja» instituti.**

bilan birikib ketishi asosida tuzilgan. Shaharning tabiiy sinchi alohida ahamiyatga ega, u qulay qurilgan anhorlar va ariqlardan iborat bo'lib, ular butun shahar oralab oqib o'tadi, ko'chalar, xiyobonlar va bog'larni sug'orish bilan birga istirohat hamda muhitni himoya qilishning uzluksiz tizimini yuzaga keltirgan va shahar chekkasidagi manzarador majmualar bilan tutashib ketgan.

Samarqand shahri rejasi konsepsiyasini ishlab chiqishda mualliflar quyidagi qoidalardan kelib chiqqanlar:

– tarixan vujudga kelgan zonalarining rejaviy tuzilmasi shaharsozlik madaniyati yodgorligi hisoblanadi va moddiy madaniyat yodgorligi bilan bir qatorda muhofaza qilinadi;

– «ansambl muhofazasi» tushunchasi (ko'plab xorijiy mamlakatlar misolida) uning tevarak-atrofini ham o'z ichiga oladi;

– ta'mirlash, qayta tiklash va zamonaviylashtirish chog'ida, shuningdek istiqomat, ijtimoiy sharoitlarini yaxshilash chog'ida an'anaviy turar-joy muhitiga aralashuv ehtimolligining yo'l qo'yilgan chegara va usullarini aniqlash;

– tarixiy zonalar hududiga muhofaza «oraliq» zonalarini tashkil etish;

– tarixiy zona ichkarisida transport ta'minoti usullarini aniqlash;

– tarixiy zonani muhandislik-texnik kommunikasiyalar bilan ta'minlash.

Shahar rejaviy tuzilmasida loylha bo'yicha Markaziy rejaviy tuman ajratib ko'rsatiladi – bu uzluksiz harakat loyihaviy shohroh halqasi doirasidagi hududdir. U shahar ma'muriy markazini, eski «Temuriy shahar»ning tutash mahallalarini, «Afrosiyob» qadimshunoslik majmuasini va ancha keyingi davrga oid sidirg'asiga bir qavatli uylardan iborat mahallalarni o'z ichiga oladi. Bu zona rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari – tarixiy merosning madaniy ahamiyatini oshirish, uning yashash qobiliyatini ta'minlash, atrof-muhitni saqlash va qayta tiklash, naqliyot va ijtimoiy kengliklar, piyodalar zonolari, sayyohlik yo'llari tizimini rivojlantirish, hordiq faoliyatini rivojlantirish, hudud muhandislik jihozlarini yaxshilash.

Samarqand shahar bosh rejasini ishlab chiqish chog'ida mualliflar jamoasi vatan sayyohligi kabi iqtisodiy jihatdan foydali sohalardan biri sifatida xalqaro sayyohlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi.

Sayyohlarni jalb etadigan obidalar hamda majmualar – bu Registon majmualari, Amir Temur masjidi va Bibi Xonim maqbarasi, Shohi Zinda majmui, Go'ri Amir maqbarasi, Oqsaroy, Ishratxona, shuningdek Xoja Abdi Berun, Xoja Abdi Dorun, Ruhobod va hokazolarni o'z

ichiga olgan shahar tarixiy markazidir. Shahar rejasida ular shaharsozlik kompozitsiyasining asosiy unsurlari sifatida qaraladi va tutash hududlarni qayta tiklash bo'yicha loyihaviy echimlar shularga bo'ysunadi.

Iqtisodiy-jog'rofiy jihatdan manfaatli holatga ega Samarqand shahri istiqbolda xalqaro havo qatnovi rivojlangan aeroportga ega, shuningdek, respublika shaharlari o'rtasida ham, ulardan tashqarida ham avtomobil va temir yo'l transport aloqalari rivojlangan yirik transport tarmog'i sifatida shakllangan.

Samarqand shahar yangi bosh rejasi oldingilaridan shu bilan farq qiladiki, respublika shaharsozlik loyihalashtirish amaliyotida mualliflar birinchi marta g'ayrioddiy usulni qo'lladilar – shaharning mavjud hududidan oqilona va ehtiyotkorlik bilan foydalanib, to'g'ri yondoshganlar. Shahar yashil halqa bilan qurshalgan bo'lib, bunda uning atrofidagi mavjud bog'lardan foydalanilgan. Aholi yashaydigan joylarda kichik va o'rta tadbirkorlik inshootlari joylashtirilgan bo'lib, bu ularga qulaylik tug'diradi.

Ko'plab qadimshunoslik xarobalari bo'lgan, 219 ga maydonni egallagan qadimgi Afrosiyob shahrini chinakam qo'riqxonaga shaharga aylantirish ko'rib chiqilayotgan bosh rejaning ozmuncha katta yutug'i emas. Bu qadimgi qal'adagi barcha yot binolar va transport yo'llari uning hududlaridan chiqarib tashlandi.

Shu narsa diqqatga sazovorki, so'nggi 20 yil ichida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A. Karimov sa'y-harakatlari bilan Samarqand ulug'vor madaniy yodgorliklari bo'lgan, ammo zamonaviy infrastrukturali shahar sifatida qaytadan shuhratini tiklamoqda.

Mustaqillikning birinchi yillaridanoq shaharni keng miqyosda qayta tiklash, turli xalqaro tadbirlar, yubileylar o'tkazish munosabati bilan arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash ishlari boshlab yuborildi («Sharq taronalari» musiqa bayrami, Mirzo Ulug'bekning 600, Amir Temur tavalludining 660 yilligi va h.k.)

Eski shaharni qayta tiklash bo'yicha talay ishlar qilindi. «Toshkent», «8 mart», «Buxoro», «Registon» kabi ko'chalar obodonlashtirildi, piyodalar yuradigan zonalarga, mahalliy aholi uchun ham, mehmonu sayyohlar uchun ham shinam joylarga aylantirildi.

Shohi Zinda majmui va Masjidi Ajamiy oraliq'ida tartibsiz yoyilib yotgan bozor o'rnida ajoyib xiyobon barpo etildi, shu munosabat bilan Shohi Zinda va Rudakiy ko'chalari kesishgan joy 8 m ga pasaytirildi va aeroport bilan Toshkent yo'nalishidagi ko'chalar yopib qo'yildi.

Samarqand qadimgi madaniy markaz sifatidagina mashhur emas, unda ishlab chiqarish va savdo muassasalari ham keng rivoj topgan. Viloyatda hozirgi kunda faoliyat ko'rsatayotgan qator qo'shma korxonalar nafaqat viloyat balki, respublikamiz iqtisodiyotining rivojlanishiga ham salmoqli hissa qo'shmoqda.

Samarqand Toshkentdan keyin ikkinchi o'rinda turadi, tabiiyki, bu yerda mamlakatlar rahbarlarining uchrashuvlari, anjumanlar, ilmiy anjumanlar va xalqaro ahamiyatga molik boshqa tadbirlar bo'lib turadi. Oliy darajadagi bunday tadbir va uchrashuvlarni hisobga olib, bu yerda 400 o'ringa mo'ljallangan Qabulxona va «Prezident oteli» qurilgan, ularda arxitekturaning an'anaviy va zamonaviy usullaridan foydalanilgan bo'lib, xalqaro miqyosdagi diplomatik odob-axloqning barcha talablariga javob beradi.

«Siyob» bozori va ko'plab savdo inshootlari qayta tiklandi. Markaziy madaniyat va istirohat bog'i Alisher Navoiy nomidagi bog' deb atala boshladi, turli attraksionlarni qayta tiklash hamda tashkil etish, daraxt va gullar o'tkazish bo'yicha keng miqyosli ishlar amalga oshirildi. Bu yerda «Mo'jiza» amfiteatri, yoshlar qahvaxonasi barpo etildi, ular Universitet xiyoboni bilan birgullikda yaxlit kompozisiya hosil qilgan.

Samarqand shahrida «Universluda 2004» sport o'yinlari o'tkazish munosabati bilan bunyodkorlik ishlari olib borildi. 15 ming tomoshalinga mo'ljallangan yopiq o'yin maydoni, akademik lisey, qator yopiq sport maydonchalari qurildi. Mikroniyon hududidagi «Delfin» yopiq suzish havzasi, kollejlilar va akademik liseylar, Amir Temur haykali, Imom al-Moturidiy, Imom ul-Buxoriy (shahardan 20 km uzoqlikdagi Xartang qishlog'ida) yodgorlik majmualari, «Xotira maydoni» va boshqa inshootlar arxitektura yodgorliklari bilan bir qatorda zamonaviy Samarqandning arxitekturaviy qiyofasini boyitdi.

Nukus bosh rejasi. Qoraqulpog'iston poytaxti Nukus shahrining yangi bosh rejasi «O'zshaharsozlik» (arxitektor Ye. Gogin, 2002–2006-yy.) instituti tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda respublikaning yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari hisobga olingan. Yangi bosh rejani ishlab chiqishda mualliflar jamoasi shaharning mavjud qurilishidan kelib chiqdi. U oldingi bosh rejalar asosida amalga oshirilgan bo'lib, eng so'nggisi 1982–83-yy.da ishlab chiqilgan va tasdiqlangan edi.

1982-y.da shaharni shimoli-sharq yo'nalishda rivojlantirish haqidagi yechim bosh rejaga asos bo'lgandi, unga ko'ra aeroport boshqa joyga ko'chirilishi lozim edi. Afsuski aeroport boshqa joyga ko'chirilmadi va shu munosabat bilan yangi bosh reja masalasi ko'ndalang bo'ldi.

Yo'li harakatining istiqboldagi rivojlanishi, sharqdan shimol tomon o'tuvchi «Ipak yo'li» xalqaro shohrohining paydo bo'lishini hisobga olib, shaharni yaqin 20 yil ichida rivojlantirish faqat shimoli-g'arb tomonda, Amudaryo yoqalab amalga oshirilishi mumkin edi.

Bu shahar muhitini rivojlantirishning iqlim jihatdan qulay tumandir va mavjud shaharsozlik vaziyatidagi eng to'g'ri yechimdir.

Shahar transport tizimi bilan 8 turar-joy tumaniga bo'lingan, ular to'rt rejaviy tumanga kiradi. Har bir turar-joy tumani o'z jamoat markaziga ega bo'lib, ular shahar ahamiyatidagi turli inshootlardan tarkib topgan. Bu markazlardan ayrimlari rejaviy tumanlar markazlari bilan birlashtirib yuborilgan. Shaharning dov-daraxtli hududlari o'z joylarida saqlab qolingan hamda shimoliy va shimoli-g'arbiy yo'nalishlarda rivojlanib bormoqda. Shahar hududi bo'ylab janubiy sanoat zonalarida va sanoat inshootlari joylashuvi ham daxlsiz qoldirilgan.

Dov-daraxtli hududlardan suv muhofazasi zonalarida joylashgan qator korxonalar boshqa joyga ko'chirib ketildi.

Shahar muhitini rivojlantirish munosabati bilan loyihada shimoli-g'arbiy yo'nalishda mana shu hududda yangi yirik rejaviy tuman qurish ko'zda tutilmoqda. Uning o'z markazi bo'lib, transport harakatlari bilan bog'langan, yagona piyoda yo'llari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Piyodalar yo'li eski shahar, yangi shahar va yangi turar-joy rejaviy tuman – uchallasini bir-biriga ulashi lozim.

Yangi tumanda 2,4 va 5 qavatli, oldida ozroq yeri bor kottej xilidagi turar-joy uylari qurish ko'zda tutilmoqda. Yakka tartibdagi turar-joylar va ko'pqavatli turar-joydan farqli o'laroq bu xildagi uy murakkab iqlimli bu hududda yashash sharoitini yaxshilash imkonini beradi. Boz ustiga, 2–3 xildagi bunday uylar shahardagi asosiy tumanlarni shakllantiradi va qurilishlarga muayyan shaharsozlik hamda tashqi shinamlik bag'ishlaydi.

9 qavatli uylar faqat tegishli shaharsozlik tarmoqlarida va oz miqdorda joylashtiriladi.

Aholini hisobga olish uchun loyiha hisob-kitob muddatlariga o'rtacha yillik o'sishni quyidagicha belgilab chiqqan: – 2010-yilga – 1,25 %, 2020-yilga – 1,3 %.

Bosh rejada birinchi navbatga aholi 285 ming nafar, ikkinchi navbatga esa 325 ming nafar odam ko'zda tutilmoqda.

Shahar ma'muriy-jamoat markazi Dosnazarov (sharqda), Sh.Rashidov (shimolda), Amir Temur (janubda) ko'chalari oralig'ida rivojlantiriladi; Qizketgan anhuri g'arbiy chegara bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy jamoat inshootlari shaharning asosiy «o'qi» Qoraqalpog'iston ko'chasi bo'ylab qad ko'targan.

Ayni vaqtda shuni ta'kidlash joizki, zamonaviy shahar shohroh ko'chalarining asosiy tarmog'i o'z ahamiyatini saqlab qoladi va faqat ayrim joylardagina yo'nalishlarga o'zgartishlar kiritilib, shahar aholisiga transport xizmati ko'rsatishni yaxshilash kerak bo'ladi.

Nukus shahrining qiyofasi yildan-yil o'zgarib bormoqda.

Shahar sifatida zamonaviy Nukus tarixi 1934-yildan boshlanadi¹. Mana shu tarixan qisqa davr ichida Nukus 300 ming aholilik zamonaviy katta poytaxt shahriga aylandi. Ayniqsa so'nggi, Mustaqillik yillarida shahar tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketdi. Noyob jamoat binolari qad ko'tardi, ular arxitekturasida o'ziga xoslik va milliy kolorit yaqqol ko'zga tashlanadi. Mavjud inshootlarni qayta tiklash bo'yicha katta ijodiy ish qilindi. «O'zshaharsozlik» instituti ishlab chiqqan Nukus markazi shaharning miqyosli negizini tashkil etadi va u hozirgi vaqtda jadal qurib bitkazilmoqda. Markaz arxitekturaviy-rejaviy tuzilmasini shakllantirish mufassal rejalashtirish loyihasi bo'yicha asosiy shohroh ko'chalari orqali shaharning boshqa zonulari bir-biri bilan o'zaro chatishib ketgan rejaviy tuzilma yaratish imkonini beradi.

Nukus faqat yangi hududlarni o'zlashtirish yo'li bilangina emas, balki mavjud uylarni qayta tiklash hisobiga ham qad rostlamogda. Sobiq 1- va 3-sonli tibbiyot bilim yurtlari kasb-hunar kollejariga aylantirib, qayta qurildi, u erda zamonaviy talablar bo'yicha o'quvchilar uchun yangi sharoitlar yaratilgan.

Qator kollejar va akademik liseylar qurildi. Faqat so'nggi yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jalik sudi binosi, Nukus avia guruhi idorasi, ichki ishlar shahar bo'limi binosi, xotin-qizlarga maslahat berish bo'limi bo'lgan 130 o'rinli tug'uruqxona, 2000 ishchi o'rniga ega markaziy bozor va uning beshta bo'limi, QKning qator binolari, Banklarning binolari, Arxitektorchilik davlat qo'mitasi ma'muriy binosi, Biznes-markaz binosi va hokazolar qurila boshladi.

Amudaryo ustidan temir yo'l ko'prigi va Uchquduq-Nukus yangi temir yo'li qurilishi yirik voqea bo'ldi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kenges va Vazirlar Mahkamasining 7 qavatli ma'muriy binosini (arxitektor J. Berdixanov, K. Molutov, B. Miraliyev) shahar

¹ Qadimshunoslik tadqiqotlari ma'lumotlariga ko'ra, Nukusning markaziy qismini egallagan Sho'rcha qal'asi 2000 yildan ko'proq davrni qamrab oladi, bu o'z vaqtida chegarani qo'riqlab turgan va Amudaryo suv yo'lini nazorat qilgan.

markaziy qismidagi nodir arxitektura inshootlari sirasiga kiritish mumkin. Har ikkala bino ham 2000-2002 yy.dagi qayta tiklanishdan keyin zamonaviy qiyofa va o'ziga xos intererga ega bo'ldi.

Nukusdagi I.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston Davlat san'at muzeyi qurilishida (arxitektorlar S.Sutyagin va I.Li, 2003-y.) an'analarni o'zlashtirishga mutlaqo yangicha yondashilgan. U nafaqat mamlakati-mizda, balki undan uzoqlarda ham san'at durdonalari ichida munosib o'rin tutadi.

Nukus qurilishida monumental haykaltaroshlikka va arxitektura hamda san'atning uyg'unlashuviga katta o'rin berilgan. Mustaqillik yillarida «Motamsaro ona» (arxitektor O.To'raniyozov, haykaltarosh Sh. To'legenov, 1999-y.), Mirzo Ulug'bek (arxitektor, K. Molotov, 1994-y.), Ajiniyoz Qo'siboy (arxitektor K. Molotov, haykaltaroshlar A. Rahmatullayev, L. Ryabsev, 1999-y.) kabi buyuk shaxslarning haykallari yaratildi.

Beruniy tumani ma'muriy markazi Beruniy shahrining hozirgi aholisi 53,3 ming nafar odam bo'lib, 1850,6 ga maydonni egallagan va Nukus shahridan 138 km uzoqlikda joylashgan. U bo'yi 5,5 km va eni 4 km ga cho'zilgan ixcham rejaga ega. Unda sanoat va obodonchilik hududlari yaqqol ko'zga tashlanib turaadi. Sanoat hududi asosan, shaharning shimoli-g'arbiy va janubi-g'arbiy qismini egallagan, obodonchilik hududi esa uning shimoliy, markaziy, sharqiy va janubiy qismlarida joylashgan. Turar-joy manzilgohlari bir qavatli yakka tartibdagi rejali uylardan iborat bo'lib, ikki qavatli seksiya uylarning uncha katta bo'lmagan guruhlari bilan birgalikda shahar ko'chalarining har ikki tarafini to'ldirib turadi.

Shahar yangi bosh rejasida («O'zshaharsozlik», 2005-y.) mavjud shahar tashkil etuvchi negizlar saqlanib qolgan va yengil sanoat korxonalari bilan ba'zi qo'shimchalar kiritilgan. Shaharni shimoliy va qisman sharqiy va g'arbiy yo'nalishlarda ko'proq rivojlantirish taklif etilgan, shaharning sharqiy qismida «Ipak yo'li» avtobani va g'arbda aylana shohroh paydo bo'lishi singari rejaviy cheklovlar hisobga olingan.

Foydalanish bo'yicha shahar loyihaviy hududi sanoat va obodon qismlariga bo'linadi, ular shahar rejaviy asosini tashkil etuvchi to'rt shaharsozlik turkumiga kiradi. Bu turkumlarning har biri turli inshootlar yig'indisini o'zida namoyon etadi (xizmat ko'rsatish markazlari, sanoat korxonalari, turar-joy uylari, o'quv yurtlari, parklar). Loyihaga ko'ra shahar jamoat markazi ularni yagona shahar tuzilmasiga birlashtirib turadi. Markazning asosiy unsurlari sifatida birinchi turkumda joylashgan

umumshahar inshootlari bo'lgan ma'muriy-xo'jalik kichik markaz taqdim etiladi va ular bilan bog'liqlikda uchinchi turkumda tibbiyot majmuasi mavjud. Shahar markazidan sharq tomonga qarab — ikkinchi turar-joy turkumida 20 ming o'rinli o'yingohi bor shahar sport markazi va to'rtinchi turkumda qoramol sotiladigan sobiq bozor negiziga asoslangan sanoat zonasi kichik markaz bo'lib hisoblanadi. Mana shu asosiy kichik markazlar bilan bir qatorda loyihada ikkinchi darajali uncha katta bo'lmagan shaharsozlik tarmoqlari tizimi kiritilgan. Shaharsozlik tarmoqlari turar-joy qurilishining turli mahallalarini birlashtiruvchi asosiy piyoda yo'llarda joylashgan. Shahar markazi negizi mavjud inshootlardan iborat. Loyihada markaz ahamiyati ko'zda tutilgan parklar negizida qo'shimcha ko'kalamzorlashtirish, tuman hokimiyati ro'parasidagi markaziy maydonni kengaytirish, Beruniy muzey majmuini rivojlantirish, shahar janubiy qismida sport majmui bunyod etish bilan kuchaytirish taklif etilgan.

Zamonaviy Beruniy shahri yirik ulov almashtirish tarmog'i hisoblanadi, bu yerda davlatlararo, respublika va viloyat ahamiyatidagi avtoyo'llar kesishadi. Loyiha bo'yicha ular qisman qayta tiklanib, zamonaviylashtirilishi kerak. Hisob-kitob muddatiga bozor hududi hisobiga 350 yo'lovchigacha bo'lgan avtovokzalni kengaytirish ko'zda tutiladi. Temir yo'l stansiyasi Beruniy shahridan 14 km uzoqlikda joylashgan. Havo yo'llarida yuk tashish hozirgi vaqtda va istiqbolda Nukus hamda Urganch shaharlari aeroportlari orqali amalga oshiriladi. Loyiha bo'yicha mavjud ko'chalar tuzilmasi takomillashtiriladi va shahar umumiy arxitekturaviy-rejaviy tuzilishida faol ishtirok etadi. Ko'chalar yoqalab umumshahar tashkilotlari ko'paytiriladi, yangi madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish inshootlari, o'quv yurtlari va shunga o'xshash shaharbinolar va inshootlar paydo bo'ladi. Yangi turar-joy tumanlariga xizmat ko'rsatishni hal etish uchun shimoliy yo'nalishda shahar rivojlanishini hisobga oluvchi tizimlar yaratish, shuningdek shaharning shimoliy qismida yangi kichik markazlar paydo bo'lishi ko'zda tutiladi. Naqliyot shohrohlarining loyihalashtirilayotgan tizimi yagona transport tarmog'i yaratish maqsadida shahar ko'chalar tarmog'ini tartibga solish ko'zda tutiladi.

Yangi turar-joy qurilishi deyarli barcha to'rtala rejaviy turar-joy hosilalarida amalga oshiriladi, bunda shimoliy yo'nalishga ko'proq e'tibor beriladi. Turar-joylar asosan 1, 2, 4 qavatli uylardan iborat, shu jumladan hovlisida 600 kv.m gacha tomorqasi bor ikki qavatli uylar ham shunga kiradi. Yangi turar-joy jamg'armasining butun

tuzilmasi shahar miqyosi, uning haqiqiy imkoniyatlari, shuningdek aholi demografik tarkibini hisobga olib qabul qilingan. Rejalashtirish jihatidan turar-joy uylari uncha katta bo'lmagan turar-joy guruhlarida namoyon bo'ladi, piyoda va transport yo'llari bilan kundalik hamda davriy foydalanish inshootlari bo'lgan mavzelerga birlashtirilgan, ularning markazlari shahar va mahallaga mo'ljallangan inshootlar hisoblanadi.

Aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish tuzilmasi kundalik va davriy bosqichlarga bo'linishni hisobga olib ishlab chiqilgan.

Shahar hududini suv bosishdan himoya qilish Amudaryoning Tuyamo'yindan «Qipchoq» burnigacha o'zanini ikki tarafdin boshqarish tarhiga ko'ra amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda to'g'onlarning ikkitasi qurib bitkazilgan.

Birinchi yo'l — bu daryo o'zani bo'ylab traverslar bilan mahkamlangan qirg'oq to'g'onlaridir. Ikkinchi yo'l shahar janubiy chegarasi bo'ylab yotqizilgan to'g'ondan iborat. Shahar uylari qurilishining ikkinchi to'g'on doirasidan tashqariga kengaytirilishi bilan qirg'oqni himoya qilish tasmasi shaharning g'arbiy va janubi-g'arbiy chegarasiga ko'chib o'tadi. Loyihalashtirilayotgan qirg'oqni himoya qilish to'g'onining uzunligi 9 km.ni tashkil etgan.

Bosh rejaning yangi loyihasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Respublika arxitektura-shaharsozlik kengashi majlisida ko'rib chiqilgan va uni ro'yobga chiqarish ma'qullangan.

Urgut bosh rejasi. Uncha katta bo'lmagan Urgut shahri O'zbekistonning tarixiy shaharlaridan biri, aholisi 51,9 ming nafar odam, hududi 1981,5 ga, u Samarqanddan 44 km uzoqlikda, manzarador tog' yon bag'rida joylashgan. Shaharni rejali qurish 1990-yildan boshlangan, 1988-yilda tasdiqlangan bosh reja bo'yicha 2005-yilgacha deb hisob qilingan. Hisob muddati o'tib ketishi va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar o'zgarishi munosabati bilan shaharning yangi bosh rejasi ishlab chiqilgan (arxitektorlar «O'zshaharsozlik», B. Magdiyev, N. Kamarova va boshq., 2005-y.), tuman ma'muriy-xo'jalik va madaniy markaz, qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlash, q/x ehtiyojlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha markaz ahamiyati saqlab qolingan. Bosh rejada Urgut shaharining g'arb va shimoli-g'arbgacha tomon hududiy rivojlanishi birinchi navbatdagi (2010-y.) aholi nufusini 65,0 ming odam deb va hisob-kitob muddatiga (2020-y.) — 75,0 odam deb hisobga olinishi taklif etilgan.

Hududning shaharsozlik funksional mintaqalanishi shaharni ikkita sanoat zonasiga va 7 ta turar-joy tumaniga bo'lib chiqishni taklif etadi. Tumanlarning har biri o'z xizmat ko'rsatish markaziga, umumiy

foydalaniladigan yashil butalariga, sport va dam olish inshootlariga ega. Mavjud shimoliy sanoat zonasida engil sanoat, kichik va o'rtta tadbirkorlik inshootlari rivojlangan va hokazo.

Shimoli-g'arbiy sanoat zonasi yangi bo'lib, obodon hududlardan tashqarida joylashgan va yangi sanoat inshootlari joylashtirish uchun zaxiralarga ega. Bosh reja mualliflari taklif etgan turar-joy tumanlarining bir-ikki qavatli uylari aralash bo'lib, bu yerda shahar va qishloq uylari almashib turadi. Shahar kompozision o'qi — Urgutsoy qirg'oqlarini ko'kalamzorlashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Shaharni ko'kalamzorlashtirishning asosiy unsuri — shahar parki bo'lib, u yangi markazda, shimoli-g'arbiy turar-joy tumani tarkibida joylashgan. Shahar sport markazi mavjud o'yingoh negizida rivojlanmoqda, uning hududi 7,4 dan 41,25 ga gacha kengaytirilgan. Transport tizimi shahar shohroh ko'cha tarmog'i tuzilmasini hisobga olib qurilgan. Asosiy shahar ko'challari — Navoiy, Temur, Qoratepa, Rahimov va hokazolar bundan keyin ham rivojlantirilib, yangilari bilan to'ldirib boriladi. Navoiy va Rahimov ko'challari yangi shohrohlarning ahamiyatiga ega bo'ladi, ularning har ikki tomonida umumshahar markazi inshootlari rivojlantiriladi. Loyihada shahar loyiha chegarasidan tashqarida shimoliy aylanma shohrohlarni muddatida qurib bitkazish taklif etiladi.

Qadimgi Urgut shiddat bilan rivojlanmoqda. Asosiy ma'muriy binolar, mahalla markazlari, bozor, kutubxona, kasalxonalar va poliklinikalar, masjidlar, hammomlar, shahar markazini tashkil etuvchi savdo, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish inshootlari va hokazolar qurildi. Qurilishlar mahalliy ashyolar — tabiiy oq tosh, g'isht va hokazolar vositasida olib borilmoqda. Yog'och, ganch o'ymakorligi, xalq amaliy san'atining boshqa turlari jamoat binolarida ham, turar-joy qurilishlarida ham keng quloch yo'gan.

Yangi bosh rejaning amalga oshirilishi kelajakda shaharni rivojlantirishda katta imkoniyatlar ochib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining topshirig'iga muvofiq «O'zshaharsozlik» instituti sakkiz viloyat markazi markaziy mintaqalarining loyihaviy takliflari va maketlarini bajardi. Ularning rejalashtirish tashkilotida shaharlar markazlarining qulay muhitini yaratish maqsadida hududni funksional mintaqalashtirish, ko'chalar tarmog'i tuzilishi, jamoat piyodalar yurish zonalari asosiy majmualarini, sport inshootlari, ko'rgazma, mehmonxona va turar-joy majmualarini joylashtirish ma'nosida bosh rejalar qabul qiladigan asosiy tamoyillar o'z aksini topgan.

Viloyat hokimiyatlari bilan birgalikda mavjud uylarni eng kam darajada buzishni hisobga olib, birinchi navbatda bajariladigan qurilish ishlari belgilab olindi.

Qarshi, Samarqand va Buxoro viloyat markazlari bo'yicha ishlar mahalliy loyihalashtirish tashkilotlari va «O'zshaharsozlik» instituti bilan hamkorlikda arxitektura hamda shaharsozlik Bosh boshqarmalari kuchi bilan bajarildi.

Hozirgi vaqtda «O'zshaharsozlik»da mazkur shaharlar markazlarini mufassal rejalashtirishning bosh rejalari va loyihalariga tuzatishlar kiritish bo'yicha ish davom ettirilmoqda.

Qarshi bosh rejasi. Shaharning 2700 yillik yubileyiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish munosabati bilan (2006-yil, oktabr) Qarshi ayniqsa o'zgarib ketdi. Me'moriy obidalari, tarixiy inshootlar qayta tiklandi va ta'mirlandi hamda sport va ta'lim sohasida yirik zamonaviy majmualar, binolar tiklandi. Dam olish joylari bunyod etildi – bolalar parki zamonaviy jihoz va dizayn bilan to'la qayta qurildi, Alisher Navoiy nomidagi markaziy madaniyat va istirohat bog'i o'ziga xos rejalar bilan qayta tiklandi.



Yubiley tantanalari – Qarshining 2700 yillik to'yi 2006-yilda qurilgan 2800 tomoshabinga mo'ljallangan «Amfiteatr»da (arxitektorlar S. Sutyagin, A. Zohidov, rassom B. Niyozov, konstruktor A. Braslavskiy va boshq.) o'tkazildi.

«Amfiteatr» majmui bog' hududida (Alisher Navoiy nomidagi bog') va viloyat hokimiyati ma'muriy binolariga yaqin joyda, Qarshi shahar markazi mufassal rejalashtirishning bosh rejalari va loyihalariga muvofiq joylashtirilgan.

Xalq ommasining yirik tomoshagohi o'laroq Tarix Muzeyi (loyihaviy taklif) bilan majmuada u muhim madaniy-ma'rifiy markazni yuzaga keltiradiki, uning ahamiyati viloyat markazidan ancha tashqariga chiqib ketadi.

Amfiteatr oldidagi bog' hududi har ikkala majmua uchun «ochiq foye» – yozgi istirohatgoh hisoblanadi, Alisher Navoiy nomidagi bog'ning umumiy landshaft yechimi, ma'muriy binolar, bosh maydonni «oilali bog'» yangi haykaltaroshlik kompozitsiyasi bilan bog'lovchi piyodalar sayilgohi bilan birlashib yaxshilab obodonlashtirilmoqda va ko'kalamzorlashtirilmoqda.

«Amfiteatr»ning hajm-kenglik echim konsepsiyasi mazkur majmua-ning shaharsozlik vaziyati, amaliy vazifasi va ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan.



**Qarshi. Amfiteatr, 2006-y. Arxitektorlar S. Sutyagin, A. Zohidov.
Umumiy ko‘rinishi, birinchi va ikkinchi qavat tarhlari.**

Tomoshabinlarning amfiteatrga joylashuvi majmua uchala sektorlaridagi har bir o‘rindan sahnaning yaqqol ko‘rinib turishini ta‘minlaydi.

«Amfiteatr»ning minbarlari ostida tomoshabinlar uchun xizmat ko‘rsatish xonalari bo‘lgan uch vestibyl (uch sektordan har birining o‘rtasida), chekkadagi sektorlar biqini tomondan ikki vestibyl joylashtirilgan, shulardan biri artistlar uchun bo‘lib, artistlar, mashq, pardozxonalari bilan bog‘lanib ketgan va hokazolar; ikkinchisi esa

xizmatchi vestibyul bo'lib, unda ma'muriy, texnik va ombor xonalari joylashgan.

Markaziy sektor minbari ostida ikki qahvaxonadan tashqari VIP mehmonlar uchun xona loyihalashtirilgan, uning alohida eshigi bo'lib, «Amfiteatr»ning mehmonlar uchun belgilangan sektoriga olib chiqadi.

Piyodalar va transport kiradigan uch pandusli keng sahna (diametri 30 m) bog' tomondan qo'shaloq ustunli arkli devor bilan qurshalgan, ustunlar tagidagi hovuzda otilib turuvchi favvoralar konsert boshlanishi oldidan, tanaffus chog'ida va konsertdan keyin tomoshabinlar u yoqdan-bu yoqqa yurganida ishga tushirilib, «parda» hosil qilinadi, (aslida esa maysazorga almashtirilgan).

Arkli devor o'rtasida sakkiz metrli ochiq joy bor, bu erdan bog' va sahna yaqqol ko'rinib turadi, sahnadagi tomosha voqealari orqadagi cheksiz bog' manzarasi bilan ulanib, ajoyib kenglik hosil qiladi (yubiley konsertida postanovkachi rejissyor buni ajoyib tarzda namoyon etdi).

Markaziy sektorning eng baland joyida (+6, 30) ovoz rejissyori va sahnani yoritish xonasi joylashgan.

Har uchala sektorning uzunasi bo'ylab ro'paradan yorituvchi chiroqlarni, ovoz kuchaytirgich jihozlarini, teleko'rsatuvni uzatish postlarini joylashtirish uchun texnik xonalar silsilasi (19,50 belgida) loyihalashtirilgan edi; xonalar silsilasi ustidan burma soyabon (havo buzuq vaqtlarda) o'rnatilgan, u amfiteatr minbarlari ustidan 15 m va fasadlar tomonga 4,5 m chiqib turadi.

Devor yoqalab saf tortgan uchi yunoncha uslubdagi naqshli bezakdor ustunlar, ikki hashamdor sopol manzara (panno) – u markaziy sektorga olib kiruvchi eshikni qurshab olgan – qizil granitdan yotiq yo'llar tortilgan travertin sayqalli sifatli pardoz, ayvonchalarning mehrobsimon eshiklari, tabiiy marmar qoplamali poydevorlar, devor tagidan yastanib cho'zilgan maydon va chamanzorlar (loyihada bu erda ham favvoralar bo'lishi ko'zda tutilgandi) butun majmuaga manzaradorlik va tantanavor tus berib turadi.

Ma'lumki, shaharsozlikning zamonaviy tamoyillari Navoiy shahar qurilishida ham o'z ifodasini topgan.

Navoiy shahar bosh rejasi. 1958-yilda qurilishlardan xoli maydonda Karmana temir yo'l stansiyasi va shu nomdagi qishloq o'rtasida bunyod etilgan Navoiy shahri Navoiy viloyatining ma'muriy-xo'jalik sanoat va madaniy markazi hisoblanadi.

Navoiy aholisi 2000-yil 1-yanvarida 144 ming nafar odamni tashkil etgan, hisob-kitob muddatida 225 mingga etishi kerak. Navoiy shahar turar-joy uylari asosan ko'pqavatli binolardan iborat. Bir qavatli uylar 14 % ni tashkil etadi, Karmana tumanining shaharga qo'shib olinganini hisobga olinsa, bu raqam 23 % ga etadi.

Shaharda ijtimoiy infratuzilma inshootlari keng quloch yoygan, bular: bolalar bog'chalari, maktablar, liseylar va kollejlilar, klublar, ikki oliy o'quv yurti va hokazolardir.

Tog'-kon qayta ishlash, kimyo, elektroenergiya sanoatning yetakchi sohalari bo'lib, ularda 31,0 ming nafar odam band.

Navoiy shahrining bosh rejasi, ayniqsa uning II bosqichi O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlaridagi tub o'zgarishlar munosabati bilan ishlab chiqildi.

Bosh rejani ishlab chiqish chog'ida mualliflar (2007-y, «O'zsha-harsozlik», bosh arxitektor B. Abdullayev) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning shaharlar yodgorlik majmualari bilan tanishib chiqish chog'ida bayon etgan takliflari asos qilib olindi, hususan:

- shaharning Karmana tumanini jadal rivojlantirish;
- arxitektura yodgorliklarini muhofaza qilish va rivojlantirish;
- Karmana tumanining birinchi navbatdagi qurilishini ko'chirish;
- asosiy shohroh ko'chalarni Zarafshon daryosi qayiriga olib chiqish;
- Karmana tumanining arxitekturaviy qiyofasini o'zgartirish;
- dam olish shahar zonasi yaratish maqsadida ekologik holatni yaxshilash, daryo qayirini obodonlashtirish.

Shahar obodon hududi ikki rejaviy turkumga bo'linadi – Navoiy rejaviy tumani (sanoat zonasi bilan birgalikda) va Karmana rejaviy tumani.

Navoiy rejaviy tumani yaxlit hal etilgan, uning rejasiga mikrorayonlashtirish tamoyili asos qilib olingan. Hozirgi vaqtda o'n ikkitadan ortiq mikrorayon, kasalxona shaharchasi va shahar ma'muriy markazi qurilgan. Markaziy madaniyat va istirohat bog'i yanada obodonlashtirilmoqda, «Umid» manzilgohi va boshqa mikrorayonlar qurilishi davom ettirilmoqda (17, 18 mikrorayonlar).

Shaharda asosan 4 va 5 qavatli seksiya uylar qurilmoqda, uncha katta bo'lmagan oilalarni joylashtirish uchun 7–9 qavatli galeriya tizimidagi uzun uylar ham qad ko'tarmoqda. Namunaviy turar-joy uylari nisbatan kam bo'lgan har xil qavat va turli uzunlikdagi uylar qurilishida fasadlarga pardoz berish, quyoshqaytarg'ichlar o'rnatish

va to'siq devorlar ko'tarish ichki yaxlit yagonalikka zaruriy xilma-xillik bag'ishlaydi.

Shahar muhiti o'ziga xosligini shakllantirishda obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, landshaft arxitekturasi ham muhim rol o'ynaydi. Ommaviy turar-joylar qad ko'targan muhitdagi arxitekturaviy o'ziga xoslik shahar husnini ochadi, biroq undan berida jamoat markazi majmualari «hamohang» bo'lib, shahar kenglik to'qimasiga badiiy yaxlitlik xususiyatlarini baxsh etadi.

Jamoat markazi shahar asosiy rejaviy tuzilmasiga bo'ysundirilgan va shahar bosh kompozision o'qi — Xalqlar Do'stligi shohroxini yuzaga keltirgan arxitekturaviy majmualar va yirik turar-joy mavzelarining cho'ziq kenglik tizimi sifatida hal etilgan. Markazda ham, turar-joy uylari orasida ham barpo etilgan xiyobonlar, bog'lar, havzalar, favvoralar va madaniyat hamda istirohat markaziy bog'i-dagi 20 ga maydonga ega sun'iy ko'l mikroiklimni yaxshilash maqsadlariga xizmat qiladi.

Sanoat zonasi g'arbiy va janubiy yo'nalishda temir yo'l yoqalab rivojlanadi hamda obod hududlardan sanitar-himoya zonasi bilan ajratilgan.

Rejalashtirish tariqasi va ijtimoiy sharoitlari bo'yicha Karmana tumani Navoiy tumanidan ancha past ko'rsatkichlari bilan farq qiladi. Sanoat zonasi tugallanmagan va ajratib qo'yilmagan: sanoat korxonalari, bazalar, omborlar Toshkent ko'chasi yoqalab turar-joy uylari bilan aralash-quralash qilib joylashtirilgan.

Shahar xonadonlari qishloq manzilgohlari bilan qorishib ketgan, jamoat markazi ko'p funksiyalik tuzilmaga ega va uning asosiy inshootlari Bobur va Mustaqillik ko'chalarida guruhlashgan.

1978-yilda Navoiy shahrining ishlab chiqilgan mavjud bosh rejasi unda qabul qilingan qoidalarning ko'pi to'g'ri ekanligini ko'rsatadi — u guruh-guruh qilib joylashtirilgan, shahar hududiy o'sishi istiqbolli yo'nalishga ega, qurilishning birinchi navbati arxitekturaviy-kenglikni tashkil etishda umumiy tamoyillarga amal qilingan va hokazo qurilishning birinchi navbati yuqori darajada amalga oshirilganligi shundan guvohlik beradi.

Shu bilan birga mualliflar O'zbekiston siyosati va iqtisodiyotida sodir bo'lgan tub o'zgarishlarni, shuningdek Navoiy va Karmana shaharlarining qo'shib ketishi haqidagi jiddiy fikrlarni hisobga olishlari zarur edi.

Mualliflar bu murakkab vazifani hal etishga harakat qilganlar:

– qurilishning birinchi navbati loyihada shaharning shimoliy qismida, yangi Karmana tumanida ko‘rsatilgan, Zarafshon daryosi qayiri yoqalab dam olish zonasini tashkil etish va obodonlashtirish bo‘yicha dastlabki tadbirlar shunga kiradi;

– Navoiy shahar obod zonasi qurilishining birinchi navbati va ishlab chiqarish bazasi tabiiy o‘shish darajasidagi yanada mo‘tadil rivojlanish pallasiga kirib keladi;

– ilgari ishlab chiqilgan bosh rejadagi hududiy rivojlanish chegaralari saqlab qolinadi, bunda shahar xizmat zonalarining uzluksiz o‘shish imkoniyati ta‘minlanadi: sharqiy va shimoli-sharqiy yo‘nalishlarda – obod qismlar, shahar g‘arbiy va janubiy g‘arbiy yo‘nalishlarda – sanoat, sharqiy yo‘nalishda umumshahar markazi;

– bosh rejaning rejaviy tuzilishi asosida ikki rejaviy tuman – Navoiy (markaziy, uning tarkibiga Navoiy shahrining mavjud qismi va istiqbolli sharqiy turar-joy tumanlari kiradi) va Karmana (u shahar Navoiy (qishloq) tumani markazi va unga tutash qishloq manzilgohlaridan tashkil topgan) yotadi.

Umumshahar ahamiyatidagi shohroh tizimi rejaviy tumanlarni turar-joy tumanlariga bo‘lib yuboradi:

– Karmana rejaviy tumanida shahar shu qismi aholisining ish o‘rni bilan ta‘minlash uchun janubi-sharqiy sanoat tumani yuzaga keltirilgan. Ulgurji bozor va qurilish mollari bozorini joylashtirish taklif etiladi;

– rejaviy va turar-joy tumanlarining jamoat markazlari umumshahar markazi bilan birgalikda yagona nursimon tuzilma hosil qiladi, uni kesib o‘tadigan maydonlar va ko‘chalar, ko‘kalamzorlar hamda hovuzlar tizimi yagona kompozision majmua vujudga keltiradi.

– Mualliflar fikricha, bunday hududiy rivojlanish istiqbolda shahar aholisi nufusining 350-450 minggacha oshishiga imkon beradi.

Mualliflar yangi shahar markazini taklif qilmoqdalar, unga ko‘ra maydonlar, jamoat va turar-joy binolari majmualari vujudga keladi, rivojlanishning ochiq tuzilmasiga ega bo‘ladi.

Markaz yangi qismi kompozitsiyasi asosida endor yo‘nalishda (Amir Temur ko‘chasining davomi) va meridial (Torobiy ko‘chasi yoqalab) yo‘nalishida ikki xiyobon bo‘ladi, mazkur ko‘chalar kesishgan joyda yangi shahar ma‘muriy maydoni barpo etilgan. Xiyobonlar yoqalab markazning asosiy – teatr, sport va savdo maydonlari joylashgan va hokazo.

3.2. Madaniy merosga g'amxo'rlik. Arxitektura yodgorliklari ta'miri

O'zbekiston jahon tamaddunining eng qadimgi o'choqlaridan biri. Bu yerda paxsa va guvaladan qurilgan ko'plab qadimgi yodgorliklar, pishiq g'isht va sinchdan tiklangan arxitekturaviy inshootlar mavjud. Ajoyib lojuvard koshinli o'rta asr arxitekturasi yodgorliklari alohida qiziqish uyg'otadi.

O'zbekiston, jumladan YUNESKONing jahon merosi ro'yxatiga kiruvchi shaharlari – Xiva, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz tarixiy majmualari va yodgorliklarining o'ziga xosligi jahon tamaddunining taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Faqat mustaqillik yillaridagina arxitektura yodgorliklari ta'miri bo'yicha bunyodkorlik faoliyati keng quloch yoydi. Tarixiy shaharlardagi arxitektura yodgorliklari va shaharsozlik majmualarini qayta tiklash O'zbekiston Respublikasining davlat siyosati bo'lib qoldi.

Mamlakatimiz Prezidentining tashabbusi bilan 2001-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan «Madaniy meros inshootlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi qonun-qabul qilindi. Tarixiy Buxoro (1997-y.), Xiva (1998-y.), Termiz (2001-y.), Qarshi (2006-y.), Samarqand (2008-y.), Marg'ilon (2009-y.) va Toshkent (2009-y.) shaharlarining yubileylari O'zbekistondagina emas, balki Parijda ham tantanali nishonlandi.

Buxoro. Yubileyga tayyorgarlik davrida Buxoro ikkinchi marta tug'ildi. Barcha qadimgi arxitektura yodgorliklari ta'mirlandi va endi ular o'zining butun husnu malohati bilan sayohlar ko'zini yashnatmoqda.

Buxoroning saqlanib qolgan eng dastlabki durdonalari IX–X asrlarga taalluqli. Ular orasida bugungi kungacha bus-butun saqlanib qolgan ajoyib yodgorlik – bu Somoniylar maqbarasi. Afsuski, bu yodgorlik ham asta-sekin cho'kayotgani ma'lum bo'ldi. Darhol zaruriy choralar ko'rildi va endilikda yodgorlik o'zining miqyosi, shaklining mukammalligi bilan kishini hayratga soladi, pishiq g'ishtdan tiklangan devorlari esa qo'lda to'qilgan kashtani eslatadi.

Yodgorlik hududi obodonlashtirilgan, an'anaviy bog' san'ati usullaridan foydalanib zamonaviy park bunyod etilgan.

To'rt tomonidan yemirilib, omborxonaga aylantirilgan Jome Kolon masjidi ta'mirlandi. 50 m balandlikka bo'y cho'zgan Minorai Kalon

savlat to'qib turibdi, u mukammal muhandislik inshooti va ajoyib bezak san'atiga misol bo'la oladi.

Registon va uning tevarak-atrofi obodonlashtirildi. Ulug'bek madrasasi O'rta Osiyodagi eng qadimgi madrasalardan bo'lib, u ham qisman ta'mirdan chiqarildi va endilikda kishilarni hayratga solmoqda. Buxoroning 2500-yiliga bag'ishlangan tantanalarda O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov qtnashdi va tabrik nutqida quydagilarni ta'kidlagan edi: «Mirzo Ulug'bek 1417-yilda Buxoroda qurdirgan madrasa peshtoqiga «Bilim olishga intilish har bir musulmon erkak va




Buxoro shahrining umumiy ko'rinishi.



Buxoro. Labi Hovuz ansambli, XVI – XVII asrlar.



Buxoro. Poyi Kalon ansambli, XII–XXI asrlar.



Buxoro. Bosh savdo ko'chasi qurilishi rejasi, XVI asr.

ayol uchun farzdir» deb yozib qo'yilgani tagida gap ko'p».¹ Mirzo Ulug'bek tomonidan 1433-yilda Fijduvonda qurdirgan boshqa bir madrasa ham xalqimizning ko'plab avlodlariga xizmat qildi. Bugungi kunda ham o'z ulug'vorligini yo'qotmagan arxitekturaviy yodgorliklar – minoralar, masjid va madrasalar, savdo rastalari hamda shifoxonalar, hovuz va maydonlar Buxoroning buyuk tarixidan shahodatdir.

Darhaqiqat, Labi Hovuz majmuasi kompozitsiyasi o'ziga xos. Bu erda keng to'rtburchak maydon uch tomondan mahobatli inshootlar bilan qurshalgan: Ko'kaldosh madrasasi (1568–69-yy.), Nodir Devonbegi xonaqosi (1620-y.) va Nodir Devonbegi madrasasi (1622-y.). Labi Hovuz (1620-y.) esa shularni jamlab turuvchi markaziy unsur bo'lib, butun majmua shu nom bilan ataladi. O'rtada hovuzi bo'lgan uchala inshoot va u yerdagi nabotot dunyosi arxitekturaviy-badiiy mushtaraklikning betakror namunasi hisoblanadi. Shunday qilib, sun'iy mikroiqlim unsurlari mukammal majmua tizimiga kiritilgan bo'lib, ular keyinchalik O'rta Osiyo shaharsozligida yoyila boshladi.

Shahriston markazini tashkil etgan yirik savdo inshootlari qayta tiklandi. Bu XV asrga oid Buxoroning eng yirik savdo rastasi «Toqi Zargaron» bo'lib, ko'pqubali ayvonli imoratdan iborat, uning ichi yorug' va havodor. Buxorodagi savdo rastalari usti yopiq ko'chalar – timlarda joy olgan ko'chalarning hâf ikkala tomonidan ham savdo rastalari cho'zilgan, karvonsaroylar va behisob do'konlar saf tortgan.

Buxoro – Buyuk Ipak yo'lidagi eng yirik savdo markazi bo'lib, bizning davrimizda qayta tiklanmoqda.

Qadimgi yodgorliklar yonidan zamonaviy arxitektura binolari qad ko'targan, bular sanoat korxonalari, madaniyat muassasalari, xalqaro andazalarga mosu xos yangi mehmonxonalar, restoranlardir. Ko'plab qo'shma korxonalar ochilgan, buxoro-bolgar «Sitora» QK telefon apparatlari chiqaradi, o'zbek-hind «Tufik» QK Buxoro viloyatida o'sadigan giyohlar asosida dori-darmonlar ishlab chiqaradi.

Buxoro – bu sahro ichidagi saxovatbaxsh voha bo'lib, ko'l va favvorolari tanga orom beradi, sharqona bozorlari doim gavjum, gilamdo'z, zardo'z, kandakor, ganch va yog'och o'ymakorlarining nodir buyumlari ko'zni oladi.

Xiva. O'zbekistonning eng qadimgi shaharlaridan biri – bu Xiva. Rejaviy tuzilmada shahar uch qismdan iborat: qal'a – ko'hna Ark,

¹ J. Karimov. Ma'naviy tiklanish yo'lida. Toshkent, «O'zbekiston», 1998, 370-bet.

shahriston – Ichon Qal’a va rabot – Dishon Qal’a. Shaharni kungurador minorali va darvozali qalin devorlar himoya qilib turadi. Uning ortidan ipga tizilgan durdonalari kabi arxitekturaviy majmualar va alohida yodgorliklar shodasi ko‘z o‘ngingizda namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Xivaning 2500 yillik bayramidagi tabrik nutqida uni «zaminimiz durdonasi» deb baho bergandi.¹


Jamoat binolari (madrasa, masjid, maqbara, savdo rastasi) yassi tomli turar-joy uylari (baland ayvonli) va adl minoralar birgalikda Xivaning manzarasini ochib yuborgan. Ular Xivaning arxitekturaviy jihatdan betakror qiyofasini o‘zida namoyon etib turadi. Shahar yubileyiga tayyorgarlik munosabati bilan o‘nlab arxitekturaviy yodgorliklar ta‘mirlandi. Ayniqsa Xivaning Ko‘hna Ark oldidagi maydon tanib bo‘lmas darajada o‘zgarib ketdi, tantanalar ayni shu joyda o‘tkazildi. Maydon ro‘parasida esa Xiva hukmdori, mumtoz shoiri Muhammad Rahimxon Feruz (XVIII a.) qurdirgan ulkan madrasa savlat to‘kib turibdi. Ta‘mirdan keyin betakror monumental shakl va bezak namunasiga aylandi.

Madrasa peshtoqidagi naqshindor bezaklarda, darvoza jiyaklarida, uchchorak ustunchalarda koshindan keng foydalanilgan. Guldor qilib terilgan g‘ishtlar koshinlar bilan mushtaraklashib ketgan. Unda qo‘llangan gumbaz tom va boshqa shakllar inshoot arxitekturasi mahobat bag‘ishlagan. Sakkiz qirrali mehrobli ulkan peshtoq besh qirrali mehroblar silsilasi bilan an‘anaviy namuna xususiyatlarini kuchaytiradi. Ummuman olganda, madrasa nodir inshoot bo‘lib, yirik jamoat binosi sifatida o‘z davrining estetik-badiiy tasavvurini aks ettiradi.


Sherg‘ozixon madrasasi (XVIII asrning boshi) ham ta‘mirdan chiqqan – u Xivadagi dastlabki diniy maktablardan biri bo‘lib, «Maskani Fozilon» – «Olimlar uyi» deb atalgan. Bu yerda XVIII asrda turkman mumtoz adabiyotining yirik vakili shoir va mutafakkir Maxtumquli tahsil olgan.

Yo‘l sathining ko‘tarilishi tufayli yarmigacha erga botgan old fasad qattiq emirilgan. Ta‘mir ishlaridan keyin maqbara o‘zining oldingi qiyofasiga ega bo‘ldi. Mahobatli binoga baland peshtoqli darvozadan kirib boriladi, darvozaning har ikkala tomonida ikki qavatli ayvonchalar, burchaklarida esa uncha baland bo‘lmagan «guldasta» minoralari joylashgan. Hujralar hovli girdlarida o‘rin olgan, ark va gumbaz singari


¹ I. Karimov. Ma‘naviy tiklanish yo‘lida. Toshkent, «O‘zbekiston», 1998, 373-374 betlar.




**Xiva. Islomxo'ja
minorasi 1908-y.**



Xiva. Ichon Qal'a devorlari.



**Xiva. Pahlavon Mahmud yodgorligi,
XIV–XX asrlar.**



**Xiva. Ichon Qal'a
madrasasi va minorasi,
1788–1789-yy.**

ko'plab konstruktiv shakllar O'rta Osiyoning boshqa davrlarga mansub inshootlaridan olingan.

Xivaning ko'plab masjidlari orasida Juma masjidi alohida diqqatga sazovor. Arab sayyohi al-Maqdisiy yozishicha, u X–XI asrlarda qurilgan. Vaqt o'tishi bilan masjid vayron bo'lgan va 1788-yilda shu joyning o'zida xuddi o'shanday tarh-tariqali yangi masjid barpo etilgan.

Ichon Qal'a markazida qad rostlagan mazkur masjidning alohida xususiyati shundan iboratki, uni o'ymakori ustunlar maskani deb atasa bo'ladi. Bu yerda 212 ta ustun bo'lib, shulardan hozir 25 tasi saqlanib


qolgan. Masjid yangidan hayotga qaytib, ma'rifat maskani sifatida o'z faoliyatini davom ettirmoqda.

Islom Xo'ja madrasasi va minorasi (1910-y.) Xiva shahrining timsoli bo'lib qolgan. Ular Ichon Qal'a majmuining eng oxirida bunyod etilgan. Islom Xo'ja Xivadagi eng baland minora bo'lib, undan yangilangan shahar manzarasi kaftdagiday ko'rinib turadi.


Xivada yana ko'plab maqbaralarni tilga olish mumkin, bular Pahlavon Mahmud, Shayx Muxtor Valiy va boshqalar bo'lib, ular asrab-avaylab saqlanmoqda va Xorazm xalqi tarixini o'zida namoyon etgan yodgorlik sifatida ta'mirlanmoqda.

Samarqand. Samarqandda arxitekturaviy va madaniy yodgorliklarini muhofaza qilish, ta'mirlash bo'yicha ko'p ishlar qilindi. Registon ansambli – eng yirik jamoat inshooti, Samarqandning o'rta asrga oid markaziy maydoni. Hozirgi vaqtda yangilangan Registonda uch madrasa binosi qad ko'tarib turibdi. Shulardan ikkitasi – Sherdor va Tillakori madrasalari XVII asrda qurilgan va maydonning g'arb tomonida joylashgan uchinchi XV asrda Amir Temurning nevarasi Ulug'bek tomonidan barpo etilgan.

1991–94-yillarda ushbu madrasa to'la ta'mirdan chiqarildi, ayniqsa uning ichki qismi vayronaga aylanib, tashlandiq holda yotardi; madrasaning noma'lum sabablarga ko'ra XIX asrda buzib tashlangan ikkinchi qavati qayta tiklandi. Tillakori madrasasining chap qismidagi



Samarqand. Registon ansambli, XV–XVI asrlar. Umumiy ko'rinishi.



**Samarqand. Registon ansambli,
XV–XVI asrlar. Tarhi.**

emirilishni bartaraf etish bo'yicha tezkor choralar ko'rildi.

YUNESKO hamokrligida O'zbekistonda madaniy merosning muhandislik-amaliy chidamliligini oshirish uchun «igna sanchish qo'llanmasi» va Tillakori madrasasi poydevorining cho'kishini qayd etish uchun kompyuter uzatgich moslamasi harakatga keltirildi.

Amir Temurning butun bir mahallani egallagan masjidi (1399–1404–


yy.) majmui ta'mir qilindi: har ikki tomonda joylashgan Katta masjid va janub-shimolda joylashgan Kichik masjid. Har bir masjid markazida hozirda mavjud imoratlar qurilgan bo'lib, ularga g'arbdagi peshtoqli eshikdan kiriladi. Katta masjid binosi oddiy, ammo ulkan handasaviy inshootlardan tashkil topgan: 5 m qalinlikdagi kubsimon bino ichida chorsi zal bo'lib, burchaklarining tepasida sakkiz qirrali arksimon qatlam bor, uning ustidan uchli gumbaz joylashgan. 15 m diametrli gumbazni ko'tarib turish uchun uning ustidan silindrsimon taglikda qo'ndirilgan yana bir tashqi gumbaz qad ko'tarib turibdi. Katta masjidning shu kunlarda qayta tiklangan qo'shaloq gumbazi moviy rangda bo'lib, oftobda yalt-yult qiladi. Saroy Mulk Xonim madrasasi poydevori qismining topilishi va qayta tiklanishi katta yutuq hisoblanadi.

Amir Temurning 660 yillik yubileyi munosabati bilan katta ta'mir va obodonchilik ishlari amalga oshirildi. Go'ri Amir va Ruhobod yodgorliklari ta'mirdan chiqarildi.

Ko'plab ortiqcha binolar: Amir Temur davri yodgorliklari atrofida tamoyildagi loyihalar bo'yicha 60- yillarda qurilgan qahvaxona, restoran va hokazolar buzib tashlanganini ta'kidlash joiz. Natijada yodgorliklarning chiroyi yana ham ochildi, ayniqsa sayohlar uchun qulay yurish yo'llari yuzaga keldi.

Ochilgan hududlar obodonlashtirildi, ko'kalamzorlashtirildi va favvoralar o'rnatildi.

O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining «Shohi Zinda arxitekturaviy majmuini ta'mirlash va obodonlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil etish to'g'risida»gi Qarori asosida ta'mirga respublikaning Shohi Zinda dahmasida sozlov-ta'mir ishlarini bajargan yetuk mutaxassislar va ustalar jalb etildi. Majmua besh-olti asrlik tuproq qatlamidan tozalanib,



**Samarqand. Go'ri Amir maqbarasi, XV asr.
Umumiy ko'rinishi va tarhi.**

majmua poydevori tayanch devor bilan mahkamlandi. Transportning tinimsiz harakatidan yodgorliklarga zarar etkazadigan yerosti silkinishlarni bartaraf etish maqsadida Shohi Zinda arxitekturaviy majmuasi yonidan o'tadigan ko'cha olib tashlandi.



Besh-olti asrlik tuproq qatlamidan tozalangandan keyin majmua tayanch devor bilan mahkamlandi; yer ostida topilgan tahoratxona, hammom, masjid va boshqa ilgari ma'lum bo'lmagan ziyoratgohlar muzey shakliga keltirildi.

Shohi Zinda majmuasidagi ziyoratxona va Qusam Ibn Abbos masjid-maqbarasi ta'miri tugallanib, qayta tiklandi. Qusam Ibn Abbos masjidi (XV a.) cho'zinchoq shaklga ega bo'lib, uch qubbali ayvondan iborat, u bir-biriga yonma-yon baqamti arklar va qalqonsimon qiya sathda joylashgan.

Uning ichkarisi engilligi va havodorligi bilan ajralib turadi. Farbiy devordagi mehrob yaqqol ko'zga tashladi, u yorqin ranglardagi quroq o'ymakori koshinlar bilan bezatilgan.

Navoiy viloyati arxitekturaviy yodgorliklari ta'miri davlatimiz rahbarining Navoiy viloyati xalq deputatlarining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi (1998-y.) va «Navoiy viloyati Navoiy shahri tarkibida Karmana tumanini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov 1999-yil dekabrda Navoiy viloyati saylovchilari bilan uchrashgan shunday degan edilar: «Zarafshon vohasi tarixi Vatanimiz qadimiy tarixining uzviy qismidir. Shu ma'noda bu erdagi har bir yodgorlik, karvonsaroy va rabot biz uchun muqaddasdir va biz ularni o'rganishimiz va ko'z qorachig'iday asrab-avaylashimiz kerak».

SHOHI-ZINDA ME'MORIY ANSAMBLI



Shu jihatdan Nurotadagi Qosim Shayx maqbarasi va Chashma majmuining obod ziyoratgohga aylantirilishi hamda qayta qurilishi viloyat hududidagi savobli ishlarning boshlanishi bo'ldi.

Navoiy viloyatida bunday tarixiy yodgorliklar va ziyoratgohlar ko'p. Mirsaid Bahrom, Shayx Xo'ja Xisrav maqbaralari, Mirzachorbog', Raboti Malik tarixiy yodgorliklari shular sirasiga kiradi.

Biz har doim buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanamiz. Ular xotirasi o'lkamizni sharaflarga burkaydi.

Zarafshon zaminidan etishib chiqqan shunday buyuk odamlardan biri olim so'fiy Hazrat Nizomiddin Qosim Shayxdir...»

Navoiy viloyatida Samarqand va Buxoro o'rtasidan o'tgan «Buyuk Ipak yo'li»da joylashgan Raboti Malik karvonsaroyini O'rta Osiyo arxitektorlari ijodi sirasiga qo'shish mumkin. Yaqingacha ham XII asrga oid g'ishtin va o'ymakori bezakli vayrona peshtoqqina so'ppayib turardi.

XII asrga kelib rabotlarning qal'alik ahamiyati yo'qoladi va ular yo'l usti garajlari hamda karvonsaroylar bo'lib xizmat qilardi. Raboti Malik (shohona istehkom) keng bino bo'lib, rejada har tomoni 86 m keladigan otxonani eslatuvchi gumbazsimon chorsi peshayvondan iborat. Keyin keng hovli keladi va undan ensiz yo'lak bilan katta uyga kiriladi.

Malik sardobasi qishloq va Rabot uchun suv manbai hisoblangan. U zinador qubba bilan yopilgan g'ishtin hovuzdan iborat. Hovuz Zarafshondan qazilgan anhor suvi bilan to'ldirilgan. Hovuzdagi suvga birgina zinadan tushilgan. Shuni ta'kidlash quvonchlik, tarixiy Raboti Malik yodgorligi o'zining dastlabki qiyofasiga ega bo'la boshladi. Janubiy devor qayta tiklandi, kirish eshigi ta'mirlandi («UZNIPI ta'mir», 2000–2001-yy.)

Butun hudud qazib chiqildi va binolar qoldiqlari hamda qal'a inshootlari konservasiya qilib qo'yildi. Shuningdek, Malik sardobasi tarixiy yodgorligi qisman ta'mirlandi. Vayron bo'lgan qubba qayta tiklandi (1999–2001-yy.). Ish davom ettirilmogda – arkli eshik va hovuzning ichki qismini qayta tiklash bo'yicha ta'mir ishlari hali tugallanmagan. Butun hudud obodonlashtirilgan va ko'kalamzorlashtirilgan.

Termiz. Surxondaryo viloyatining Termiz shahri yubileyi munosabati bilan katta bunyodkorlik ishlari qilindi. Termiz shahrining 2500 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda Prezident I. Karimov jumladan bunday degandi: «Termiz shahrining biz bugun tantanali nishonlayotgan yubiley eng avvalo shunisi bilan sharafliki, u qalblarimizni tariximizga, buyuk ajdodlarimiz xotirasiga hurmat va ehtirom tuyg'usi bilan to'ldirayotganini yana bir marta ko'rsatmogda. Aynan mana shunday

tantanalar, shunga o'xshash marosimlar mamlakatimizda yashayotgan har bir odamga, ayniqsa yoshlarimizga boy madaniy merosimizni qadrlash va ko'z qorachig'idek asrab-avaylashga, bu bebaho boylik bilan samimiy faxrlanishga o'rgatadi.

Mana shu shonli sana munosabati bilan qadimiy Termiz yanada chiroyliroq va yoshroq bo'lib ketganidan quvonmay bo'ladimi?

Agar Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Sulton Saodat o'rta asr yodgorlik majmualarini tubdan qayta qurish, Qirqqiz qo'rg'oni, shuningdek temir yo'l vokzali, Birja markazi, qadimshunoslik muzeyi, amfiteatrning yangi binolari, yangi o'yingohlar va suzish havzalari, o'nlab boshqa inshootlar faqat Termiz shahrinigina emas, balki butun Surxondaryo vohasini o'zgartirib va ko'rkamlashtirib yubordi...»¹

Hakim at-Termiziyning yangilangan arxitekturaviy majmuasi (X–XIV aa.) Eski Termiz shaharchasining shimoli-g'arbiy qismida joylashgan. IX asrdagi taniqli termizlik so'fiy, «hakimiy» so'fiylik tariqatining asoschisi Abu Abdullo Muhammad bin Ali bin Husayn al-Hakimiy Termiziy shu erdagi xonaqoda yashagan va dafn etilgan.

Bir vaqtlar shayx qabri ustidan uncha katta bo'lmagan maqbara tiklangan, u rejada qubbali, chorsi bino ko'rinishida bo'lgan. Shimol tomondan maqbaraga turdosh chog'roq masjid joylashgan. XVIII asr oxiriga kelib, majmua kengaytirilgan, o'shanda dahmaning sharqiy tomonidan qubbador yana bir kichikroq chorsi maqbara qad ko'targan. XV asr boshida Amir Temurning nevarasi Xalil Sulton majmuaning shimoli-sharqiy tomonida muhtasham xonaqoh barpo ettiradi va Hakim Termiziy qabri ustidan sag'ana qo'ydiradi, mazkur sag'ana Temuriylar davri ustalarining tosh o'ymakorligi va naqsh solish san'ati durdonalaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, Hakim Termiziy dahmasi yonidagi inshootlar majmui (masjid, maqbara, muhtasham xonaqo) turli davr qurilishlarining uzviy mushtarakligiga yorqin dalolat bo'lib sanaladi. Mavjud binolar va hujralarni hisobga olib bunyod etilgan bu inshootlar yaxlit arxitekturaviy jismni tashkil etgan.

Termizning sharqiy qismida joylashgan boshqa termiz yodgorligi – Sulton Saodat majmui ham (XI asr) ta'mir qilinib, qaytadan tiklandi. Bu termizlik islom arboblari – sayyidlarning oilaviy dahmasi bo'lib, X–XVII asrlarda vujudga kelgan va yigirmaga yaqin qabrni o'z ichiga

¹ Termiz shahrining 2500 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda prezident I. Karimov so'zlagan nutqidan. «Xalq so'zi» gazetasi, 2002-y. 3-aprel.

olgan. Shulardan birinchisiga IX asr oxirida payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) zuryodi – Hasan al-Amir dafn etilgan. Maqbaralardan tashqari bu yerda masjid, mayda-chuyda hujralar ham joylashgan.


Surxondaryo, jumladan, Termizning ham bizning kunlarga yetib kelgan yodgorliklari – masjidlar, xonaqolar, islomning tabarruk arboblari maqbaralari o'ziga xos arxitekturaviy, ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lib, bundan keyin ham ta'mir qilish va o'rganishni talab etadi.

Qarshi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 29-sentyabrdagi «Qarshi shahrining 2700 yilligi yubileyiga tayyorgarlik ko'rish va bayram qilish to'g'risida»gi Qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 26-iyuldagi «Qarshi shahrining 2700 yilligini bayram qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori bilan Qarshi shahrining yubiley tantanalari bo'lib o'tdi (2006-yil 27-oktyabr) Bu tashabbusning YUNESKO tomonidan qo'llab-quvvatlanishi qadimgi Nasaf, Sohibqiron Amir Temurning vatani Qarshi shahriga nisbatan butun dunyoning e'tibori va e'tirofidan yana bir dalolatdir.

Shahar yubileyi munosabati bilan Odina, Ko'kgumbaz, Xo'ja Abdulaziz, Qilichboy, Bektemir, Sharafboy masjid va madrasalari, qadimgi sardobalar qayta tiklandi, ko'hna ko'priklar ta'mirlandi.

Yaltiroq moviy gumbazli Odina masjidi Qarshidagi Registon majmuining eng yirik arxitekturaviy majmuasi bo'lib, nafaqat yubileyga kelgan mehmonlar, balki atigi ikki yil ichida qayta bunyod etilgan shahar aholisining o'zi ham hayratdan yoqa ushladi.

Odina masjidi (XIV a.) ni barpo etish tarixi bevosita Sohibqiron Amir Temur tarjimai holi bilan bog'liq. Masjid Qarshida qishlovni



**Qarshi. Odina masjidi, XIV asr.
Ta'mirdan oldin va keyingi holati.**

oʻtkazayotgan Amir Temurning farmoni bilan (1385–1386-yy) moʻgʻul hukmdorlarining ilgari buzib tashlangan saroyi oʻrnida qad koʻtargan. Buyuk sohibqiron masjid faqat kattaligi (uzunligi 50 m, eni 40 m) bilan emas, balki shinamligi, nafisligi bilan ham boshqa inshootlardan yaqqol ajralib turishini istagan. Shu bois naqshu nigorlarda zarhaldan tashqari ohak toshli aqiqlardan ham foydalanilgan. Darhaqiqat, sayohlarning taʼkidlashicha, masjid uzoqdanoq yilning har qanday faslida kamalakday tovlanib koʻrinadi. Masjid ichkarisi ham oʻziga xos – gʻarbiy tomonda ulugʻvor mehrob boʻlib, uning oʻqsimon uchi Makka tomonni koʻrsatib turadi. XIX asr oxiridagi zilzila natijasida baland minoralar, ulkan gumbazli xonaqo, ayvonli minbar va hokazolar vayron boʻlishiga qaramay, XX asr boshida «Odina» masjidi, uning oldidagi maydon, savdo rastalari Qarshi shahrining eng sergavjum joylari boʻlgan. Afsuski, 1938–yilda masjid baland devorlar bilan oʻralgan qamoqxonaga aylantirilgan.

Nihoyat, mustaqillik, Prezidentimiz va hukumatimizning buyuk ajdodlar xotirasi va madaniy merosni abadiylashtirish borasidagi chinakam gʻamxoʻrligi tufayli taʼmirchi-tadqiqotchilar, xalq ustalari kuchi bilan bu tarixiy yodgorlikka yangidan jon ato etildi. Endi Odina masjidi oʻzining dastlabki qiyofasida namoyon boʻlib, uning oldidagi maydon ham aristonlarni shamollatib yurish uchun emas, balki umumxalq sayru sayohatlari uchun xizmat qilmoqda.


Qarshining Abdullaxon II hukmi bilan barpo etilgan Koʻkgumbaz Juma masjidi (XVI asr) oʻz mahobati bilan ajralib turadi. Kompozitsiyaning markazi baland gumbazli chorsi xonaqo boʻlib, uning har ikki tomonida ayvonlar joylashgan.

Koʻkgumbaz masjidi oʻz vaqtida ajoyib badiiy naqshu nigorlar bilan bezatilgan, ichki qismi esa koshinlar bilan muzayyan qilingan. XIX asr oʻrtalarida qubba tag-tugi bilan qoʻporib tashlangan.


Yubileyga tayyorgarlik munosabati bilan yodgorlik toʻla tiklandi, hovli tevaragida 36 oʻymakori ustunli ayvon va ark mehrobli peshtoq qad koʻtardi.

Prezidentimiz tavsiyasi bilan masjid atrofida katta bogʻ barpo etildi, bezak butalari va daraxtlar oʻtqazildi. Yodgorlik oldida maydon qilinib, obodonlashtirildi va koʻkalamzorlashtirildi.

Shunisi diqqatga sazovorki, qadimgi sugʻorish inshootlari, eski koʻpriklar qayta qurildi va tiklandi, shahar ichidan oqib oʻtuvchi Qashqadaryo daryosi qirgʻoqlarida esa tevarak-atrofni koʻrkamlashtirish va obodonlashtirish boʻyicha katta ish qilindi.



Qarshi. Ko'kgumbaz masjidi, XVI asr. Ta'mirdan oldin va keyingi holati.



**Qashqadaryo. Tosh ko'prik, Sardoba inshootlari.
'Ta'mirdan keyingi holati.**

Qashqadaryo daryosidagi tosh ko'prik muhandislik jihatidan bizning kunlarga saqlanib qolgan qadimgi fuqaro inshootlaridan biri hisoblanadi. Agar o'sha vaqtlarda pishiq g'isht va loy yagona qurilish ashyosi bo'lganini hisobga olgudek bo'lsak, mazkur inshoot o'z texnik xususiyatlari va amaliy tavsiflari bilan hatto bugun ham odamlarni hayratga soladi. Ko'prikning uzunligi 122,5 m, eni 8,5 m, suv sathidan ko'prikning eng tepasigacha 5,5 m gumbazli tomlar (11 tiragich oralig'i) ko'rinishidagi yuqorigi gavdasi 9 oraliq ustunga va qirg'oq poydevoriga tayangan. Ko'prikning har bir tiragi taxminan 4 mlik qalinlikdagi juft-juft g'ishtin ustunlardan tashkil etilgan. Ustunlar oralig'idan bo'shliq g'isht taxlab to'ldirilgan va tekislangan. Ustunlar o'zan tubiga terilgan yo'nma yirik sariq toshlarga qo'ndirilgan. Mana, necha asrlarki, ustunlar suvda turibdi, yozgi toshqinlar va boshqa hodisalar sinovi bir zum ham tinmasa-da, ular o'z mahkamligi va chidamliligini yo'qotgan emas.

Ko'prikni ta'mirlash chog'ida har ikki tomonda joylashgan qubbador qorovulxonalar qayta tiklandi va pardozi ishlari qilindi.

Respublikaning Farg‘ona vodiysidagi uch viloyatning tarixiy shaharlari: Andijon, Namangan, Farg‘ona, Qo‘qon, Quvasoy, Marg‘ilon va hokazolarda madaniy meros muhofazasi bo‘yicha talay ta‘mir ishlari bajarildi va yodgorlik majmualari bunyod etildi.

Marg‘ilon shahrining 2000 yillik yubileyiga tayyorgarlik munosabati bilan katta bunyodkorlik ishlari qilindi. Qadimgi yodgorliklar: Burhoniddin Marg‘oniyning Chillaxona majmui, Uvaysiy qabri va uy-muzeyi, Ulug‘ Mozor va shaharning boshqa madaniy merosi qayta tiklandi.

Qo‘qon. Farg‘ona viloyatining yana bir shahri Qo‘qon tarixiy muhitda o‘z qiyofasiga ega, uni uch yo‘nalishda qarab chiqish mumkin: shaharsozlik merosi, arxitekturaviy meros – arxitektorlik yodgorlik va turar-joy sohasidagi meros.

Shaharsozlik merosi – Qo‘qonning eng qadimgi qismi Registon maydoni bo‘lib, u XIX va XX asrlardagi arxitekturaviy, diniy, savdosotiqqa oid inshootlarni birlashtirib turadi. U o‘zining eski nomini saqlab qolgan Chorsu chorrahasida joylashgan. Ma‘lumki, tarixchilar va sayyohlar aytganidek, aynan mana shu joydan shahar boshlanadi, sharq-g‘arb – shimol-janub asosiy savdo yo‘llari shu chorrahaga kelib tutashadi. Qo‘qonsoy va Oqtepasoy suv oqimlari hamda yo‘llarning radial (shu‘lasimon) tuzilishi hisobga olinib, mana shu tugun atrofida Qo‘qon uylari gavjumlashib boraveradi.

1876-yilda Qo‘qonning podsho Rossiyasi tomonidan bosib olinishi harbiy garnizon qurilishi va qator ko‘chalar solinishida o‘z izini qoldirdi. 1888-yilda xon bog‘i shahar bog‘iga aylantirildi, Qo‘qonsoy ustiga yangi ko‘priklar qurildi.

Arxitektorlik meros – arxitekturaviy yodgorliklar hozirda mavjud, 1870-yilda qurilgan Xudoyorxon o‘rdasini qamrab oladi.

Saroy atrofida Qo‘qonsoy qirg‘oqlari bo‘ylab Samarqand, Nizomiy va boshqa ko‘chalar yoqalab Qo‘qon jamiyatining oliy tabaqasi vakillari tomonidan qurilgan binolar hozirgi vaqtgacha saqlanib qolgan.

Registon bilan birga Norbo‘tabiy maqbarasi va madrasasi, Dahmay Shohon, Ma‘dalixon maqbaralari, Katta qabriston, Umarxon O‘rdasi, Ma‘dalixon va Kamol Qozi madrasasi, Jome masjidi va bugungi kunda ham ajdodlarimizning iste‘dod va mahoratini o‘zida mujassam etgan, barcha faxrlanadigan boshqa yodgorliklar asrlar sinoviga dosh berib, shaharga husn qo‘shib turibdi.

Turar-joy uylari ham o‘ziga xos: turar-joy xonalarining oldi ochiq yoki yopiq ayvon bilan to‘silgan, undan dahlizga kiriladi, oshxona va mo‘ri xuddi shu dahlizda joylashgan, devorlar tokchali, tovadonli,

shiftga bolorlar ustidan vassajuft qilingan, devorlar sirtiga gul-naqshlar chekilgan va hokazo.


Mustaqillik yillarida Qo‘qonning ayniqsa, eski shahar qismidagi tarixiy muhit o‘zgarib ketdi. Bu yerda Teatr maydoni yechimi misolida ijodiy yondoshilganini ko‘rish mumkin. Arxitektorlar eskicha usuldan voz kechganlar, u yerda shaharliklarning dam olishi va sayillar qilishi uchun ko‘p- yoqlama kenglik sifatida hal etilgan. Maydonda amfiteatr, hovuzlar, choyxona joylashgan. Musiqali drama teatri va Adabiyot muzeyi maydon tuzilishining asosi hisoblanadi, ulardagi o‘ziga xos arxitektura uslubi mahalliy manzara bilan hamohang. Maydon eski shahar uylari va joy muhitiga uzviy birikib ketgan.

Qo‘qon shahri uchun xos turar-joy muhitini o‘zgartirish tushunchasini ishlab chiqishda ana shunday yondoshuv talab etiladi. Negizini chidamsiz uylar tashkil etgan qadimgi davriga oid an‘anaviy shahar muhitining jon saqlab kelayotgani muhitni an‘anaviy vazifalar va arxitekturaviy shakllardan kelib chiqib qayta tiklashni talab qiladi.

Toshkent. Toshkent va poytaxt viloyatining saqlanib qolgan yodgorliklari ham ta‘mirlandi va yangilandi.

Chorsu maydonidagi hozirda mavjud Ko‘kaldosh madrasasi (XVI asr) O‘rta Osiyodagi yirik oliy o‘quv yurtlaridan biri edi. Hozir ham O‘zbekiston musulmonlari idorasi qoshidagi o‘rta maxsus Islom o‘quv yurti sifatida amal qilmoqda. Maydondan uning koshinlar bilan hashamdor qilib bezatilgan old fasad peshtoqi mana men deb turibdi. Old fasad an‘anaviy tuzilishiga ega – ikki qator tokchalar joylashgan peshtoq va burchaklarida guldasta minorachalari. Peshtoq ortida jamoat va xizmatchi hujralar joylashgan, ular safining oxiri masjid va katta zal uyga borib taqaladi. Uning koshindor bezaklari to‘la tiklandi, an‘anaviy rang – moviy.

Ko‘kaldosh madrasasining hovli qismidagi XV asr olimi, davlat arbobi Xo‘ja Ahrori Valiy masjidi ham qayta tiklandi. Kattaligi bo‘yicha bu O‘zbekiston masjidleri ichida Samarqanddagi Bibi Xonim va Buxorodagi Kalon masjidlaridan keyin uchinchi o‘rinda turadi. Masjidning arxitekturaviy-rejaviy yechimi o‘rta asr saroy masjidi xiliga o‘xshab ketadi: o‘rtada – gumbazli bino, qubbador arksimon



**Toshkent. Ko‘kaldosh madrasasi,
XVI asr.**


ayvon bilan aylantirilgan hovli soʻngida – maqsura joylashgan. Shayxontohur tarixiy-arxitekturaviy majmua (XVIII–XIX) Alisher Navoiy va Abdulla Qodiriy koʻchalari oraligʻida, Islom Universiteti hududida joylashgan. Hozirda majmuadan faqat uch arxitekturaviy yodgorlik saqlab qolingan: Shayxontohur, Qaldirgʻochbiy va Yunusxon maqbaralari – ular Toshkentning eng qadimgi yodgorliklari sanaladi.

Hozirda mavjud Ilohiyot va Tariqatning yirik vakili shayx Xovandi Tohur – Shayxontohur maqbarasini XVIII–XIX asrlar boshida qadimgi maqbara poydevorida Xoʻja Ahror Valiy qurdirgan edi va u ikki xonadan iborat boʻlgan.

Toʻrtburchak shakldagi binoning uncha katta boʻlmagan peshtoqidan avval ziyoratxonaga, undan goʻrxonaga kiriladi. Maqbara devorlari odmi, faqat derazalarga va peshtoq eshigi ustidan koshindor panjara oʻrnatilgan, mustaqillik yillarida ular yangilandi. Xonalar tomi uchli qubbalar bilan yopilgan.

Shayx Xovandi Tohur maqbarasi yonida Temuriy shahzoda uchun XV asr boshida tiklangan Qaldirgʻochbiy maqbarasi joylashgan. Maqbara binosi kub shaklida, Oʻrta Osiyoning koʻplab yodgorliklariga xos boʻlgan qoʻshaloq gumbaz bilan yopilgan.

Zahiriddin Boburning bobosi hakim Yunusxon maqbarasi oʻsha vaqtgacha Toshkentda Shayxontohur majmuidagi eng qiziqarli yodgorlik




Toshkent. Hasti Imom majmuasi, XVI asr. Taʼmirdan kegingi holati.

sanaladi. U XV asrda Yunusxon o‘limidan keyin uning o‘g‘li Ahmadxon Olachaxon tomonidan qurilgan.

Kompozitsiya markazi baland qo‘shaloq gumbaz bilan yopilgan marka-ziy xona hisoblanadi, ichki qubba bir-biri bilan kesishgan ikki juft arkning nafis tuzilmasini tashkil etadi. Moviy koshin bilan qoplangan tashqi qubba XX asrning 70–80-yillarda qayta tiklangan (qisman) va asosan barcha bezak unsurlari, gumbazlarning muqarnaslari, yog‘och va ganch panjaralar bilan birgalikda mustaqillik yillarida ta‘mirlangan.

«Eski» Toshkentning Sebzor qismidagi hazrati Imom majmui arxitekturasi saqlanib qolgan yodgorliklari orasida Qaffol Shoshiy maqbarasi va Barakxon madrasasi qiziqish uyg‘otadi.




Hazrati Imom arxitekturaviy majmuasi xududida joylashgan tarixiy va zamonaviy binolar sxemasi (2008-yildagi holati). A. Zilyayev talqini bo‘yicha).

Mo‘tabar ruhoniy shaxslardan biri, lohiyshunos va shoir hazrat Kaffol Shoshiy maqbarasi XVI asrda uncha katta bo‘lmagan X asr qabristoni o‘rnida qad ko‘targan. Baland peshtoqli old devor shimolga qaragan. Yodgorlik kompozitsiyasi tobora ko‘tarilib boruvchi hajmda hal etilgan – u ko‘tarma supadan boshlanib, rejaviy tuzilmadagi kubsimon bino – qo‘shaloq qubba bilan yopilgan va burchaklarida ziyoratchilar uchun uch qavatli hujralari bo‘lgan markaziy zal bilan nihoyasiga etadi. Muhtasham ravoqlar imom qabrini qurshab olgan.

Baroqxon (haqiqiy ismi Navro‘z Ahmadxon) madrasasi – Toshkentdagi XVI asrga oid arxitektorlik yodgorliklari ichida eng salobatlaridan biri. Toshkentdagi Shayboniylar o‘zbek sulolasining birinchi hukmdori Suyunchxon maqbarasining ulug‘vor binosi majmua asosi bo‘lib xizmat qilgan va unga tutashtirib qurilgan Baroqxon madrasasi hovlisi kompozitsiyasida markaziy o‘rinni egallagan. Uning qo‘shaloq gumbazi bir-biri bilan kesishgan arklarni ushlab turadi. Koshin bilan muzayyan etilgan muhtasham peshtoqdan hovliga chiqiladi. Peshtoq tokchasidagi noyob to‘rsimon gumbaz xalq arxitektori Usta Shirin Murodov tomonidan qayta tiklangan, mustaqillik yillarida esa to‘la ta‘mirdan chiqarilgan.

Mustaqillik yillarida Toshkent yaqinidagi Zangiota arxitekturaviy majmuasi, Shayx Zayniddin buva maqbarasi, Tillo Shayx masjidi va Toshkent shahri va Toshkent viloyati arxitekturasining boshqa ko‘plab yodgorliklari qayta tiklandi, ta‘mir qilindi.



Toshkent. Baroqxon madrasasi, XVI asr.

Xulosa qilib aytish mumkinki, shaharsozlik va arxitekturaviy an'analarni hisobga olib, nodir arxitekturaviy yodgorliklarni ta'mir qilish muammosi – murakkab va g'oyat dolzarb vazifa.

Mustaqillikka erishgach, respublikamizda madaniy meros yodgorliklarini muhofaza qilish, ta'mirlash va ulardan foydalanish masalalariga hamda ularning iqtisodiy jihatdan daromadli sohalardan biri sifatida vatan va xalqaro sayyohlikni rivojlantirishdagi roliga jiddiy e'tibor ko'rsatilmoqda. Qator muhim hukumat hujjatlari qabul qilindi.

Qisqa vaqt ichida butun respublikamiz bo'ylab katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Ayniqsa, O'zbekistonning ko'plab tarixiy shaharlari yubiley tantanalari o'tkazilishi munosabati bilan yuzlab arxitekturaviy yodgorliklar yangidan hayotga qaytarildi.

Biroq shuni ham aytib o'tish joizki, ta'mirdan chiqqan va qayta qurilgan yodgorliklarda quyidagi hollar ko'zga tashlanadi:

– ta'mir va qayta tiklash loyihalarining sinchiklab ishlab chiqilgan asosi yo'q;

– xususan, muhandislik va kommunikasion tarmoqlar o'tkazish chog'ida qurish-sozlov ishlari sifati past;

– ta'mirda sement, beton, temir-beton va boshqa zamonaviy ashyolar o'rnida ishlatilmagan;

– yodgorliklardan yangi vazifalarda foydalanish sifati past va boshqalar.

Arxitektura majmualari memorial yodgorliklar arxitekturasi. Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bahovuddin Naqshband, Imom al-Buxoriy, Ahmad al-Farg'oniy, at-Termiziy, al-Moturudiy, al-Marg'inoniy va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimizning ijodi buyuk merosi mustaqilligimiz tufayli xalqimizga qaytarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov g'oyasi va tashabbuslari bilan bajarilgan loyihalar bo'yicha yodgorliklar, bog'lar, xiyobonlar va arxitekturaviy majmualar bunyod etilmoqda.

Alisher Navoiyning haykali o'rnatilgan (1941–1994-yy.) Milliy bog' bunyod etilishi bilan Toshkent shahrining markaziy maydonlaridan biri qayta tiklanib, har yili «Navro'z» va «Mustaqillik» bayramlari nishonlanadi.

Majmua Toshkent shahar markazida jamoat dam olish zonasining asosiy belgilarini o'zida namoyon etadi va «Istiqlol» san'at saroyi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis parlament binosi, «Navro'z» majmui, Said Abdulqosim madrasa arxitekturaviy yodgorligi kabi yirik jamoat inshootlarini o'z ichiga olgan.

Yubiley munosabati bilan bunyod etilgan Alisher Navoiy yodgorlik majmui bog'ning asosiy qismi hisoblanadi.

Keng xiyobon va zinalardan an'anaviy qubbali nafis shiypon qad ko'tarib turgan tepalik ustiga chiqiladi. To'rt juft adl ustun taram-taram feruza gumbazni ko'tarib turibdi. Qubbaning tayanch halqasi muqarnas uslubida muzayyan etilgan. Qubbaning ichki sirtiga yupqa ganch o'ymakorligi naqshlari qoplangan va gir aylantirib, shoirning tinchlik hamda ezgulik haqidagi baytlari bitilgan.

Toshkent, Samarqand va Sohibqironning vatani Shahrisabzda Amir Temurning 660 yilligi munosabati bilan yodgorliklar o'rnatildi. Bobokalonimiz davrida davlatchilik va san'atning barcha turlari — eng avvalo arxitektura misli yo'q darajada rivojlandi.


Toshkentga 1995-yilda o'rnatilgan buyuk ajdodimiz Amir Temur haykali (haykaltarosh I. Jabborov, arxitektorlar F. Ashrafiy, B. Usmonov) otliq suvoriy ko'rinishda ishlangan — bu atrof-muhitga nisbatan ko'lamlil san'at asaridir. Yodgorlik muhtasham bo'lib, buyuk davlat arbobining qiyofasi kompozision yechimining ulug'vorligi va qat'iyiligi bilan ajralib turadi. Shohsupada Amir Temurning «Kuch — adolatdadir» degan so'zlari yozib qo'yilgan.

Samarqandda Amir Temur haykali va maydoni 1996–1997-yillarda shaharning markaziy qismida bunyod etilgan (haykaltarosh I. Jabborov,



**Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi milliy bog', 1991–1995-yy.
«Toshkentboshreja» instituti.**

arxitektor V. Akopjanyan). Taxtda savlat to'qib o'tirgan sarkarda va davlat arbobining xotirjam va shohona qiyofasini o'zida namoyon etuvchi haykal butun maydon kompozitsiyasining markazi hisoblanadi. Taxt uncha baland bo'lmagan supada joylashgan bo'lib, unga zinalardan yurib chiqiladi.



Amir Temurning Shaxrisabz (1996-y.), Samarqand (1997-y.) va Tashkentdagi (1995-y.) haykallari.

Rejada taqasimon maydon sharillab otilib turgan favvoralar va qiyg'och ochilgan gullar munchog'i bilan qurshab olingan. Ko'pyoshli daraxtlarning ulkan shoxlari haykalga tagzamin bo'lib xizmat qilgan. Boshini qadimiy Registon tomon xiyol burib turgan haykalning muvaffaqiyatli kompozision joylashuvi haykalga olib boruvchi barcha ko'chalardan uning yaqqol ko'rinib turishiga imkon bergan.

Amir Temur maydoni va haykali qadimgi Samarqand aholisi hamda mehmonlarining yangi ziyoratgohi bo'lib qolgan.

1998-yilda buyuk qomusiy olim Imom al-Buxoriyning 1225 yilligi va jahonga taniqli olim al-Farg'oniyning 1200 yilligini bayram qilish respublikadagi eng yirik voqealardan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan ishlab chiqilgan loyiha bo'yicha shu olimlar sharafiga yodgorlik majmualari bunyod etildi, ular o'ziga xos arxitekturaviy-badiiy yechimi bilan ajralib turadi.


Samarqand viloyati Xartang qishlog'idagi Imom al-Buxoriy majmui («Tashgiprogor» instituti, 1998-y.) asosan ziyoratgoh hisoblanadi, bu yerda besh vaqt namoz muntazam o'qiladi, hadis ilmi o'rgatiladi va ma'rifiy ishlar olib boriladi.

Xartang qishlog'ida al-Buxoriyning oldingi majmuidan mozor, hovuzcha va hovlidagi chinorlar qolgan. Majmuaning yangi chorsi hovlisi to'rt maysazor maydoncha va ularga muvofiq an'anaviy sharqona bog'dan iborat. Hovlidagi eski hovuzga egizak qilib, yangi hovuz ham qurilgan.

Majmuaning umumiy maydoni 4,66 ga ni tashkil etadi. Majmua shimol va sharq tomondan eski mozoriston, turar-joy uylari; g'arb tomondan mevali bog' va saroy; janub tomondan Samarqand — Imom Buxoriy katta avtomobil yo'li (15 km.) bilan chegaradosh. Har ikkala tomondan barpo etilgan xiyobonga chiroyli eman daraxtlari o'tqazilgan.

Daraxtlar, o'tloqzor, anvo gullarga favvoralar husn qo'shib turadi.

Majmuaga quyidagilar kiradi: islom dunyosida payg'ambarimiz Muhammad s.a.v. dan keyin ikkinchi o'rinda turadigan shaxs qabri ustiga qurilgan ayvon, masjid, 100–150 odamga mo'ljallangan kutubxonali va oshxonali, mehmonlar qabul qilinadigan zal, ma'muriy xonalar va boshqa hujralar. Ular barchasi qulay joylash-



Samarqand. Imom al-Buxoriy majmui, 1998-y.


tirilgan va yagona arxitekturaviy kompozitsiyani vujudga keltiradi.

Rejada 9x9 m o'Ichamli, 17 m. balandlikdagi qubbador, to'rt burchak shakldagi Imom al-Buxoriy maqbarasi kompozitsiya markazi hisoblanadi. U Amir Temur maqbarasi qubbasi uslubida taram-taram qilib ishlangan, maqbara devorlari lojuvard, moviy va oq marmar hamda granit taxtachalar bilan qoplangan, ular «girih» shaklida terilgan, ularning ichiga sura va hadislardan iqtiboslar chekilgan. Sirt bezagida bir-biriga o'xshash shakllardan mohirona foydalanilgan. Ichki bezakda ganch o'ymakorligidan, turli-tuman naqshlardan keng foydalanilgan. Maqbara markaziga oq-ko'kishtob haqiq


(Erandan keltirilgan) qabrtosh qo'yilgan. Maqbaradan chapdagi eshikdan qabrxonaga tushiladi, u oddiy, bezaklarsiz qurilgan bo'lib, avliyo qabri ustiga oq marmartosh qo'yilgan.

Majmua qurilishida Samarqandning maxsus pardozi g'ishtidan foydalanilgan. Unda Nurota, Oqsoqota marmari, Buxoro graniti keng qo'llangan. Samarqand, Buxoro, Farg'ona xalq ustalari va Toshkent arxitektura maktabi ustalari faol ijodiy ish olib bordilar, ular ayvon ustunlarini bezash ishlari, yog'och o'ymakorligi bo'yicha, eshik va darvozalar yasashda, shuningdek, majmua intererini bunyod etishda ter to'kib, bor mahoratlarini ishga solib mehnat qildilar.

Buyuk olim al-Farg'oniylarning sharafiga barpo etilgan yodgorlik majmui Farg'ona shahridagi dam olish zonasini bilan birgalikda va Quva (Qubo) shahrida qayta tiklangan Shahriston mazkur ikki shahar arxitekturaviy-badiiy qiyofasiga estetik o'ziga xoslik bag'ishlagan. Agar Shahristonning sharqona ulug'vorligi qadimgi Quvaning chiroyini ochgan bo'lsa, Farg'onadagi dam olish zonasining yalpi obodonlashtirilishi shaharga alohida fayz va ko'rk bag'ishlaydi. Shuni ta'kidlash joizki, dam olish zonasini o'ziga xos milliy kolorit bilan bunyod etilgan, ayni damda u zamonaviy, dizayn yechimi bo'yicha jahon andozalariga mos keladi. Bu yerda buyuk olimga qo'yilgan yodgorlik ramziy ma'noga ham ega:



Farg'ona. Ahmad al-Farg'oni yodgorlik majmui, 1998-y.



Samarqand. Imom al-Moturudiy yodgorligi

markaziy, bog' va xo'jalik zonalari, ular piyodalar yuradigan xiyobonlar bilan bir-biriga bog'langan bo'lib, kompozision jihatdan maqbara binosiga borib taqaladigan manzaralar rejaviy o'q hosil qilgan.

Yodgorlikka olib kiradigan katta eshik Vobkent ko'chasi tomonda joylashgan. Fijduvon ko'chasidan kiriladigan yo'l undan ham qisqaroq bo'lib, Buxoro ko'chasidek, u ham kengaytirib, ta'mirlangan. Hudud to'la obodonlashtirilgan, ko'kalamzorlashtirilgan va piyodalar yuradigan xiyobon markazi bo'ylab favvoralar saf tizgan.

Imom al-Moturudiy maqbarasi arxitekturaviy rejaviy va badiiy echimida o'zbek milliy mahobat san'atining eng yaxshi an'analari qo'llanilgan, chunki majmua Samarqand shahrining tarixiy qismida, arxitekturaning olamshumul tarixiy yodgorligi — Registon majmuiga yaqin joyda joylashgan.

Maqbaraning barcha to'rt devori arxitekturaviy-badiiy echimi yagona kalidda hal etilgan va g'ishtdan tiklangan. Maqbaraning kubsimon xonasi ichkarisi rejadagi 12x12 m. shaklda, 15 m. balandlikdagi shift-gumbaz bilan o'ziga xos tarzda hal etilgan. Kubsimon shakl asta-sekin gumbazning silindsimon poydevoriga o'tadi. Gumbazning tag qismi ganch panjara bilan qoplangan 24 qubbasimon arkli o'yiqlar bilan «qirqilgan».

O'ziga xos arkli o'yiqlar ustida aylana bo'ylab oppoq ganch belbog'i joylashgan, u murakkab muqarnasga aylanib ketadi. Tuzilma 24 qirrali ganch yulduzi bilan nihoyasiga etadi.

al-Farg'oniy qo'lida «falak burjlari» xaritasini tutgancha go'yo Ma'mun akademiyasi (Baytul-Hikma)dan xalqqa peshvoz chiqib kelayotganday...

Samarqanddan Imom al-Moturudiy maqbarasi yodgorlik majmui ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov g'oyasi va tashabbusi bilan ishlab chiqilgan loyiha bo'yicha musulmon dunyosidagi taniqli ilohiyotshunos olim ko'milgan joyda qad rostlagan («Toshkent-boshreja» instituti).

To'rt gektarga yaqin maydonda joylashgan yodgorlik majmui bosh rejaga ko'ra uch zonaga bo'lingan:

Xonaning katta maydoni markazida dahma toshi o'rnatilgan. Marmarga arab yozuvida buyuk ilohiyotshunos olimning hadislarini o'yib yozilgan. Asrlar osha bizgacha yetib kelgan tafakkur mevalari bizni beixtiyor hayratga soladi: «Inson uchta savob ishni qilsagina hayotini mazmunli o'tdi desa bo'ladi: mehr-muruvvat ko'rsatsa, o'zidan keyin ilmiy meros qoldirsa, solih farzand (o'g'il) o'stirsa...»

Burhoniddin al-Marg'inoniy yodgorlik majmuasi buyuk mutafakkir islom fikh ilmining asoschilaridan biri shayxulislom Burhoniddin al-Marg'inoniy tavalludining 910 yilligi munosabati bilan ochilgan edi. U O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi va g'oyasi bilan ishlab chiqilgan loyiha bo'yicha Farg'ona viloyati Marg'ilon shahrining markazida bunyod etildi. Mazkur majmua ochilishida Prezidentimiz o'z nutqida bunday degandi: «Islom qonunshunosining buyuk vakili, shayxulislom Burhoniddin al-Marg'inoniyning nomi Imom al-Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturudiy, Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Burhoniddin Naqshband, Xoja Ahrori Valiy kabi buyuk nomlar bilan bir qatorda turadi.

Burhoniddin Marg'inoniy faqat musulmon olamidagina emas, balki butun dunyoda e'tirof etilgan. U islom qonunshunosligida o'ziga xos maktab yaratgan, uning hechbu merosi Farg'ona zaminini butun dunyoga mashhur qildi.

Uning ta'limoti tariximiz uchun katta ahamiyatga ega». («Xalq so'zi», 2000-y. 17-oktyabr).

Marg'ilon shahri bosh rejasiga ko'ra yodgorlik majmui temir yo'l vokzali oldidagi maydonda joylashgan («Toshgiprogor» instituti).

Boqqa kiriladigan asosiy eshik ko'chalar kesishgan tomondan katta zina, gulzor va rejada to'rtburchak shakldagi 5 favvara otilib turgan hovuz qurish bilan hal etilgan.

Yodgorlik majmui hududi qo'ldan kelgancha obodonlashtirilgan: tabiiy toshdan sug'orish ariqlari o'tqazish, ikki bejirim hovuz, kichik-kichik arxitekturaviy shakllar va ko'kalamzor barpo etish ko'zda tutilgan.

Olti ustunli 18 metrli shiypon Burhoniddin al-Marg'inoniy yodgorlik majmuining asosiy arxitekturaviy kompozision inshooti hisoblanadi. Shiyponning asosiy tayanchi ganchdan to'r-to'r qilib bezak berilgan temir ustunlar hisoblanadi.

Xalq ustalarining ishlari — 10 m balandlikdagi badiiy-bezakli yog'och ustunlar alohida ko'rib chiqilgan.

Kursi va qubbaning eni 7,0 m Kursida qubba ichini yoritib turish uchun tuynuklar qo'yilgan. Qubbaning tashqi bezagida Marg'ilon shahar

milliy an'analarini hisobga olib, moviy rangda koshinlangan quroq (mozaika) qo'klangan.

0,3 m balandlikdagi shiypon sharafasi sirkori taxtachalar (mayolika) bilan qoplab chiqilgan. Sharafaning 1,2 m balandlikdagi quyi qismi xalq ustalari tomonidan yog'och o'ymakorligi san'ati bilan bezatilgan.

Qubba va kursi oldidagi ichki qism ganchdan andava tortib pardoz berilgan. Shiyponning ichki va tashqi qismi ma'moriy unsurlari ham ganch va gips bilan pardozlangan.

1,2 m balandlikdagi granitdan yasalgan lavh ham shiyponning asosiy arxitekturaviy kompozision unsuri hisoblanadi. Shiypon farshlari badiiy suvratlar chekilgan qizil va qora granit hamda marmar bilan qoplangan. Tashqaridagi zinalarga 4 sm qalinlikdagi kulrang granit, yon tomonlari esa raygras bilan qoplab chiqilgan.

«Xotira maydoni» yodgorlik majmui 1998–1999-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan yaratilgan loyiha bo'yicha Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan O'zbekiston fuqarolari xotirasiga qurilgan.

Majmua Toshkent umumshahar markazida joylashgan va 4,7 ga maydonni egallagan («Toshkentboshreja» instituti). Motamsaro ona haykali va o'rtasida Mangu olov yodgorligi joylashgan maydon majmua kompozitsiyasining markazi hisoblanadi. Mangu olovga olib boradigan



Toshkent. «Xotira maydoni», 1998–1999-yy.

Markaziy xiyobon har ikki tomondan ayvon bilan o'ralgan bo'lib, uning devorlarida marhumlarning nomlari bitilgan Xotira Kitobi saqlanadigan maxsus tokchalar mavjud. Ayvon arxitekturasi mahalliy arxitektorlik an'analarida hal etilgan, O'zbekiston xalq ustalari ishtirokida ishlov berilgan o'ymakori yog'och ustunlar va shiftlar o'zgacha mahobatga ega, qizil granit va marmar qoplab chiqilgan, devorlardagi yoriqlar esa bezaklar brinch panjaralar bilan yopilgan.

1999-yil 9-mayda «Xotira va qadrlash kuni»ga bag'ishlangan tantanali marosimda Prezidentimiz I. Karimov o'z nutqida bunday degandi: «Xotirasi bo'lmagan, o'z tarixini unutgan, o'z ajdodlarini eslamaydigan millatning kelajagi yo'q. Bu haqiqatni bashariyatning butun tarixi tasdiqlaydi.

E'zoz – bu asrlar davomida o'z ona Vatanini, uning erki va mustaqilligini, xalqimizning tinch hayotini qahramonlarcha, fidokorona himoya qilgan vatandoshlarimizni eslash, hurmatlarini joyiga qo'yish, munosib xotirlash degani.

Hayotda ko'p qiyinchilik va sinovlarni boshidan kechirgan, Vatan deb, mana shu musaffo osmon deb o'z hayotini ayamagan odamlarga va bugungi kunda ham oramizda bo'lgan katta yoshdagi avlodga hurmat ko'rsatishimiz kerak.

Bugun poytaxtimiz markazida qurilgan ulug'vor «Xotira maydoni» ochilmoqda. Bu ham mustaqillik qarashlarimizni yana bir marta namoyish qilmoqda, xalqimizga yot bo'lgan eski andazalar va yolg'on g'oyalardan voz kechganimizning bu yana bir isbotidir.¹

Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan fuqarolar xotirasiga viloyat markazlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida ham yodgorlik majmualari bunyod etildi, ularda xalqning milliy qadriyatlari, ajdodlarimiz – marhum otalarimiz, bobolarimiz ruhiga chuqur ehtirom mujassamidir.

Yana bir yodgorlik majmuasi – Toshkent shahar Yunusobod tumanida 1999-yilda bunyod etilgan «Shahidlar xotirasi» mustaqillikning arxitekturaviy yodgorliklari orasida o'z munosib o'rniga ega.

Prezidentimizning qatag'on qurbonlarini Xotirlash kuni e'lon qilinishi to'g'risida 2001-yil 1-mayda chiqargan Farmoni yurtboshimiz rahbarligi ostida bu borada olib borilayotgan savobli ishlarning mantiqiy

¹ *Islom Karimov. «Xotira chirog'i aslo o'chmagay». Mustaqilligimiz va Vatan ravnaqi, xalqning erki va farovonligi – oliy maqsadimiz. Toshkent, «O'zbekiston» 2000-y, 376-379-betlar.*

davomi hisoblanadi. Butun jamoatchiligimiz qiziqish bilan e'tirof etgan mazkur Farmonda, jumladan, bunday deyiladi:

«Tarix, hozirgi va kelajakdagi avlodlar mustabidlik tuzumi davrida necha-necha million begunoh odamlar o'lib ketganini, qancha odamlar boshpanasiz qolganini, qancha bolalar yetimga aylanganini hech qachon unutmaydilar».¹

Aynan ko'plab tarixiy voqealar guvohi bo'lgan qadimiy Bo'zsuv qirg'og'ida g'oyat qisqa vaqt ichida qatag'on qurbonlari bo'lgan ajdodlarimiz xotirasi sharafiga yodgorlik majmui bunyod etilishi bejiz emas.

Majmui 30 gektarlik yashil hududda joylashgan bo'lib, tiniq suvli Bo'zsuv anhuri uni qoq ikkiga bo'lib turadi. Bu ikkala qirg'oq ko'prik bilan tutashtirilgan.

Kompozisiya markazida shiypon bo'lib, sakkiz yo'l-yo'l tik chiziqli ustun taram-taram feruza qubbani ko'tarib turibdi. Qubbaning tayanch



Toshkent. «Shahidlar xotirasi» va «Qatag'on qurbonlari» muzeyi majmui, 1999-y.

¹ I. Karimov. «Xalq – qahramon, xalq xotirasi oldida biz har doim bosh egamiz...» Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-jild. T; – «O'zbekiston», 2001-y. 325-b.

halqasi muqarnas uslubida bezatilgan. Minglab vatandoshlarimiz – qatag'on qurbonlarining ramziy qabristonini shiyponning marmar farshiga o'rnatilgan eron nefrit dahmasi esga solib turadi.

Bo'zsuv anhuri yoqasidagi mazkur yashil maydonda «Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzeyi qurilishi «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuining uzviy qismi hisoblanadi. Amir Temur ko'chasidan muzeyga tushib keluvchi maxsus dabdabali zina, favvoralar, ko'prik va boshqa kichik-kichik arxitekturaviy shakllar muzey hamda butun majmua manzarasi ulug'vorligini yanada boyitadi. Muzey binosi yanada ko'zga yaqqolroq va go'zalroq ko'rinib turishi uchun u o'rnatilgan joy Amir Temur ko'chasidan iloji boricha uzoqroqdan tanlangan, chunki Amir Temur va muzey binosi oldidagi maydonning tik belgisi 7,0 mni tashkil etadi.

Muzey arxitekturaviy-badiiy yechimida (arxitektor A.Turdiyev va boshq.) davlatimiz boshlig'ining g'oya va takliflari asos qilib olindi, bu yerda milliy arxitekturaning ilg'or an'anaviy usullari va alomatlari: qubba, ayvon, xalq amaliy san'ati namunalaridan ijodiy foydalanilgan.

Bino rejada uzunasiga ayvonlari bilan 28x28 m o'lchamdagi chorsi shaklga ega, uning eni 4 m bo'lib, 28 ta o'ymakori ustun va to'rta dabdabali zina mavjud. Yog'ochdan yasalgan ayvonning arxitekturaviy yechimida Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qo'qon, Xorazm arxitektura maktablarining turli badiiy usullari aks etirilgan.

Ma'muriyat, muhandaslik texnik qurilmalar va boshqa zaruriy xonalar binoning quyi qismida joylashgan, ular namoyish zali bilan maxsus yo'laklar va zinalar yordamida bevosita bog'lab qo'yilgan.

Muzeyning markaziy qismi – g'ishtdan ko'tarilgan ekspozitsiya zali feruza qubba bilan yopilgan va asosiy hajm – «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmui shiyponi bilan yaxshi uyg'unlashib ketgan.

Muzey fasadlari va intereri devorlarini bezash uchun Samarqand, Buxoro, Xorazm va Toshkent maktablari sopol ishlaridan, shuningdek ganch, marmar, granit kabi ashyolardan katta miqdorda foydalanilgan va hokazo.

Qubbaning ichki hajmli an'anaviy «iroqiy» uslubida bajarilgan, O'zbekiston zamonaviy arxitekturasi amaliyotida bu birinchi marta katta hajmda ishlatildi.

Mustaqillik yillarida qurilgan yodgorlik majmualari hajm-reja echimlarining tahlili mualliflarning bir xilda yondoshganlarini yaqqol namoyon etadi – an'anaviy shakllarni (arkli o'tish yo'llari, gumbazsimon kenglik, qubbalar va hokazo). Qayta tiklash va rivojlantirish,

bog‘-park san‘ati arxitekturaviy-shaharsozlik koloristikasi arxitektura hamda dekorativ-amaliy san‘at o‘zaro hamkorligining tarixiy an‘analarini rivojlantirish (devorlar sirtiga plastik ishlov berish va koshin qoplash, ganch, yog‘och o‘ymakorligi va hokazo) ham shunga kiradi.

3.3. Jamoat binolari (nodir binolar, ommaviy binolar)

O‘zbekiston arxitektorlarining ijobiy yo‘nalishi jamoat binolari, xususan Oliy Majlis, Oqsaroy kabi nodir binolar, muzeylar, teatrlar, mehmonxonalar, ma‘muriy binolar, banklarning arxitekturasida yorqin namoyon bo‘ladi.



Oliy Majlis binosi tilga olingan inshootlar ichida eng muhimlaridan biri bo‘lib («Toshkentboshreja» instituti, 1996–1997-yy.) O‘zbekiston Respublikasida jamiyatni boshqarishning demokratik tamoyillarini mujassam etgan.

«Ishonchim komil: ushbu ko‘zni quvontiruvchi saroy, xalq noiblari uyi qurilishi va uning foydalanishga topshirilishi, uning nafosati hamda ulug‘vorligi, uning milliy va ayni vaqtda g‘oyat zamonaviy uslubda sinovdan o‘tgan qiyofasi Oliy Majlis faoliyati, uning ishlari samaradorligiga yaxshi ta‘sir ko‘rsatadi. Aminmanki, parlamentning yangi saroyi O‘zbekistonning betakror ramzi bo‘lib qoladi va shu sifati bilan mamlakat tarixiga kiradi.

Chin yurakdan istaymanki, poytaxtimizning qoq markazida qad ko‘targan bu ulug‘vor bino mamlakatimizga foyda keltirish uchun har doim xizmat qilaversin, mustaqilligimizni yanada mustahkamlayversin, xalqimizning porloq kelajagi yo‘lida muvaffaqiyatlar va g‘alabalar keltiraversin!»¹

Bino Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog‘ hududida joylashgan. Oliy Majlis binosi, «Istiqloq» san‘at saroyi, Abulqosim madrasasi, Alisher Navoiy yodgorlik majmuasini o‘z ichiga oluvchi arxitekturaviy ansamblga uzukka ko‘z qo‘yganday yarashib turibdi. Binoning jamoat ahamiyati mualliflardan uning butun aylanasi bo‘ylab ustunlar qad ko‘tarib turgan, o‘rtada gumbazi bo‘lgan mumtoz tamoyillar va hajm yechimidan foydalanishni taqozo etgan.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis X sessiyasida so‘zlagan nutqid. 1997-yil, 25-dekabr.



Toshkent. Oliy Majlis binnosi, 1997-y.
«Toshkentboshreja» instituti.

Old fasad Bunyodkor shohroxi tomonga qaragan bo‘lib, devor echimi alomatlaridan ham ko‘ra maydonning tekisligi, arxitekturaka xos er tuzilishi, keng zinapoyalar va oynaday yaltiragan hovuzlar unga ko‘rk berib turibdi.

Tik chiziqli oppoq ustunlar qudratli toshni ko‘tarib turibdi, zarrin oynavand devorlar bino arxitekturasi qiyofasini yanada bo‘rttirgan. Oliy Majlis noiblar majlislar katta zamini qoplab olgan gumbaz devorlardagi sidirg‘a rang uzra yanada tovlanibroq ko‘zga tashlanadi.

Katta zal bino rejaviy tuzilishining negizi hisoblanadi. U aylana amfiteatr shaklida bo‘lib, sektorlaridan biri rayosatga va nutq qilinadigan minbarga ajratilgan.

Oliy Majlis faoliyati bilan bog‘liq ishchi va yordamchi xonalar pastki hamda yuqorigi qavatlarda joylashgan.

Parlament guruhleri va kengashlar ishi uchun yana bir qancha katta-kichik zallar mavjud, shulardan ikkitasi pastki, to‘rttasi birinchi qavatda joylashgan.

Oliy Majlis binosi sinchining amaliy echimi bino arxitekturaviy va rejaviy vazifalari hamda muhandislik xizmat ko‘rsatish tizimlarini hal etish bilan uzviy bog‘liqlikda ishlab chiqilgan bo‘lib, bunda xizmat va badiiy talablar hisobga olingan.

Binoning eng yuqori qismida diametri 34,46 m va balandligi 11,5 m bo‘lgan qobirg‘ador qubba o‘rnashgan, u turli balandlikdagi 20 ta panjarasimon ravoqlar bilan qurshalgan.

Oqsaroy binosi Oqsaroy Afrosiyob ko'chasidagi 5460 m² hududni egallagan va misli ko'rilmagan qisqa muddat ichida – olti oyda qurib bitkazilgan («Toshgiprogor» instituti, 1999-y.).

Xizmat qilish jihatidan bino uch asosiy qismdan iborat:

– tantanali kirish zali, audensiya xonasi va muzokaralar hamda kengashlar uchun eksklyuziv zallar;

– kabinetlar va hordiq chiqarish xonalari;

– yordamchi xonalar va xodimlar devonxonalari.

Mazkur xonalar vazifalariga bog'liq ravishda turli darajada jihozlangan bo'lishiga qaramay, bu uchala qismi intererlari yaxlit va uyg'un bus-butunlikni yuzaga keltirgan.

Uncha murakkab bo'lmagan handasaviy shakldagi bosh fasadi texnik ijroda qandaydir «yangilik»ni o'zida namoyon etganday bo'ladi. Bu shamol yurib turadigan devor katta hajmdagi (ayrimlari 250 kggacha keladi) toshlar bilan qoplab chiqilgan, katta arklar esa 2 kv. m dan ham kattaroq tosh taxtalar terib tiklangan. Old devor relefli bo'lib, qo'lda qurilgan. Bular barchasi binoning mahobatli, ko'rkam va chidamli bo'lishini ta'minlagan.



Toshkent. Oqsaroy, 1999-y. «Toshgiprogor» instituti.

Ayniqsa, hayratomuz darajada keng va dabdabali ko‘rinishga ega kirish zali alohida diqqatga sazovor: jimjimador aylanma zinaning panjaralari tilla suvi yugurtirilgan toblama temirdan yasalgan bo‘lib, oq hamda yashil marmar to‘shalgan sovuq va yarqiroq tUSDagi farsh va baland, charaqlagan «arsh» ulardagi badiiy ma‘nodorlik va go‘zallikni duchandon kuchaytirib yuborgan.

Serpardozi, sara va mebel bilan jihozlangan xonalar tabiiy ashyolar eng a‘lo navlarining muvaffaqiyatli mushtaraklashib ketganini, a‘lo sifatlarda ishlov berilganini o‘zida namoyon etgan, ularda ayniqsa yog‘och, ganch, tabiiy tosh va ipakdan keng foydalanilgan. Bular barchasi dabdabali ko‘rinish hosil qilsa-da, vazmin va bosiqliqi bilan ajralib turadi.


Senati binosi. Bu bino «Mustaqillik» maydonida, 1931-yilda qurilgan bino o‘rnida joylashgan. Bino qurilishiga ajratilgan yer g‘arb tomondan Anhor kanali bilan chegaradosh, qolgan uchala tomon «Mustaqillik» maydoniga tutash. Rejada markaziy blokli P-simon bu binoni «Mustaqillik» maydonining yuragi desa bo‘ladi. Senat binosi atrofdagi boshqa binolar bilan bog‘liqlikda joylashgan bo‘lib, tuzilish jihatdan «Mustaqillik» maydoni qurilishining nihoyasi sanaladi.

Topshiriqqa muvofiq loyihalashtirishda oshxona va «Bahor» konsert zali saqlanib qolgan. Bu binolar Senat binosiga tutash. Oshxona zali loyihalashtirilayotgan bino tarkibiga qo‘shilib ketadi, «Bahor» konsert zali esa qisman qayta quriladi. Senat binosiga kiriladigan katta eshik bino markaziy o‘qi bo‘yicha «Mustaqillik» maydoni tomondan 4 ustunli to‘rt tomonli peshtoq ko‘rinishidadir («Toshgiprogor» instituti).

Konstitusion sud eshigi bino janubiy qanoti tomondan qurilgan bo‘lib, katta zina va peshtoqdan kiriladi. «Bahor» konsert zaliga bino shimoliy qanotidan kiriladi va turtib chiqqan peshtoq bilan ajratilgan. Senat binosiga kiriladigan bosh eshik oldidagi maydonning har ikkala tomonidan favvoralar otilib turadi.

Bino atrofida avtomashinalar uchun yo‘llar va ichki hovli tomondan piyodalar yo‘laklari ko‘zda tutilgan. O‘t o‘chiruvchi mashinalar va Senat kengashlar zalidan teleko‘rsatuvni olib ko‘rsatuvchi suvratchilar guruhlari naqliyoti kirib keladigan yo‘llar ham nazarda tutilgan. Ichki hovlida hovuz, dam olish maydonchasi, dizel va nasos stansiyalari bor.

Senatning to‘rt qavatli binosi rejada P-simon shakliga ega. Bino rejasi konstruktiv choklar orqali alohida bloklar ko‘rinishida hal etilgan. Bino hajmi besh blokka bo‘lingan: «A», «B», «V» (markaziy blok), «G» va «D».



Toshkent. Senat binosi, 2007-y. «Toshgiprogor» instituti.

«A», «B», «G» va «D» bloklarini rejalashtirish uchun yo‘lak tizimi qabul qilingan, unda yo‘lakning har ikki tomonidan ishchi kabinetlar, qabulxonalar va boshqa xonalar joylashgan.

Markaziy «V» bloki butun binoning yuragi hisoblanadi va barcha bloklarni Senat kengashlar zali bilan birlashib turadi.

Markaziy blokning birinchi qavatida uchyoqlama vestibul, 176 o‘rinli majlislar zali, maxsus xonalar, kiyimxona, xoll va boshqa xonalar joylashgan. 2 va 3 qavatlarda reja bo‘yicha «B» va «G» bloklarini birlashtiruvchi ayvonlar, ishchi xonalar, bufet va sanitariya tarmoqlari ko‘zda tutilgan. 4 qavatda xoll, kengash zali, ishchi xonalar va sanitariya tarmoqlari joylashgan.

Markaziy blokning old devori dabdabali qurilgan: to‘rt qavat deraza, peshtoq, ustunlar va zina.

Binoning hovli devori ustunli ayvon ko‘rinishida hal etilgan va saqlanib qolgan binolarning devorlari bilan kirishib ketgan. Hovli devorida markaziy majlislar zali derazasi devorlari bilan ajralib turadi va devorlar nafisligi to‘ldirib, boyitiladi. Bo‘rtib chiqqan xilma-xil bino qismlari va arxitekturaviy uzvlar bino devorlarining ma‘nodorligi va mahobatini yuzaga keltiradi.

Ichki pardozi uchun zamonaviy pardozi ashyolari: quruq suvoq, marmar, bezak ganch uzvlari, sopol ishlatilgan.

Tashqi pardozi uchun qizil-jigarrang granit, oq marmar, sopol, alyuminiy vitrajlar, devorbop bezak bo‘yoqlari qo‘llangan. Alohida turgan ustunlar oq marmar bo‘laklari va granit taxtachalar bilan qoplangan.

1967-1969-yillarda oxirida qurilgan **Vazirlar Mahkamasi binosi** 1999-yilda shikastlangan edi. Qayta qurish jarayonida bino chidamliligini oshirish va inshoot obro‘sigamuvofiq keladigan salobatliroq va ko‘rkamroq yangi arxitekturaviy qiyofa yaratish vazifasi ko‘ndalang qo‘yilgandi.

60-yillarning jozibasiz beton arxitekturasiga qarshi o‘laroq binoning yangi qiyofasi ikki tusdagi rangning uyg‘un mushtarakligiga asoslangan bosiq va jiddiy uslubda hal etilgan – biri tepa devorning oynavand zarrin rangi bo‘lsa, ikkinchisi sayqallangan qizil granit qoplamali pastki qism («Toshkentboshreja»).

Bino va interer rejasi ham ma‘muriyatning yangi talablariga muvofiq o‘zgarishlarga duch kelgan. Masalan, ichki patio hovlicha – piramida shaklidagi tiniq tomli, hashamdor qishki boqqa aylantirilgan xonalar pardozi yanada nafis va did bilan bajarilgan.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 15 yilligiga 14 qavatli ma‘muriy bino va unga yondosh 8 qavatli bino qayta tiklandi. Ular Sh. Rashidov ko‘chasida joylashgan («Toshgiprogor» instituti). Mazkur bino O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi binosi bilan birgalikda Mustaqillik maydoni va shohroq qurilishini vujudga keltirgan. Ularga Mustaqillik maydoni va Sh. Rashidov ko‘chasi tomondan kiriladi.

Qayta qurilgan 14 qavatli ma‘muriy bino N-simon shaklda bo‘lib, reja 48,0x45,0 m li o‘lchamga ega. Qo‘shimcha qilib qurilgan bo‘lak unga yopishgan bo‘lib, 7–11 qavatdan iborat ichki kenglik (atrium) hosil qilgan. Bino o‘lchamlari 42,0x14,5 m 1–2 qavat balandligi – 4,2 m yuqorilariniki – 3,3 m dan. Qo‘shimcha binoning birinchi qavatida vestibyullar guruhi, 150 o‘rinli oshxona joylashgan. Ularga atriumli bo‘shliq orqali tepadan yorug‘ tushib turadi; shuningdek xo‘jalik va yordamchi xonalar ham bor. Vestibyul 8,4 m balandlikdagi ikki derazali kenglikka ega, erosti qismida esa texnik xonalar mavjud. Yuqorigi qavatlarda vestibyul, vazirliklar, qo‘mitalar, aksiyador kompaniyalarning kabinetlari joylashgan. 2-qavatda 120 o‘rinli matbuot zali bor.

Devorlar yechimi zamonaviy, lo‘nda. Katta oynavand sirtlar, pilyastr (bir yoni chiqiq ustun)lar, 14 va 8 qavatli bloklar burchaklarida joylashgan derazasiz yuzalar unga ma‘muriy bino qiyofasini berib turadi.

Burchaklardagi yuzalar va panjara oq rangli alpandan, bir yoni chiqiq ustunlar esa och jigarrang tusli alyuminiydan qilingan. Binoning pastki poydevor qismi (sokol) qizil rangdagi granit taxtachalar bilan qoplab chiqilgan.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi va g‘oyasi asosida poytaxtimiz markazida Mustaqillik maydoniga tutash hududda «Ma‘rifat markazi» majmuasi bunyod etildi (2011-yil, noyabr). Ushbu zamonaviy muhtasham majmuada Simpoziumlar saroyi va Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi joylashgan bo‘lib, istiqlol yillarida barpo

etilgan Yoshlar ijod saroyi, Tasviriy san'at galereyasi, Poytaxt biznes markazi kabi betakror inshootlarga hamohang tarzda yaxlit kompozitsiyani tashkil qilgan.

Majmuaga kirib borishingiz bilan betakror arxitektura va landshaft yechimi nomoyon bo'ladi. Kiraverishda har ikki yonida bunyod etilgan musiqali yoritish favvorolari na faqat umumiy manzarani landshaft dizayni bilan go'zallashtirgan, balki mikroiklim yaratishga ham mo'ljallangan.

Eng mohir xalq ustalari tomonidan yaratilgan o'yma naqshli katta eshikdan Saroy ichiga qadam qo'yar ekanmiz, har tomonga yorug'lik va nur taralayotganini ko'ramiz. Binoning ichki bezaklari nurdan osmondagi yulduzlardek jimjima qilar edi. Saroy devorlaridagi serjilo naqshlar adl marmar ustunlar, moviy gumbaz va boshqa milliy me'moriy yechimlar ajdodlarimizning asriy an'analari davom etayotganidan dalolatdir.

Simpozium saroyining asosiy foyesiga ishlangan «Ona yurtim — O'zbekiston» va «Ma'rifat bo'stoni» deb nomlangan badiiy pannolarda ijodkorlar hayoti falsafasini namoyon etishda juda kam uchraydigan terma naqsh, ya'ni mozaika uslubidan samarali va oqilona foydalan-ganlar. Ikkala panno ham interyerga ko'rkamlik bag'ishlab ta'surotini yanada boyitadi.

Simpoziumlar saroyining 1000 o'rinli katta zali o'z salobati va mahobati bilan hayratga soladi. Memoriy yechimiga ko'ra, gumbaz tagidagi gir aylana qilib joylashtirilgan ravoqli 36 deraza tanobiyini butun kun davomida tabiiy yorug'lik bilan ta'minlaydi. U asosan mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mebellar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan. Barcha kompyutrlar intrnetga simsiz ulangan.


Ma'rifat markazi tarkibida joylashgan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi ham o'ziga xos me'moriy yechimi bilan ajralib turadi. Uning kiraverish qismi (bosh vestibuli) baland atrium uslubida ochiq ranglarda ishlangan. Ro'paradagi devorga O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimovning «Har qaysi davlat, har qaysi millat birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyat, ma'rifat va ma'naviyati bilan kuchlidir» deb yozilgan so'zlari alohida ma'no va ahamiyat kasb etadi. Haqiqatan ham Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi ana shunday zamonaviy koshonaga joylashtirilganing o'zi mamlakatimizda ma'naviyat va ma'rifat taraqqiyoti uchun ko'rsatilayotgan ulkan g'amho'rlik va e'tiborning yana

bir ramzi bo'ldi. Kutubxonaning yangi binosida kitoblar muzeyi, o'quv zallari, kitoblar do'koni, kinomarkaz, intrnet va mediamarkaz, bolalar xonasi, dam olish xonalari o'rin olgan.

Yangi bino zamonaviy texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan bo'lib, avtomatlashtirilgan yaxlit axborot-kutubxona tizimiga ega. Axborot-kutubxona fondini belgilangan me'yorlar asosida saqlashning avtomatlashtirilgan tizimi mavjud.

Kutubxonaning o'quv zallariga elektron katalog, intrnet va elektron ma'lumotlar bazasiga ulangan kompyuterlar o'rnatilgan. Ilmiy xodimlar, nota-musiqa nashrlar tadqiqotchilar va nogironlar uchun alohida qulayliklar yaratilgan.

Azim poytaxtimiz chiroyiga chiroy qo'shgan «Ma'rifat markazi» o'zbek milliy arxitektura va shaharsozlik maktabining yana bir yorqin namunasidir.



Toshkent «Ma'rifat markazi» binosi.

Sobiq Sverdlov nomidagi kinokonsert zalini Respublika birja markaziga aylantirib qayta qurilgan chog'da («TAMAX» ustaxonasi, arxitektor F. Tursunov, 1996-y.) mavjud konstruksiyadan ijodiy foydalanilgan. Saqlanib qolgan mustahkam metin temir-beton sinch yangi binoga asos bo'lgan.

Rejadagi dumaloq birja zali kompozisiya markazi hisoblanadi, sahna va ikkinchi qavat shu zalga yuzlangan. Qubbani ko'tarib turgan ustunlar oraliq'i – zal atrofida fond do'konlari, fondlarga xizmat ko'rsatish bo'limlari, omonat kassa, bank, notarius xona va boshqa xonalar

joylashgan. Vestibyullar guruhi bevosita Buxoro ko'chasidan uch eshik bilan kirib kelinadigan zalga tutashgan.

Vestibiyul burchagidagi ikki zina birjaning ikkinchi qavatiga olib chiqadi. Devor yuzasi ikki yon va bitta o'rta bo'rtiq ravoqqa ega. Devorning har ikki tomonidagi yarimdoira devorlar baland-baland ark o'rinlari va devorlardagi yarim chiqiq ustunlar — pilyastrlar bilan ikki qavatga bo'lingan. Binoga yangi qubba qo'ndirilgan, u biroz cho'qqinamo shaklda tepaga cho'zilgan, gumbaz tepasi nayza va ravoq o'yoqlari bilan tugallanadi.

Buxoro ko'chasiga ko'ndalang tarzda Toshkent kurantlari bilan bir qatorda shahar hokimiyatining yangi binosi qad ko'targan, bunda markaziy qubba va uning tagidagi peshtoq shu ko'cha perspektivasini nihoyasiga yetkazadi (F. Tursunov).

Markaziy peshtoqning har ikkala tomonida odmi to'qqizta oppoq ustun joylashgan. Devorlarning tepasi — hokimiyat binosi panjarasi istehkom devorlariga o'xshab kungurador bo'lib, bino qiyofasiga ulug'vorlik bag'ishlagan. Bino ustida mahobatli gumbaz joylashgan bo'lib, uning uchida bayroq hilpirab turibdi.

Hokimiyat binosi rejasining T-simon shakli to'rt blokdan iborat. Movarounnahr ko'chasi yoqalab 120 m uzunlikdagi ikki to'rt qavatli ma'muriy blok qad ko'targan, jamoat xizmatlariga mo'ljallangan ikkita uch qavatli blok bog' hududini egallagan va arxitekturaviy kenglik echimiga zamonaviy yondoshilgani bilan ajralib turadi.

Ma'muriy blokning katta eshigidan atrium orqali uchala qavatga chiqiladi, to'rtinchi qavatda esa katta foye joylashgan bo'lib, u qubbaosti, tabiiy yog'du bilan yoritiladi.

Foye o'rtasida qubbaosti yo'lakchalari bo'lgan keng qubba muallaq turibdi, intererdagi qubba sirtida issiq ranglarda va zarhal bo'yoqlarda chekilgan islimiy naqshlar jimjima qiladi.

Shu blokning chekkalaridagi besh zina va ikkita lift binodagi tik aloqalarni ta'minlaydi.

Jamoat xizmatlariga mo'ljallangan uch qavatli blokning sakkiz-burchakli rejasi barcha ofis va yordamchi xonalarni oqilona joylashtirgan, ular birinchi va uchinchi qavatlar markazida joylashgan majlislar zali hamda ikkinchi qavat markazidagi xoll bilan qulay bog'langan. Bino intererlari yorug', keng bo'lib, italiya va ural marmari bilan pardoz berilgan.

Yo'laklar va xonalar derazalaridan yam-yashil bog' kaftdagiday ko'rinib turadi. Ikkala jamoat bloklari tutashgan joyda qishki bog'li

ikki keng-keng zina oʻrnatilgan. Kiraverishda yana uch qavat balandlikda atrium bor va qalbakli «osma» qubba bilan tugallanadi. Qubbaning ichki sirtiga zarhal islamiy naqshlar solingan va chiroqlar osilgan — ularni bino mualliflari oʻzlaricha «Samarqand yulduzlari» deb atashgan.

Respublika birja markazi (1996-y.) va Toshkent shahri hokimiyatining yangi binosi (1997-y.) shahar markaziy qismi hajm-rejaviy kompozitsiyasini kuchaytiradi. Har ikkala bino mumtoz uslubda hal etilgan boʻlib, ularda milliy arxitektura usullaridan foydalanilgan. Intererlarda yogʻoch, ganch oʻymakorligi va xalq amaliy sanʼatining boshqa unsurlari keng qoʻllanilgan.

Madaniy-tomosha muassasalari arxitekturasi

«**Turkiston**» saroyi. Mustaqillik yillarida birinchilar qatorida Mustaqillik maydonidan shimolda Anhor arigʻi yoqasida «Turkiston» saroyi qurilishi tugallangan (Yu. Xaldeeov, F. Tursunov, 1993-y.) Uning loyihasi 1966-yilda taklif etilgan va 1989—1991-yillarda qurilgan, biroq rus drama teatri sifatida tugallanmay qolgan edi (Yu. Xaldeeov). Bino yer bagʻirlagan, devorlari ulkan uslublashtirilgan muqarnas yoʻl bilan birlashtirilgan bahaybat hajm va qop-qorongʻi intererlar arxitekturasi ega edi — bular barchasi qayta qurildi.

Bosh fasadi roʻparasida afsonaviy Humo qushi tasvirlangan (rassom B. Jalolov) haykal oʻrnatilgan, dabdabali pogʻonador zina saroyning oppoq binosiga olib kiradi.

Foyening oynavand devoridan shahar manzaralari va Mustaqillik maydoni koʻrinib turadi. Saroyga kiraverishda tomoshabin koʻzi oldida vestibul va foye uzra oʻrtasiga Xumo baxt qushi suvrati tushirilgan oppoq turk palosi namoyon boʻladi. Yuqorida esa Turkistonning moviy va sariq ranglarda bajarilgan tarixiy shaharlari manzaralariga duch kelasiz.

Foyening chap qanotida dam olish joyi qilingan boʻlib, tegishli dizaynerlik bezaklari (keramika, islamiy va hokazo) bilan oro berilgan. Foyening oʻng qanotida Bahodir Jalolovning «Umar Xayyom orzulari» degan ajoyib devoriy naqshu nigorlari bilan tanishish mumkin.

Shinam zalga suyri shaklda qurilgan, ganch oʻymakorligi bilan zeb berilgan, kundal uslubida moviy va zarhal ranglar bilan jilolangan gumbaz chiroy bagʻishlab turibdi. Oʻzbekiston xalq ustalari ishtirokida qunt bilan ijro etilgan saroy ichkarisi Toshkent va Respublikaning



**Toshkent. «Turkiston» saroyi, 1993-y.
Arxitektorlar F. Tursunov, Yu. Xaldev.**

viloyat markazlaridagi keyingi inshootlar qurilishiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi.

3200 o'ringa mo'ljallangan «Turkiston» xalq tomoshalari teatr-sahnasi («Toshkentboshreja», 1993-y.) Anhorning manzarador yoqasida qad ko'targan bo'lib, «Turkiston» teatr-madaniy majmuasi davomi va uning bir qismi hisoblanadi.

U ham an'anaviy xalq tomoshalari, ham zamonaviy o'yin-kulgi tadbirlari o'tkazishga mo'ljallangan.

Inshootning rejaviy va funksional tuzilishida ochiq havoda xalq tomoshalari o'tkaziladigan an'anaviy kenglik shakllari hisobga olingan. Amfiteatrning tarang chiziqlari sahnani qadimgi teatrlarga o'xshab qamrab olib, joy relefiga uzviy kirishib ketgan. Rejisser-postanovkachi fikriga ko'ra, tomosha yoki nutq kenglikda qanday ijro etilishiga bog'liq holda tomoshalarni sahnalashtirishning bir necha variantlarini qilish mumkin.

Bunday imkoniyatlar ikki maydondan iborat sahnaning echimiga havola etilgan: sahna (arena) va o'zining yon va orqa maydon qismlarida bir necha darajada segment shakliga ega asosiy frontal sahna. An'anaga ko'ra, markaziy sahna (arena) dorbozlar, kurashchi polvonlar tomoshalari o'tkazishga mo'ljallangan.


Xalq qiziqchi va masxarabozlari arenada ham, sahnada ham tomosha ko'rsatishlari mumkin.

Konsertlar va boshqa zamonaviy tomoshalar ssenografiyasi cheklanmagan, amfiteatr uzunligi bo'ylab joylashgan ayvondan foydalanish ham shunga kiradi, shu erda 200 o'rinli qahvaxona ham bor. Ko'psonli va yirik gabaritli nur texnikasi va ovoz jihozlarini joylashtirish uchun uchida toji bor qiya tirkaklardan iborat maxsus arxitektura inshooti yaratilgan.

Toshning panjarasidan tomoshaning turhi-tuman buyumlarini va bezak ashyolarini osish uchun ilgak sifatida ham foydalaniladi.

Teatr tuzilishi va rejaviy echimida tabiiy unsurlar: relef, suv, dovdaraxtlar va ochiq havodan eng ko'p darajada foydalaniladi.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi. Amir Temur xiyobonining shimoli-g'arbiy qismi Temuriylar tarixi davlat muzeyi qurilishi munosabati bilan yanada mukammalroq tus oldi («Toshgiprogor» instituti, 1995-y.). Temuriylar tarixi davlat muzeyining yorqin binosi tosh poydevor ustidan tiklangan bo'lib, qator ustunlar, arklar va devorlar yordamida ko'kka bo'y cho'zgan, ustidagi lojuvard-feruza rangdagi gumbaz Toshkent markazining to'rttala tarafidan yaqqol ko'rinib turadi.



**Toshkent. Temuriylar tarixi davlat muzeyi, 1995-y.
«Toshgiprogor» instituti.**

Rejadagi dumaloq bino uch qavatdan iborat — foye, do‘konlar, ma‘muriyat, kassavestibuly, axborot-ma‘ruza zali va boshqa texnik-xizmat xonalari poydevor (sokol) qavatda joylashgan; birinchi qavatda markaziy ostin-ustun derazali ekspozisiya zali va boshqa zallar, 200 o‘rinli kinoma‘ruza zali o‘rin olgan; ikkinchi qavatda aylana ekspozisiya zali bo‘lib, unda Amir Temur hayotiy faoliyatining turli jihatlarini aks ettiruvchi sakkiz bo‘lim ko‘zda tutilgan.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi san‘at va arxitektura qorishig‘ini, O‘zbekiston arxitekturasi, rangtasviri hamda xalq amaliy san‘atining uzviy birikib ketishi va qo‘shilib ketishini o‘zida namoyon etadi.

Milliy badiiy bezak bo‘yicha ishlarni «Usta» xalq ustalari birlashmasining arxitektor A. Umarov boshchiligidagi mutaxassislar bajarganlar. Devorlar uchun balandligi o‘n metrlik oq ko‘p uyali ustunboshili, kulrang marmardan ishlangan shakldor kursili konussimon 20 ta ustun ishlangan (o‘ymakor A. Sultonov). Muzey butun devori bo‘ylab ark gumbazini eslatuvchi handasaviy naqshlardan ishlangan sopol panno joylashgan (sopol rassomi A. Yarovoy).

Ko‘p qatlamli yog‘och o‘ymakorlik uslubida yasalgan 14 o‘ymakori eshiklar ham nodir san‘at namunalari hisoblanadi (usta S. Rahmatullayev boshchiligidagi guruh).

Muzey interyeri ham xalq amaliy san‘ati unsurlari bilan bezalishida katta qiziqish uyg‘otadi. Katta eshik ro‘parasida devorning markaziy qismidagi 200 m² joy Amir Temurga bag‘ishlangan syujetli naqshu nigor bilan to‘ldirilgan. Bu miniatyura rangtasviriga o‘xshatib ishlangan «Tug‘ilish», «Yuksalish» va «Meros» triptixidir. Devoriy rangtasvir sovuq ranglardan boshlanib, asta-sekin issiq ranglarga o‘tib boradi (rassomlar K. Nazarov, G. Kamolov, T. Boltaboyev, S. Qoraboyev). Keyin gumbaz kengligi boshlanadi. Gumbazning balandligi 30 m ga yaqin, radiusi esa 12 m. Ganch o‘ymakorligi bilan bezak berilgan (xalq ustalari A. Umarov, A. Ilhomov, N. Nabiyev, S. Shukurov, M. Murodov va boshq.). Qiya sirtida naqsh chekish qiyinligiga qaramay, ustalar arxitektorlar bilan oldinga qo‘yilgan vazifani sharaf bilan uddalaganlar, muzey arxitekturaviy shakllarining ulug‘vorligi va nafisligi shundan dalolat beradi.

Nukus shahridagi Qoraqalpog‘iston san‘at muzeyi (arxitektor I. Li, muhandis V. Shterenshis, ijodiy rahbar S. Sutyagin, arxitektorlar M. Noskova, A. Chesnokov ishtirokida) mamlakatimizdagina emas, balki undan tashqari ham san‘at xazinalari orasida munosib o‘rin egallaydi.

Qurilish uchun park zonasida, shohrohlardan uzoqroqda va kelajakda rivojlanish imkoni bo'lgan joyda (bir qancha joylar ko'rib chiqilgandan keyin) yer ajratilgan (birinchi navbat — mo'ljaldagi majmuaning uchdan bir qismi qurib bo'lingan).¹

Qurilgan qismi 3 qavatli binodan iborat (birinchi qavat rejasida 42x42 m). Birinchi qavatda — garderobli vestibyul, bufet, 70 o'rinli auditoriya, ma'muriyat, texnik xonalar va omborxonalar. Ikkinchi va uchinchi qavatlarda — ekspozisiya zallari joylashgan: ikkinchisida asosan amaliy san'at va qadimshunoslik eksponatlari, uchinchisida — tasviriy san'at asarlari o'rin olgan.

Bunda markaziy o'rinni, albatta, ajoyib tadqiqotchi rassom, ishqiboz, o'zini va butun umrini shu to'plam va umuman muzeyga baxshida etgan Igor Saviskiyning bemiisl sa'y-harakatlari evaziga to'plangan avangard egallaydi. Muzey aynan shu rassom nomi bilan atalgan.

Barcha qavatlarni ham tuzilish, ham tomosha qilish jihatidan atrium xilidagi nur beruvchi «quduq» bog'lab turadi va qavatlarning markaziy qismi tabiiy charog'onligini kuchaytiradi.

Markaziy katta zina tomoshabinlarni ikkinchi va uchinchi qavat ekspozisiyalar zallari bo'lgan yuqoriga boshlaydi. Bundan tashqari, ko'chirish uchun yana ikkita yashirin zina bo'lib, ulardan bittasi (xizmat zinasi) eksponatlarni ko'tarish uchun yuk-yo'lovchi lifti bilan to'sib qo'yilgan.

1 va 2-qavatning asosiy devor sirtlari sayqallangan travertin bilan qoplangan bo'lib, 1-qavat bosh eshigi vitrajleri ustidan osilib turuvchi kattakon haykaltaroshlik bezaklari bilan bezatilgan.

Naqshindor sopol hoshiya (friz) (rassom Ulug'bek Boltaboyev, Andijon) barcha to'rtala devor bo'ylab markaziy tirgovichlarni o'rab olib, ularni birlashtiradi va mahalliy an'analarga xos milliy kolorit olib kiradi.

Atrium kenglik antresollari (yuqorigi yarim qavatlar)ning chetlaridagi odmi naqshindor yuza (ganch quymasi) intererdagi an'analarning shu mavzusini qo'llab-qo'ltiqalaydi, o'zining ahamiyatiga da'vo qilmaydi va e'tiborni asosiy eksponatlarga tortmaydi. Bino muhandislik jihozlarining barcha turlari bilan ta'minlangan.

¹ Qurilishning birinchi navbati asosan ekspozisiya tanobiylarini o'z ichiga oladi, birinчисiga o'xshab ketadigan ikkinchi navbat asosiy jamg'armalarga mo'ljallangan, 3-navbat buyurtmachi tomonidan aniqlanadi.

Muzeylar ichida Nukus shahridagi Berdaq nomidagi muzey alohida o'rin tutadi, u Qoraqalpoq adabiyotining asoschisi Berdimurod Berdaqning tavalludiga 170 yil to'lishi munosabati bilan barpo etilgan.


Muzey binosi (arxitektor O. To'raniyozov., 2001-y.) A. Do'stnazarov va Ch. Abdirov shohrohlari chorrahasidan sal narida joylashgan va shaharning barcha nuqtalaridan ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Qubba va sakkiz ustunli ayvon muvaffaqiyatli qo'llangani tufayli arxitekturaviy-kompozision yechim o'ziga xos va milliy koloritga egaligi bilan ajralib turadi.

Oq va qizg'ish qoraqalpoq marmari qoplangan devor va boshqa qismlar binoni yanada muhtasham ko'rsatadi.

Muzeyga kirib keluvchi tomoshabin ko'zi eng avval etti buyuk tarixiy siymoga tushadi: Alisher Navoiy, Abay, Abu Rayhon Beruniy, Berdaq, Ajiniyoz, Jiyen Jirov va Maxtumquli. Ularning bosh haykallari katta devor ayvonidagi tokchalarga o'rnatilgan. Bu o'ziga xos usul bino-muzey ahamiyati va vazifasini yanada kuchaytirib turadi.

Did bilan bezatilgan intererda qoraqalpoq rassomlarining Berdaqning turli asarlaridagi mavzularga bag'ishlangan devoriy suvratlari bilan tanishish mumkin.

Toshkent markaziy qismi arxitekturasi Tasviriy san'at saroyi yangi binosi qurilishi bilan to'ldirilgan (arxitektor V. Breusenko, «Toshgiprogor», 2005-y.) U Sh. Rashidov, X. Sulaymonova, Buyuk Turor ko'chalari va janub tomondan Sayilgoh dam olish zonasi kesishgar chorrahada joylashgan.



**Nukus. Berdaq nomidagi muzey, 2001-y.
Arxitektor O. To'raniyozov.**

Yerto'lası (balandligi 5,4 m) ikki qavatli bino (bir qavatining balandligi 6,0 m) rejada 69,6x52,8 m o'lchamdagi to'rtburchak shaklga ega; uzunasiga tushgan ayvon eni 5,4 m.

Tasviriy san'at saroyi binosining markaziy qismini katta zinali xoll va ikkinchi qavatga olib chiqadigan eskalatorlar egallagan. Xollning ostin-ustin derazali kengligi 19,6 m enlikdagi qubba bilan yopilgan, uning yon tomonlaridagi arksimon tuynuklardan yorug'lik tushib turadi. Ikkinchi qavatda eni 5,4 m keladigan qubbasimon tom ham yorug'lik tushirib turadigan vosita sanaladi.

Birinchi qavatda xizmat ko'rsatuvchi va yordamchi xonalar — vestibul, 50 o'rinli ma'ruza zali, bufet, kutubxona, ma'muriyat va ilmiy xodimlar xonalari badiiy hamda ta'mir ustaxonalari, badiiy salon va davriy ko'rgazmalar uchun ekspozisiya zali joylashgan.

Yerto'la qismida kiyim ilg'ichlar, eksponatlarni saqlash xonasi, ustaxonalar va texnik xizmat ko'rsatish xonasi bilan birgalikda boshqa xonalar mavjud.

Eksponatlar uchun ko'chma devorlar va stendlar bo'lgan ekspozisiya zallari ikkinchi qavatda joylashgan, ular tik yo'nalishda harakatlanadigan liftlar va eskalatorlar yordamida bog'lanib turadi. Shunday qilib, bino barcha zaruriy xonalar va xizmatlarni hisobga olib loyihalashtirilgan hamda barpo etilgan.

Bino arxitekturasi mazmundor, lo'nda va shahar markazi qurilishiga. Bino bo'yلامasidan tushgan ustunlar va guldor ustunboshilar, jimjimador muqarnaslar unga janubcha ko'rinish bag'ishlagan.

Katta eshik, xizmatchi eshik va badiiy salon hamda davriy ko'rgazmalar zaligacha olib kiradigan eshik yo'llari ham ustunboshilar bilan bezatilgan. Uncha katta bo'lmagan oynavand qismlar eshikderazasiz devor sirti bilan birgalikda binoga muzey qiyofasi bag'ishlagan, bu yerda asosiy talab eksponatlarni idrok etish uchun kenglik vujudga keltirish hisoblanadi.

Devor pardozida granit, marmar, bezakli naqshu nigor, ko'kishtob shisha taxtachalaridan yasalgan oynavand alyuminiy vitrajlar ishlatilgan. Ayvondagi ustunlar och kulrang tusdagi marmar palaxsalari bilan qoplangan bo'lib, ularga bezak ishlari berilgan.

Termiz shahridagi qadimshunoslik muzeyi («O'zqishloqloyiha» instituti, 2005-y.) at-Termiziy ko'chasida, shaharning ijtimoiy-madaniy zonasida joylashgan. Muzey ro'parasida «Alpomish» yodgorligi bo'lgan madaniyat va istirohat bog'i, amfiteatr hamda tennis kortlari joylashgan.

Muzey binosi rejada chorsi, ikki qavatli (bir qavati balandligi 4,2 m) bo'lib, poydevor qavati ham mavjud. Bino besh qubballi bo'lib, markazdagi eni 12 m qubba atrofiga har birining eni 66 m keladigan yana to'rt kichik qubba qurshab olgan. Katta eshikdan kiraverishda binoning to'rtala burchagiga olib boruvchi ustundor va muqarnasli peshtoq savlat to'kib turibdi. Qubbalar, devorlar va peshtoqlarning tuproqsimon rangi poydevorning to'q jigarrang hamda ustunlarning oppoq rangi bilan hamohanglikda muzey binosi o'ziga xosligini vujudga keltirgan.

Muzeyning yirik hajmdagi eksponatlari uchun ayvonli yarimdoira hovli ko'zda tutilgan, u ayni vaqtda muzey va turar-joy uylar hududini bir-biridan ajratib turadi.

Ko'p narsalar boy qadimgi tamaddun haqida guvohlik beradigan Surxondaryo mintaqasidagi nodir inshoot o'laroq qadimshunoslik muzeyi binosi «Alpomish» shaharsozlik majmuining tugalligida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.

Mustaqillik yillarida respublikaning boshqa shaharlarida ham muzey binolari qurildi, mavjudlari esa yangi talablarni hisobga olib tubdan qayta tiklandi.



Yangi O'zbekiston Davlat konservatoriyasi maqomini olgan Toshkent davlat konservatoriyasining yangi binosi «Toshgiprogor» instituti loyihasi bo'yicha bunyod etildi. Mazkur loyiha konkurs yakunlari bo'yicha birinchi o'rinni oldi, bunda qurilish asnosidagi tanishuv vaqtida Prezidentimiz Islom Karimovning qimmatli maslahat va takliflari hisobga olindi.

Konservatoriyaning binosi Botir Zokirov ko'chasida, «Paxtakor» o'yingohining bog' hududi yonida qad ko'targan (loyiha bosh arxitektori V. Spivak, 2002-y.).

Konservatoriya majmui ikki: o'quv-mashq va teatr binosiga ega. Birinchisida barcha umumkonservatoriya va ma'muriy-xo'jalik xonalari, kafedralari, kutubxona, bufetlar, sport zallari va texnik xizmat ko'rsatish xonalari joylashgan.

Teatr-opera zali – 500, organ zali – 300, kamer zali ham 300 va kichik zal 200 o'ringa mo'ljallangan.

O'quv-mashq binosi mutanosib tuzilishga ega va uch bo'lakka bo'lingan. Markaziyida vestibullar guruhi, qavatlardagi xollar, o'quv darsxonalar, liftli xoll ikkala yon bo'laklarda barcha o'quv xonalari, xususiy mashg'ulotlar xonalari, kutubxona mavjud. Mazkur bo'laklar rejaviy va hajm-kenglik asosi bo'lib, oynavand gumbaz ostidagi to'rt



Toshkent. O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi, 2002-y.

qavatga mo‘ljallangan atrium hisoblanadi. Ushbu binosi o‘z eshigiga ega. Uning barcha zallari o‘quv binosi bilan bog‘lanishi ko‘zda tutilgan.

Bino arxitekturasi oddiy va lo‘nda. Bu yerda B.Zokirov ko‘chasi tomondagi o‘quv binosi eshigidagi ustunlar va «Paxtakor» o‘yingohi bog‘ zonasi tomondagi teatr binosining ustunlari asosiy arxitektura namunalari hisoblanadi. O‘quv binosining ustunlari oyna alikopanda yasalgan, teatr binosi ustunlari esa rejada tomonlari egik chorsi qirqimdagi yig‘ma temir-beton qobiqlar bilan qoplab chiqilgan.

Barcha devorlar arxitekturasi uning xizmat bajarish ahamiyatini hisobga olgan.

Atriumlar o‘quv binosining rejaviy va hajm kenglik asosi hisoblanadi. Bu erda arxitektorlar va rassom-monumentalchilarning birgalikdagi ijodiy ishlari ahamiyati yaqqol ko‘rinib turadi. Monumental-dekorativ san‘atning bino intereriga uzviy kirishib ketadigan asarlar tantanavorlik va bayramona ko‘tarinkilik holatini yuzaga keltiradi. Vestibyul va atriumlar intererlarining arxitekturaviy-badiiy echiimi bus-butunligi hamda uyg‘un birligi bilan farqlanib turadi. Bino intererida «Oltin

devor» kompozitsiyasi – katta opera zaliga olib kiruvchi, mashhur usta rassom Viktor Gan va arxitektor Vladimir Spivak yasagan dabdabali eshik alohida hissiy mazmun kasb etadi. Bu san’at asarining badiiy ramzi – naqsh asosidagi rang va ohang simfoniyasidir. Sirkori sopol o’ymakorligida bajarilgan qiziqarli syujetlar teatrcha «parda»ni o’zida namoyon etadi, tomoshabinlar ana shu «parda» orqali zalga o’tishadi. Bunda rassomlarning ijodiy g’oyasi mana men deb turadi, ular moziyning namunalari va an’analaridan ilhom oladilar (Samarqandda Shohi Zinda majmuida o’rin olgan mashhur Shodi Mulk maqbarasini eslaylik, kiraverishda va intererda hal yugurtirilgan sirkori koshinlarning hayratomuz namunalari bor unda) «Oltin devor» o’zining qo’landorligi, o’ziga xos yechimi va milliy koloriti bilan kishi e’tiborini tortadi.

Organ zalida rangli vitraj ijro texnologiyasi va ishlatilgan ashyolari bilangina emas, balki vitraj mavzusini ochib berish usullari bilan ham o’ziga xosdir. U shisha qurog’ining devordagi maxsus yoriqlarga o’rnatilgan to’rt vitraj pannosida yasalgan. Tomoshabin ko’z o’ngida ona diyoy go’zalligi va manzarasi namoyon bo’ladi: bir qarasangiz quvnoq bahor kuni, yana bir qarasangiz jazirama yoz kuni – yil fasllariga monand. Shunday taassurot tug’iladiki, muallifning bu ijodi arg’anun musiqasining betakror kuylari bilan yo’g’rilgan – goh mayin va maftunkor, goh quvnoq, goh jiddiy, goh qayg’uli tantanavor. Vitrajga quyosh nuri tushganida bu tuyg’u kuchayadi: shunda ularning barcha ranglari yanada jozibador bo’lib ketadi.

Vitraj texnikasini tiklash chog’ida monumentalchi rassom Rustam Xudoyberganov mumtoz usuldan voz kechib, uni zamonaviylashtirishga harakat qilgan, bu tasvir mayinligi va ta’sirchanligini saqlab qolish imkonini bergan. O’z ishida rassom «Sovplastital» QK mahsulotidan foydalangan, to’g’ri, u ko’pgina qiyinchiliklarni engib o’tishiga to’g’ri kelgan, chunki vitraj san’atida korxonasi asil mahsulotini qo’llashning yangi texnologiyasini ishlab chiqishlari, bo’yoqlarning quyosh nurlariga chidamliligi muammosini hal etishlari kerak edi va hokazo. Shu narsa quvonchliki, vitraj respublikamizda yangi ashyolar va texnologiyalar qo’llash bilan birinchi marta yasalmog’da. Shu narsa ma’lumki, vitrajlar tasodif bilan bezak unsuri bo’lib qolmagan, balki intererlarga uzviy kirishib, ularni boyitgan.

O’quv binosi atriumlarining yon maydonlarida «Sirli dunyo» va «Iltimos parvozi» sopol pannosi ishlangan (rassomlar Ozod Habibullin va Alfiya Habibullina, shu ishni bajarishga e’lon qilingan konkurs yakunlari bo’yicha birinchi mukofotni olishgan). «Sirli dunyo» pannosi

mavzusiga atrof olamning so‘ngsizlik va sirliligiga ishlangan kompozisiya asos qilib olingan. Yorug‘ tushganda quyosh nurlariga o‘xshab ketuvchi zarrin rang unga alohida jarang bag‘ishlaydi.

Ikkinchi qavat balkonlari devorlariga O‘zbekistonning boy jonivor va o‘simlik dunyosi mavzusidagi naqshu nigorlar ishlangan. Bu yerda tasvirlangan lagalar 12 respublikani anglatadi. Ularda arxitekturaviy durdonalar va tasviriy san‘at unsurlari mavjud. Bu Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab, qadimgi shaharlari va tarixiy an‘analari bo‘lgan mamlakat bo‘ylab sayohat qilishga o‘ziga xos taklifnomadir.

Yon devordagi ikkinchi sopol panno mavzusiga ijod, ilhom va xayolot parvozi asos qilib olingan – mutanosib joylashgan boshqa atriumning «Ilhom parvozi» deb atalishi shundan. Bu erda musiqa raqsning hayratomuz dunyosi ochiladi. «Kecha va kunduz» ramziy qiyofalar, mualliflar fikricha, qalb musiqasini uyg‘otadi.

O‘quv binosi markaziy vestibulida dumaloq devoriy kompozisiyalar ishlangan (rassomi Sergey Ivanov). Ular mavzusi – arxitektura unsurlari: arklar, qubbalar va minoralar ustidan cholg‘u asboblarning erkin badihisidir.

Sakkiz kompozisiyaning hech biri boshqasini takrorlamaydi, ularni O‘zbekiston arxitekturasi va tabiatidagi an‘anaviy ranglar – sovuq ko‘k, moviy, feruza ranglarining iliq jigarrang, zarrin, och jigarrang ranglardagi yagona rang koloriti birlashtirib turadi.

Umuman konservatoriya yangi binosi intererlaridagi badiiy ishlar yoqimli taassurot qoldiradi, bo‘shliqni to‘ldiradi va zaminimiz iste‘dodlarga nechog‘li boy ekanligini tasdiqlaydi.

Milliy teatr. 2001-yil 30-avgustda boshqa bunyodkorlik qurilishlar orasida Alisher Navoiy ko‘chasida joylashgan sobiq Hamza nomidagi teatr binosining ishga tushirilishi yilning shonli voqeasi bo‘ldi. U yangi maqom – O‘zbekistonning Milliy Akademik drama teatri degan nom oldi.

Axloqiy va texnik jihatdan eskirgan binolar hamda inshootlarni qayta tiklash mustaqil O‘zbekiston Respublikasining shaharsozlik siyosatining asoslaridan biridir.

Poytaxt ko‘chalari va maydonlarini bezovchi zamonaviy binolar hamda majmualarning shiddat bilan rivojlanayotgan qurilishi ana shunday dalolat beradi.

Eng xizmat ko‘rsatgan teatrlardan biri bu Respublikaning Hamza nomidagi teatri bo‘lib, 30 yildan ko‘proq mehnat faoliyatidan keyin uning pardozlari, ichki muhandislik tarmoqlari, texnologik jihozlanishi

diqqat bilan qarab chiqilganda ma'lum bo'ldiki, bular barchasi g'oyat parti ketib, sharti qolgan ekan. Navoiy ko'chasining shimol tomonidan binoga sinchiklab qaralganda uning tashqi ko'rinishi to'g'risida ham shu gapni aytish mumkin edi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning teatr binosini qayta tiklash to'g'risidagi qarori ham barcha manfaatdor tashkilotlar uchun kutilmagan voqea bo'libgina qolmay, anchadan beri amalga oshirilishi lozim bo'lgan savobli ish edi.

Yangi teatr qiyofasiga o'tkazilgan konkursdan keyin qayta tiklash loyihasini «Toshgiprogor» instituti amalga oshirildi.

Shu tariqa O'zbekiston Milliy Akademik drama teatrining yangi binosi unga tutash barcha katta-kichik uy va inshootlardan xoli qilindi hamda Toshkent markazining jozibador jamoat binolaridan biriga aylandi.

Teatrning obod hududi maysazor bilan qoplandi, tabiiy gullar kompozitsiyasi qo'shilgan parterli ko'kalamzorlashtirish usuli qo'llanildi. Teatrning hovli qismida favvora o'rnatildi, shaharliklar uchun dam olish zonasi barpo etildi. Avtomobillar turadigan hudud ham ajratildi.

Teatrni qayta tiklash ishlari uning mavjud tomosha qismida kengaytirish mumkin bo'lgan yangi maydonlar qo'shish tamoyili bo'yicha bajarildi. Markaziy foye tubdan qayta tiklandi, u 8 qavatma-qavat ustunlarni qayta o'rnatish, 3 ost-ust qatorli deraza tashkil etish vositasida kengaytirildi, o'n ikki metrli gumbaz o'rnatildi.



**Toshkent. O'zbekiston Milliy Akademik drama teatri,
2001-y. «Toshgiprogor» instituti.**

Birinchi qavatda vestibul, foye, ikkinchi va uchinchi qavatlarda muzey joylashgan. 540 o‘rinli tomosha zali bulutlar suzib yurgan moviy osmon ko‘rinishidagi gumbaz bilan qayta bezatilgan bo‘lib, uning gir aylanasida billur qandillar tizib chiqilgan, yulduzli tunni esga soluvchi osma shiftda ular gul yaproqlaridek ko‘zga tashlanadi (gumbaz chiroqlari o‘chirib qo‘yilganda).

Ikkala yon qanotlarda eni 7,8 m keladigan uch qavatli uylar qurilgan, ularda artistlarning xonalari, kostyumerlar, rejissyor yordamchilari xonalari, pardozxonalari, shuningdek qulay VIP xonalari (chap qanot), «Maqom» musiqa saloni, bufet va teatr uchun zaruriy boshqa xonalar joylashgan.

Yerto‘la qismida 110 o‘rinli kichik zal va uning xonalari, shuningdek sanitariya tarmoqlari bilan artistlar uchun sport zali egallangan.

Fasadning arxitekturaviy — kompozision yechimi uning milliy arxitekturasiimizning eng yaxshi an‘anaviy usullari vorisligini hisobga olib hal etilgan. Ikki tomondan teatrga tutash inshootlarning boy va rangin bezagi, shuningdek «Vatan» kinoteatri (A. Sidorov, 1939-y.) binosining Hamza nomidagi teatr fasadlarida muallif saqlab qolmagan (1968-y.) o‘ziga xos arxitekturaviy rejaviy usullar ham teatr yangi qiyofasini shakllantirishda asosiy unsurlar sifatida qabul qilindi.

Plastikaga boy ustundor ravoq tizmasi yon fasadlar bo‘g‘otlarida davom ettirilgan. Poydevor ora va qizil, sayqallangan granit qoplamali asosiy suyri zina tabiiy oq marmar qoplamali ustunlar bilan yaxshi uyg‘unlashib ketgan.

Uch arkli yorqin peshtoq ko‘k oynavandli asosiy devor vitrajleri ustidan teatr eshiklari ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Teatr qurilishida fasadlar kabi intererlar bezagida ham «Usta» firmasi xalq ustalari katta ijodiy ish qilganlar; yog‘och o‘ymakorligi, ganch ishlari, naqshu nigorlar va hokazolar, shuningdek tajriba haykaltaroshlik ishlab chiqarish kombinati, keramika zavodi rassomlari ham sopol bilan bog‘liq ishlarni bajarganlar va hokazo.

«Toshgiprogor» instituti O‘zbekiston Akademik rus drama teatrlari qayta tiklash loyihasini ishlab chiqdi (Buyuk Turon ko‘chasida).

Aslida kinoteatr bo‘lgan mavjud «Bilimlar uyi» binosini qayta tiklash loyihasi teatrga xos yetishmaydigan unsurlarni qo‘shish tamoyili bo‘yicha ijro etilgan.


O‘ng qanotda ikkinchi qavat bo‘ylab kuluarlar joylashgan; ular zal yon eshiklarini 2-qavat foye zonasi va 1-qavat vestibuli bilan, shu jumladan jamoat hojatxonalarini va tomoshabinlar kiyimxonasi

joylashgan yerto'la bilan bog'lab turadi. 1-qavat bo'ylab bu yerda yana asosiy eshikli, tomosha zalidan ko'chirish yo'liga tutash ma'muriyat xonalari ham joylashgan. Chap qanotda, 1 va 2-qavatlarda ijodiy xodimlarning sahnaga chiqishini ta'minlovchi bir gala xonalar joylashgan. Artistlar tahoratxonalarida dush, unitaz va chanoqli sanitar tarmog'i o'rin olgan.

6 tipdagi sahna dorli panjaralari bo'lgan asosiy sahna anjomlari 12x79 (h)m hajmdagi qayta tiklangan qurilish peshtoqli mavjud zalning orqa devoriga tutashgan, u erda arer sahna 18x18 m o'lchamdagi sahnaning bir qismi hisoblanadi, tryumi ham o'sha kattalikda. Dor panjaralar 1-qavat sathidan 24.20 belgida joylashgan.

Yerto'lada ishlab chiqarish ustaxonalari: duradgorlik xonasi, butafo-riya xonasi va badiiy bezaklar xonasi joylashgan. 1-qavatning o'ng qanot kamgagida slesarxona va sozlov sexi mavjud. Bu xonalar o'zaro tik chiziq bo'ylab bezaklarni yerto'la va 1-qavatdan 2-qavat baravarida joylashgan hashamdor bezaklar omborxonasiga va kamgaklarga ko'tarib chiqish uchun seyflar bilan bog'langan.

8.40 belgi baravaridagi zalda xizmat qilish va yoritish ayvonchalari joylashgan. Filmlar namoyish qilinadigan sobiq xonalar ovoz texnikasi jihozlari bilan ta'minlangan va foydalanilgan, shuningdek qo'shimcha tirkalma divanli ayvoncha va peshtoq yoritish ayvonchalari bilan jihozlangan. Kinolektoriyaning kichik zali bosh mashq zaliga aylantirilgan. 3-qavat foyesidagi xonalar tajriba studiyalari va qo'shimcha mashq xonalari sifatida ishlatiladi. «Propiley» kularlarining cho'zinchoq kompozitsiyasi «Antik» qishki bog' kompozitsiyasi bilan tugallanadi, u erda otilib turgan favvorachalar ostida tomosha zalidan chiqib ketiladigan favqulodda eshik va yo'llar mavjud.



Toshkent. Amir Temur ko'chasida joylashgan Milliy bank, Xalqaro savdo ko'rgazma majmui.

Asosiy fasadlar qirg'iz konlaridan keltirilgan silliq travertin bilan qoplangan. Devorlarda yana turli rangdagi shisha taxtachalardan yasalgan vitrajlardan mo'l foydalanilgan.

Toshkentdagi Amir Temur ko'chasida joylashgan Xalqaro savdo-ko'rgazma majmui (XSKM) qurilishi nihoyasiga yetishi bilan birinchi marta qisqa muddatda ishbilarmonlar, mehmonlar va shahar aholisi uchun ommaviy tashrif buyuradigan zamonaviy, yaxlit, har taraflama xizmat ko'rsatadigan majmua bunyod etildi. Majmua savdo markazi, biznes markazi, xalqaro otel, Milliy bank binosini o'z ichiga oladi.

Mazkur majmuaning sobiq XXYuK hududida joylashuvi O'zbekspomarkaz xizmat imkoniyatlarini ancha to'ldirish va kengaytirish imkonini berdi. XSKM ko'l qirg'og'i yoqalab Akvabog' va bolalar bog'i ko'rkam joylashgan bog' hudud shaharsozligi tuzilmasiga uyg'un kirishib ketgan. XSKMning barcha binolari o'rtasida ko'pqavatli favvoralar otilib turgan aylanma maydon tevaragida radial joylashgan va mazkur majmuaning taqsimlovchi old maydoni, o'ziga xos ochiq foyesi hisoblanadi. XSKMning arxitekturaviy-shaharsozlik kompozitsiyasi arxitektor A. To'xtayev rahbarligi ostida ishlab chiqilgan. Loyiha nusxasini ishlab chiqishda «Toshkentboshreja» loyiha institutining arxitektorlari va muhandislari jalb etilgan.

«Interkontinental» oteli mazkur majmuaning asosiy binolaridan biri sanaladi, u arxitekturaviy-rejaviy yechimning o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Mehmonxona binosining bosh devori janubi-g'arbga qaragan va och kulrang sayqalli taxtachalar bilan qoplab chiqilgan, ustidan oynavand qilingan, shuningdek, matbuot zalining sarg'ish yo'l-yo'l chiziqlari tortilgan.

250 o'rinli mehmonxona majmuida besh yulduzli mehmonxonalarining xalqaro andozalariga muvofiq ravishda mehmonlarga serviz xizmati ko'rsatish to'liq yo'lga qo'yilgan. Barcha nomer (xona)lar zamonaviy jihozlar, shamollatish tizimlari, o't o'chirish va yong'indan darak berish tizimlari, qulay mebellar bilan ta'minlangan. Otelda 500 o'ringa mo'ljallangan restoranlar va barlar (italyanacha, meksikacha va hokazolar). shuningdek, raqs zali, do'konlar, hovuzli va saunali sog'lomlashtirish klubi mavjud. Ko'pqavatli foye-atrium otelning alohida-alohida xonalarini birlashtirib turadi, mijozlarning hordiq chiqarishlari va kutishlari uchun har taraflama qulaylikka ega joylar muhayyo etilgan. Tezyurar, atrof ko'rinib



Toshkent. «Interkontinental» mehmonxonasi.

turadigan va servisli liftlar o‘n uchta yerusti qavatlarini bir-biriga bog‘lab turadi.

Ikki qavatli, erto‘lali Savdo markazi binosining maydoni 8150 m² bo‘lib, supermarket, «butik» turidagi katta-kichik do‘konlar va ma‘muriy ombor xonalarini o‘z ichiga olgan. Ikki qavatli atrium va rejada asosiy, qayirma zinalari, tushib kelayotgan suv ustuni shaklidagi rangi chiroqli bezakdor favvoralari bo‘lgan ayvon yo‘laklar mazkur inshoot ichki bo‘shlig‘idagi kompozision markaz hisoblanadi.

Ushbu rangin bo‘shliq atrofida ichki qulayliklar va dizayn unsurlari bilan birgalikda asosiy xonalarning joylashuvi ular yuzaga keltirgan, mijozlarga samarali xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan mazmundorlikni belgilab beradi.

Biznes markaz – bu yirik ofis majmua bo‘lib, 3 yerto‘la va 16 yerusti qavatlaridan iborat. 3-dan 16-qavatgacha joylashgan ofis xonalaridan tashqari unda yana restoran, kafeteriy va 400 o‘rinli bar, 300 o‘rinli matbuot zali (garderobli va bufeti bilan), ko‘rgazma zali (580 m²), 3 ta majlislar zali va 110 o‘rinli matbuot zali o‘rin olgan. O‘n ikki tezyurar yo‘lovchi lifti va xodimlarga xizmat ko‘rsatish uchun ikki servis lifti ushbu qavatlarini bir-biriga bog‘lab turadi. Bino rejada mutanosib tiklangan, uning ikki qismi ochiq zinali, aylanma ayvon yo‘lakli, lift xollarida suyri balkonlari bo‘lgan, mayda-chuyda arxitekturaviy shakllar, gulzorlar va favvorali markaziy rangin atrium bilan birlashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasining O‘zbekiston Milliy banki (O‘MB) markaziy ofisining 23 qavatli binosi butun majmua ichida eng muhtashami hisoblanadi (balandligi 106 m).

O‘ziga xos qiyofasi bilan esda qoladigan chorsi shaklga ega, ixcham binoning butun balandligi bo‘ylab to‘rttala burchakdagi temir-beton ustun tutib turadi, barcha devorlar va tom oynavand.

Binoning foyesi, atriumlari o‘z mahobati bilan hatto tajribali mutaxassislarni ham lol qoldiradi. Bezakdor hovuzchalar, haykallar, ko‘rinib turuvchi manzarali liftlar, keng ish zallari, zamonaviy ofislar, yigirma ikkinchi qavatda joylashgan, eng yangi kompyuter texnikasi bilan qurollangan va «erkin reja» tamoyili bo‘yicha hal etilgan ikkita muzokaralar zali va nihoyat oynavand tom ostida joylashgan qishki bog‘ – bular barchasi binoning badiiy yaxlit taassurot qoldirishiga imkon beradi.

Bank xodimlari uchun oshxona, tibbiyot xonasi va yengil avtomashinalar uchun yerosti garaj ko‘zda tutilgan. Tezyurar va servis liftlari

qavatlarini bir-biriga bog'laydi. Bino zamonaviy muhandislik jihozlari-ning barcha turlari bilan ta'minlangan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'muriy binosi (arxitektorlar A. Chernixov, R. Shokirov, A. Taranenko, I. Li) Toshkentning markaziy qismida, O'zbekiston va Shevchenko ko'chalari kesishgan joyda 1997–1998-yillarda barpo etilgan.

Bosh ma'muriy bino kompozitsiyasi uch qavatli ishlab chiqarish binosi va qarshida O'zbekiston ko'chasida joylashgan ma'muriyatning o'n besh qavatli binosi o'rtasidagi arxitekturaviy qarama-qarshilikka asoslangan.

Ma'muriy binoning baland qad-qomati mazkur joydagi barcha past qavatli uylarni birlashtirib turadi.

Binoning old devori shimolga, bank ishlab chiqarish binosi tomonga qaragan. Bino to'rt burchakli, rejada 21x30 m dan iborat o'n besh qavatli hajmni o'zida namoyon etgan. Ichki bo'shliq lo'nda va odmi hal etilgan – har ikki tomonda ishchi xonalari joylashgan yo'lak bor.

Xonalar pardozida a'lo sifatli chet el qurilishi ashyolari bilan bir qatorda badiiy sopol, ganch o'ymakorligi va suvog'i, «Mikond» zavodi shisha buyumlaridan foydalanilgan. Binoning tashqi pardozida O'zbekiston, Ukraina, Yugoslaviya va Isroil ashyolari ishlatilgan.

O'zbekiston ko'chasi o'qi bo'ylab Toshkent shahri markazida 1999–2000-yilda qurilgan Moliya xizmatlari banklararo markazi binosi (MXBM) joylashgan. O'z arxitekturasi va qiyofasi bilan u Toshkentdagi yana bir baland inshootni namoyon etgan (yer sathidan nayzasi uchigacha 89,7 m). U shahar markazining shu qismini o'zining mahobatli gavdasi bilan to'ldirib turadi.

Umumiy maydoni 15500 m² bo'lgan bino ikki yer osti va yigirma bir erusti qavatidan iborat.

Balandligi olti qavatga baravar keng atrium binoning bosh eshigi sanaladi. Atrium baravarida bir tomondan 100 o'rinli restoran va ikkinchi tomondan matbuot markazi o'rin olgan.

Binoga xizmat qilish uchun vestibulda 5 ta lift bor, shulardan ikkitasi manzarali bo'lib, umumshahar markazining kattagina qismini tomosha qilish imkonini beradi.

Vestibul intereri tabiiy ashyolardan (marmar, yog'och, temir) zamonaviy uslubda ishlangan bo'lib, milliy bezak namunalari- dan me'yorga qarab foydalanilgan. Atriumdan 450 o'rinli har taraflama xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan zalga kirib borish mumkin. Zal anjumanlar, seminarlar, konsertlar va hokazolar o'tkazishga mo'ljallan-

gan, yuqorida tilga olingan vazifalarni bajarishni ta'minlovchi zamonaviy tizimlar bilan jihozlangan. 5 liftda atriumdan namunaviy 12 qavatdan har birining markaziy qismidagi lift xolliga ko'tarilish mumkin.



Namunaviy qavat rejasi oddiy bo'lib, xizmatiga qarab taqsimlangan va qurilgan. O'ngda rahbariyat ofislari, chapda ishchi ofislar joylashgan, ular erkin rejada hal etilgan. Barcha ofis xonalari aloqa va signalizasiya tizimlari bilan jihozlangan bo'lib, eng yangi texnik yutuqlardan foydalanilgan.

Binoning 14-qavati VIP rejani o'zida namoyon etgan. O'ng tomonda qabulxona va dam olish xonasi bo'lgan katta kabinet joylashgan.

Qavatning o'ng qanotida 20 o'ringa mo'ljallangan kengashlar zali bor, uning oldida bir peshtaxtasi va mehmonlar uchun ishchi kabineti bilan jihozlangan kutish zali ko'zda tutilgan.

19 qavatda 60 o'rinli aylanma farshli restoran bo'lib, unda mijozlar stollarda o'tirishadi. Bunday echim mijozga shaharning ham zamonaviy, ham tarixiy manzarasini tomosha qilish imkonini beradi. Restoran intereri modern uslubida, milliy arxitektura ramzlaridan foydalanib, hal etilgan.

Unda maxsus yorug'lik tushadigan derazalar bilan oynavand sirt birikib ketgan. Sayqallangan va zanglamaydigan po'latdan yasalgan buyumlar ham talaygina. Oqshomgi va tungi vaqtda ma'dan, shisha



Toshkent. Moliya xizmatlari banklararo markazi, 2000-y.

hamda oyna sirtlaridan aks etuvchi shulalar mijozlarga benihoya yoqimli zavq bag'ishlaydi.

Devorlar arxitekturasi qoraytirilgan shisha, kulrang italiya graniti va alyuminiy varaqlari bilan birgalikda muvaffaqiyatli hal etilgan. Uyushikli uslubdagi bu yechim omilkor va zamonaviy bo'lib, shu xildagi inshootlar uchun jahon andozalariga mos keladi. Bino qurilishi a'lo sifatlilik bilan ajralib turadi.

Mehmonxonalar

Amir Temur va Alisher Navoiy ko'chalari kesishgan shimoliy chorrahada mustaqillik yillarida qayta qurilgan «Dedeman» mehmonxonasi joylashgan (sobiq «Do'stlik»).

Mavjud «Dedeman» mehmonxonasi alohida-alohida turgan ikki 9 qavatli bloklardan iborat: Alisher Navoiy ko'chasi bo'ylab turgan «A» bloki va unga ko'ndalang turgan, old devori Amir Temur ko'chasiga qaragan «V» bloki. Har ikkala blok qayta tiklandi va yangi «S», «D» va «E» bloklari qurildi.

«A» va «V» bloklari o'rtasida joylashgan o'n qavatli, old tomoni avtoshohrohlarni chorrahasiga qaragan «S» blokida quyidagilar joylashgan: birinchi qavatda vestibul guruh, ikkinchi qavatda restoran, shuningdek tik chiziq zina va liftlar bor. Ular «A» va «V» bloklarining to'qqiz qavatini qavatlardagi xollar bilan ulab turadi. «A» va «V» bloklari ortida joylashgan. «D» blokda erosti garaji va jamoatchilik ovqatlanish majmui mavjud.

360 o'rinli 188 turar-joy xonalari mehmonxonaning 2-9 qavatlarida o'rin olgan. 9-qavatda turar-joy xonalari, shu jumladan Prezident apartamentlari, barcha zaruriy xonalarga ega xoll, 10 qavatda esa ochiq yozgi qahvaxona — tomosha maydonchasi joylashgan.

Umuman bu ofis, ma'muriy, servis xonalari, muzokaralar zallari, restoranning har taraflama xizmat ko'rsatadigan kichik ziyofat zali va sog'lomlashtirish sport majmui bo'lgan jahon andozalaridagi uch yulduzli otellar sirasiga kiradi.

«Le-Meridian» mehmonxonasi (sobiq «Toshkent») shahar markazida Buyuk Turon ko'chasida Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri qarshisida joylashgan. Mehmonxona asosiy kirish qismi Buyuk Turon ko'chasi tomonda bo'lib, xo'jalik hovlisiga Sh.Rashidov ko'chasi tomondan kirish mo'ljallangan. Binoning shimol tomonida avtomobillar turish joyi tashkil etilgan.

Mehmonxona binosi 1958-yilda qurilgan (arxitektorlar M. Bulatov, L. Karash).

Bino fasadlari qayta qurildi va devor bo'yoqlari bilan bo'yaldi. Devorda mavjud granit qismi qayta tiklandi. Yog'och derazalar alyuminiy derazalarga almashtirildi va hokazo. Ichki pardozda ham a'lo sifatli pardoz ashyolari: sopol taxtachalar, marmar, gulqog'oz, parket va hokazolardan foydalanildi, natijada intererlar yorug' va badiiy jihatdan go'zal qilib bezatildi.

Bino qayta tiklangandan keyin to'rt yulduzli mehmonxonaga aylantirildi, u yerda 185 ta qirollik xonalari, 67 ta ikki o'rinli xona va 16 ta lyuks xona bo'lib, jami yashash uchun barcha qulayliklar mavjud 265 xona bor. Bu barcha xonalar ikkinchidan beshinchi qavatgacha joylashgan. Oltinchi qavatda texnik xonalar va yettinchi qavatda oynavand ravoqli restoran joylashgan. Mehmonxonaning qayta qurilishi xalqaro andozalarga javob beradi, turli-tuman xizmatlar ko'rsatiladi, unda biznes markaz, bar, restoran, majlislar zali va savdo majmualari o'rin olgan.

Amir Temur ko'chasida Xalqaro Savdo ko'rgazma majmui (XSKM) qarshisida «Redisson» mehmonxonasi joylashgan, unda 111 xona o'rin olgan: 86 ta xona ikki kishilik karavoti bilan, 18 ta ikki o'rinli xona va 7 ta lyuks xonalar. Matbuot zali, biznes markaz joylashgan bo'lib, ular mos ravishda ofis jihozlari va xonalari bilan ta'minlangan, xonalar birinchi qavatda bo'lib, lobbi, do'konlar, ma'muriy xonalar ham shunga kiradi. Binoning olti qavatida mehmonxonaning tegishli xonalari bo'lgan barcha mehmonbop nomerlari qulay joylashgan.

Samarqand shahridagi «Afrosiyob» mehmonxonasi (arxitektor M. Vohidov, 1995-y.) eski shahar bilan yangi shahar to'qnashgan joyda bo'lib, bir tomondan Go'ri Amir va Ruhobod maqbaralari arxitekturaviy yodgorliklari bilan, ikkinchi tomondan Samarqand ma'muriy xo'jalik markazi va opera hamda balet teatri bilan bevosita yaqinlikka ega.

Erning murakkab reliefi va mehmonxonaning bu qadar mas'uliyatli joyda joylashuvi qavatlilikka, hajm-rejaviy yechimga, bino kompozitsiyasiga ta'sir o'tkazmay qolmagan, u markaziy negiz – ichki hovliga, ochiq suzish havzasiga ega bo'lib, tevaragida turar-joy va xizmat ko'rsatuvchi bino qad ko'targan. Xonalari bir va ikki o'rinli hamda lyuks toifasidagi nomerlardan iborat. Mehmonxona jami 500 mehmonni o'z bag'riga oladi.

Mehmonxona tarkibiga ikki restoran, ikki banket zali, tungi bar, choyxona, sog'lomlashtirish klubi kiradi. Xandaq qazish chog'ida


qadimshunoslik topilmasi topilgan joyda qadimshunoslik bar-muzeyi qurilgan. Mehmonxona yashash uchun barcha qulayliklarni muhayyo etuvchi zamonaviy muhandislik tizimlari bilan jihozlangan.

Bir zamonlar bu yerda qal'a bo'lganligi binoning derazalarsiz qal'a ko'rinishida qurilishiga turtki bergan, unda pishiq g'ishtdan uncha katta bo'lmagan shinaklar yasalgan. Mehmonxonadan sal narida devorlari zamonaviy usulda qismlarga bo'lingan, oyna va betondan qurilgan zamonaviy bino qad ko'tarib turibdi.

«Buxoro» mehmonxonasi (O'zLITTI instituti, 1996-y.) Buxoro shahrining markaziy qismida «Inturist» mehmonxonasi va bilimlar uyi yonida, Buxoro shahar ma'muriy markazining shundoq yaqinidagi maydonda joylashgan. Joylashgan joy va erning haddan tashqari tangligi bino qavatligiga va hajm-reja echimiga ta'sir qilgan.

Tuzilish jihatdan butun bino 11 qavatli, tepasi oynavand tom bilan yopilgan ichki atrium atrofida mujassam. Atriumdagi sakkizinchi qavat barobarida tashlangan osma ko'prikday bar osilib turibdi. Atrium atrofida ayvonchalari bilan xonalar saf' tortgan. Xonalar jamlamasi bir va ikki o'rinli xonalar hamda lyuks xonalardan iborat. Mehmonxona hammasi bo'lib 430 mehmonni bag'riga sig'dira oladi.

Mehmonxona tarkibiga ikki restoran, ikki ziyofat zali, tungi bar, choyxona, sog'lomlashtirish klubi kiradi. Atriumdagi keng-kovul xoll ochiq suzish havzasi joylashgan mehmonxona ichkari hovlisi bilan bog'langan. Mehmonxona yashash uchun qulay sharoitlar tug'diruvchi barcha zamonaviy muhandislik tizimlari bilan jihozlangan.



Samarqand. «Afrosiyob» mehmonxonasi, 1995-y.
Arxitektor M. Voxidov.

Binoning shahar markaziy maydonida joylanishi liftlarni mehmonxona devoriga olib chiqishni taqozo etgan. Oynavand liftlar maydondan zavq olishga imkon beradi va shahar eski qismi manzarasini bor bo'yicha namoyon etadi. Bino yuqori qismi devorlarining uyachali tuzilishi arabcha yozuvni esga soladi. Binoning kamqavatli qismi oddiy yirik shakllarda hal etilgan. Urganch shahridagi «Inturist» mehmonxonasi ham qayta tiklandi. Qayta tiklash chog'ida asosiy vazifa «eski» binoning zilzilabardoshligini, suningdek, mehmonlar uchun qulaylikni oshirish masalasi bo'ldi. Shu maqsadda parti ketib, sharti qolgan bino va inshootlar olib tashlandi, bino barcha qismlari tuzilishlarini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar qo'llandi va ikki qo'shimcha blok qurildi.

Qayta qurish natijasida «Xorazm-Palas» («Toshkentboshreja», 2001-y.) mehmonxonasi binosi yangi arxitekturaviy-bo'shliq yechimiga ega bo'ldi. To'rtta ikki qavatli blok rejada ichki hovlisi bo'lgan to'rtburchak majmuani tashkil etadi, u yerda suzish havzasi, dam olish uchun ko'kalamzorlashtirilgan obod hudud joylashgan bo'lib, Xorazmning chang-to'zonli shamollaridan ihota qilingan.

Markaziy shimoliy blokda kirish guruhi, barli xoll, restoran va matbuot zali joylashgan. Janubiy blokda alohida eshigi bo'lgan VIP xonalar mavjud. Farbiy va sharqiy bloklar bar hamda ikki o'rinli xonalarga moslab qayta qurilgan.

Qayta qurish natijasida Toshkent shahar va respublikaning boshqa shaharlaridagi bu mehmonxonalar O'zbekiston mehmonlari hamda sayyohlariga zamonaviy darajada xizmat ko'rsatib, o'zlarining betakror arxitekturaviy-badiiy qiyofasiga noil bo'ldi.

Yashovchilar uchun sport majmualari va qulayliklarsiz bugungi kunda zamonaviy mehmonxonani tasavvur etish qiyin. Buyuk Ipak yo'lidagi mehmonxona majmui («Toshgiprogor» 2002-y.) zamonaviy mehmonxonalarning barcha talablariga javob beradi.

Maydonda 20 xonali ikki qavatli mehmonxona va sport majmui joylashgan. Unda yopiq tennis korti, suzish havzasi, sauna va mashq zali mavjud.

Hudud obodonlashtirilgan, ko'kalamzorlashtirilgan. Obodonlashtirishda joyning o'zidan foydalanilgan — maydonning pastki qismida ochiq tennis korti va serbezak hovuz joylashgan. Yuqori qismida favvora bor.

Mehmonxona binosi rejada 36x33 m to'rtburchak imoratni o'zida namoyon etgan, unga yon tomondan yarimdoira hajmdagi qishki bog' tutashgan. Binoga kirarkansiz, ostin-ustin derazali vestibulyulga

duch kelasiz, undan butun kompozisiyaning negizi hisoblangan va qavatlari qishki bog'larni yagona bo'shliq bilan birlashtirib turgan atriumga o'tasiz. Bino yotiq sathlarning yarim qavatga pasaytirilishi hisobiga ikki va uch qavat derazalik bo'shliq hosil qilingan, bunga birinchi va ikkinchi qavatdagi ayvonlar kiradi. Bu qavatlar atrium bo'shlig'ida joylashgan, interer bezagining talay unsurlari hisoblangan dabdabali ikki marmar zina yordamida bog'lanadi.

Mehmonxona poydevori qavatida yordamchi xonalari bo'lgan restoran zali, dam olish xonasi bor sauna, bilyardxonona, mehmonxona ma'muriyati xonalari joylashgan.

1-qavatda hashamdor favvorolari va qishki ko'chatlari bo'lgan ikki qishki bog' joylashgan. Qishki bog'lardan favvoralar ustida joylashgan ochiq ayvonga chiqish mumkin. 1-qavatda yana ziyofatlar o'tkaziladigan mehmonxona bo'lma, kaminli muzokaralar zali va mehmonxona turar-joy xonalari joylashgan.

2 qavatda bir-ikki xonali nomerlar joylashgan, ularning eshiklari atrium ayvonchasi va qishki boqqa ochiladi. Atriumning butun bo'shlig'i oxirida qishki bog'larning osma shiftlari bilan yagona echimdagi osma shift ko'zga tashlanadi, xuddi shu narsa intererni yaxlit ko'rsatib turadi. 2 qavatdan tomga zina bor, tomda solyariy, — quyosh vannasi joylashgan.

Mehmonxona devorlari plastikasi qishki bog'larning erkin yarimdoira shakllari va ular uchala sathini uch qavatli favvoralar qarama-qarshiligida hal etilgan. Bino gorizontaal panjarasi va vertikal burchak minoralari bilan derazalarning tik yo'llari hamda qo'shqavatli ustunlar tikligi ham shunday qarama-qarshilik vujudga keltirgan. Devorlar pardozi ashyolarida ham qarama-qarshilik ko'rinib turibdi: qizil-jigarrang tusdagi italgranitdan qurilgan yotiq poydevor qavat, burchak minoralarining tik hoshiyalari, ustunlar, yotiq panjara kulrang alyukabond bilan va alyuminiy vitrajlar qoraytirilgan oyna bilan qoplangan.

Intererlarda zamonaviy va an'anaviy pardoz ashyolari: mehmonxona bo'lmasi hamda muzokaralar zalida quroq marmar zinalar va farshlar, ganch ustunlar, bo'rtiq ustunboshili va kursili ustunlar, ganch suvoqlar, shuningdek kovrolan, sopol taxtachalar, gipsokarton ishlatilgan.

Xalqaro toifadagi 4 yulduzli sobiq «Sheraton» hozirgi «Markaziy» mehmonxona majmui Toshkent shahrining Yunusobod tumanida, Amir Temur va Alisher Navoiy ko'chalari chorrahasidan janubi-g'arb tomonda joylashgan («Toshgiprogor» instituti, arxitektor R.Valiyev,



**Toshkent. Sobiq «Sheraton»
hozirda «Markaziy»
mehmonxonasi.
«Toshgiprogor» instituti.**

fransiyalik arxitektor Vinsent Viyon ishtirokida, Fransiya). Binoning old devori mana shu shohrohlar kesishgan markazga qaragan. Inshootning hajm-kenglik yechimi butunlay Toshkent shahar markazini rejalashtirishning yangi urbanizasiya sharoitlariga bog'liq ravishda umumiy g'oyaga bo'ysundirilgan. Qabul qilingan qavatlilik shaharsozlik holati va chorrahaning mavjud tuzilishi xarakteridan kelib chiqqan.

Majmua 17 qavatli asosiy baland blokdan va 1–2 qavatli uylardan iborat, ular barchasining devorlari va rejaları arxitekturaviy-badiiy plastika jihatidan ham yaxlit hal etilgan. Bu mehmonxonaning butun arxitekturaviy hajmini ma'lum mazmundorlik bilan ta'minlagan, bunga erishmoq uchun

loyiha mualliflari devorlar tik chiziqlari va hajmlar «o'yini»ning tegishli hamda ma'lum o'zaro uyg'unlashuvidan foydalangan, shuningdek faqat birinchi qavat emas, balki mehmonxonaning baland qismidagi oynavand va sidirg'a yuzalarida ham shu holni ko'ramiz. Oynavand qismining haddan tashqari ko'payib ketishi oldini olish maqsadida «buqalamun» xilidagi oyna ishlatilgan, shahardagi keyingi qator qurilishlarda devorlarning ko'ngilga urmaydigan bo'lib ko'rinishida shu oyna qo'l kelmoqda.

Majmua fasadlarida bu qadar mashhur tuzilmali unsurlar va an'anaviy arxitektura shakllaridan, xususan bezak detallaridan g'oyat ustalik hamda mahorat bilan foydalanish mehmonxonaning hayratomuz qiyofa kasb etishiga va uning o'z joyini topishiga imkon berdi. Bu bilan birga intererlar, ayniqsa mehmonxonaning jamoatga xizmat qilish zonalari echimida milliy bezak unsurlaridan keng foydalanilmoqda.

Mehmonxona xalqaro toifadagi 250 mehmonxonalaridan iborat, shu jumladan 1 ta prezident lyuks xonasi, 7 ta lyuks xona (2 xonalik), 242 ta bir xonali nomerlar, shu jumladan 3 ta xona nogironlarboq qilib jihozlangan. Birinchi qavatda eshigi alohida, ziyofatlar, anjuman-

lar, ko'rgazmalar, to'y-tomoshalar va boshqa tadbirlar o'tkazishga imkon beruvchi ko'pmaqsadli xizmat ko'rsatish zali ko'zda tutilgan. Shu zal va vestibul-atrium oralig'ida gastronom-restoran, xalqaro qahvaxona, bar va salon, havzali bar joylashgan. Ikkinchi qavatda biznes markaz bo'lib, u kotibiyat xizmatlari ko'rsatadi, ofislar va savdo markazlari mavjud. O'n yettinchi qavatda bar-restoran joylashgan. Barcha texnik xizmat ko'rsatish xonalari va 28 avtomashinaga mo'ljallangan garaj butun majmua tagidagi poydevor qavatda joylashgan.

Mehmonxona hududida, maydon ichkarisida ochiq suzish havzasi, tennis korti, dam olish maydonchasi ko'zda tutilgan bo'lib, obodonlashtirilgan, suv chiqarilgan va ko'kalamzorlashtirilgan. Amir Temur va Alisher Navoiy ko'chalari yoqalab 80 yengil mashina va 5 avtobusga mo'ljallangan garaj joylashgan. Xadicha Sulaymonova ko'chasi tomondan xo'jalik zonasiga kirish va o't o'chirish mashinalari kiradigan yo'llar mavjud. Hovlida yana issiq suv qozoni va elektr podstansiyasi joylashgan. Katta darvozadan kiraverishda favvorali uchta havza bor. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov tavsiyasi bilan arxitekturaviy-landshaft masalalarini hal etish jarayonida loyihaga g'oyat jiddiy qo'shimchalar kiritilgan edi: asosiy devor oldidagi favvoralar, dam olish zonasidagi havzalar, hududni ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish. Bu tavsiyalarning ro'yobga chiqarilishi mehmonxona arxitekturaviy-landshaft muhitining qulayligi, go'zalligi va ma'nodorligini juda oshirib yubordi.

Inshoot ahamiyati nuqtai nazaridan ham ichki, ham tashqi pardozda zamonaviy pardoz ashyolaridan foydalanilgan: devorlar qoplamasida italogranit, poydevor qavatda va obodonlashtirish ishlarida granit ishlatilgan. Ta'kidlab o'tilganidek, odamlar ko'p bo'ladigan xonalar intererlarini bezashda milliy bezak namunalaridan keng foydalanilgan. Majmua xalqaro andozalarga javob beradigan chet el jihozlari va mebel bilan ta'minlangan.

Samarqand shahridagi «Prezident-otel» binosi («Toshkentboshrenja», 2004-y.)shahar markazida, «yevropa hududi» deb ataladigan Universitet xiyobonlarida joylashgan.

Qurilish uchun 2,4 ga maydondagi er ajratilgan, uning tuzilishi mehmonxonaning «biquin» rejaviy joylashuvini belgilab bergan. Bino qurilishi maydoni 2400 m². Otel hovlisida avtomobillar garaji, yozlik qahvaxonasi bo'lgan havza, tennis korti, havza va xo'jalik zonasi joylashgan.

Rejada mehmonxona biqin tomonlari nimsilindri to'g'ri to'rtburchak shaklga ega. Asosiy eshik binoning biqin tomonida joylashgan. Otel 164 xonaga mo'ljallangan bo'lib, jumladan: bir o'rinli xonalar — 48 ta; ikki o'rinli xonalar — 100 ta; ikki o'rinli ikki xonali nomerlar — 12 ta. Bundan tashqari, alohida guruhga 4 nomer ajratilgan — bular hukumat boshliqlarini joylashtirish uchun prezident apartamentlaridir.

7 qavatli binoning butun balandligi baravaridagi keng yorug' atrium bino kompozision markazi sanaladi. Bu erda uchrashuv va dam olish joylari, bar, restoran, nonushta bufeti, ma'muriyat, xizmat ko'rsatish xonalari, sovg'alar do'konlari, sartareshxona joylashgan. Poydevor qavatda saunali suzish havzasi, diskoteka bor, qo'shimcha va texnik xonalar o'rin olgan. Amaliy uchrashuvlar o'tkazish uchun matbuot zali, muzokaralar zali va kengashlar uchun ishchi xonalar mo'ljallangan.

Yashovchilar uchun vertikal aloqalar zinalar va yong'in xavfsizligi zinalari, shuningdek 1000 kg yuk ko'taradigan ikki yo'lovchi lift vositasida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, nomerlarga xizmat ko'rsatish uchun ikki texnik lift ham ko'zda tutilgan. Ikki manzarador lift butun atriumni tomosha qilish imkonini beradi. Muhit arxitektura yechimi holatini hisobga olib, bino devorlari eng yangi mumtoz uslubda hal etilgan.


Intererlardagi rejalashtirish aniqligining qat'iyligini qavatlardagi yarimdoira ko'rinisdagi balkonchalar va qavatlardagi ochiq xollar bo'lgan ayvon yo'laklar yordamida yumshatilgan.

Chorvoqdagi mehmonxonalar. Toshkent viloyatining Bo'ka yo'lidagi Chorvoq dam olish zonasi 2003—2004-yillarda Toshkent—Burchmulla yo'lining janubiy tomonida joylashgan uch mehmonxona majmui qurilib, sayyoh va mehmonxonalar bilan yanada gavjum bo'lib ketdi.

Chala qurilgan uch yotoqxona binosini qayta qurish («UzNIIP shaharsozlik», 1983—85-yy) oliy darajadagi qulaylikka ega mehmonxonalarining xususiy loyahasiga muvaffaqiyatli tarzda aylantirildi.

Qayta qurish loyahasini «Tashgiprogor» instituti ishlab chiqqan. Mehmonxona binolari asosiy shohrohdan ajralib chiqqan yo'l yoqasida joylashgan. Ikki bino markaziy o'q bo'ylab ichkariga sal burilgan holda joylashgan, uchinchisi yo'ldan janubroqda, xiyol balandroqdan o'rin olgan.

Uchala binoning tashqi ko'rinishi va rejasi o'ziga xosligi hamda arxitekturaviy yechimi, jumladan bino sirti rangining tanlanishidagi betakrorlik bilan ajralib turadi — quyosh nuriga ko'milgan mehmonxona binolari och va to'q yashil rangga bo'yalgan. Binolarning har biri



**Samarqand. «Prezident-otel» binosi, 2004-y.
«Toshkentboshreja» instituti.**

piramida shakliga ega va Chorvoq suv omborining moviy sathi hamda atrofda tog'lar orasidan juda ham chiroyli ko'rinadi.

1-binoning birinchi qavatida ma'muriyat va boshqaruv xodimlari-ning idoraxonalari, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning maishiy xonalari,

shifokor kabinetini va muolajaxonasi bo'lgan tibbiy maskan, kirxona joylashgan.

Ikkinchi qavatda, vestibul va lift xolli bilan yonma-yon oshxona bilan birgalikda 100 o'rinli bar-foye va nonushta qahvaxonasi joylashgan. 2-binoning birinchi qavatida badantarbiya va aerobika zallari, sauna, bar, sataroshxonali sog'lomlashtirish majmui joylashgan.

Binoning o'ng qanotida restoranning 200 o'ringa mo'ljallangan oshxona xonalar joylashgan, restoran zali esa ikkinchi qavatda. 1 va 2-binolarning ikkinchi va to'rtinchi qavatlarida turar-joy xonalari o'rin olgan. Xonalar yuksak qulaylikka ega vannasi bor ikki o'rinli ikki xonali kichik apartamentlar va vannasi bor ikki o'rinli bir xonali nomerlar plyaj zonasi – suvombor tomonga qarang. Boshqa tomonida dushi bor bir o'rinli turar-joy nomerlari o'rin olgan. 3-bino birinchi qavatida vestibul va lift xolli bilan yonma-yon 100 o'ringa mo'ljallangan bar-foye va nonushta qahvaxonasi joylashgan, turar-joy nomerlari esa birinchidan to'rtinchi qavatgacha o'rin olgan.

Har uchala binoning beshinchi va oltinchi qavatlarida katta-katta uch-to'rt xonali apartamentlar joylashgan.

Binolar qiya tom bilan yopilgan, zavod sharoitlarida bo'yalgan shakldor to'shamadan yasalgan chordoq tagidan shamol turadi. Chordoqning balandligi 1,6 m bo'lib, yengil ma'dan varaqlaridan iborat. Barcha muhandislik kommunikasiyalar texnik yerto'laga olib o'tkazilgan, u yerda tashqi devorlarning poydevor qismida deraza o'rinlari ko'zda tutilgan.

Binoning butun balandligi bo'ylab qoraytirilgan oyna bilan alyuminiy devor birgalikda ko'zga o'zgacha tashlanadi. Uning yuqoridagi araqiy qismi shunga yarashib turibdi. Devorlar va ustunlarning asosiy eshigi peshtoqlari a'lo granit va marmar taxtachalar bilan qoplangan, metall qismlar, deraza hamda eshiklar zamonaviy pardozi ashyolari va a'lo sifatli bo'yoqlar bilan to'ldirilgan.

Majmuaning intererlari arxitekturaviy bezak pardozi tamoyillari xonalar xizmat vazifasini hisobga olib hal etilgan, ularda zamonaviy pardozi ashyolari va badiiy uslublar birikib ketgan: osma shiftlar Armstrong bosma taxtachalar, alyuminiy reyklar, ganchli qog'oz varaqlardan yasalgan. Texnik xonalarda osma shiftlar a'lo sifatli elim bo'yoq va sirkor bo'yoqlar hisobiga issiq hamda tovushni o'tkazmaydigan xossalarga ega. Yeriga granitdan marmar taxtachalari to'shalgan. Shuningdek, parket, linoleum, gilam to'shama, koshin guldor betondan foydalanilgan va hokazo.

Murakkab muhandislik-geologik va seysmik sharoitli erlarda mehmonxona majmuini muvaffaqiyatli va omilkorlik bilan hal etishni ham alohida tilga olish joiz. Bunda temir-beton ustunlar va rigellar, shuningdek, chordoqni shamollatuvchi qurilmasi bo'lgan yengil temir ferma qoplamalar qurilishbop tuzilmalarni tashkil etadi.

Devorlarning tashqi to'suvchi tuzilmalari ichi isitkich ashyosi bilan to'ldirilgan engil ma'dan romlaridan yasalgan. Loyihalashtirish chog'ida xizmat ko'rsatish har taraflama obdon o'ylab chiqilgan — unda telefaks va teletayp pochta aloqa maskani, sovg'alar do'koni, bank va tibbiyot markazlari mavjud.

Ta'lim sohasidagi binolar arxitekturasi

O'zbekiston Respublikasi istiqboli va taraqqiyoti yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, yosh avlodni ma'naviy tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq (1992-y.) «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va boshqa rasmiy hujjatlarga muvofiq ta'lim sohasini tubdan o'zgartirishga kirishildi. Viloyat markazlarida o'nlab uni versitetlar, mustaqillikkacha mavjud bo'lmagan bir qancha oliy o'quv yurtlari tashkil etildi. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti, O'zbekiston respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, Bank-moliya, Ichki ishlar, Qurolli kuchlar akademiyalari, tog'-kon instituti singari yangi ta'lim muassasalari ochildi.

1997-yilda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ishlab chiqildi, u uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama taraqqiy etgan shaxsning kamol topishini ko'zda tutadi.



Ushbu dasturning maqsad va vazifalarini ro'yobga chiqarish favqulodda ahamiyatga ega, bu haqda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq o'n to'rtinchi sessiyasida davlatimiz rahbarining ma'ruzasida so'z yuritilgan edi. Tegishli vazirliklar va idoralar oldiga muayyan vazifalarni qo'yildi. «Ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlashni tubdan o'zgartirish, barkamol avlodni tarbiyalash to'g'risida»gi milliy dasturni amalga oshirish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 6-oktyabrdagi Farmoni asosida kasb-hunar kollejlarning namunaviy loyihalarini ishlab chiqishga konkurs e'lon qilingan edi. Tanlov bir necha bosqichlarda o'tdi.

Natijada «O'zLITTI» institutida akademik liseylar va kasb-hunar kollejlarning asos bo'luvchi loyihalari yaratildi. Mazkur loyihalar

zamonaviy arxitekturaviy uslub va milliy arxitekturlik an'analari uyg'un birikib ketgan tuman yoki viloyatning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan arxitekturaviy rejaviy yechimlar ko'zda tutilgan. (T. Matyoqubova, M. Gorbaskiy, A. Kovalev, A. Narirshin, M. Vohidov, S. Xo'jayev, L. Muhamedshin, N. Masoyan, E. Orlenina, M. Shagayev, L. Novogonskaya). Ishlab chiqilgan loyihalar ichida 345, 600, 825 va 1050 o'quvchiga mo'ljallangan akademik liseylarning asos bo'luvchi loyihalari eng muhimlari hisoblanadi.

Akademik liseylar — o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limiga mo'ljallangan muassasaning yangi turi hisoblanib, umumiy o'rta 9 yillik ta'lim asosida «1990—2005-yilga akademik liseylar va kasb-hunar kollejlari moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va moliyalashtirish davlat dasturi»ni ijro etish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlagan davlat ta'lim standariga muvofiq o'quvchilarga chuqur bilim va kasb-hunar ta'limi beradi.

Binolari uch qavatli bo'lib, alohida bloklardan tashkil topgan, mazkur qavatlar va bloklar xizmatchi zinalari hamda yo'lovchi liftlari bilan bir-biriga bog'lanib turadi.



Respublikamizda qurilgan kasb-hunar kollejlarning ko'rinishi.

Akademik liseylar quyidagi xonalarni o'z ichiga oladi:


- o'quv xonalari;
- o'quv-sport xonalari:
- axborot-texnika markazi, to'garaklari bo'lgan katta zal;
- xizmat ko'rsatuvchi va oziq-ovqat bloki bo'lgan xonalar.

Asosiy xonalar uch qavat derazali vestibul-atrjum atrofida jamlangan, oldindagi ochiq bosh zina, atrium bo'shlig'idagi tik oynavand tom binoga kirishda ko'tarinkilik, tantanavor kayfiyat tug'diradi. Keng vestibuldan ochiq dam olish hovlichasiga va undan oshxona hamda bufet oldidagi xollga o'tiladi. Ichki hovlining birinchi qavat vitrajleri yagona ichki kenglikni vujudga keltiradi. Bino devorlari tashqi bezakning mumtoz namunalaridan foydalanib, qat'iy uslubda ishlab chiqilgan.

Shu narsa diqqatga sazovorki, 375, 600, 825 va 1050 o'quvchili akademik liseylar namunaviy loyihalarining 2001 yildagi mualliflari O'zbekiston Respublikasi Arxitektorlar uyushmasi o'tkazgan «2001–2002-yy. eng yaxshi loyihalari» ko'rik-konkursida ikkinchi o'rinni oldilar.

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti qoshida Toshkentda qurilgan to'rt qavatli o'quv binosi bo'lgan akademik lisey yoki Yangiyo'l shahrida qurilgan ikki qavatli o'quv binosiga ega akademik lisey (arxitektor A. Mahkamov) va boshqalar o'z arxitekturaviy-rejaviy yechimi bilan qo'quvchilarni o'qitishning barcha yangi xili talablariga javob beradi.

Mavjud ta'lim muassasalari, shuningdek boshqa binolar va qurilishi tugallanmagan inshootlar moddiy texnika bazasidan eng ko'p darajada foydalanish maqsadida «Mavjud binolarni akademiik liseylar va kasb-



**Toshkent. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi
Universiteti qoshidagi akademik lisey.**

hunar kollejlari qayta qurish bo'yicha ko'rsatmalar va me'yorlar» ishlab chiqildi.

«Toshgiprogor» instituti ham konkurs bo'yicha turli hajm va yo'nalishlarga mo'ljallangan ishchi chizmalari ishlab chiqishga buyurtma oldi.

Shulardan biri Toshkent shahsr Uyg'ur ko'chasida qurilgan 600 o'quvchiga mo'ljallangan kasb-hunar kollejidir. U «Qurilish va kommunal soha» yo'nalishida bo'lib, loyihaning bosh me'yori R. Iskandarov, 5-ustaxona. Kollej binolari sirasiga quyidagilar kiradi: ustaxona va oshxonasi bo'lgan o'quv binosi, echinish xonasi bo'lgan 25x11 m hajmdagi havza, avtomashinalar, gazpayvandchilar ayvon-bostirmasi Hududda tennis maydonchalari, mini-futbol maydoni mavjud. O'quvchilar dam olish zonasi va jamoat tadbirlari o'tkaziladigan maydonchalar sport va xo'jalik hududlaridan alohidadir. O'z kirish yo'liga ega xo'jalik hududi ham bor. Sobiq o'quvchilar yozgi oromgohi hududidagi mavjud dov-daraxtlar iloji boricha ko'proq saqlab qolingan va obodonlashtirilgan.

Ko'pqavatli uylar orasidagi mahallada qad ko'targan mazkur kollej binosi katta eshik va burchaklardagi minoralar yuzasini qoplab turgan vitrajlar, chiroyli yarimustunlar diqqatni o'ziga tortadi. Yoysimon kungurador qismlar bino tuzilishiga mukammallik bag'ishlaydi. Binoga kirar ekansiz qo'shqavat derazali foyega duch kelamiz, u keng vestibulga o'tib, katta zina bilan nihoyalanadi. Vestibul yana katta zal kuluarlari bo'lib xizmat qiladi. Birinchi qavatda ma'muriy xonalar, qo'shqavat derazali oshxona, faollar hamda sport zallari mavjud. Ikkinchi qavatda kabinetlar va sinflar joylashgan. Uchinchi qavatda, faollar va sport zallari tomida ichki hovlichalar bo'lib, bir-biridan shaffof leksan qoplamali jimjimador panjaralar bilan ajratilgan. Shulardan birida doimiy ishlab turuvchi qurilish va pardozi ashyolari ko'rgazmasi, boshqasida — shahar uylarining rejaviy maketlari hamda binolarning hajmdor maketlari joylashgan. Hovlichalar charog'on va jimjimador oq fermalar shaffof leksandan ko'rinib turuvchi moviy osmon fonida kenglik hissiyoti tug'diradi. Hovlichalar oralig'ida dam olish joylari loyihalashtirilgan bo'lib, undan ichki hovlichalar atrofidagi yorug' yo'laklarga o'tiladi. Bino ichkarisida sinflar joylashgan.

To'rtinchi qavatda o'quv-mashg'ulot xonalari joylashgan. Poydevor qavatda o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalari: duradgorlik, slesarlik avtochilar xonalari o'rin olgan. Barcha o'quv va mashq xonalari zamonaviy texnik qurilmalar hamda asbob-uskunalar bilan jihozlangan.

Qoraqalpog'istonning To'rtko'l tumani Sho'rxan manzilgohidagi 750 o'quvchiga mo'ljallangan kasb-hunar kolleji («O'zshaharsozlik», B Miraliyev, 2001-y.) to'rt qavatli o'quv, uch qavatli yotoqxonalar binosidan iborat, ular pishiq g'ishtdan tiklangan bo'lib, yaxshi pardozlangan. O'ziga xos mayda arxitekturaviy shakllar qo'llanib, hudud obodonlashtirilgan. Bino markaziy o'qi bo'ylab joylashgan o'ziga xos kirish yo'llari bilan ajralib turgan vitrajli bo'rtiq pilon o'quv binosi kompozitsiyasi markazi hisoblanadi. Bu usul majmua hududiga olib kiradigan darvozada ham qo'llangan. U kichik-kichik yorqin arxitekturaviy shakllar ko'rinishida bo'lib, feruza rangda va g'ishtin pardozli milliy naqshlar qo'llab ishlangan.

Buxoro viloyatining Olat tumanidagi 750 o'quvchiga mo'ljallangan, qishloq xo'jalik sohasidagi kasb-hunar kolleji (Buxorovilloyiha, S. Kamolov, 2001 y.) M-37 shohrohi yoqasida joylashgan. Kompozitsiya markazi uch qavatli bino bo'lib, unda oynavand vitraj devorli foyedagi katta eshik ko'zga tashlanib turadi. Majmuaning barcha devorlari sifatli suvoqdan chiqarilgan, feruza va moviy rang bilan bo'yalgan.

Asosiy to'rt qavatli o'quv binosi yon tomondagi uch qavatli bino bilan parallel joylashgan va yo'lak bilan ulangan. Bu yerda zamonaviy asbob-uskunalar bo'lgan barcha zaruriy o'quv-ishlab chiqarish kabinetlari ko'zda tutilgan.

Respublikada ta'lim va ijtimoiy iqtisodiy soha yo'nalishiga ega kasb-hunar kollejlari hamda akademik liseylari qurilishiga loyihalar yaratish «O'z shaharsozlik LITI» ga topshirilgan edi. 1996–1999-yillarda 300, 450, 600, 750 va 900 o'ringa mo'ljallangan kollejlar va mavjud o'quv yurtlarini qayta tiklash loyihalari bajarilgan edi.

Loyihada quyidagilar ko'zda tutilgan: o'quv binosi, ma'muriyat, sport majmuasi, ovqatlanish bloki, ma'naviyat va ma'rifat markazi. Ichki hovli — yashil hudud, 2–5 kishilik xonalari bo'lgan zamonaviy yotoqxonalar majmui ham shu yerda. Bajarilgan loyihalar sinchiklab tekshirilgan va tegishli ishlovlar berilgandan keyin O'zbekiston Respublikasi Arxitektura va qurilish Davlat qo'mitasi va Vazirlar Mahkamasi qo'llab-quvvatladi. Barcha namunaviy loyihalar mamakat mintaqalarining jug'rofiy, demografik va ijtimoiy iqtisodiy xususiyatlari hisobga olinib, joyga tatbiq etildi.

300 o'rinli namunaviy loyiha asosida institut 1998–1999-yillarda Andijon viloyati Jalolquduq tumanida kasb-hunar kollejini loyihalashtirdi va bunyod etdi. Qurilgan inshoot a'lo sifatli qurilgani va yaxshi rejalashtirilgani bilan ajralib turadi (N. Kuranova).

Mutaxassisligi xizmatlar ko'rsatish sohasiga o'zgartirilgan kasb-hunar kollejarini ishlab chiqish «O'zgi prosuvqurilish» institutiga topshirilgan va ishlab chiqilgan edi, Arxitektura va qurilishi Davlat qo'mitasi esa 300, 450, 600, 750 va 900 o'quvchiga mo'ljallangan qator loyihalarni (arxitektorlar T. Maxsumov, A. Rakutin, Z. Mirzaliyeva va boshq.) tasdiqlangan va ular butun respublika bo'ylab qurilgan edi.

Andijondagi 300 o'rinli kasb-hunar kolleji shaharning markaziy shohrohi — Navoiy ko'chasida qurildi.

Bino bir-biriga zich tutashgan va atrofi berk ichki hovli yuzaga keltirgan 5 blok ko'rinishida bunyod etilgan. Birinchi blok — uch qavatli bino. Birinchi qavatda ma'muriy xo'jalik xonalari joylashgan. Ikkinchi va uchinchi qavatlarida — kutubxona, ijod kabinetlari hamda tajribaxona o'rin olgan. Ikkinchi blok — ikki qavatli u nazariy mashg'ulotlarga mo'ljallangan. Uchinchi blok ham ikki qavatli bo'lib, uning birinchi qavatida ustaxonalar, ikkinchi qavatida sport zali joylashgan. To'rtinchi ikki qavatli blokning birinchi qavatida oshxona, ikkinchi qavatida faollar zali joylashgan. Asosiy uch qavatli, muhtasham zinadan kiriladigan katta eshikli bino beshinchi kiriladigan katta eshikli bino beshinchi blokdan o'rin olgan: ikkinchi qavatda — kiyimxona, uchinchi qavatda kinoprojektsiyaxona va foye mavjud. Nogiron o'quvchilar uchun panduslar, liftlar ko'zda tutilgan. Barcha binolar g'ishtdan ko'tarilgan, ular devorlari pardozi zamonaviy pardozi ashyolaridan foydalanilgan.

Kollej umumta'lim, ijtimoiy va kasb-hunar texnika fanlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazishga mo'ljallangan: asbob-uskunalar hamda texnik apparatlar ta'miri va xizmati, jamoatchilik ovqatlanishi, ekologiya hamda atrof-muhit muhofazasi, reklama faoliyati va hokazolarni qamrab olgan.

Jizzaxning U. To'raqulov ko'chasidagi tashlandiq joyda 720 o'quvchiga mo'ljallangan sport kolleji qurildi, uning 102x72 m hajmdagi ko'pturli sport zali, ochiq havzasi va tennis korti bor. H.Nosirov ko'chasida pedagogika va san'at kasb-hunar kolleji, ko'r bolalar uchun maktab-iternat va Jizzax Oliy aviasiya bilim yurti bunyod etilgan.

Andijonda shaharning shimolidagi ko'rkam joyda qurilgan sport kolleji o'ziga xos arxitekturaviy-rejaviy yechimi bilan ajralib turadi (arxitektor G. Zavyalov, «O'zshaharsozlik»).

Majmua bir nechta bino va inshootlardan iborat bo'lib, 300 o'rinli o'quv binosi, 90 o'rinli bufetli oshxonasi, futbol maydoni va 1900 o'rinli minbari bo'lgan engil atletika manеji, yopiq va ochiq suzish

havzalari, tennis kortlari, voleybol hamda basketbol maydonchalari va boshqa zaruriy xonalarni o'z ichiga olgan.

Mazkur binolar arxitekturasi oddiy va ixcham, ularning devorlari faoliyat vazifasini hisobga olgan.

Intererlar ham zamonaviy an'anaviy usullarni hisobga olib hal etilgan. Masalan, o'quv binosida auditoriya va mashq zallaridan tashqari uch qavat derazali qishki bog', kiyimxona va engil atletika maneji va suzish havzalariga xizmat ko'rsatuvchi tibbiy-sanitariya qism loyihalashtirilgan. Dush va sanitariya tarmoqlari bo'lgan katta yechinish xonalari birinchi qavatda joylashgan.





Sharhlovchi xonachasi bo'lgan tomoshabinlar minbarlari minifutbol tomonga ko'ndalang holda joylashgan, ular tagidan texnik ishlarga mo'ljallangan xonalar, shuningdek kiyimxona va sanitariya tarmoqlari o'rin olgan xonalar tarkibi, ularning qulay joylashganligi bo'yicha mazkur kollej sport yo'nalishining barcha talablariga javob beradi.

O'zbekistonda respublika mustaqilligining birinchi kunlaridan boshlangan ta'lim sohasini takomillashtirish davom etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil «2004–2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirishning Davlat umummilliy Dasturi to'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2004–2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirishning Davlat umummilliy Dasturini ro'yobga chiqarish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risidagi» qarori bilan islohotlar o'tkazish yo'lining asosiy bo'g'ini sifatida, jamiyatdagi demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, respublikani jahon hamjamiyatiga yaqinlashtirishning zaruriy va muqarrar sharti sifatida ta'lim sohasini izchil isloh qilish bo'yicha maqsad va vazifalar aniq belgilab qo'yilgan. Dastur 9-sinf bitiruvchilarining muayyan kasbning umumiy o'rta ta'limi bilan bir qatorda kasb ta'limi tizimini to'la qamrab olishini belgilaydi.

Umumta'lim maktablarini yangidan qurish va qayta tiklash uchun Arxetektura va Davlat qurilish qo'mitasi rahbarligi ostida «O'zLITTI» instituti boshqa institutlar bilan birgalikda loyihalashtirishning O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasdiqlagan va tegishli tashkilotlar bilan kelishilgan VSN 1-04 «Umumta'lim maktablari va maktab-internatlar» idoraviy qurilish me'yorlari ishlab chiqilgan edi. Me'yorlarni R. Akromov, T. Zimakova, A. Kovalev, M. Qo'chqorova, A. Mahkamov, N. Mahkamov, M. Umarov va boshqalar ishlab chiqqanlar.

Maktab ta'limini rivojlantirish Dasturini ro'yobga chiqarish doirasida shu institut yangi umumta'lim maktablari loyihalarini chiqardi.



**Andijon. Sport kolleji loyihasi, 2004–2005-yy.
«O‘zshaharsozlik» instituti.**

Shahar qurilishi uchun yangi umumta’lim maktabining namunaviy loyihasi VSN 1-04 ga muvofiq bir sinfda 35 o‘quvchi bo‘lgan holda 1 dan 9-sinfgacha uch davra o‘quvchilariga ishlab chiqilgan. Maktabning hisobli quvvati 945 o‘quvchili 27 sinfdan iborat.

Maktabning hajm-reja tuzilishi g'oyat ixcham hal etilgan: o'quv va ma'muriy maishiy xonalar ichki hovlisi bo'lgan 3 qavatli blokda joylashgan; bino eshigining markaziy o'qi bo'ylab 2 qavatli zal blok joylashgan: birinchi qavatda oshxona va o'quv ustaxonalari, ikkinchi qavatda – faollar zali, katta va kichik sport zallari o'rin olgan. Bloklar chambarchas bog'langan holda o'quv xonalari «sershovqin» umum-maktab xonalaridan iloji boricha uzoqqa olingan.

Markaziy o'q bo'ylab joylashgan binoning vestibul-foyesi kengligi ikki yo'lli katta zinasi bo'lgan ostin-ustun derazadan iborat. Vestibul foyni markazda joylashuvi maktab binosida adashmay yurish imkonini beradi va asosiy xonalar oralig'idagi eng qisqa aloqani ta'minlaydi.

O'ziga xos yashil voha maktabning obod va asosiy ichki hovlisi hisoblanadi. U xonalarni tabiiy yorug'lik va g'irillagan shamol bilan ta'minlaydi. Maktab binosining old devoriga bezak namunalari bo'lgan naqshlar bilan jilo berilgan. Ichki hovliga o'tadigan yo'l bo'lib, undan maktab binosiga olib kiradigan markaziy eshikka o'tiladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda qator oliy o'quv yurtlari barpo etildi, Navoiy davlat tog'-kon instituti, Samarqand chet tillar davlat instituti, Termiz, Urganch davlat universitetlari, Xalqaro iqtisodiyot va diplomatiya universiteti va boshqalar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining istiqbolni hisobga olib kadrlar tayyorlash, shuningdek Rossiya bilan do'stlik va hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha uzoqni ko'zlovchi siyosatining ijobiy natijalaridan biri – bu Toshkentda Lomonosov nomidagi MDU filiali ochilishi bo'ldi.

Moskva davlat universiteti filiali binosi Toshkent shahrining markaziy qismida Toshkent avtoyo'llar instituti va Chexov ko'chasi orasida Movarounnahr ko'chasida joylashgan (arxitektor M. Shagayev, 2005-y.) va Movarounnahr ko'chasi bo'ylab saf tortgan olti to'rtburchakli blokdan tashkil topgan. Uning umumiy uzunligi 199,3 m. Bino bloklari bir-biridan deformasion choklar bilan ajratilgan. Bloklar shartli ravishda «A» dan «E» gacha harflar bilan belgilangan.

Arxitektoriy bus-butunlikni ta'minlash uchun bloklarni jiddiy qayta qurildi va loyihalashtirildi, chunki inshoot ilgari yig'ma temir-beton qurilmadagi 815 o'quvchiga mo'ljallangan Akademik lisey sifatida loyihalashtirilgan edi.

Uch qavatli «A» blokida psixologiya fakultet (1–2 qavat) va yordamchi xonalari bo'lgan kutubxona (3 qavat) joylashgan. «B» bloki


ham uch qavatli bo'lib, unda vestibyul va eshiklar (1 qavat). Shuningdek, lingofonli uslubiyot kabinetlari joylashgan (1-3 qavatlar).

Amaliy matematika va axborot fakulteti (1-2 qavat) hamda kompyuter zallari (3 qavat) hammasi birgalikda uch qavatli «V» blokda joylashgan. Uch qavatli «G» blokida talabalar uchun sport zalida (poydevor qavatda) echinish xonasi, kafedralar (1,3 qavatlar), tibbiy xizmat ko'rsatish kabinetlari (1 qavat), bufet o'rin olgan.

Sport zali, 120 o'rinli minbar va 300 o'rinli faollar zali ikki qavatli «D» blokda joylashgan, to'rt qavatli «E» blokida filial rahbariyati (3-4 qavatlar), dekanatlar va kafedralar (1,2 qavatlar) joylashgan. Shunday qilib, barcha zaruriy xonalar bir-birlari bilan qulay tutashgan holda bloklar bo'ylab g'oyat muvaffaqiyatli joylashtirilgan.

Fasadlar va intererlar echimi rus mumtoz usulida loyihalashtirish vazifasiga ko'ra ado etilgan. Bu yerda shuni ta'kidlash joizki, mazkur vazifa Fedorovich nomidagi shifoxona binosi bilan yaxshi uyg'unlashgan. Shifoxona ko'chaniq qarshi yuzida joylashgan bo'lib, u ham mumtoz rus uslubida bunyod etilgan. Qurilishning sifati yaxshiligi, zamonaviy jihoz va o'quv jarayonining aloqa hamda axborot eng yangi texnik elektron uslublari bilan tashkil etilganligi e'tiborga molik.

Filialning obod hududi o'quv qismi, o'qituvchilar mehmonxonasi, sport zonasi va avtomobil garajini o'z ichiga olgan.



Toshkent. Lomonosov nomidagi MDU filiali, 2005-y.
Arxitektor M. Shagayev.

Sport-sog'lomlashtirish majmualari

Yosh avlod ma'naviy jihatdangina emas, balki jismoniy jihatdan ham rivojlangan bo'lishi kerak. Mustaqillik yillarida Toshkentda va butun respublikada sport inshootlari qurilishlari keng avj oldi. Badan-

tarbiya va sport mashg'ulotlari uchun barcha sharoitlar yaratildi. Yangi tipda yaratilayotgan har bir o'quv yurti — kollejda va liseyda yopiq sport zallari, futbol, voleybol va basketbol maydonchalari, tennis kortlari qurilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentimiz tashabbusi bilan so'nggi yillarda Toshkentda qurilgan «Yunusobod», «Jar», Milliy bank sport majmualari jahon andozalari talabiga mos keladi, ularda muntazam jahon va qit'alararo musobaqalar, turli xalqaro bellashuvlar o'tkazib kelinmoqda. «Yunusobod» tennis korti tennis bo'yicha yirik xalqaro musobaqalar, jumladan «Prezident kubogi» musobaqasi o'tkazish uchun mavjud «Yunusobod» sport majmui hududida qurildi («Toshkentboshreja», 1997-y.).

Bino rejada burchaklari aylana to'rtburchak shaklga ega va markazida o'yingohi bo'lgan 3500 o'rinli minbarga ega zaldan iborat. Zal aylanasi bo'ylab ikki qavatli halqa ayvonchalar o'tgan, ulardan dam olish uchun ham, tomoshabinlarga xizmat ko'rsatadigan bufetlarni joylashtirish uchun ham foydalanish mumkin. Tribunalar tagidagi hududda vestibyullar, garderoblar, sportchilar xonalari, shuningdek ma'muriy texnik xonalar joylashgan. Bino qoplamasi umuman plastik buklama shaklga ega bo'lib, nur o'tkazuvchi «sutrang» leksandan yasalgan arkli gumbazni tashkil etgan. Tomning markaziy qismi ikkiga bo'lingan, zarurat tug'ilganda ular yotiq yo'nalishda qurilishi mumkin.


Bino uzunasi bo'ylab tayanch tuzilma asosining muvaffaqiyatli yechimi, butun bino plastikasi, yorug'lik kiradigan o'yiqlar uning g'ayrioddiy arxitekturaviy qiyofa kasb etishiga, qandaydir samoviy inshoot yoki sirli mavjudotga o'xshab ketishiga olib kelgan.

Bino sportchi va tomoshabinlar yuksak bahosiga sazovor bo'ldi, ular musobaqalar o'tkazilayotgandagi uning amaliy xizmat ko'rsatish va badiiy sifatlarini ta'kidladilar. Sport tadbirlari tennis turnirlari bilan chegaralanib qolmaydi, ular yana mumtoz va milliy kurashni, boksni va sportning boshqa turlarini o'z ichiga oladi.

Zamonaviy tennis kortlari Andijon, Namangan, Jizzax, Qarshi va boshqa viloyat markazlarida ham bunyod etilgan.

Toshkentdagi «Jar» sport-sog'lomlashtirish majmui («O'zLITTI» loyihasi bo'yicha) Chorsu atrofida qurilgan bo'lib respublika va xalqaro ahamiyatidagi musobaqalar o'tkazishni, shuningdek tuman aholisi bilan ishlarni tashkil etishni hisobga olib ko'pyoqlama yo'nalishga ega.

Majmua bir necha blokdan iborat: sport zallari va havzalari bo'lgan asosiy to'rt qavatli bino, 10 ming tomoshabinga mo'ljallangan minbarli futbol o'yingohi, 1 ming tomoshabinga mo'ljallangan minbarli ochiq



Toshkent. Yunusobod yopiq tennis korti. 1997-y.
«Toshkentboshreja» instituti.

tennis kortlari, 2 ming tomoshabinga mo'ljallangan engil atletika o'yingohi, ikki qavatli ma'muriy-xo'jalik bloki va 4 ga lik hududga ega bog' maydoni.

Asosiy binoda – bino tomosha majmui blokida xonalari bo'lgan uch qavatli atrium vestibyuli bo'lib, asosiy tomosha zallariga xizmat qiladi, ular: 1 ming tomoshabinga mo'ljallangan tennis zali, 800 tomoshabinli boks zali, 850 tomoshabinli kurash (turli ko'rinishdagi) zali va 200 o'rinli matbuot zali. Asosiy vestibyul bilan birga kassa vestibyuli, tomoshabinlar uchun bufet, garderob, sanitariya tarmog'i, shuningdek mehmonlar xonalari, matbuot markazi, ma'muriyat xonalari poydevor qavatda joylashgan.

Sog'lomlashtirish badantarbiyasi bilan shug'ullanuvchi aholi va sportchilar xonalari sportchilariga ostin-ustun derazali vestibyulida

joylashgan bo'lib, unga ichki yarim ochiq hovlichadan kiriladi. Xonalarining bu guruhida 24x12 hajmdagi 5 mashq va trenajyorlik zallari birlashgan bo'lib, o'z yechinish xonalari va asosiy tomosha zallariga (boks, tennis, kurash) va suv havzalariga ega; murabbiylar tarkibi, hakamlar, ma'muriyat xonalari ham shu yerda.

Havzalar blokida 25x50 hajmli, iliq suvli ochiq sport havzasi bo'lib, suvga sakrash minorachasi, 1000 o'rinli minbar, shuningdek ikki kichik yopiq havza bilan jihozlangan; shifobaxsh suzish uchun 6x16 m hajmdagi vanna, bolalarni o'rgatish uchun 6x16 m hajmdagi vanna ham shu tarkibga kiradi.


Barcha uchala havza tegishli mashq zallari va xizmat ko'rsatish xonalari bo'lgan xizmat texnologik aloqaga ega.

Tibbiyot xonalari o'z kirish yo'li, ro'yxatga olish vestibulyga ega bo'lib, turli ixtisosdagi shifokorlarning bemorlarni qabul qilish, tashxis (diagnostika) qo'yishi, fizioterapevtik amallar o'tkazishga mo'ljallangan, jakuzi vannali sauna ham shu yerda joylashgan.

Sport markazining umumiy ovqatlanish xonalari: 200 o'rinli qahvaxona, bufet va bar vazifasi, texnologik yechimlari, arxitekturaviy-rejaviy vazifalari bo'yicha ko'pyoqlamalidir.

Bu yerda shu guruh xonalari: yukxonalar, oshxonalar, sexlar, yuk ortish xonalari xizmat ko'rsatishning yagona blokiga birlashtirilgan.

10 ming tomoshabinga mo'ljallangan futbol o'yingohi minbarlari ko'rinishi va o'lchamlari qaysidir darajada hududning geologik tuzilishidan



Toshkent. «Jar» sport majmuasi. «O'zlitTI» instituti.

kelib chiqqan. O'yingohning har ikkala minbari soyabonli tomga ega, minbarosti bo'shliqda uning zaruriy xonalari – ma'muriyatdan tortib trenajer zallari va mehmonlar xonalarigacha barchasi joylashgan.

1000 tomoshabingsha mo'ljallangan ochiq tennis kortlari majmua hududining shimolida joylashgan. Soyabonli tomga ega minbarosti bo'shliqda yechinish xonalari, murabbiylar va ma'muriyat xonalari joylashgan. O'yin maydonida 5 kort o'rin olgan. 2000 tomoshabinga mo'ljallangan yengil atletika o'yingohi majmua hududining g'arbida joylashgan, u shu yerdagi murakkab yer tuzilishiga yaxshi kirishib ketgan. O'yingoh yordamchi va ma'muriy xonalari ikki qavatli binoda joylashgan bo'lib, soyabonli hakamlar ayvonchasi shunga tutashgan.

Toshkentning Chilonzor tumani, Istiqlol ko'chasi bo'ylab joylashgan bog' hududidagi Olimpiya majmui loyihasi o'ziga xos (arxitektor V. Akopjanyan, 1999-y.). Bu yerda o'yingoh va ochiq havodagi ikkinchi vannali yopiq suzish havzasi ishlab turibdi.

Majmua tarkibiga 22 ming tomoshabinga mo'ljallangan universal sport zali, sportchilar uchun yopiq havzali, matbuot markazli, matbuot zali va restoranli mehmonxona majmui kiradi. Bundan tashqari, bu yerda matbuot xonalari bo'lgan ma'muriy bino ko'zda tutilgan. Qubba tomli universal zalining dumaloq binosi, butun majmua kompozitsiyasi markazi hisoblanadi. Maydon tor bo'lgani bois o'yingohning minbarosti bo'shlig'idan iloji boricha ko'proq foydalanilgan, bu yerda mashq zallari, sportchilar xonalari, tomoshabinlarga xizmat ko'rsatish xonalari mavjud, yerosti bo'shliq esa garajlar va avtostoyankaga mo'ljallangan. Bunday echim tufayli ko'm-ko'k xiyobon va muzdey favvoralar uchun ko'proq ochiq kenglik qoladi.

Shunisi diqqatga sazovorki, ko'plab sport majmualari tubdan qayta qurilmoqda, zamonning yangi talablariga ko'ra kengaytirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 24-oktyabrdagi «O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish fondini tuzish to'g'risida»gi farmoni va hukumatning 2002-yil 31-oktyabrdagi «O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish fondi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarori munosabati bilan bolalar sporti majmualari asosiy namunaviy loyihalari buyurtmachisi qilib yuqorida tilga olingan fond belgilandi, bosh loyiha tashkiloti vazifasi O'zLITTI zimmasiga yuklatildi va unda talay ishlar qilindi.

Birinchidan, bolalar sporti majmualarini shakllantirish bo'yicha arxitekturaviy hujjatlar tayyorlandi va besh namunaviy bolalar sporti majmualari ishlab chiqildi: shahar va qishloq aholi manzilgohlari uchun

(Namuna 1). Qishloq aholi manzilgohlari uchun (Namuna 2), ochiq havzasi bo'lgan shahar va tuman markazlari uchun (Namuna 3), yopiq havzasi bo'lgan shahar va qishloq markazlari uchun (Namuna 4), shuningdek mahalla bolalar sport majmuasi uchun (Namuna 5).

Hozirgi vaqtda namunaviy loyihalarni loyihalashtirish, shuningdek bir qancha loyihalarni Qashqadaryo viloyati va respublikaning boshqa viloyatlaridagi inshootlarga maslashtirish bo'yicha ishlar keng quloch yoygan (arxitektorlar: S. Xo'jayev, L. Muhamedshin, S. Tursunbayeva, T. Zimakova, R. Safina). Namangan shahar «Do'stlik» shohroxidagi «Pahlavon» sport-sog'lomlashtirish majmui (arxitektor D. Toshpo'latov, 1998-y.) turli musobaqalar o'tkazish va aholini sog'lomlashtirish uchun zarur bir qancha inshootlardan iborat.

Majmuaning asosiy inshooti – bu 1200 o'rinli 60,0x26,0 li o'lchamli yopiq zal bo'lib, minifutbol, basketbol, tennis, boks bo'yicha respublika miqyosidagi sport musobaqalari o'tkazishga mo'ljallangan 17,3 m balandlikdagi yopiq zal temir sinchdan yasalgan yarim aylana qoplamasi arkli ferma bilan yopilgan (uzunasi 45,0 m) va leksan bilan pardoz berilgan.

Majmua hududida 50,0x25,0 o'lchamli 800 o'ringa mo'ljallangan minbarli sport suzish havzasi, shuningdek bolalar o'quv suzish havzasi qulay joylashgan. 150 o'rinli qahvaxona, 20 o'rinli mehmonxona, restoranli foye va boshqa xonalar uch tomoni yopiq zal bilan o'ralgan alohida ikki qavatli binolarga ajratilgan, u erda majmuaning asosiy sport inshootlari bilan qulay aloqqa tashkil etilgan.

Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi Suv sporti saroyi («Toshkentboshreja») 60x120 m gabaritli murakkab binoni o'zida namoyon etadi. Suzish havzasida xalqaro miqyosidagi sportning suv turlari bo'yicha yirik sport musobaqalari o'tkazishga mo'ljallangan.

Musobaqalar o'tkazish uchun havzaning asosiy xonasida quyidagilar har birida 1,5 m keladigan 10 yo'lga 25x50 m li havza vannasi, trampoline va minorachadan sakrash uchun 21x7,5 m li sakrash vannasi joylashgan.

Yirik xalqaro musobaqalar o'tkazishdan tashqari suzish havzasi sportning suv turlari bilan ommaviy mashg'ulotlarga mo'ljallangan va sportimizni rivojlantirish, respublikamizning sog'lom avlodini tarbiyalash va rivojlantirish uchun hamma vaqt ochiq.

Hisob-kitobga ko'ra suzish havzasi har kuni soatiga 220 odam qabul qila oladi, trenajer zali va saunani hisobga olsa soatiga 300 odam to'g'ri keladi.

Sport musobaqalari ko'rigi uchun havzada barqaror minbarlar ko'zda tutilgan: g'arbiy va sharqiy minbarning har biri 800 o'rinli.

Sharqiy minbarning 4,8 m balandligida mehmonlar, matbuot uchun VIP minbarlar va sharhlovchilar xonachalari joylashtirilgan. Sportchilar va tomoshabinlar uchun alohida qulay yechinish xonalari, sanatoriya tarmoqlari, dushxonalar hamda yirik xalqaro musobaqalar o'tkazish uchun zaruriy boshqa xonalar mavjud. Shunisi diqatga molikki, binoda nogironlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha barcha qulayliklar ko'zda tutilgan.

Zamonaviy chet el texnologiyasini qo'llash va yopiq havza jihozlari sport arenasining sport suv turlari xalqaro federasiyasining barcha talablariga javob beruvchi jahon miqyosidagi maqomini olishga imkon beradi.

O'z yangiligi va texnologik jihozlanishi bo'yicha mazkur suzish havzasi Markaziy Osiyoning butun hududida yagonadir.

Mustaqillik yillarida kollejar, maktablar, sport majmualari bilan bir qatorda qulay rejali, yaxshi dizayner bezakli, jahon andozalariga javob beruvchi yangi va tabiiy ashyolar ishlatilgan yirik savdo majmualari, «supermarket»lar qurildi. «ARDUS», «Toshkent PLAZA» savdo markazi supermarketlari, Toshkentdagi sobiq GUMning qayta tiklangan inshooti, O'zbekiston viloyatlarida qurilgan ko'plab savdo majmualari arxitekturaviy reja va dizaynerlik yechimlarga yangicha yondoshuvga misol bo'lib xizmat qilishi mumkin. Xaridorning bemaolof mol tanlashi, oziq-ovqat mahsulotlari, xo'jalik va sanoat mollarining keng assortimenti, ularning peshtaxtalarga xillari bilan alohida qo'yilishi, barcha zaruriy asbob-uskunalar bilan jihozlanishi, yop-yorug' intererlar, eng yangi dizaynerlik bezaklar bu savdo majmualari do'konlarining yangicha yondoshuvini rejalashtirishning o'ziga xos usullari sanaladi.

Bozorlarning arxitekturaviy yangilanishi. *Iqtisodiy islohotlar jarayonida butun respublika bo'ylab buyum va dehqon bozorlari qurish hamda qayta tiklash muhim omil bo'lib qoldi. Bozor har doim sharqona shaharni tashkil etuvchi vosita bo'lib kelgan.*

Tarixiy shaharlar Samarqand, Buxoro, Toshkent o'zlarining rang-barang bozorlari bilan shuhrat qozongan. Buxoroning yirik savdo majmualari Shahrston markazi majmuini yuzaga keltirgan. Bu Buxoroning XV asrga oid yirik savdo rastasi – Toqi Zargaron bo'lib, ko'pqubballi ayvondan iborat, yorug' va havodor. Buxorodagi savdo inshootlari asosiy ko'chalar chorrahalarida joylashgan, chorraha-guzarlar yoqalab asosan savdo rastalari tizilib ketgan. Toshkent bozorlari ham mashhur, shulardan Eski Juva eski shahar markazidan o'rin olgan bo'lib, savdo yo'llari kesishgan tarmoq hisoblangan.

Eski shahar bozori rejası — bir qismi yopiq ko‘cha savdolarini yuzaga keltiruvchi rastalari bo‘lib, Toshkent tabiati va iqlimi xususiyatlarini hisobga olgan.

Xuddi ichkaridagi kabi bozor atrofida ham choyxonalar, ustaxonalar, temirchilar, sopolchilar, zargarlar, to‘quvchilar, gilamdo‘zlar, egarchilar, do‘ppifurushlar va karvonsaroylarning ko‘p miqdorda bo‘lishi tarixiy bozorlarga xos xususiyat sanaladi.



Inshootning bu an‘anaviy namunasi O‘zbekiston mustaqilligi yillarida yangidan uyg‘ondi. Respublikaning barcha bozorlari qisqa mudatda qayta tiklandi, kengaytirildi va obodonlashtirildi. Namangan shahrida uni Farg‘ona, Andijon, Marg‘ilon, Qo‘qon va boshqa shaharlar bilan ulaydigan Katta shohroh ostonsida qurilgan «Jahon bozori» (arxitektor N. Fafurov, 1998–1999-y.) barpo etish an‘analarning vorisiy rivojlanishi sanaladi. 20 gektar yerni egallagan bu usti yopiq bozor yangi qurilmalar va qurilish ashyolari ishlatilgan barcha qulayliklar bilan jihozlangan.

Andijon tumanidagi boshqa «Jahon bozori» ham katta hududni egallagan (21 ga) va aylanma yo‘lining shundoq yonida qurilgan (arxitektor Ch. Qayumov, 1993–1995-yy). Bozorning bir qancha savdo guruhlariga bo‘lingan majmui choyxona, oshxona va qahvaxona kabi alohida ovqatlanish bloklariga ega. Majmua markaziy qismidan o‘tuvchi bulvar-yo‘llar savdo guruhlarini ajratib turadi, bu ulardan foydalanishda qulaylik tug‘diradi.

Toshkent-Samarqand yo‘nalishidagi yo‘lda bunyod etilgan «Ulgurji bozor» hajm-reja yechimining mahobati bilan ajralib turadi (mualliflar A. Saakyan, S. Azizov, S. Abdurahmonov, 1999-y.). Bozor hududi 4,5 ga, unga uch arkli darvozadan kiriladai. Kompozisiya markazini leksan gumbaz bilan yopilgan savdo zali tashkil qiladi.

Shahar bo‘sasidagi bozor alohida ahamiyatga ega, shulardan eng yirigi Bektemir (Qo‘yliq) tarmog‘i hisoblanadi. Yangi bozor majmui shahardan chiqaverishda joylashgan. Bozor qurilishi shu zonada Chirchiq daryosi o‘zanini boshqarish bo‘yicha tadbirlarni ro‘yobga chiqarishga turtki berdi.

Bektemir «Dehqon bozori» («Toshkent boshreja» instituti) 15000 m² ni tashkil etadi. U eni 12 m bir-birini kesib o‘tuvchi yopiq savdo ko‘chalaridan iborat bo‘lib, savdo rastalari shu ko‘cha yoqalarida joylashgan. Ko‘chalarning kesishgan joylarida favvorali maydonchalar bo‘lib, ko‘kalamzorlashtirilgan va dam olish joylariga aylantirilgan. Ko‘cha darvozalari baland serbezak va hashamdor arklar ko‘rinishidadir.



Shahar bozorlarining ta'mirlanishi. Bektimir bozori umumiy ko'rinishi, intereri (chapda) va Andijon dehqon bozori (o'ngda).

Bozor uzunasi bo'ylab do'konlarning ikki qavatli binolari, xizmat ko'rsatish inshootlari va boshqa yordamchi xonalar joylashgan.

Tuzilma tizimi temir-beton sinchdan iborat bo'lib, usti arksimon keramzit-beton panellar bilan yopilgan. Ko'chalar ustidan nur o'tkazgich qoplamali temir ark fermalari yotqizib chiqilgan.

So'nggi yillarda Toshkentning Mirobod, Oloy, Parkent, Yunusobod va O'zbekistonning viloyat markazlaridagi boshqa bozorlar ham milliy arxitektura an'analari qurilgan.

Biroq an'anaviy «ustaxona do'konlar», yozgi shinam savdo joylari, hovuz apriqli an'anaviy choyxonalar, milliy naqshlar bilan bezatilgan va ko'kalamzorlashtirilgan hordiq chiqarish maskanlari yo'qligidan mazkur keng-kovul va mahobatli bozorlar O'zbekiston sharoitiga o'ziga xos xususiyatlarga javob bermaydi. Beton, temir qurilmalar va boshqa zamonaviy qurilish ashyolari yoz jazirasida qattiq qizib ketadi, sotuvchi uchun ham, xaridor uchun ham noqulaylik tug'diradi.

3.4. Turar-joy arxitekturasi

O'zbekiston taraqqiyotining yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari ijtimoiy muammolarni va ularning yechimlarini har taraflama yangicha fikrlash vazifasini ko'ndalang qo'ydi. Yashash muhitini ekologik va estetik sohlomlashtirish, aholi turmush sharoitlari hamda xizmat ko'rsatishni yaxshilash eng birinchi ustuvor jihatlariga kiradi. Aholi turmush darajasini oshirish va birinchi galda uni turar-joy bilan ta'minlash muammosi O'zbekiston Respublikasi Hukumati diqqat markazida alohida o'rin tutadi. Respublika mustaqilligi e'lon qilinganining birinchi yiliyiq uning aholisiga uy qurish uchun o'n minglab yer maydonlari berildi. Ko'plab uy quruvchilar uzoq muddatli qarzarlar, shuningdek zaruriy qurilish ashyolari va buyumlari bilan ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasining 1994 yildan joriy etilgan yangi arxitekturaviy hujjatlarida turar-joy ta'minotining eng kichik me'yorlari kishi boshiga 16–18 kv.m gacha ko'tarildi va xususiy turar-joy maydoniga joriy etilgan barcha cheklovlar olib tashlandi, ya'ni u ehtiyoj talabi va uy egasining moddiy imkoniyati darajasigacha ko'rsatish mumkin bo'ldi.

O'zLITTI mutaxassislari Respublikaning tegishli tashkilotlari bilan «Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida turar-joyni loyihalashtirish va qurilishning muayyan qoidalari»ni ishlab chiqdilar. Ularning mohiyati mintaqa sharoitlari, turli ijtimoiy guruhlar turmush tarzi, ular ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olib turar-joyning me'yorlashtirilishi va

arxitekturaviy-rejaviy yechimlariga turli tomondan turib yondoshuvdan iborat.

Turar-joy qurilishida bugungi kunda yaxshi rejalashtirilgan xonadonli turarjoy uylarining loyihalari alohida o'rin egallaydi. Bu uylar arxitekturaviy-rejaviy yechimi xususiy buyurtmachilar talab va ehtiyojlariga javob beradi.

Rejada bir-biri bilan tutashgan uch, yetti qavatli turar-joy uylaridan iborat, Qunayev ko'chasida bunyod etilgan turar-joy majmui yaxshi rejalashtirishga misol bo'la oladi («Toshgiprogor», arxitektor A. Prishchep). 7 qavatli g'ishtin sinchli, birinchi qavatida ijtimoiy-madaniy maishiy inshootlari bo'lgan turar-joy uylari 6 xonali (6 ta), 5 (6 ta) va asosan 3 xonali (12 ta) xonali jami 36 xonadondan iborat.

Har bir xonadonda quyidagilar bor: omborxonona, mehmonlar hojatxonasi, sanitariya asbob-uskunalarini bekamu ko'st ikkitadan vannaxona. Har bir xonadonning bir-ikkitadan ochiq balkoni bor. Poydevor qavatini yengil mashina garajini bo'lib xizmat qiladi.

Unda yana issiqlik tarmog'i, tokda va nasosda ishlaydigan o't o'chirish qurilmasi mavjud. Poydevor qavatda panduslarga chiqish joylari bor. Birinchi qavatda do'kon va yordamchi xonalar joylashgan.

Fasadlar butun uzunasi bo'ylab arxitekturaviy shakllarga ega: balkonlar, erkerlar, panjaralar, yarim chiqiq ustunlar butun turar-joy majmuiga jozibador ko'rinish bag'ishlaydi. Fasadlar pardoz g'ishtlardan ko'tarilgan bo'lib, a'lo sifatli bo'yoqlarga bo'yalgan. Poydevor qavat va birinchi qavat qizil-jigarrang tusdagi silliq granit plita (taxtacha)lar bilan qoplangan.




Xonadonlar 2 hududga bo'lingan: mehmonxonona hamda oshxonani o'z ichiga olgan jamoat hududi hamda sanitariya tarmog'i va yotoqxonona balkonini o'z ichiga olgan shaxsiy hudud. Ularni katta xoll va yo'lak ajratib turadi.

Xonadonlarda balkonlar ko'zda tutilgan. Zina qafasida lift yurib turadi. Har bir uyda texnik tagxonona, chordoq bor. Har bir uyni tagxonasida elektr shchiti va issiq suv o'lchagichi ko'zda tutilgan.

Qavatlarining barcha rejalari buyurtmachi bilan kelishilgan. Old fasadlar Qunayev ko'chasi va Qunayev proyezdiga qaragan.

Poydevor qavatda joylashgan garajga 1 va 3 uylarning biqin tomonidagi pandus (qiyalik)lardan kirib kelinadi.

Asosiy bino qizil chiziqdan chetiroqda kompozision va shaharsozlik talablari hisobga olib joylashtirilgan.



Toshkent. Qunayev ko'chasidagi yanada yaxshilangan rejali turar-joy majmui. «Toshgiprogor» instituti.

Hovli mayda-mayda arxitekturaviy shakllar bilan jihozlangan. Axlal to'plash maydonchasi va avtomashinalar uchun ochiq maydonchalar ko'zda tutilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, bu erda nogironlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha tadbir-qulayliklar ko'zda tutilgan: turar-joy uylari va do'konlarga kiraverishda 1:12 dan ortiq bo'lmagan qiyalik 5 foizdan oshmaydi; piyodalar yo'llari kesishgan joylarda qirg'oq toshi balandligi 4 sm dan ortiq emas; turar-joy majmui hududida dam olish joylari mavjud. Loyihada fasad yonida shovqinni pasaytirish choralari ko'rilgan, shovqinni yutish uchun shisha paxtali plastmassa bo'laklari o'rnatilgan.

«O'zturar-joy omonat banki» uchun DSK-1 buyumlari asosida yaxshi rejali 9 qavatli turar-joylar ishlab chiqilgan edi («Toshgiprogor», arxitektor M. Burlakov), ular Toshkentning Qatortol ko'chasi, yaqinda temir yo'l vokzali atrofida qad ko'targan. Turar-joy uylari ikki blok seksiyadan iborat (biqin tomonlari bo'ylab tutashtirilishi ehtimoli bilan). Har bir blok-seksiyada yaxshi rejali 18 xonadon mavjud.

Masalan, to'rt xonali xonalarda qulay joylashgan keng dahliz, katta-katta xonalar, keng-keng ayvonu balkonlar (turar-joy maydoni 91 kv.m, maydoni bo'lib 160 kv.m) Barcha xonadonlardan g'irillab shamol yurib turadi, oshxona va sanitariya tarmoqlarida parraklar o'rnatilgan, ayvoni oynavand. Har bir blok-seksiyada yo'lovchi lifti, birinchi qavatda axlat quvuri mavjud.

To'rt qavatli g'ishtin turar-joy uylari Toshkentning «eski shahar qismida Huvaydo-Forobiy Gaydar, Qamarniso ko'chalari, 10-shaha kasalxonasi yaqinidagi Muxbir ko'chasida va hokazolarda qurilgan «O'zturar joy omonat banki» uchun yaxshi rejalarda ishlab chiqilgan («Toshgiprogor», arxitektorlar M. Burlakov, E. Kondakova, 1996-1998-yy.). Uch va to'rt xonali turar-joy uyi seksiyasi 16 xonadong; mo'ljallangan.

Ikki xonali seksiya pod'ezdlidir. Har bir pod'ezd qavatida ikkitadar xonadon joylashgan, ular qulay, ixcham rejalashtirilgan, barcha xonalar mehmonxona, oshxona, yotoqxona, sanitariya tarmoqlari joy joyig; qo'yilgan. Uch xonali xonadonning turar-joy maydoni 59,91m² umumiy maydoni esa 103,6 m², qavat balandligi erdan shiftgacha 3,1 m ni tashkil etadi. Zotan bunday xonadonlar O'zbekiston iqlim sharoit hisobga olingan aholi talablariga to'la javob beradi.

Toshkent misolida tarixiy muhitni yangilash «eski» shahar hayotigi nisbatan mustaqil O'zbekistonning yangi, insonparvar siyosatiga yorqir misol bo'lib xizmat qiladi.


Eski shahar aholisini uning yangi uylari doirasida joylashtirish, aholi ijtimoiy demografik tuzilmasini saqlash, Mahalla tizimi tamoyillarini tiklash, eski shahar hududidan, shohroklar va shahar muassasalaridan o'zini o'zi boshqarish tamoyili bo'yicha zamonaviy ruhda foydalanish vazifasini ko'ndalang qo'yadi.

Eski Toshkentning Shimoli-g'arbiy, Shahriston, Olmazor, O'qchi, Qoratosh qismlari tubdan qayta tiklanmoqda.

Parti ketib, sharti qolgan turar-joy hududlarda ko'pqavatli kottejlar, ko'p xonadonli turar-joy uylari, bolalar bog'chalari, savdo muassasalari qurilmoqda.

Guzarlar, masjidlar, mahalla markuzlari qayta tiklanmoqda; mahalla bo'lib yashash, turar-joy fondi tuzilishi va arxitekturaviy-badiiy ko'rinishini takomillashtirish, uni zamonaviy muhandislik kommunikasiyalari va madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish tizimi bilan ta'minlash, ya'ni iloji boricha xaroba uylarni yiqitib, o'z vaqtida obodonlashtirish va qayta qurish ko'zda tutilgan.

O'qchi-Olmazor hududi qayta tiklandi, u yerda maydoni turlicha bo'lgan jami 8: Devonbegi, Egarchi, Olmazor, Qoratosh, Xizmatchi, 5-mergancha, O'qchi va Shodlik mahallalari joylashgan. Qayta tiklash loyihasida aholini joylashtirish mahalla tizimi tashkil etilgan. Devonbegi va Egarchi mahallalari turar-joy uylari rejasi eng muvaffaqiyatli hal etilgan hamda saqlab qolingan.



Toshkent. «Eski shahar» qismning batafsil rejasi,
«Toshkentbunhreju» instituti.

Toshkentning yirik tarixiy majmualaridan biri Suzukota mahallasining qayta tiklanishi favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududda 9 arxitekturaviy yodgorlik mavjud, jumladan Suzukota masjidi, Suzukota maqbarasi, Mirlar masjidi, Cho'ponota masjidi va hokazo. Bundan tashqari xalq arxitekturasi yodgorligi sifatida Madaniyat vazirligi nazoratidagi turar-joy uylari mavjud.

Turar-joy fondining umumiy yoshi taxminan 70–80 yilga boradi, biroq mahallaning rejayiviy tuzilishi uzoq asrlarga borib taqaladi. Arxitektorchilik yodgorliklari yoshi 100 dan 500 yilgacha boradi.

Suzukota mahallasi turar-joyi o'z hajm reja ma'lumotlari bo'yicha iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik xususiyatiga ko'ra bir qancha kichik guruhlariga bo'linadi. Masalan, joylar rejasida bir-ikki va uch hovlilari xo'jaliklar ko'zda tutiladi, ularda birinchisi tashqari hovli bo'lib, uy gasi undan kasb-korini yuritish, amaliy uchrashuvlar o'tkazish, bitimlar tuzish, mehmonlarni kutib olish va boshqa umumoiaviy ishlarni bajarishda foydalangan. Shu erda ishchi xonalar, mehmonxona, shuningdek, omborxonalar va otxona joylashgan. Bular bari – dahlizli mehmonxona, ayvon yoki ravon uncha katta bo'lmagan hovlichaga yoki shiyponga olib chiqqan. Ko'p hollarda mehmonxonalar ikkinchi qavatda joylashgan. Mazkur xonalarning arxitekturaviy bezagi turar-joy qismidagiga qaraganda ancha yuqori saviyada bajarilgan. Ichkari hovli oila yashashiga mo'ljallangan bo'lib, ko'pincha «G» simon ko'rinish kasb etgan.

Qayta tiklash loyihasining (arxitektori Yu. Miroshnichenko) vazifasi mahalla rejayiviy tuzilishini saqlab qolish, eskirib ketgan arxitektura yodgorliklarini qayta tiklash, hisobda turgan turar-joy uylarini boshqatdan qurish va asosiysi, ko'pasrlik turar-joy mahallasi yashash muhitining miqyosi va tarixiy qimmatini saqlab qolish edi. Guzar, choyxona tarkibidagi mahalla, kosiblarning savdo markazi, Toshkentda kam qolgan eski hovuzni qayta qurish lozim bo'lar edi.

Hududdan ko'chirilgan sanoat korxonalarini o'rnida loyiha bo'yicha boshlang'ich maktab va bolalar bog'chasi qurish ko'zda tutilgan.

Kuchik ko'prik va quyi Bo'zsuvning ko'kalamzorlashtirilgan hamda obodonlashtirilgan jarliklari yoqalab o'tuvchi yangi aylanma yo'l – xiyobon negizida mahallaning muhandislik tuzilmasini yaratish loyihasining asosiy vazifalaridan biri edi.

Bu yerda elektr ta'minoti, suv ta'minoti, kanalizasiya, aloqa vositalari yotqizilishi ko'zda tutilgan.

Asatilla Xo'jayev shohrohi yoqalab savdo rastalari yaratiladi, quyi Bo'zsuv jarligida oqava suvli ariqni tozalash ekologik majmui, tozalash

ashyolaridan foydalanish va qayta ishlash koʻzda tutilgan. Eski koʻchalar, baʼzi joylarda kengaytirilib, obodonlashtiriladi.

Odamlarning umrguzaronligi, yalpi qulay shahar muhiti yaratish uchun vosita va sharoit sifatida gular barpo etishga hududni koʻkalamzorlashtirish va obodonlashtirishga, va ayni vaqtda zamonaviy qurilish yaratishga alohida eʼtibor beriladi.

Shu narsani taʼkidlash lozimki, Suzukota mahallasi muhitini sogʻlomashtirish boʻyicha yosh arxitektorlarning boshqa loyihaviy ishlovlari ham yoʻq emas. DAAD nemis jamiyati (Akademik almashuvlar Nemis xizmati) taklifi, Suzukota mahalla qoʻmitasi Kengashi iltimosi va «Arxitektura tarixi va nazariyasi» kafedrasini topshirigʻi boʻyicha arxitektura yodgorliklarini yalpi tadqiq etish, qayta tiklash va taʼmirlashga bagʻishlangan 5 diplom ishi professor T. Qodirova, dosent O. Salimov, katta oʻqituvchilar A. Turdiyev, Z. Qirgʻizboyeva va M. Zoirova rahbarligi ostida muvaffaqiyatli yoʻqlandi. «Toshkentdagi Suzukota mahallasining tarixiy imoratlarini qayta tiklash» mavzuidagi (talaba E. Atlanov, rahbar dosent O. Salimov) aʼlo baho olgan diplom ishlaridan birida eski shahar uylari joylashgan janub tomondan Samarqand Darvoza, shimoli-sharq tomondan yirik A. Xoʻjayev shohrohi bilan chegaralangan hududlardan biri hisobga olingan. Bu barcha eski uylar «Jar» sport majmui qurilgan yangi Chorsu turar-joy mavzesi yaqinida joylashgan.

Diplomoldi amaliyot jarayonida oʻtkazilgan ijtimoiy tadqiqotlar mahalla markazi, gularlari, turar-joy muhitini qayta tiklash, muhandislik tarmoqlari oʻtkazish, koʻkalamzorlashtirish va obodonlashtirish, ayni damda insonni oʻzi bilan baravar yuzaga keluvchi tarixiy muhitni asrab qolish zarurligini koʻrsatdi. Aholi istak-xohishi va zamonaviy talablarni hisobga olib diplom loyihasi ishlab chiqilgan edi, unda mahallaga kiraverish qismini, mahalla koʻchalarini va markazini qayta qurish hamda boshqa takliflar inobatga olingan edi. Mazkur diplom loyiha koʻrik-konkursda Oʻzbekiston arxitektorlar uyushmasining I darajali Diplomiga sazovor boʻlgan edi.

Tarixiy shaharlar Samarqand, Buxoro, Xiva, Qoʻqon va hokazolarda shaharning asosiy ijtimoiy infratuzilmasi hisoblangan, uning ijtimoiy- iqtisodiy holatini aks ettirgan koʻplab mahallalar bor edi. Turar-joylar bilan birga mahalla markazlarida, odatda, choyxonalar, masjidlar, savdo inshootlari, mahalla qoʻmitalari joylashgan boʻlib, turar-joy hosilalari arxitekturaviy-kenglik kompozitsiyasi shakllanishida katta rol oʻynaydi.

Mustaqillik yillarida mazkur nodir ijtimoiy-maishiy va ijtimoiy-ma'muriy tuzilmalarni qayta tiklash bo'yicha katta ishlar olib borilmoqda. Sag'bon va Niyozov ko'chalari chorrahasida, Masharipov ko'chasida, Sakkokiy ko'chasida mahalla guzarlari va qator boshqa markazlar barpo etildi. («Toshgiprogor»), ular tarkibida an'anaviy choyxonalar, savdo-sotiq binolari, masjidlargina emas, balki zamonaviy usuldagi inshootlar – poliklinikalar, sport majmualari, bolalar maydonchalari va hokazolar mavjud.

1994-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Individual turar-joy qurilishini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi va yakka tartibdagi turar-joy uylari nomenklaturasi kengaytirildi.


Bugungi kunda ular keng quloch yoyib, xilma-xil hajm-reja tuzilmalariga, shuningdek yanada yuqori qulaylikka ega bo'lmoqda. Bu, odatda, 1-3 qavatli kottejlardan iborat qurilishlardir. Shaharlarda turar-joy muammolarini hal etishdagi bu tub o'zgarish respublikada turar-joyni rivojlantirishning yangi davrini boshlab berdi.

Toshkent shahrining yetuk arxitektorlari F. Tursunov, V. Akopjanyan, A. Mahkamov, N. Mahkamov va R. Mahkamov, R. Shokirov, M. Shagayev, M. Vohidov va boshqalar loyiha ustaxonalarida «elita» turar joy uylari loyihalari ishlab chiqilgan bo'lib, ularga ko'ra Toshkentning Husanboyev ko'chasidagi «Gulbozor» mahallasida, shaharning boshqa qismlarida turar-joy uylari qurildi.



«Turar-joyni erkin tanlash» sharoitida uning arxitekturasi, rejaviy tuzilmasini buyurtmachi bergan dastur bo'yicha, oila turmush tarzi, uning maishiy, xo'jalik va boshqa talablaridan kelib chiqib individuallashtirish ahamiyati ortib bormoqda.

«Doktor Mahkamov» ijodiy ustaxonasi jamoasi birinchilar qatorida qulaylik jihatdan uch toifani taklif etib, turar-joyning turli namunalarning loyihalarini ishlab chiqdi. 1 toifa turar-joy uylariga «yuqori qulaylik»dagi, 2 toifaga «qulay» va 3 toifaga «mo'tadil darajada qulay» uylar kirar edi. 3 toifa uylarda ichki muhandislik jihoz yo'q yoki muhandislik obodonlashtirish tizimi soddalashtirilgan. Turar-joyda alohida alomatlarining mavjudligi loyihalarda indeks (A, B, V) bilan belgilanadi. «A» indeksi turar-joyning kengaytirilgan vazifasini ko'rsatadi:

– kuchaytirilgan maishiy zona (umumiy xona, mehmonxona, mehmonlar yotog'i, qo'shimcha xonalari bo'lgan ota-onalar yotog'i, bolalar yotog'i va o'yinxonalari,



2



Toshkent. «Suzukota» mahallasini qayta qurish bo'yicha diplom loyihasi.
Bitiruvchi E. Atlanov, X. Normatov va boshqalar
Raxbar O. Salimov, T. Qodirova.

1. Eski Toshkent rejasi (XIX asr boshi). 2. Suzukota maqbarasi (XII asr).
 3,4. Mahalla bo'yicha sayyohlik yo'nalish loyiha taklifi. 6. Turar-joy.

- kabinet, kutubxona, bufetli oshxona, har bir yotoq xonada alohida sanitariya tarmog‘i);
- davolash-sog‘lomlashtirish zonasi (sauna, havza, qishki bog‘ va hokazo);
- bo‘sh vaqtni o‘tkazish (billiard, tennis maydonchasi); mehmon-xona (mehmonlar uchun alohida sanitariya tarmog‘i bo‘lgan mehmon-xona va yotoq); ijodiy va ishbilarmonlik faoliyati zonasi (idora, ofis yoki kabinet, ustaxona).


A toifali barcha uylarda 2–3 mashinaga garaj va xizmat qiluvchi shaxslar uchun xona mavjud, hovli qismda esa yashovchilar xohishiga ko‘ra yozgi oshxona va boshqa qo‘shimcha xonalar ko‘zda tutiladi.

Shuningdek, loyihada sovutish, isitish va xonalar havosini aylantirish tizimini boshqarib turish ko‘zda tutilgan; uy intererlari va devorlariga oliy sifatli pardoiz beriladi; signalizasiya va mukammal aloqa tizimi o‘rnatiladi, sifatli sanitar-texnik va oshxona jihozlari, shuningdek mebel bilan ta‘minlanadi va hokazo.

Arxitektor F. Tursunov rahbarligi ostida ijodiy arxitektura ustaxona («TAMAX») yirik jamoat binolari bilan bir qatorda yakka tartibdagi turar-joy uylari, kottejlarni loyihalashtirish va qurish bilan shug‘ullanadi, ular arxitekturaviy-rejaviy echimining rang-barangligi va o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.



**Katta oilalar uchun birinchi qavatida do‘konlari bilan turar-joy loyihasi.
«Doktor Mahkamov» firmasi.**




**Katta oilalar uchun turar-joy loyihasi.
«Dokor Mahkamov» firmasi.**

«To‘raxon» arxitekturaviy-loyiha ustaxonasi (V. Sushkov), «Siymo loyiha» (M. Yo‘ldoshev, U. Muzaffarov, B. Muhammadjonov) va boshqa tashkilotlar xususiy buyurtmalar bo‘yicha yakka tartibdagi turar-joy uylarini qurganlar, ular bir-birlaridan farq qiladi, har bir loyiha o‘ziga xos va betakroridir. Milliy uslubda qurilgan, «amir saroyi»ni eslatuvchi uylar, yapon uslubida solingan uylar va hokazo. Arxitektorlar xususiy buyurtmachilar ta’bi va imkoniyatlariga muvofiq ularning talabini ado etadilar.

Mustaqillik yillaridagi O‘zbekiston turar-joyi tahlili bu sohada sifat o‘zgarishlari bo‘lganligi ko‘rsatadi. Bugungi kunda respublikada temir beton panellari va bloklardan turar-joy uylari qurish deyarli barham topgan.

Ular o‘rniga g‘ishtdan yuksak qulaylikka ega kamqavatli turar-joy uylari qurish keng quloq yoygan, shuningdek oilalarga tomorqali yakka tartibdagi qamqavatli turar joy uylari qurilmoqda. Yashovchilarning turar-joyning arxitekturaviy-badiiy, estetik sifatlariga talablari oshgan. Toshkentdagi Amir Temur, Alisher Navoiy, Qunayev, Movarounnahr, Afrosiyob ko‘chalari va hokazo, Qarshi shahridagi O‘zbekiston ko‘chasi, Nukus shahridagi Do‘stlik ko‘chasiidagi turar-joy uylar yirik miqyosli kenglik tizimlarining badiiy shakllanishi muvoffaqiyatli echimiga misol bo‘la oladi.



- 1 – umumiy xona;
- 2 – mehmonxona;
- 3 – ota-onalar yotog'i (maxsus sanitariya tarmog'i bilan);
- 4 – bolalar yotog'i;
- 5 – bolalar yotog'i;
- 6 – mehmonlar yotog'i;
- 7 – xona;
- 8 – kabinet;
- 9 – oshxona;
- 10 – sauna, dush va xovuzi bilan;
- 11 – tennis xonasi;
- 12 – ikki avtomoshinaga mo'ljallangan garaj;
- 13 – uy xazmatchisining xonasi;
- 14 – yozgi oshxona;
- 15 – qishki bog'.





**Yuqori qulaylik toifadagi turar-joylar loyihasi (katta oilalar uchun)
«Doktor Mahkamov» firmasi.**

Majmuaning turar-joy qurilishida zamonaviy talablarni tatbiq etish ayniqsa Toshkent markaziy hududlarini, yuksak darajada qulay turar-joy uylari bilan to'ldirishni taqozo etadi, bu yashash muhiti kechayu kunduz harakatda bo'lishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston yangi va eski shaharlarining turar-joy muhiti takomillashib bormoqda. Yangi xildagi turar-joy uylari, gularlar, mahalla markazlari bunyod etildi.

XX asrning 60–80-yillarida bunyod etilgan tumanlar turar-joy hududlarida ulkan obodonlashtirish ishlari quloq yoydi, ular yangilanmoqda, suvlar chiqarilmoqda, ko'kalamzorlashtirilmoqda, bolalar va sport maydonchalari hamda mayda arxitekturaviy shakl namunalari bilan jihozlanmoqda. Muhandislik kommunikatsiyalari qayta qurilmoqda.

Yakka tartibdagi «Elita» turar-joy uylari ko'pchiligining tahlili ularni rejalashtirishning ayrim umumiy xususiyatlarini ko'rsatadi. Jiddiy alomatlardan biri – turar-joy, qo'shimcha va yordamchi xonalarning kengaytirilgan tarkibi va maydonidir. Bu toifa turar-joyning maydoni



**Yakka tartibdagi turar-joy uyi.
Arxitektor F. Tursunov. (TAMAX ustaxonasi).**

turar-joy xonalari miqdoriga bog‘liq ravishda 157–512 m² atrofida belgilangan.

Yuqori qulaylikka ega kottejlar qurish tajribasida andozadagi sanitariya tarmoqlarini o‘ziga yarasha «o‘zini tartibga keltirish xonasi»ga aylantirish usuli tez-tez uchramoqda va bunday xonalar maydoni 10–12 m² gacha borib etadi. Yotoq xonalarda, ayniqsa ota-onalar yotoq xonalarida buduar-garderoblar qurish rasm bo‘lmoqda. Yotoq va mehmon xonalarda alohida sanitariya tarmoqlari va yana umum oilaviy sanitariya tarmoqlari bo‘lishi bunday yakka tartibdagi yuksak qulaylikka ega turar-joy uylarining egalari talablariga javob beruvchi andozali echim bo‘lib qoldi. Keng xoll-dahliz, mehmonxona va o‘choqmo‘rili oshxona bo‘lishi esa shartga aylangan.

Toshkent shahrida va boshqa hududlarda qishloqlarda yangi, ko‘zni quvontiruvchi g‘oyat obod shaxsiy turar-joy uylar paydo bo‘lishidan so‘zsiz quvonamiz. Afsuski, ko‘pincha shahar infratuzilmasiga kirishib ketgan bunday uylar (suv, gaz, elektr bilan ta‘minlangan) haddan tashqari bahaybat qilib qurilmoqda, masalan hovli favvorasi uchun suv yoki kuchli kondisionerlar uchun elektr energiyasining ko‘p sarflanishi qo‘shni turar-joy uylari yoki turar-joy mahallalarining bunday ne‘matlar bilan ta‘minlanishiga xalaqit berishi mumkin. Yangi va qiziqarli narsaning paydo bo‘lishi har doim ham ijobiy natijalar beravermaydi. Shu bois tuman, shahar arxitektorlari, kommunal xo‘jalik xodimlari ana shunday salbiy oqibatlarni o‘z vaqtida aniqlashlari, eng asosiysi, ularni bartaraf etish bo‘yicha muayyan takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqishlari va tadbiiq etishlari lozim.


IV BOB. MUHANDISLIK INSHOOTLARI ARXITEKTURASI

(sanoat korxonalari, aeroportlar, temir yo‘l vokzallari,
metro, transport tarmoqlari)

Mustaqillik yillarida yangi sanoat korxonalari, aeroportlar, temir yo‘l vokzallari, Toshkent metrosining yangi yo‘nalishlari qurildi va mavjudlari qayta tiklandi, transport tarmoqlari va boshqa muhandislik inshootlari yangilandi, ular mamlakatimizda qilinayotgan ulkan bunyodkorlik ishlariga yorqin misol bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekistonning Farg‘ona vodiysi markazida, Andijon viloyatining Asaka shahrida Asaka avtozavodiga – ilg‘or, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan O‘zbekistonning birinchi avtomobilsozlik ishi yo‘lga qo‘yildi («Uzog‘irsanoatloyiha»), u sanoat inshootlari yechimiga yangicha yondoshishning yorqin namunasi hisoblanadi. Bu yerda zamonaviy muhandislik va arxitekturaviy usullari, eng yangi ashyolar qo‘llanildi. Avto zavodning ishlab chiqarish majmuidagi barcha jihozlar ishlab chiqarish liniyalari bilan birgalikda eng yangi ilg‘or avtomatikasi va texnologiyasi bilan ajralib turadi. Zavod yiliga 200 ming dona avtomobil ishlab chiqaradi va uskunalash, presslash, payvandlash, bo‘yash va so‘nggi yig‘uv sexlaridan iborat. Mana shu sexlarda «Damas», «Neksiya», «Matiz», «Lasett» rusumidagi avtomobillar chiqarilmoqda. Uni zavod ishlab chiqarish maydonlarini oqilona taqsimlash hisobiga zavod bilan birgalikda institut loyihulashtirdi va ishlab chiqdi. Shuni ta‘kidlash o‘rinliki, butun hudud ko‘kalamzorlashtirilgan, obodonlashtirilgan va zavod qoshida barcha zaruriy sharoitlar mavjud (dam olish xonasi, sport zali, biblioteka, oshxona va bshq.). Ular yana zamonaviy jihozi va qulayligi bilan ajralib turadi. Ushbu avtomobil zavodining ishga tushirilishi bilan minglab ishchi o‘rinlari tashkil etildi. zavodda faoliyat yuritayotgan xodimlarning qoniqish hislari, korxonalaridan faxrlanishlari va umuman millatning iqtisodiy o‘sishi bir-biri bilan uyg‘un birikib ketgan.

«O‘zog‘irsanoatloyiha» instituti loyihasi bo‘yicha xorijiy firmalar bilan hamkorlikda O‘zbekistonning boshqa yirik sanoat majmualari loyihalari ham ishlab chiqilgan, ular Buxoro neftni qayta ishlovchi zavodning mufassal loyahasini, Respublikadagi eng yirik Sho‘rtan gaz-kimyoy majmuasi loyahasini ishlab chiqqanlar, Toshkentdagi «Vostok»



**Asaka shaharidagi
avto korxonasi.**

Shahar tomondan ichkaridan chiqiladigan eshik ham peshtoqqa o'xshatib ishlangan.

«Buxoro» aeroporti qayta tiklangan. Qurilish va qayta tiklash zamonaviy usulda ado etilgan, bu yerda yangi texnologik jihozlar hamda yangi texnik vositalar qo'llangan. Yo'lovchilar uchun yangi terminallar qurilgan, yangi signal yoritish qurilmalari o'rnatilgan. Endi xalqaro maqom olgan aeroport har qanday ob-havo sharoitiga qaramay eng zamonaviy havo kemalarini ham qabul qila oladi.

«Samarqand» aeroporti ham qayta tiklandi. Yaponiya hukumati granti bo'yicha qurilgan 3100 m li uchish-qo'nish yo'li zamonaviy signal yoritish qurilmalari bilan jihozlangan. «Samarqand» aeroporti xalqaro maqomga ega, yiliga 300 ming nafar yo'lovchiga xizmat ko'rsatishi, «A-310», «Boing-707» rusumidagi yirik samolyotlarni qabul qilishi mumkin.

IlchBsini, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodini qayta tikladilar va hokazo.

Ishlab chiqarish inshootlari bilan birga sanoat inshootlarining ma'muriy binolarini ham loyihalashtirgan bo'lib, ular zamonaviy arxitekturaviy rejaviy echimi bilan ajralib turadi

«Toshkent» aeroporti xalqaro maqomga ega bo'ldi. Bu yerda ham texnologik, ham texnik nuqtai nazaridan barcha zaruri zamonaviy talablar ko'zda tutilgan.

Toshkent-2 yangi terminal barpo etilgan bo'lib, delegasiyalar va davlat shaxslarini kutib olish va kuzatib qo'yish, xizmat ko'rsatish sohasi, matbuot zali va boshqa zaruriy xonalar mo'ljallangan.

Arxitekturaviy dizayn zamonaviy ashyolardan bajarilgan, devor vitrajining quyosh to'sqich qismlari qoraytirilgan shishadan yasalgan.

Aviaperron tomondan terminalga kirish eshigi peshtoq ko'rinishiga ega.

Aviaperron tomondan terminalga kirish eshigi peshtoq ko'rinishiga ega.

Aviaperron tomondan terminalga kirish eshigi peshtoq ko'rinishiga ega.

Aviaperron tomondan terminalga kirish eshigi peshtoq ko'rinishiga ega.

Aviaperron tomondan terminalga kirish eshigi peshtoq ko'rinishiga ega.

Aviaperron tomondan terminalga kirish eshigi peshtoq ko'rinishiga ega.

Aviaperron tomondan terminalga kirish eshigi peshtoq ko'rinishiga ega.

Aviaperron tomondan terminalga kirish eshigi peshtoq ko'rinishiga ega.

Aviaperron tomondan terminalga kirish eshigi peshtoq ko'rinishiga ega.

Aviaperron tomondan terminalga kirish eshigi peshtoq ko'rinishiga ega.

Aviaperron tomondan terminalga kirish eshigi peshtoq ko'rinishiga ega.

Aviaperron tomondan terminalga kirish eshigi peshtoq ko'rinishiga ega.

Aviaperron tomondan terminalga kirish eshigi peshtoq ko'rinishiga ega.

Aviaperron tomondan terminalga kirish eshigi peshtoq ko'rinishiga ega.

Aviaperron tomondan terminalga kirish eshigi peshtoq ko'rinishiga ega.

Aviaperron tomondan terminalga kirish eshigi peshtoq ko'rinishiga ega.

Aviaperron tomondan terminalga kirish eshigi peshtoq ko'rinishiga ega.

Arxitekturadagi yangi yoʻnalish ham mavjud, ham yangi qurilayotgan temir yoʻllar sohasida ham sodir boʻlmoqda, ularda ijtimoiy maishiy infratuzilmaning toʻla majmuini koʻrish mumkin.

Tasdiqlangan investision dasturlarga muvofiq «Toshtemiryoʻlloyiha» institutida chet el sarmoyasi jalb etilib, sanoat va transport inshootlari qurish uchun texnik iqtisodiy loyihalari ishlab chiqildi. Jumladan, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi tashqi temir yoʻllar infratuzilmasini qurish, «Toʻqimachi» bekatidagi yoʻlovchi vagonlar taʼmir zaxirasini kengaytirish, Shoʻrtan gaz-kimyoy majmui tashqi temir yoʻllar infratuzilmasini qurish, Uchquduq shahridagi xalqaro aeroportining tashqi temir yoʻllar infratuzilmasini qurish, «Toshkent-Angren» va «Marokand-Buxoro-Qarshi» temir yoʻl hududlarini elektrlashtirish koʻzda tutilgan va hokazo.

Ayrim mintaqalar transport taʼminotini bundan keyin ham yaxshilash, eltishga ketadigan chiqimlarini kamaytirish, eng muhim foydali qazilmalar konlarini oʻzlashtirish uchun transport etib borishini taʼminlash, yangi ish oʻrinlari yaratish maqsadida katta ishlar qilinmoqda. Shu bilan bir qatorda respublikamiz va «Oʻzbekiston temir yoʻllari» davlat aksiyadorlik temir yoʻl kompaniyasi rahbariyatlari temir yoʻl transportida yoʻlovchilarga xizmat koʻrsatish madaniyatini oshirish masalasiga juda katta eʼtibor qaratmoqda. Shu munosabat bilan Oʻzbekiston Respublikasining barcha viloyat markazlarida yangi temir yoʻl vokzallari qurilishiga, ayniqsa davlatimiz va uning poytaxtining asosiy temir yoʻl vokzali — «Toshkent» shohbekatidagi vokzalga munosabati oʻzgacha ahamiyatga molik. 1917-yilgacha bunyod etilgan Toshkent temir yoʻl vokzalini loyihalashtirish va qayta tiklash tarixi bir necha bosqichga ega. Vokzal yangilanguniga qadar mavjud boʻlgan soʻnggi bosqich (arxitektorlar L. Travyanko, V. Rusanov, V. Biryukov) vokzalning bir qancha ishlab turgan binolari, maʼmuriyat va «Lokomotiv» mehmonxonasidan iborat edi. Ikki qavatli bino eski vokzal inshootiga parallel qilib tiklangan edi (1897-y.). Ular orasida oynavand zal birlashtirib turgan ichki hovlicha tashkil etilgandi.

Zamonaviy shaharsozlik meʼyorlariga va yangi arxitekturaviy talablarga muvofiq kelish, kompozision markaz hamda eng muhim inshoot boʻlish uchun atrof hudud qurilishida barcha binolarni va vokzal majmuiga kiruvchi inshootlarni tubdan taʼmirlash talab etilardi.

Qurilgan temir yoʻl vokzali (2005-y.) yaxlit jamlamada, arxitekturaning monumental yodgorliklari usullaridan olingan anʼanaviy, milliy arxitektura uslubida hal etilgan. Shahar tomondan bino bosh

fasadning kompozision o'qi markaziy peshtoq va arkli o'yirlari bo'lgar ikki yondagi peshtoq hisoblanadi. Peshtoq pardozida sopol taxtachakoshinlardan yasalgan rangdor mozaikadan foydalanilgan. Fasadning oynavand qilinmagan sirtini kengaytirish va shahar tomondan fasadning butun eni bo'ylab ko'rkamroq ko'rinishi uchun qator derazalarga panjaralar qoplangan, ular mavjud derazalar o'rni va qo'shaloq ustunl arklarni takrorlab turadi.

Vokzal binosining yondagi uch qavatli bloklari devorlari kirish peshtoqlari va markaziy fasadga o'xshab pardozlangan shakldor panjara bilan bog'langan. Perron tomondagi devorlar boshqacha uslubdar foydalanish yoki yangi arxitekturaviy qismlar kiritish nuqtai nazaridar kam o'zgartirilgan. Fasadning butun uzunasi bo'ylab bino soyabon ko'proq oldinga chiqarilgan, shuningdek temir-beton quyosh qaytarg'ichning mavjud qismlari qayta ta'mirlangan, balkonning betor to'sini anodlashtirilgan alyuminiyga almashtirilgan, metall vitrajlar qoraytirilgan oynali, shisha paxta solingan (steklopaket) allyuminiy vitrajlarga aylantirilgan, devor pardozida alyuminiy panellar va tabiiy toshlar-granit hamda marmardan foydalanilgan.

«Boysun» stansiyasidagi temir yo'l vokzali ikki blokdan iborat, ular bir-biri bilan poyezd kelishini kutuvchi yo'lovchilarga mo'ljallangan ochiq bostirma vositasida ulangan.

Vokzal majmui zamonaviy arxitekturaviy uslubda hal etilgan, u ilgari qurilgan vokzallardan keskin ajralib turadi. Manzilgoh va perron tomondan yo'lovchilar zaliga olib kiradigan eshiklar yarimdoirali mehrob ko'rinishida bo'lib, temir sinchlardan yasalgan va zamonaviy «alyukabond» bezak ashyosi bilan choklangan. Vokzal binosi panjaralari



Toshkent. Yangi temiryo'l vokzali (shimoliy), 2005-y.

ham ma'dan sinchlardan yasali b, «alyukabond» bilan choklab chiqilgan. Vokzal binosi fasadlari arxitekturasi da bezakli shakldor arxitekturaviy namunalardan foydalanilgan. Vokzal maskanidagi tik deraza o'rinlari alyuminiy vitrajlar va qoraytirilgan shishali romlar bilan to'ldirilgan. C'hodirli tom ma'dan cherepisadan yasalgan.

Vokzal markazida 100 o'ringa mo'ljallangan umumiy yo'lovchilar zali joylashgan. Zalda ichimliklar, gazeta va jurnallar sotiladigan do'konchalar ko'zda tutilgan. Shuningdek, zalga chiptaxonalar, yukxonalar, mexanik xonasi va 11 o'rinli bufet tutashgan. Vokzal binosi ichida alohida sanitariya tarmog'i, kirxonasi va kir quritish xonasi bo'lgan bolali yo'lovchilar xonasi joylashgan. Binoda yana yo'lovchilar va ma'muriyat sanitariya tarmoqlari ham joylashgan. Yo'lovchilar xonalaridan qarshi qanotda ma'muriyat xonalari o'rin olgan, ular vokzal boshlig'i, stansiya boshlig'i, milisiya xonalari bo'lib, binoga o'zlarining xos yo'llaridan kirib kelishadi.

O'zbekiston Respublikasi markaziy vokzalini butunlay ta'mir qilish bo'yicha ishlar qilinishi bilan baravariga respublikamizning barcha viloyat markazlarida yangi temir yo'l vokzallari qurish, qayta qurish va bosh-oyoq ta'mirlashga katta e'tibor berilmoqda. So'nggi yillarda institut jamoasi va loyiha bosh muhandasi R.Usmonov rahbarligida loyihalar bosh arxitektori A. Akbarov Guliston shahrida yangi temir yo'l vokzalining qiziqarli loyihasini ishlab chiqdi. «Toshguzar – Boysun-Qumqo'rg'on» yangi temir yo'l izi qurilishi munosabati bilan institut jamoasi Qarshi shahridagi temir yo'l vokzalini zamonaviy uslubda qayta tiklash loyihasini ishlab chiqdi. Har bir vokzal loyihasi o'zining betakrorligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Vokzal binolari pardozida qoraytirilgan oynali alyuminiy vitrajlardan, fasad bezaklarida esa tabiiy toshlar – granit va marmardan foydalanilgan. Mustaqillikka erishish sharofati bilan O'zbekistonning qo'shni respublikalar bilan ham, «olis» xorijiy davlatlar bilan ham xalqaro aloqalarining ahamiyati yanada ortdi. Evrosiyo qit'asining qoq markazida joylashgan O'zbekiston uchun quruqlikdagi aloqalar g'oyatda muhim, chunki u janub tomondan tog'lar bilan, shimol tomondan sahro bilan jahon transport yo'llaridan cheklanib qolgan, dengiz yo'llari esa uzoqlik qiladi.

Osiyo mintaqasidagi qo'shni davlatlar, O'rta Osiyoning mustaqil davlatlari bilan tashqi iqtisodiy va madaniy aloqalarni yo'lga qo'yish uchun Transosiyo temir va avtomobil yo'llari barpo etishga qaror qilindi. Bu yo'llar bilan bir tomondan Xitoy orqali Tinch okeanga

chiqilsa, ikkinchi tomondan Eron va Turkiya orqali O'rta yer dengiziga chiqiladi. Shu munosabat bilan havo yo'llari bilan bir qatorda avtomobil va temir yo'l shohrohlari ham faqat iqtisodiy emas, balki siyosiy ahamiyat kasb etadi.

Jahon bozori bilan qulay va eng qisqa aloqalarga intilish O'zbekiston Respublikasining strategik jihatdan muhim vazifasi bo'lib qoldi. Mazkur masalani hal etishda tarixan mavjud yo'llarni rivojlantirishdagi qadimgi Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklash amalda to'la ro'yobga chiqarilmoqda.

Baland tog'likdagi iqlimi murakkab sharoitlarda, avtotransport vositalarini to'xtovsiz harakatlantirib turgan holda Angren va Xonobod shaharlari oralig'idagi Toshkent – O'sh avtoyo'l qismi qayta tiklandi, bu Andijon – Toshkent – Nukus – Qo'ng'iro't tezkor avtoshohrohining bir qismi hisoblanadi («O'zavtoyo'l» instituti). Qisqa muddatlarda Buyuk Ipak yo'lining muhim halqasi bo'lib qolgan Qamchiq va Rezak dovonlaridagi avtoyo'l tunnelli qurib bitkazildi va foydalanishga topshirildi.

Avtoshohrohdagi harakat ishtirokchilariga yalpi xizmat ko'rsatishni ta'minlash uchun dam olish maydonchalari, motellar, kempinglar, qahvaxonalar, savdo muassasalari va hokozolar qurildi va qurilmoqda.


Afsuski, bu yerda ularni joylashtirish masalasida oqilona yondoshuv va arxitektura – badiiy echimda mantiqni ko'rmaymiz. Yoritish, yo'l belgilari va reklama oynalarini o'rnatish va jahon ahamiyatidagi tezkor avtoshohrohlari darajasiga javob bera oladigan boshqa zaruriy dizaynerlik ishlovlari bilan bog'liq masalalar yetarlicha hal etilmagan.

Bu sohada poytaxt Toshkent shahrida talay muvaffaqiyatlarga erishilgan. Uzunligi 21,0 km kichik halqa avtomobil yo'li va undagi eng yirik yo'llar ostin-ustin o'tadigan chorrahalarining qurilishi bilan shahar bo'ylab avtotransportning uzluksiz harakat qilishiga imkon tug'ildi («Toshkentboshreja» instituti). Transport tarmoqlari kichik halqa avtoyo'lining mavjud shahar shohrohlari kesishgan joyda ikki darajada ostin-ustin qilib hal etilgan, jumladan Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, Parkent ko'chasi, Musaxonov ko'chasi, Uyg'ur ko'chasi va Amir Temur ko'chasi bilan kesishgan joylarda.

Qayta tiklash natijasida o'tish qismlari kengaytirildi, har bir yo'nalishda harakat chiziqlari to'rttagacha oshirildi. Erosti aloqa vositalari yotqizildi, piyodalar o'tish joylari qurildi va boshqa obodonchilik ishlari bajarildi.



Toshkent. Ostun-ustun o'tadigan yirik chorraha yo'llar.



Toshkent. Keles ko'priki yo'li.



Qamchiq dovonidagi yangi yo'l.

Buyuk Ipak yo'lining Visokovoltmaya ko'chasi bilan kesishgan joyda transport tarmog'i yangi talablarda hal etildi. Bu yerda qayta tiklash jarayonida Buyuk Ipak yo'lining ustuvorligi haqidagi masala qayta ko'rib chiqildi. Svetoforlar yordamida harakatni boshqarish bilan shaharning Katta halqa yo'lga chiqishnigina emas, balki Chirchiq shahri va Chimyon Chorvoq dam olish zonasi bilan aloqani ham ta'minlovchi bu shohroh afzalligini yanada oshirgan.

Eski shaharning Qorasaroy, Abdulla Qodiriy, Bobojonov, Beruniy, Uyg'ur, Zarqaynar singari yo'llarini qayta tiklash bo'yicha katta hajmdagi ishlar bajarildi.

Bu ko'chalar necha o'nlab yillardan buyon xizmat qilib kelmoqda, yillar davomida ortib borayotgan mashinalar va piyodalar oqimiga moslashtirildi. Qayta tiklashgacha bu yo'llarning yurish qismi 2 chiziqli harakatdan iborat bo'lib, trotuarlar tor, obodonchilik alomatlarini deyarli yo'q edi. Bundan tashqari, mavjud turar-joy uylaridan katta qismini buzish zarurati bu ko'chalar qayta tiklanishida qiyinchilik tug'dirardi.

Mazkur yo'llarni qayta tiklash natijasida eng asosiy shart bajarilgandi – eski shahar mintaqasining katta halqa yo'l bilan aloqasi ancha qisqartirildi va Uyg'ur ko'chasining Nazarbek yo'nalishiga va Qorasaroy hamda Bobojonov ko'chalaridan Keles yo'nalishiga eng qisqa yo'l bilan chiqish masalasi hal etildi. Endi bu yo'llar har bir yo'nalishda 4 chiziqli harakatga ega. Obodonchilikning asosiy talablari bilan ta'minlandi – suv chiqarildi, sel va yomg'ir yo'llari qurildi, ko'kalamzorlashtirildi, garajlar va avtostobekatlar barpo etildi.

Shaharning markaziy qismidagi ayrim shohrohlarni ham qayta tiklandi. Jumladan, bu Alisher Navoiy, Xurshid, Movarounnahr, Turkiston, Turob To'la, Amir Temur ko'chalari, O'zbekiston va Afrosiyob shohroxlari. Yunusobod mavzesi aholisini Hadra maydoni bilan bog'lovchi ajoyib shohroh 6,0 km ga cho'zilgan bo'lib, u Fafur Fulom, 1,1 km uzunlikdagi estakadali Ahmad Donish ko'chalari bo'ylab o'tadi, Ahmad Donish ko'chasining Amir Temur ko'chasi bilan kesishgan joyda ikki hadli ostin-ustin transport chorrahasi mavjud.

Fayzulla Xo'jayev ko'chasi Feruza mavzesini Qorasuv mavzesi, Katta halqa yo'lga chiqish joyi bilan bog'lagan. Fayzulla Xo'jayev ko'chasining Buyuk Ipak yo'li ko'chasi bilan kesishuvi ikki hadda bajarilgan.

Fayzulla Xo'jayev ko'chasidan Ohangaron halqasigacha bo'lgan qismdagi mavjud shohrohlarni yangidan qurildi yoki qayta tiklandi. Buyuk Ipak yo'lga chiqadigan, Do'rmon manzilgohini aylanib o'tadigan 5,0 km uzunlikdagi ko'cha ham shunga kiradi.

Yangi yo'llar poytaxt qiyofasini bezabgina qolmay, aholi va mehmonlarga qulaylik ham tug'dirdi. Uzunligi taxminan 35 km keladigan mazkur yo'llar xalqaro andazalar darajasida qurilmoqda. Qurilgan ko'priklar harakat xavfsizligini ta'minlaydi, haydovchilarga qulaylik va tez haydash imkoniyati taqdim etadi, bu ko'priklar – Buyuk Ipak yo'li, Parkent, Pushkin ko'chalarida, Farhod, Usmon Nosir ko'chalari chorrahasida, janubiy vokzal oldidagi Gavhar va Hamza Umarov ko'chalari kechishgan joyda qurilgan. Loyihaga ko'ra, butun shohroh davomida 9 ko'prik va bir nechta tunnel qurilishi kerak, ular kelajakda poytaxtning Yakkasaroy, Hamza, Mirobod, Mirzo Ulug'bek, Yunusobod, Shayxontohur, Olmazor va Uchtepa tumanlarini bir-biriga ulab, transport harakatining uzluksizligini ta'minlashi lozim.


O'zbekistonning qariyb 2,5 million aholisi va issiq havoli poytaxti uchun metropoliten, shubhasiz, eng qulay hamda shinam transport turi hisoblanadi.

Toshkent metropoliteni – kuchli zilzilasi bor O‘rta Osiyo mintaqasi sharoitida tezyurar yerosti transporti bunyod etishdagi ilk tajribadir. Uning tarmog‘i uch yo‘ldan iborat – Chilonzor, O‘zbekiston (1972–1996-yy.) va Yunusobod. Ular shaharning barcha eng yirik turar-joy va sanoat mintaqalarini qamrab olgan. Yo‘llarning umumiy uzunligi 38,25 km ni tashkil etib, 29 ta bekatlarga ega. Toshkent metrosining eng yosh yo‘li Yunusobod yo‘nalishi bo‘lib, «Mingo‘rik» bekatidan «Habib Abdullayev» bekatigacha (jami oltita bekat) bo‘lgan birinchi qism O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini 10 yilligi sharafiga foydalanishga topshirilgandi (2002-y. loyihaning bosh muhandislari A. Zokirov va V. Juravlev rahbarligida «Metroloyiha» instituti).

«Mingo‘rik» bekati – uch qanotli, ustun xilida, yassitoshli qilib qurilgan (arxitektor A. Tabibov, rassomlar S. Ivanov, M. Isaxonov). Ustunlar yuqoriga qarab yo‘g‘onlashib boradi, rigellar, devor bloklari zavodda tayyorlangan yig‘ma temir-beton qurilmalardan tiklangan. Ushbu majmuani yechish chog‘ida platforma qismi ustidagi yerosti kengligidan oqilona foydalanilgan. «Oybek» bekatiga oqilona yondoshilgan. «Oybek» bekatiga o‘tish tunelli platforma o‘qi bo‘ylab qurilgan. Bekat shaharning etnik qismida joylashgan bo‘lib, uning tarixi bilan chambarchas bog‘liq.

Interer bezagining asosiy mavzusi sopol pannoda aks ettirilgan va u vestibulga kirish joyini bezatib turibdi. Shuningdek, gul shaklida ishlangan qandillar ham o‘zgacha tarovat bag‘ishlagan. Mahalliy ashyolar – «Nurota» kulrang marmari, «Sevasoy» va «Gabbro» graniti va boshqalar interyeriga yanada mahobatli qilgan ishlatilgan.

«Yunus Rajabiy bekati ustundor, tomi qubbasimon qilib yopilgan (arxitektorlar A. Adilova, V. Kim, rassom Ya. Afanasev). «Amir Temur xiyoboni» bekatiga o‘tish yo‘li platforma o‘qi bo‘ylab joylashgan. Yo‘l devorlariga oq marmardan, yeriga oq granitdan parдоз berilgan. Qandillarni «Plastika» firmasi mutaxassislari alyuminiydan qo‘yishgan.



Sharq uslubidagi ustunlarning boshlari bezakli amaliy san‘at asari bo‘lib qolmay, yoritish vazifasini ham bajaradi.

«Abdulla Qodiriy» bekati tipik yig‘ma qismlardan foydalanishga imkon beruvchi yangi tarh qo‘llash bilan hal etilgan (arxitektor



F. Muzaffarova, rassom M. Isoqjonov). Platforma yoqalab juftak ustunlar o'rnatilgan, shu tufayli tayanchlar oralig'i 9 m gacha o'tirilgan.

Markaziy qism tomi — qubali, yon zallarini — taram-taram plitalardan bo'lib, bir-biri bilan kesishganda yarim doira hosil qiladi.

Oralariga shisha bezaklar, ustunboshi shaklidagi chiroqlar qo'yilgan ustunlar vagonlarga chiqish zalida yorqin, tantanavor kenglik hosil qiladi. Eskalator ustidagi «Sharq bog'i» katta pannosi muhim mavzuiy ma'no kasb etgan.



«Minor» bekati qo'shqanotli, platforma maydonining o'rtasidan ustunlar joylashgan (arxitektor X.F. Muzaffarova, rassom A. Qosimov). U Yunusobod yo'li muhandislik binosi bilan birgalikda loyihalashtirilgan, uning foyesi bekatga kirish eshiklaridan biri hisoblanadi. Ramzli echimga muvofiq bino tashqari hovli bilan, bekatning platforma maydoni esa ichkari hovli bilan uyg'unlashib ketadi.

Har ikki kenglikni birlashtirib turuvchi qismlar vazifasini ustunlarning ustunboshilari oraliqlariga o'rnatilgan chiroqlar bajaradi. Yo'l devoridagi mehrobsimon naqshlar, shuningdek pardoza foydalanilgan, O'zbekiston konlarigagina xos bo'lgan granit va marmar bekat intereriga milliy ruh berib turibdi.

«Bodomzor» bekati — qubbador bo'lib, yaxlit temir-betondan ishlangan (arxitektor Ya.H. Mansurov, haykaltarosh R. Ahmedov, rassom-keramist R. Muhammadjonov, A. Rahimov). Uning mavzuiy bezagi bodom nomining o'zidan kelib chiqqan — bodomzor. Bu ramz qubba sirtini pardozlashda relefli (bo'rta) qismlarni yuzaga keltirgan.

Uning quyi qismi buxoro konlarida qazib olingan qizil va «gabbro» granitlaridan tiklangan. Yo'lovchilar hordig'i uchun yog'och aralash

ma'dandan quyilgan chiroqdonli ustunlar girdiga qulay o'rindiqlar terilgan mo'ljallangan. Zina yo'llari devqorlariga devorchiroqlar o'rnatilgan.

«Habib Abdullayev» bekatni ikki qanotli, bekat o'qi bo'ylab ustunlar saf tortgan, tomi yassi plitalar bilan yopilgan va platformalar har ikki yonda joylashgan (arxitektor A.



Adilova, rassom Ya. Afanasev) bekat dunyoga mashhur geologimiz Habib Muhamedovich Abdullayev nomiga qo'yilgan. Muallif fikricha, u O'zbekistonda mo'l qimmatbaho ma'danlar xazinasini esga solib turishi kerak bo'lgan. Muqarnas shaklidagi ustunboshili ustunlar va yo'l devorlari unga alohida tus bergan.

Yo'l devorlari qizil granitdan tik chiziqlar hosil qilgan qizg'ish travertindan tiklangan. Metro bekatlari tahlili mualliflar jamoalari o'ziga xos tarzda yondoshganlarini ko'rsatadi, bu yerda bekat inshootlari crosti kengliklaridan iloji boricha oz foydalanib hal etilgan («Mingorik», «Yunus Rajabiy», «Abdulla Qodiriy» bekatlari ustida crosti garajlari, savdo majmualari, texnologik xonalar joylashuvi, «Minor» bekatni vestibulining yo'l muhandislik binosi bilan qo'shib ketishi).

Har bir bekat arxitekturaviy rejaviy yechimi bekatlar joylashgan tumanlardagi shahar uylarini hisobga olgan holda o'z xususiyatlariga ega. Metro intererlari o'ziga xos tarzda hal etilgan, uzoq umrli pardoaz ashyolari: marmar, granit, ma'dan va hokazolardan foydalanilgan.

Katta uzunlikdagi muhandislik kommunikasiyalari, kanallar, temir yo'llar kesishuvi, ko'l ostidan tunnel qurish, Akvabog', Teleminora inshootlari, sport majmualari va hokazolar bilan bog'liq muhandislik geologik sharoitlar murakkabligiga qaramay «Toshmetroqurilish» trestni Yunusobod yo'li metrosini muvaffaqiyatli bunyod etdi.

Asosiy xulosalar

- O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi munosabati bilan arxitektura va shaharsozlik rivojlanishining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq yangi bosqichi boshlandi. Respublika shaharlari va aholi manzilgohlarini yaxshilashga qaratilgan qator qonuniy hujjatlar qabul qilindi (Shaharsozlik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida arxitektura va shaharsozlikni bundan keyin

ham takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, «Shaharlar, shahar posyolkalari va qishloq aholi manzilgohlari bosh rejalarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonlari va hokazo).

- «Toshkent viloyati tuman rejasi tarhi»ni ishlab chiqishda uch asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin: xo'jalik-iqtisodiy majmui rivojlantirish, mintaqa hududining faoliyat rejaviy tarixini tashkil etilishini takomillashtirish, atrof-muhit holatini muhofaza qilish va yaxshilash (Chimyon Chorvoq dam olish kurort-rekrasiya zonasi).

- Mustaqil davlat poytaxti sifatida «Toshkent bosh reja tarhi», tegishli ravishda bozor munosabatlari shakllanishi shartlarini hisobga olib, shahar muhiti va infratuzilishi sifatlarining oldingiga qaraganda ancha yuqori andazalari bilan ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

- Toshkent markazi qayta tiklandi, mamlakat bosh maydoni – Mustaqillik maydoni yangilanib, tabarruk maskanga aylantirildi.

- Toshkent eski shahar qismi mufassal rejasi loyihasi shahar shu qismining tarixan yuzaga kelgan va zamonaviy poytaxt shahar sharoitida ziyoratgoh va tarixiy turar-joy arxitekturasi an'anaviy tuzilmasining o'ziga xosligini saqlab qolish hisobiga ishlab chiqildi. Keng miqyosda mahalla hayotini qayta tiklashga (Shahriston, Shimoliy-Farb, Olmazor-O'qchi, Qoratosh, Ko'kcha va bshq.) va to'la muhandislik jihozlari bilan shohrohlarni (Forobiy, Chig'atoy-Sag'bon, Qorasaroy va bshq.) qayta tiklashga alohida e'tibor berildi.

- Samarqandni yangidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan bosh rejasi oldingilaridan mavjud hududdan oqilona hamda hushyorlik ila to'g'ri yondoshilgani bilan ajralib turadi. Jumladan, ko'kalamzorlashtirish masalalarida; bunda shahar atrofdagi mavjud bog'-rog'lardan foydalanib, yashil halqa bilan qurshab olingan. Aholi yashaydigan joylarda kichik va o'rta biznes inshootlari joylashgan. 219 ga maydonga va ko'plab qadimshunoslik xarobalariga ega qadimgi Afrosiyob shaharchasi shahar-qo'riqxonaga aylantirilmoqda.

- Nukus bosh rejasida oldingilaridan farqli o'laroq shahar taraqqiyoti, asosan, shimoli-g'arbiy qismda, Amudaryo daryosi yoqalarida ko'zda tutilmoqda, bu aniq sharoitlar bilan shartlangan (sharqdan shimolga qarab «Ipak yo'li» xalqaro shohrohi paydo bo'ldi, eski shahar, yangi shahar va yangi turar-joy reja tumanini birlashtiruvchi istiqboldagi yangi yirik rejaviy tumani paydo bo'lishi). Nukusda Amudaryo ustidan temir yo'l, Uchquduq–Nukus temir yo'l izi qurildi.

- Mamlakat Prezidenti tashabbusi bilan 2001-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi «Madaniy meros inshootlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi Qonunni qabul qildi, tarixiy shaharlar – Buxoro (1997-y.), Xiva (1998-y.), Termiz (2001-y.) va Qarshi (2006-y.) Marg'ilon (2007-y.), Samarqand (2008-y.) va Toshkent (2009) yubileylari O'zbekistondagina emas, balki Parijda ham tantanali nishonlandi. Shu munosabat

bilan Buxoro (Kalon Jome masjidi, Registon maydoni yodgorliklari bilan, Labi Hovuz majmui va hokazo), Xiva (Ko'hna Ark oldidagi maydon, Muhammad Rahimhon madrasasi, Sherg'ozixon madrasasi, Jum'a masjidi, Islom Xo'ja minorasi va madrasasi, Pahlavon Mahmud majmui va hokazo) arxitekturaviy yodgorliklari va majmualari ta'mirlandi.

- Shaharning 2700 yilligi yubileyiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish munosabati bilan (2006 y.) Qarshi o'zgarib ketdi. Arxitektoriy yodgorliklar (Odina, Ko'kgumbaz masjidleri va hokazo, tarixiy inshootlar (qadimgi sug'orish inshootlari, ko'priklar) qayta tiklandi va ta'mirlandi, yirik zamonaviy majmualar (amfiteatr), sport va ta'lim sohasiga oid binolar barpo etildi. Dam olish joylari tashkil etildi (bolalar bog'i, Alisher Navoiy nomidagi markaziy bog' va bshq.).

- Samarqandda arxitektura yodgorliklarini muhofaza qilish, ta'mirlash bo'yicha talay ishlar qilindi (Registon majmui, Amir Temur masjidi majmui, Go'ri Amir maqbarasi, Ruhobod yodgorligi, Shohi Zinda majmui va h.k.).

- Navoiy viloyati arxitekturaviy yodgorliklari ta'miri davlatimiz boshlig'ining Navoiy viloyati xalq noiblari navbatdan tashqari sessiyasida so'zlagan nutqi (1998 y.) va «Navoiy viloyati Navoiy shahri tarkibida Karmana tumanini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni (1999 y.) bilan uzviy bog'liq. Shundan keyin arxitektura yodgorliklarini qayta tiklash bo'yicha talay ishlar qilindi (Qosim Shayx, Mirsaid Bahrom maqbaralari, Raboti Malik karvonsaroyi, Malik sardobasi, Nurotadagi Chashma majmui va hokazo).

- O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yangi ijtimoiy-iqtisodiy shartlari, uning madaniyatiga xalqaro qiziqishning ortib borishi quyidagilarni taqozo etadi:

Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash, qayta tiklash va ulardan foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan konsepsiyalarni ishlab chiqish; buning uchun O'rta Osiyoda yagona ta'mirlash UzNIPI ilmiy tadqiqot institutining davlat tomonidan qo'llab-qavvatlanishi zarur (hozirda «Ta'mirshunoslik» 000);

- mutaxassis ta'mirchilar tayyorlash va o'rta ta'limidan boshlab ta'mir bo'yicha fanlarni o'qitish muammosi;

- arxitekturaviy-shaharsozlik merosga va mahalla ijtimoiy tuzilmasi bilan birga shaharning barcha qadriyatlariga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish; buning uchun shahar bosh rejasini tuzish va qayta ishlash chog'ida maxsus bob ochish zarur;

- arxitektura yodgorliklari va tarixiy majmualar hududlarini ko'kalamzorlashtirish, suv chiqarish hamda obodonlashtirish amaliyotiga asosli yondoshish;

- arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va ulardan foydalanish muammosiga arxitektorlar jamoatchiligining doimiy e'tibori – O'zbekiston arxitektorlar uyushmasi hamda chet ellik tashkilotlarini jalb etib xalqaro anjumanlar o'tkazish amalda bo'lgani kabi (Samarqand, 2005-y; Qo'qon, 2006-y).

- Mustaqillik yillarida qurilgan arxitekturaviy majmualar hajm-reja echimlari tahlili mualliflarning bir xilda yondashuvlarini yorqin aks ettiradi – an’anaviy shakllarni qayta tiklash va rivojlantirish (arkli yo‘llar, gumbazsimon kenglik, qubbalar va hokazo), bog‘ san’ati arxitekturaviy-shaharsozlik koloritikasi hamda arxitektura va san’atning o‘zaro hamkorligi tarixiy an’analarini rivojlantirish (eshik-derazasiz devorlar sirtiga guldor qoplamalar qoplash va plastik ishlov berish, ganch va yog‘och o‘ymakorligi va hokazo).

- Nodir jamoat binolari arxitekturasida milliy arxitektura usullaridagi mumtoz uslub qo‘llangan (Oliy Majlis, Oq uy, Toshkent shahar Hokimiyati binosi, Respublika birja markazi).

- Qator nodir jamoat binolari intererlarining arxitekturaviy-badiiy echimi monumental bezak san’ati asarlarining yaxlitligi va uyg‘un yagonaligi bilan ajralib turadi (O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi, Temuriylar muzeyi va h.k.).

- Shu davrda qad ko‘targan yangi mehmonxonalar: «Redisson», «Markaziy», «Interkontinental», «Samarqanddagi «Prezident Otell» va «Afrosiyob», Urganchdagi «XORESM PALAS» (sobiq «Inturist») va hokazolar o‘z badiiy arxitekturaviy qiyofasi bilan shahar jamolini ochibgina qolmay, chet ellik ishbilarmonlar, mehmonlar va sayyohlar hayotiy faoliyatini jiddiy yaxshiladiki, bu O‘zbekistonning iqtisodiy mustaqilligi bilan uzviy bog‘liqdir.

- Akademik liseylar va kasb-hunar kollejlari kabi O‘zbekiston Respublikasi yangi umumta’lim maktablarini loyihalashtirish va qurilishi tahlili shuni ko‘rsatadiki, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirish bo‘yicha ta’lim izchil takomillashtirilmoqda, bu davlatimiz rahbariyati faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

- Uy-joy qurilishida sifat o‘zgarishlari sodir bo‘ldi: temir-beton panellaridan tipik turar-joy qurilishiga barham berildi, g‘ishtdan yuqori qulayliklarga ega turar-joy uylari qurilishi quloch yoydi, arxitekturaviy-badiiy echim va estetik sifatlar yaxshilandi (Toshkentdagi Amir Temur, Alisher Navoiy, Qunayev, Movarounnahr, Afrosiyob, Nukusdagi Do‘stlik, Qarshidagi O‘zbekiston ko‘chalari va hokazo).

- Qadimgi shaharlarning «eski shahar» hududlaridagi turar-joy muhiti yangilanmoqda, yangi markazlari bunyod etilmoqda.

- Yakka tartibdagi «elita» turar-joy uylari qurilishi keng quloch yoydi, ular yashash va yordamchi xonalar, obod hovlilar hisobiga kengaytirildi. Biroq shu erda qator muammolarni hal etish talab qilinadi: elektr quvvatidan, gazdan va suvdan haddan tashqari ko‘p foydalaniladi, bundan qo‘shni turar-joy uylari, mahallalariga zarar etmoqda.

- Mamlakat transport tarmog‘ini rivojlantirishga alohida e’tibor qilindi. Zamonaviy avtoshohrohlr qurildi, yirik ostun-ustun o‘tadigan chorrahalar barpo etildi, ko‘priklar va tunellar, kichik halqa yo‘li, temir yo‘l vokzallari, Toshkent metrosining Yunusobod yo‘li va boshqa muhandislik inshootlari qurildi.

- Mustaqil O‘zbekistonning rivojlanishidagi yangi bosqichni (1992 yildan boshlab), bu rivojlanishni ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini keng

tatbiq etish asosida jadallashtirishni qaysidir darajada barcha zamonlar va xalqlar uchun mumtoz triada bo'lib qolgan Vitruviy asarlarining bosh tezisi bilan qiyoslash mumkin: «foйда, mustahkamlik hamda – go'zallik», uning negizida fan yotadi. Boshqacha aytganda, arxitektura «uch kit»ga suyanadi: faoliyatga, shaklga va go'zallikka. Shundan kelib chiqqan holda, arxitekturaning kelajakdagi rivojlanishi arxitektorlardan barcha ijodiy kuch va intilishlarini birlashtirishni, arxitektura hamda qurilish sifatini ko'tarishni, shahar va qishloqlarimizning milliy o'ziga xosligiga erishishni talab qiladi.

Yakuniy xulosa

Jahon tamaddudinigina emas, hatto o'zbek xalqi arxitektura merosini bilmay turib, O'zbekistonning chinakam xalq arxitekturasini yaratib bo'lmaydi. Bunga jonli misol – so'nggi asrda O'zbekiston arxitekturasini qayta tiklash tajribasi va taqdiri, unda mustamlakachilik zanjirlaridan xalos bo'lish oqibatlarini, ko'p asrli negizlar, hayot tarzining yemirilishini, arxitekturada xalq tashabbusining cheklanganligini, ommaviy egasizlik, maqtovg'a sazovor o'ziga xos zamonaviy arxitekturaning ayrim nishonalari yuzaga kelishi bilan zamonaviy, baynalmilal arxitekturaning novdalari unib chiqishini kuzatish mumkin.

1. Darslik aynan respublika arxitektura merosining bevosita zamonaviylikka daxil bo'lgan tarixning murakkab davriga bag'ishlangan; respublikada arxitektura va shaharsozlik bo'yicha rostmana katta daliliy ashyo umumlashtirildi; tarixiy ilg'or tajribadan zamonaviylikka o'tish «ko'prigi» solindi; arxitektura kadrlari safining o'sgani, arxitektura fanining rivojlangani namoyon etildi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi qisqa tarixiy vaqt ichida arxitektura negizlarini tubdan o'zgartirdi, tarixiy merosga e'tibor orttirdi, milliy mafkura asoslarini ishlab chiqdi, xalq farovonligi va hayot sharoitlarini keskin yaxshilash uchun ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli o'tkazmoqda. Bu keng miqyosli o'zgarishlar yangi ma'naviy yuksakliklarga, yangi imkoniyatlarga va yangi ijtimoiy buyurtmaga tayanuvchi arxitekturaning rivojlanishiga kuchli turtki berdi. Arxitektorchilikka nisbatan munosabat tubdan o'zgardi. Arxitektorchilik davlat yakka hokimligining shafqatsiz kishanlaridan ozod bo'ldi. Yakka tartibdagi qurilishda arxitektura ijodi erkinlikka erishdi. Qurilishning yangi ijtimoiy negizi va zamonaviy qurilish ashyolari arxitektorlarning o'z faoliyatlari doirasiga munosabatlarini tubdan o'zgartirib yubordi. Ularning o'sib borayotgan mahorati arxitekturaning zamonaviy madaniyatdagi rolini aniq belgilab olishga va avvalgi mafkura sarqitlaridan xalos bo'lgan insonning yashash va faoliyati muhiti sifatida demokratik jamiyatning o'zgaruvchan talablariga ishonchli javob topishga yordam berdi. O'zlarining bosh vazifalarini arxitektorlar zamonaviy inshoot me'moriy qiyofasini yaratishning yangi vositalarini qidirib topishda ko'radilar. Buning

uchun ular zamonaviy qurilish ashyolari keng zaxirasi bilan birgalikda o'zida mavjud barcha vositalardan foydalanadi. O'tmishdagi o'zbek arxitektorlari va quruvchilarining boy tajribasi yana qurilish joyining iqlim-tabiyy sharoitlarini har tomonlama hisobga olishga yordam beradi.

2. O'zbekistonning buyuk kelajagi arxitekturasiga aynan bugun poydevor qo'yilmoqda, kelajak arxitekturasi asoslari hozirgi avlodning ijodiy-bunyodkorlik mehnati bilan yuzaga keltirilmoqda. Xuddi shu boisdan ham O'zbekiston arxitekturasini rivojlantirishning tarixan yangi davri ijodiy yo'nalishini to'g'ri belgilab olish g'oyat muhim, zero «maqsadga etishning to'g'ri va oqilona yo'li va usulini tanlash maqsadni tanlashning o'zidan ming marta qiyin» Ushbu darslikning asosiy maqsadi – O'zbekistonning hozirgi zamon arxitekturasida sodir bo'layotgan jarayonlar va uni rivojlantirishning ilg'or yo'nalishlari mohiyatini aniqlash – ko'rib chiqilayotgan quyidagi sohalarida izchil ochib berilgan:

- O'zbekistonning shaharsozlik madaniyati;
- zamonaviy arxitekturaning ba'zi mualliflar yutug'i;
- ommaviy turar-joy qurilishi;
- nodir jamoat binolari qurilishi;
- Arxitektura yodgorliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish;
- O'zbekistonning hozirgi zamon arxitekturasida milliy an'analar;
- O'zbekiston arxitekturasini rivojlantirishda ilg'or yo'nalishlarni aniqlash;
- yashash muhitining arxitekturaviy-badiiy sifatleri.

Tadqiqotlar natijalari ham nazariy, ham amaliy ma'noda o'z aksini topgan: tahlil va umumlashtirish asosida zamonaviy shaharsozlik hamda arxitekturaning alohida muammolarini ishlab chiqish metodikasi aniqlangan; shuningdek, loyihalashtirish va keyinchalik qurilish amaliyotida nazariy ishlovlar va tavsiyalar aprotasiya qilingan.

3. O'zbekiston zamonaviy arxitekturasi tarixi va rivojlanishining yaxlit sur'ati muayyan ijodiy yo'nalishlar va tushunchalarni aniqlash asosida ko'rib chiqildi. Arxitektorlik taraqqiyotining asosiy qonuniyatlarini umumlashtirish barobarida uning alohida jihatlari ham o'z aksini topdi: shaharsozlik, badiiy ramziy jihatlar, shuningdek respublika arxitektura tarixi, nazariyasi va muayyan amaliyotining kam o'rganilgan muammolari, zamonaviy o'zbek arxitekturasining rivojlanishidagi, ayniqsa mustaqillik yillaridagi har bir bosqich tajribasini o'zlashtirish.

(I. Karimov. Ulug' maqsad sari og'ishmay olg'a boraylik.- T., 1993, 6 b.).

Yashashning zamonaviy muhitini tashkil etishda tarixiy an'analardan mohirona foydalanish zamonaviy o'zbek arxitekturasining xususiyati hisoblanadi, bu hozirgi zamon arxitekturasida yangi shakl hosil qilish ishida sifat jihatidan yangi ijodiy yechimlar topish qonuniyatlarini aniqlashga o'z-o'zidan imkon tug'diradi.

4. Darslikning metodologik asosi bo'lib xizmat qilgan umumiy tahlil fanning tarixiy rivojlanishida, umuman bezak-amaliy va monumental san'at

muammolari bilan bevosita bog'likda har tomonlama fikrlashning ta'sirchan vositasi bo'lib qoldi; xususan, jamoat binolari va inshootlari arxitekturasini hal etish chog'ida qo'llanilayotgan samarali shakllarning ko'proq xilmaxilligini, shuningdek ular badiiy-estetik talqinining yanada kengroq rangbarangligini aniqlashga imkon berdi. Respublika shaharlarini katta qurish amaliyoti va rejalashtirishning asosiy uslub hamda yo'sinlari umumlashtirildi. So'nggi yillarda olg'a surilgan yangi shaharsozlik vazifalarini ijodiy hal etish zaruriyati asoslab berildi. Zamonaviy shahar muhitining uyg'unlashuvi zaruriyatiga muvofiq erustini shakllantirish muammosi alohida keskinlik kasb etadi. Shuningdek, O'zbekiston tarixiy shaharlari uchun ilmiy asoslangan shaharsozlik dasturi butun tarixiy arxitekturaviy merosning shahar vujud tuzilmasiga faol qo'shilib ketishi va ochilishi talab etiladi.

5. O'zbek arxitekturasi taraqqiyotining bundan keyingi yo'nalishi — iqtisodiyot, texnika va san'at, arxitekturaviy asar mazmuni hamda shaklining yagonaligida, zamonaviy va xalq an'anaviy arxitekturasi birligidadir.

Kelajak mintaqamizning mahalliy tabiiy-iqlimiy, demografik xususiyatlarini, keng ma'nodagi arxitekturaviy shakl hosil qilish an'analarini hisobga oluvchi zamonaviy, yangi arxitektura qo'lida. Biz mintaqaviy shaharsozlik yaratish yo'lida turibmiz, u O'zbekiston tarixiy shaharsozlik madaniyatining o'z umuminsoniy qadriyatlari tufayli shaharlarimiz qiyofasi va mazmunini boyitishga qodir unsurlarini o'ziga singdirib oladi.

Chinakam arxitektura bunyod etish yaratish uchun siyosiy donolik va uzoqni ko'rabilishlik kerak. Mustaqil O'zbekiston so'nggi qisqa muddat ichidayoq arxitektura va shaharsozlik rivojida katta sakrash qildi. Zamonaviylikning barcha muhim arxitekturaviy tashabbuslarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ijodiy xohish-irodasi ko'rinib turadi, u «maqsadimiz — buyuk kelajak qurish!» — deya hayotbaxsh shiorni ko'tarib chiqdi.

6. O'zbekiston arxitekturasi taraqqiyoti uchun arxitekturaning sof xalqona negizlarini qayta tiklash mutlaqo ijobiy hol ekanini quvonch bilan ta'kidlash lozim, u oqava suv, ajoyib bog'-rog'lar va sog'lomlashtirish bo'lishi, shuningdek suv va bog' muhitining uzviy birlashuvi zaminida yangi zamon landshaft arxitekturasi vujudga kelishi bilan bog'liq. Arxitekturachilik chinakam xalqona o'ziga xoslik, xalqona xususiyat, xalqona nafasatga ega bo'la boshladi.

Kelajagi buyuk davlat arxitekturasi poydevori bugungi kundan quyila boshlagani, respublika esa katta iqtisodiy, ilmiy-texnik va ijodiy kuchga ega bo'lgani bois arxitektur mutaxassislar mas'uliyati cheksiz ortib bormoqda.

O'zbekistonning hozirgi zamon arxitekturasi shiddatli rivojlanish, yuqori sifat darajasidagi badiiy-uslubiy tiklanish bo'sag'asida turibdi.

O'zbekiston arxitekturasi uchinchi mingyillik boshida chinakam gullab-yashnash uchun go'zal, mahobatli hamda mustahkam bino va inshootlar zamonaviylikning barcha ortib borayotgan talablariga javob beruvchi chinakam xalq arxitekturasini yaratish uchun barcha zaruriy zaminga ega bo'ldi deb dangal ayta olamiz.

ARXIV MATERIALLARI

- SGA RUz., F. R – 2532, op.1, ed.xr.6
SGA RUz., F. R – 2286, op.1, ed.xr.111
SGA RUz., F. R – 2286, op.1, ed.xr.6
SGA RUz., F. R – 2286, op.1, ed.xr.10
SGA RUz., F. R – 2286, op.1, ed.xr.13
SGA RUz., F. R – 2286, op.1, ed.xr.14
SGA RUz., F. R – 2406, op.1, ed.xr.260
SGA RUz., F. R – 2286, op.1, ed.xr.21
SGA RUz., F. R – 2286, op.1, ed.xr.38
SGA RUz., F. R – 2242, op.1, ed.xr.32 i 29
SGA RUz., F. R – 17, op.1, ed.xr.18738

QISQARTIRILGAN SO‘ZLAR RO‘YXATI

- MDU – Moskva davlat universiteti.
O‘zLITTI – O‘zbekiston Loyihalash ilmiy-tadqiqot tajriba instituti.
O‘zshaharsozlikLITI – O‘zbekiston shaharlarini loyihalash ilmiy-tadqiqot instituti.
Toshgiprogor – Toshkent shahri loyihalash instituti.
TAQI – Toshkent arxitektura va qurilish instituti.
SamDAQI – Samarqand Davlat arxitektura-qurilish instituti.
PDP – batafsil loyihalash rejasi.
GlavNPU – O‘zR. Madaniyat va sport vazirligi madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish Bosh boshqarmasi.
XSKM – Xalqaro savdo-ko‘rgazma majmui.
XXYuK – Xalq Xo‘jaligi Yutuqlari ko‘rgazmasi.
MXBM – Moliya xizmatlari banklararo markazi.
AiSO‘z. – O‘zbekiston arxitektura va qurilish jurnali.
M-1, M-2 va h.k – Markaz-1, Markaz-2 va hokazo MUM – Markaziy Universal Magazin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Islom Karimov*. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. –Т.: «Sharq», 1998.
2. *Islom Karimov*. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. –Т.: «O'zbekiston», 2000.
3. *Islom Karimov*. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish-barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohiyatimizning pirovard maqsadidir. –Т.: «O'zbekiston», 2007.
4. *Азимов И.* Архитектурные памятники Ферганской долины. –Т.: 1982.
5. *Азимов И.М.* Архитектура Узбекистана ХУШ - нач. ХХ вв. (традиции и локальные особенности). Автореф. дисс. на соиск. уч.степени докт.архит. – М.: 2000.
6. *Аскарлов Ш.Д.* Регион - пространство - М.: 1988.
7. *Аскарлов Ш.Д.* Становление социалистической архитектуры в Средней Азии 20-х - нач. 30-х годов. Автореф.дисс. на соискание уч.степени канд.архит. –Т.: 1975.
8. *Ахмедов М.К.* Ансамблевая застройка: традиции и преемственность / / Альманах: Архитектура Узбекистана. –Т.: 1985.
9. *Булатов М.С.* Геометрическая гармонизация в архитектуре Средней Азии IX-XV вв. - М., 1979.
10. *Валиев Р., Кадырова Т., Умаров А.* Архитектор и время. Ташкент, 1982.
11. *Гулямов С.С., Убайдуллаева Р.А., Ахмедов Э.А.* Независимый Узбекистан. –Т.: – «Мехнат» - 2000.
12. *Дмитриев В.М.* Вопросы использования архитектуры узбекского народного жилища в современной практике. –Т.: 1980.
13. *Захидов П.Ш.* Основы канона гармонии в архитектуре. –Т.: 1982.
14. *Захидов П.Ш.* Архитектурные памятники Зарафшанской долины. – Т.: 1985.
15. *Зияев А.А.* Этапы формирования и перспективного развития центра г. Ташкента. Автореф. дисс. на соискание уч.степени канд.арх. 1984.
16. *Зияев А.А.* Ташкент. Древность и средневековье. Часть I, –Т.: 2009
17. *Зияев А.А.* ТашкентXVII-начало ХХ в. Часть II, –Т.: 2009
18. *Зияев А.А.* ТашкентXX-начало ХХI вв. Часть III, –Т.: 2009
19. *Кадырова Т.Ф.* Современная архитектура Узбекистана. –Т.: Изд-во литературы и искусства; 1974.
20. *Кадырова Т.Ф.* Новое строительство в Ташкенте.– М.: Стройиздат, 1976; 87 с. (в составе авторского коллектива).

21. *Кадырова Т.Ф.* Архитектура центра Ташкента. –Т.: Изд-во литературы и искусства; 1976, 28 с., с фотографиями.
22. *Кадырова Т.Ф.* Tashkent (книга-альбом на англ. и русск. яз.) – Ленинград: Изд-во «Аврора», 1977; (соавтор с М. Булатов).
23. *Кадырова Т.Ф.* Жизнь, чтобы созидать (о творческой деятельности арх. М. Булатова) –Т.: Изд-во литературы и искусства, 1978, 64 с. с иллюстрациями (соавтор Стриньковский В.)
24. *Кадырова Т.Ф.* Архитектура Советского Узбекистана. – М.: Стройиздат, 1987; 319 с., 344 иллюстр.
25. *Кадырова Т.Ф.* O‘zbekistonning zamonamiy arxitekturasi. O‘quv qo‘llanma –Т.: Davlat Texnika Universiteti, 1995.
26. *Кадырова Т.Ф.* Обновление исторической среды на примере Ташкента. Сб. «Turkish architecture and settlements», Istanbul, 1997.
27. *Кодирова Т.Ф.* Навоий-Навои-Navoi (монография об архитектуре и градостроительстве города Навои на узб., русск. и англ.яз). –Т.: Адабиёт ва санъат нашр., 2000 й.
28. *Кадырова Т.Ф.* Пути архитектурного возрождения Узбекистана за ХХ-начала ХХI вв. (традиции и современность)–Т.: 2007.
29. *Qodirova T.F.* O‘zbekistonning istiqloq yillari me‘morligi. O‘quv qo‘llanma. –Т.: 2010.
30. *Nozilov D.A.* Markaziy Osiyo arxitekturasida interer. –Т.: 2005.
31. *Нильсен В.А.* У истоков современного градостроительства Узбекистана (XIX - начало XX вв.). Ташкент. 1988.
32. *Пугаченкова Г.А.* Средняя Азия. Справочник-путеводитель. - М., 1983.
33. *Пулатов Х.Ш.* Архитектура - планировочная структура старого Ташкента. Конец XIX-начало XX века. Автореф.дисс. на соискание уч.степени канд.арх. - Ташкент, 1994.
34. Республика Узбекистан: Энциклопедический справочник. // Авт.-сост.: *Н. Тухлиев, А. Кременцова*/ - Т.: Гос.науч.изд-во «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2001.
35. *O‘rolov A., Yusupov R.* O‘rta Osiyoning o‘tmishdagi ta’lim-tarbiya va ilm-fan m askanlari. – Samarqand, 2005.
36. *O‘rolov A.S., Saidov I.M.* O‘rta Osiyo arxitekturaviy yodgorliklari-Vatanimiz tarixini o‘rganishning moddiy manbalari. – Samarqand, 2009.
37. O‘zbekiston Respublikasi shaharsozlik kodeksi. –Т.: 2006.
38. *Qodirova T.* O‘zbekistonning istiqloq yillar me‘morchiligi. –Т.: 2004.

MUNDARIJA

Kirish.....3

I bob. Ikki davr yoqasida: emirlik va vujudga kelish (1900–1941-yy.)

1.1. Mustamlaka o'lkasi arxitekturasi	8
1.2. Qadimgi shahar tarkibida ikki tuzilmaning vujudga kelishi.....	9
1.3. Yangi binolar tipologiyasi.....	12
1.4. Arxitekturachilikda davlat yakkahokimligi.....	14
1.5. Yangi arxitektura yo'nalishidagi izlanishlar.....	25
Asosiy xulosalar.....	33

II bob. Ijodiy izlanishlar: yuksalishlar va tanazzullar (1941–1990-yy.)

2.1. Ikkinchi jahon urushi davri arxitekturasi.....	36
2.2. Qadimgi shaharlarni qayta tiklash (rekonstruksiya) qilish.....	38
2.3. Yangi shaharlar arxitekturasi.....	52
2.4. Arxitektura bejamdorlik va bir xillik.....	58
2.5. Toshkent zilzilasidan keyingi turar-joy arxitekturasi.....	62
2.6. Jamoat binolari	69
2.7. Muhandislik inshootlari arxitekturasi (metro, teleminoralar, geliomajnuva).....	88
Asosiy xulosalar.....	93

III bob. Arxitektura istiqboli: O'zbekiston zamonaviy arxitekturasi tashqi taraqqiyoti (1991–2012-yy.)

3.1. Zamonaviy shaharlarni qayta tiklash.....	97
3.2. Madaniy merosga g'amxo'rlik. Arxitektoriy yodgorliklari ta'miri....	120
3.3. Jamoat binolari (nodir binolar, ommaviy binolar).....	150
3.4. Turar-joy arxitekturasi.....	205

IV bob. Muxandislik inshootlari arxitekturasi (sanoat korxonalarini, aeroportlar, temir yo'l vokzallari, metro, transport tarmoqlari)

Asosiy xulosalar.....	229
Yakuniy xulosa	233
Arxiv materiallari.....	236
Qisqartirilgan so'zlar ro'yxati.....	236
Foydalanilgan adabiyotlar.....	237

TO‘LQINOY FOZILJONOVNA QODIROVA

**SAN‘AT, ARXITEKTURA VA
SHAHARSOZLIK TARIXI**

*(O‘zbekistonning XX asr – XXI asr boshi
zamonaviy arxitekturasi)*

Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik

Muharrir Amir Fayzulla

Badiiy muharrir Yasharbek Rahimov

Texnik muharrir Yelena Tolochko

Kompyuterda sahifalovchi Feruza Razzoqova

Litsenziya raqami AI № 163. Bosishga ruxsat etildi 09.08.2012. Bichimi 60×84¹/₁₆. Tayms TAD garniturasi. Shartli b.t. 13,95. Nashr b.t. 15,5. Shartnoma № 37–2012. 500 nusxada. Buyurtma № T-31-3.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

«TAFAKKUR-BO‘STONI» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Toshkent shahar, Chilonzor ko‘chasi, 1-uy.



*Cho'lon nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi*

ISBN 978-9943-05-508-7



9 789943 055087